



UDK: 070

Dilnoza AMINOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: nozikdil@mail.ru

Q.D.U professori, f.f.d Z.Orazimbetova taqrizi asosida

INTERNET JURNALISTIKA JANRLARI: NAZARIY-METODOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada internet jurnalistika janrlari tasnifi, xorijiy olimlarning jurnalistika janrlarini tasniflash mezonlari, janr tadqiqotlarining nazariy va metodologik asoslari, tahliliy va ritorik mezonlar o'rganilgan. Shuningdek, bir qator rus nazariyotchilari va amaliyotchi jurnalistlar tomonidan jurnalistik matnlarning janr tizimlari bosma OAV nisbatida o'rganilgan. Bundan tashqari an'anaviy va tarmoq nashrlarida janr sintezlashuvi jarayoni ommalashayotgani, internetning kommunikativ funksiyalariga bog'liq ravishda ishlab chiqilgan virtual janrlarning tasnifi kabi masalalar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Internet jurnalistika janrlari, mul'timediyalik, gipermatnlilik, interfaollik, virtual janr, veb-sahifa, onlayn reportaj, interv'yu, chat, elektron pochta xabarlari, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar.

ЖАНРЫ ИНТЕРНЕТ-ЖУРНАЛИСТИКИ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье рассматривается классификация жанров интернет-журналистики, критерии классификации публицистических жанров учеными, теоретико-методологические основы жанровых исследований, аналитические и риторические критерии. А ряд российских теоретиков и журналистов-практиков изучали жанровые основы публицистических текстов применительно к печатным СМИ. Кроме того, анализируются такие вопросы, как популяризация процесса жанрового синтеза в традиционных и сетевых изданиях, разработанная классификация виртуальных жанров в зависимости от коммуникативных функций Интернета.

Ключевые слова: Жанры интернет-журналистики, мультимедийность, гипертекстуальность, интерактивность, виртуальный жанр, веб-страница, онлайн-репортаж, интервью, чат, электронные сообщения, форумы, социальные сети.

GENRES OF INTERNET JOURNALISM: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS

Annotation

The article examines the classification of Internet journalism genres, the criteria for the classification of journalistic genres by foreign scientists, the theoretical and methodological foundations of genre research, analytical and rhetorical criteria. Also, a number of Russian theoreticians and practicing journalists have studied the genre systems of journalistic texts mainly in relation to print media. In addition, issues such as the popularization of the process of genre synthesis in traditional and network publications, the classification of virtual genres developed depending on the communicative functions of the Internet are analyzed.

Key words: Genres of Internet journalism, multimedia, hypertext, interactivity, virtual genre, web-page, online reporting, interview, chat, e-mail messages, forums, social networks.

Kirish. Internet jurnalistika taraqqiyoti global mediamakon janriy qiyofasini o'zgarishiga olib keldi. Hozirda an'anaviy jurnalistika janrlari bilan birga, internet jurnalistikaning janrlari ham global tarmoq kengliklarini egalladi. OAVning eng tezkor turlaridan biri bo'lgan internet orqali axborotni tezkor qabul qilish va o'zaro almashish natijasida internet OAV ham ancha faollashdi. Endilikda global mediamakon zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida axborot taqdim qilish tezligi bilan birga, foydalanuvchilarga tushunarli va sodda uslubdagi tezkor tayyorlanadigan yangi format va janrli materiallarga ehtiyoj sezila boshladi. Dastlab an'anaviy OAVdan o'tgan jurnalistlar an'anaviy janrlar (interv'yu, hisobot, reportaj, korrespondensiya)dan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishgan. Keyinchalik internetdagi material va ma'lumotlarni taqdim qilish tili va uslubidagi o'zgarishlar kuzatilishi natijasida internet jurnalistika janrlari shakllandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ispaniyaning Pampeu Fabra universiteti professori Javier Diaz Nosi hamda Braziliya federativ universiteti professori Markos Palasiz onlayn jurnalistika janrlarining ilmiy-nazariy asoslarini yaratgan yetakchi mutaxassislar sifatida tanilgan. Ularning "Onlayn jurnalistika: Tadqiqot metodlari. Fanlararo

yondashuvning qiyosiy istiqboli" [13] kitobining ikkinchi bobi "Onlayn jurnalistikada janrlar: tipologik ta'minot" deb nomlanadi. Mazkur bob jurnalistik janrlarni tasniflash mezonlari, janr tadqiqotlarining nazariy va metodologik asoslari, tahliliy va ritorik mezonlar, gipermatnlilik, mul'timediyalik, interfaollik va ishtirok, vaqt va infografikani o'z ichiga oladi.

Jurnalistika janrlarini tasniflash mezonlari bo'yicha mualliflar quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: "Bugungi kunda jurnalistik tadqiqotlar sohasi hanuzgacha jurnalistik faoliyatning soxta paradigmasi bo'lgan yangiliklar va fikrlar o'rtasidagi chegarani aniqlashga intilib kelmoqda. Ularning dastlabki namunalari ingliz tilida bo'lib, tarix va sharh, haqiqat va sharh o'rtasidagi farqlarga asoslangan. Masalan, Xose Marques de Melo maqsadlar o'rtasidagi tafovutni kuchaytiradigan mezonlar sirasiga "haqiqatni takrorlash" (ma'lumot beruvchi), "haqiqiy izlash" (sharhlar)ni kiritgan.

2003 yilga kelib ispaniyalik olimlar Javier Diaz Nosi va Ramon Salaverrialar onlayn jurnalistika janrlarini ishlab chiqadilar. Ular:

yangiliklar janri – yangiliklarni taqdim etuvchi;

sharhlash janrlari – reportaj (mavjud voqea reportajlari, maxsus reportajlar, hujjatli dos'e) va yilnoma;

muloqot janrlari – interv'yu, forum yoki debat, shuningdek, chat onlayn interv'yu, shaxslar bilan o'zaro munosabatlar, foydalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir;

fikr janrlari – an'anaviy turiga tahririyat, sharh, tanqid, muharrirga xatlar, maqola kolonka bo'lsa (kolumnistika), tarmoqdagi debatlar forum va chatlar;

infografika – shaxsiy va jamoaviy infografika kiradi [14].

Slovakiyaning Kirill va Metodiy universiteti (University of Ss. Cyril and Methodius), ommaviy kommunikatsiyalar fakulteti jurnalistika bo'yicha falsafa doktorlari (PhD) Yana Radosinskaya va Yan Vishnevskilarning 2017 yilning 31 mayida "Media kommunikatsiya evolyusiyasi" (The Evolution of Media Communication) onlayn kitobida nashr qilingan "Onlayn jurnalistika: hozirgi tendensiyalar va muammolar" sarlavhali maqolasi onlayn jurnalistika sohasi va uning taraqqiyoti, mobil jurnalistikaning yangi tendensiyalari, ijtimoiy tarmoqlar yangiliklar manbai sifatida, jurnalistikadagi innovatsiyalar kabi masalalarni tadqiq etishga bag'ishlangan [4]. Mualliflar qayd etishicha, onlayn jurnalistika bir vaqtning o'zida maqsadli auditoriyaning katta guruhlarga ta'sir qilish uchun e'lon qilinadigan matnlar, fotosuratlar, videolar, havolalar va foydalanuvchilarning izohlarini o'z ichiga olgan turli xil multimedia va interfaol elementlardan foydalanadi [2].

Filologiya fanlari nomzodi, dosent A.V.Kolesnichenko "Internet OAVda jurnalistik matnlardagi janrlarga ehtiyoj" sarlavhali maqolasida bir qator rus olimlari A.Tertichniy, A.Kolesnichenko, M.Shostak, G.Lazutina, L.Kroychik, shuningdek, amaliyotchi jurnalistlardan L.Bershidskiy, M.Grigoryan, V.Tret'yakov [16]lar jurnalistik matnlarning janr tizimlarini asosan bosma OAV nisbatida tahlil etganliklari ma'lum bo'ldi. Tarmoq jurnalistika yo'nalishidagi M.Lukina, Ye.Baranova, M.Ulanova, L.Shersterkina, A.Kalmikov, L.Koxanova [11] kabi bir qator nazariyotchilar esa bosma nashrlarning monomedia janrlariga qo'shimcha ravishda axborot taqdim qilishning yangi texnologik imkoniyatlari: mul'timediaviylik, giprematnlilik va interfaollikdan foydalanadilar [7], deb qayd aytadi. Shuningdek, ushbu maqolada muallif bosma matbuotda keng tarqalgan janrlar bilan birga, Internet OAVga xos bo'lgan yangi janrlarni umumlashtirib, quyidagi 10 talikni keltiradi:

1. Qisqa yangilik – "to'ng'irilgan piramida" tamoyiliga asosan yozilgan, bitta manbaga tayanib, taxminan bir mingta belgini o'z ichiga olgan xabar;

2. Kengaytirilgan yangilik – "to'ng'irilgan piramida" tamoyiliga asosan yozilgan, turli xil manbalarga murojaat qilingan, bir mingtadan ortiq belgini o'z ichiga olgan xabar;

3. Reportaj – voqeani jarayon sifatida ko'rsatish va o'quvchiga sodir bo'lgan voqeani ko'rish hamda sodir etilgan voqeani his etish imkoniyatini berish maqsadida ("ishtirok etish effekti") voqea guvohi yoki voqea qatnashchisi hikoyasi sifatida qurilgan matn;

4. Interv'yu – jurnalistning savollari va suhbatdoshning javoblari shaklida tuzilgan matn;

5. Kolonka – muallif o'z fikrini bildiradi;

6. Tahliliy maqola – muammo yoki hodisani mutaxassislarining dalillari va tushuntirishlari asosida tushuntirish;

7. Portret – inson, uning tarjimai holi yoki turmush tarzi haqida hikoya;

8. Ocherk – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni shaxsiy hikoya orqali tushunish;

9. Taqriz – badiiy asarni baholash;

10. Surishtiruv – jurnalistning huquqbuzarlarni qonun yoki ahloqiy me'yorlar bilan fosh qilish [8].

Tadqiqotchi A.A.Tertichniy esa so'rovnoma, bashorat, versiya, iqror, o'yin, afsona, epigraf va epitafiyani o'z ichiga olgan 42 ta janrni tasvirlaydi [9]. Bular asosan jurnalistika janrlari bo'lib, unda OAV turlari alohida ajratib ko'rsatilmagan.

Filologiya fanlari doktori Ye.G.Malisheva o'z tadqiqotlarida konvergent jarayonlar ta'sirida zamonaviy OAVning janr tizimi jiddiy transformatsiya o'zgarishlarini boshidan o'tkazgani, natijada jurnalistikada janr chegaralari o'zgarib, material taqdim etishning yangi uslublari shakllayotgani, ba'zi janrlar, masalan fel'eton umuman yo'q bo'lib ketganini [12], qayd etadi.

Boshqa rus olimlari, filologiya fanlari nomzodi Ye.M.Pak esa ijodiy va texnologik omillar ta'sirida an'anaviy nashrlarning veb ko'rinishida janr o'zgarayotgani, internet nashrlarida yangi janrlar shakllanib, an'anaviy va tarmoq nashrlarida janr sintezlashuvi jarayoni ommalashayotganini, bu esa o'z navbatida yangi media madaniyati yangiliklarni tarqatish usullari va shakllariga, shuningdek, auditoriya tomonidan ma'lumotni qabul qilishga sezilarli darajada ham katta ta'sir ko'rsatishini [15], ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Internet janrlari xususidagi fikrlar, shuningdek, Ye.I.Goroshko, Ye.A.Jigalina, Ye.A.Zemlyakova, L.Yu.Shipisina singari tadqiqotchilarning ishlarida ham uchraydi. Ularning ichida L.Yu.Shipisining yondashuvlari diqqatga sazovor. Tadqiqotchi tomonidan Internetning kommunikativ funksiyalariga bog'liq ravishda ishlab chiqilgan virtual janrlarning tasnifi quyidagilardan iborat:

axborotni taqdim etish yoki olish uchun ishlatiladigan ma'lumotli janrlar – institutsional veb-sahifalar, axborot agentliklarining veb-sahifalari va internet OAV, qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopediyalar, kataloglar, pochta ro'yxatlari, raqamli kutubxonalar va arxivlar;

adresatni biron bir harakatni amalga oshirishga undash uchun yaratilgan direktiv janrlar – veb reklama, tijorat va xususiy reklama, onlayn do'konlar va kimoshdi savdolari;

muloqotga bo'lgan ehtiyoj hamda odob-ahloq qoidalariga mos keladigan kommunikativ janrlar – chat, elektron pochta xabarlari, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar;

o'z-o'zini ifoda etish va foydalanuvchining o'zi yaratgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun foydalaniladigan taqdimot janrlari – shaxsiy veb-sahifalar, veb-bloglar;

estetik janrlar – ularning asosiy maqsadi xayoliy voqelik (tarmoq romani, fanfikshn) yaratish orqali badiiy va ijodiy salohiyatni hamda sheriklarga estetik ta'sirni amalga oshirish;

ko'ngilochar janrlar – ularning asosiy maqsadi ma'lum kommunikativ harakatlarni bajarishdan zavq olishdir [17].

Janr masalasi bo'yicha mahalliy olimlar ham o'z izlanishlarini olib borganlar. Masalan, eko-jurnalist, mediatrener N.Qosimova: "Turli mavzularda jurnalistikaning axborot janrlari bilan birgalikda tahliliy janrlarining deyarli har birida material tayyorlab, uzatish mumkin. Bu yerda jurnalistdan kasbiy mahorat bilan birgalikda masalani chuqur o'rganish, uning mohiyatini anglash talab etiladi. Bugungi kunda onlayn jurnalistikasi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda auditoriyaga bevosita axborotni yangicha, ya'ni zamonaviy mul'timedia texnologiyalardan foydalangan holda uzatish dolzarblashmoqda" [10], deb qayd etadi.

Haqiqatan ham internet kengliklari turli janrdagi materiallar bilan to'ldirilgan. Bugun global tarmoq foydalanuvchilarini biron bir materialga qiziqitirish uchun avvalo uning sarlavhasiga alohida e'tibor qaratilmqda.

Materialning sarlavhasi uning jozibadorligini belgilovchi asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda.

Tahlil va natijalar. Yuqorida tahlil etilgan nazariy tahlillar asosida mahalliy yetakchi internet nashrlarining internet jurnalistika janridagi chop etilgan materiallar borligi ham aniqlandi. Ular quyidagilardan iborat:

“Uza.uz” veb-sayti intervyu janridagi materiallari bilan ajralib turadi. 2019 yilning 27 avgustida “Akbar XON: “Sharq taronalari“ tarix haqida kuylovchi, tinchlikni ulug'lovchi xalqlar birdamligi ramzi” sarlavhali intervyu “Sharq taronalari” xalqaro festivalida qatnashgan pokistonlik ishtirokchining “Festival” nafaqat turli xalqlar madaniyati, musiqasi bilan tanishish, o'z ijod namunangni ijro etish orqali xalqing salomini yetkazish, balki latif va betakror, muqaddas va barhayot Sharq durdonasi – Samarqand tarixi bilan yaqindan tanishish imkoni hamdir. Kuni kecha islom olamida mashhur Imom Buxoriy majmuasida bo'ldim. Ruhiiy poklanish manziling har bir koshinidagi naqshlar, giyohu sayroqi qushlar bu ulug' qadamjo haqida qo'shiq bastalayotgandek, ma'rifat ulashgan allomalar yurti haqida so'zlab berayotgandek taassurot qoldirdi, degan fikrlarini mujassamlagan [5].

27 avgust kuni berilgan yana bir material “Festival” san'atsevar xalqlarni birlashtirmoqda” deb nomlanadi. Unda Uza muxbiri anjuman ishtirokchilarining ayrimlari Butan Qirolligi madaniyat va ichki ishlar vaziri Sherub Gyeltshen, armanistonlik “Arsen Petrosyan Quartet” musiqiy jamoasi a'zosi Armen Petrosyan, pokistonlik “Akbar Xhamisu Khan” musiqiy jamoasi a'zosi Akbar Xon va qirg'izistonlik “Duet komuzistov” musiqiy jamoasi a'zosi Elemon Kanybekovlardan olgan intervyularini keltiradi.

Nashrning 28 avgustidagi xabariga ko'ra “Sharq taronalari” XII xalqaro musiqa festivalining rasmiy ochilish marosimida faxriy mehmon sifatida qatnashgan Yaponiyaning Nara shahri meri Motonobu Nakagava O'zA muxbiriga bergan intervyusida: “Mamlakatlarimiz bir-biridan olisda bo'lsa-da, Buyuk ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq aloqalari doim faol bo'lgan. Nara shahri jahon xalqlari madaniy muloqotida ham muhim o'rin tutgan Buyuk ipak yo'lining sharqiy nuqtasida, O'zbekiston esa markazida hisoblanadi. “Sharq taronalari” ko'plab davlatlarning madaniyati, qadriyatlarini, musiqa merosini o'zida aks ettirgan betakror festival”. Xalqlarni birlashtirish borasida muhim ahamiyatga ega. Registon maydonida o'tayotgani esa unga yanada ko'tarinkilik baxsh etib turibdi. Prezident Sh.Mirziyoyev o'z nutqida aytganidek, ko'rkam va muhtasham Registon maydoniga qadam qo'ygan har bir san'atkor millati, tili va dinidan qat'iy nazar, bashariyat farzandi sifatida dillarni dillarga, ellarni ellarga bog'laydi [6], deyilgan.

O'zbekistondagi eng ommabop kuniga 300 000 kishi tashrif buyuruvchi “daryo.uz” internet nashri materiallarni taqdim etishda infografika va multimedia vositalaridan unumli foydalanishi bilan farqlanadi. Nashrning “Madaniyat, san'at” ruknidagi “Boyovutlik 14 yoshli qizchani kishini hayratga soluvchi san'at asarlari (foto)” hamda “Madaniyat, kino” ruknida “Xorazmda hindlarning “Khuda Hafiz” romantik-jangari fil'mi suratga olinmoqda (foto)” xabarlari to'liq infografikadan foydalangan bo'lsa, “Berlinda Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash muhokama qilindi” xabarida mavzuni aks ettiruvchi bitta katta fotosurat joylangan. Foto+video lavhali xabarlarga “Toshkentda Amir Temur hayoti haqidagi gologramma teatr tomoshasi taqdimoti o'tkaziladi (video)” [1]ni misol qilib keltirish mumkin.

“Anhor.uz”ning “Madaniyat” rukni xabarlari ko'proq xabar janriga asoslangan. Shunga qaramay, “Mualliflar” (kolumnisti) ruknida berilgan “Kak otrazitsya «cherniy ponedel'nik» na ekonomike Uzbekistana” [4] iqtisodiy xabarida turli raqamlar, ko'rsatkichlar va diagrammalar taqdim etilgan. “Hikoyalar” ruknidagi maqola va xabarlarda infografikadan ko'p foydalanilgan. Video va audio xabarlar esa mazkur nashrda yo'qligi aniqlangan.

Xulosa va takliflar. Birinchidan, internet OAVda jurnalistikaning mul'timediaviy janrlari va ularning xususiyatlarini tashkil etuvchi mul'timediaviylik, gipermatlilik va interfaollik aks etadi. Onlayn jurnalistikaning intervyu, sharh, onlayn reportaj, onlayn konferensiya janrlari ancha ommalashib bormoqda.

Ikkinchidan, internet jurnalistikaning janrlari evolyusiyasi rivojlanish tendensiyalari bir necha bosqichni qamrab oladi:

1995-2007 yillarda o'zbek segmentida veb-saytlar soni keskin oshishi kuzatilgan. Xabar va axborot taqdim qilishda ko'proq matnga asoslangan, infografika, mul'timediaviy vositalardan qisman foydalanilgan;

2007-2015 yillarda o'zbek yetakchi internet nashrlari (“kun.uz”, “xabar.uz”, “daryo.uz”, “podrobno.uz”, “qalampir.uz”) rasmiy elektron OAV ro'yxatiga o'tkazilgan;

2016 yildan to hozirgi kunga qadar aksar yetakchi iinternet nashrlari infografika va mul'timediaviylikdan jonli foydalanayotgan bo'lsalar, ba'zilarida hamon matn bilan cheklanish holatlari uchramoqda. Vaholanki, bugungi yuzer audio va, ayniqsa, video materialga ko'proq extiyoj sezmoqda. Xorij veb-saytlari va bloglarda ko'p uchraydigan 3 D formatidan foydalanish materialning yanada jozibadorligini oshiribgina qolmay, tarmoq foydalanuvchilarini befarq qoldirmaydi. Shu sababli raqamlashuv asrida mazkur mul'timedia vositalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Берлинда Тошкент халқаро кинофестивалини қайта тиклаш муҳокама қилинди/ <https://daryo.uz/k/2020/02/27/berlinda-toshkent-xalqaro-kinofestivalini-qayta-tiklash-muhokama-qilindi/>
2. Ján Višňovský, Jana Radošinská. Online Journalism: Current Trends and Challenges/ <https://www.intechopen.com/books/the-evolution-of-media-communication/online-journalism-current-trends-and-challenges>
3. Ján Višňovský, Jana Radošinská. Online Journalism: Current Trends and Challenges/ <https://www.intechopen.com/books/the-evolution-of-media-communication/online-journalism-current-trends-and-challenges>
4. Как отразится «черный понедельник» на экономике Узбекистана / <https://anhor.uz/columnists/21211> (10.03.2020)
5. Қодиров Х. Акбар ХОН: “Шарқ тароналари“ тарих ҳақида куйловчи, тинчликни улуг'ловчи халқлар бирдамлиги рамзи / <http://uza.uz/oz/culture/akbar-khon-shar-taronalari-tarikh-a-ida-kuylovchi-tinchlikni-27-08-2019>
6. Қодиров Х. “Шарқ тароналари” — мусиқа олами меросини зида акс эттирган фестивалъ / <http://uza.uz/oz/society/shar-taronalari-musi-a-olami-merosini-zida-aks-ettirgan-festival-28-08-2019>
7. Колесниченко А.В. Востребованность жанров журналистских текстов в онлайн-СМИ // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 10. журналистика. 2018. № 1. –С.27.

8. Колесниченко А.В. Востребованность жанров журналистских текстов в онлайн-СМИ // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 10. журналистика. 2018. № 1. –С.30.
9. Колесниченко А.В. Настольная книга журналиста. Учебное пособие. – М., 2013. –С.12.
10. Қосимова Н. Онлайн журналистика. –Т., 2019. –Б.261.
11. Лукина М.М. (ред.) Интернет-СМИ: теория и практика. М., Аспект пресс, 2013. Лукина М.М. Трансформация журналистского текста в условиях интернет-среды // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 10. Журналистика. 2009. № 3. С. 54–73.
12. Малышева Е. Г. «Гибридный» публицистический текст в региональных печатных СМИ (на материале публикаций С. Шкаева) // Медиаскоп 2014. №3. URL: <http://www.mediascope.ru/node/1552> (дата обращения 20.01.2016).
13. Marcos Palacios, Javier Díaz Noci. Online Journalism: Research Methods. A multidisciplinary approach in comparative perspective / <http://gjol.net/wp-content/uploads/2012/12/book-online-research-eng.pdf>
14. Marcos Palacios, Javier Díaz Noci. Online Journalism: Research Methods. A multidisciplinary approach in comparative perspective / <http://gjol.net/wp-content/uploads/2012/12/book-online-research-eng.pdf>
15. Пак Е.М. Жанрообразование в сетевых СМИ: технологические и творческие факторы. Автореф. дисс. канд. филол. наук. –СПб, 2014. –С.3.
16. Тертычный А.А. Жанры периодической печати: учеб. пособие для вузов. М., Аспект Пресс, 2017; Колесниченко А.В. Техника и технология СМИ. Подготовка текстов. Учебник и практикум для академического бакалавриата. М., Юрайт, 2017;
17. Щипицина Л. Ю. Дигитальные жанры: проблема дифференциации и критерии описания: сб. науч. ст.// Коммуникация и конструирование социальных реальностей. Ч. 1. СПб., 2006. С. 377-378.



UDK:811.1

Dilrabo ANDANIYOZOVA,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti, PhD
E-mail: andaniyazova1406@gmail.com

O‘zRFA professori, f.f.d N.Mahmudov taqrizi asosida

MUVAQQAT NOMLAR – LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy matndagi muvaqqat onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari, matni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiy matn, onomastik birliklar, muvaqqat onomastik birliklar, komik effekt, lingvopoetika.

ОККАЗИОНАЛЬНЫЕ ИМЕНА КАК ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО

Аннотация

В данной статье описываются лингвопоэтические свойства окказиональные ономастических единиц в художественном тексте, их роль в формировании текста.

Ключевые слова: Художественный текст, ономастические единицы, окказиональные ономастические единицы, комический эффект, лингвопоэтика.

OCCASIONAL NAMES AS A LINGUOPOETICAL MEAN

Annotation

This article describes the linguistic and poetic properties of occasional onomastic units in a literary text, their role in the formation of the text.

Key words: Literary text, onomastic units, occasional onomastic units, comic effect, linguopoetics.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek lingvopoetikasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri turli til birliklarining badiiy matni shakllantirishdagi o‘rni aniqlash hamda ularning estetik vazifalarini yoritishdan iboratdir. Ma‘lumki, badiiy matning semantik-sintaktik va lingvistik mexanizmlarini o‘rganish har qanday tilning mohiyati va uning yetakchi vazifalarining namoyon bo‘lish qonuniyatlarini, umuman, tilning badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq ochishga imkon beradi. So‘nggi yillarda lingvopoetik tadqiqotlar ko‘lami kengayishi bilan bir qatorda lingvopoetik yondashuvlarning mazmun-mohiyatida ham jiddiy o‘zgarishlar, o‘sishlar kuzatilmoqda. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki badiiyat masalasi muntazam rivojlanishni taqozo qiladigan hodisa hisoblanadi. Har bir davrning o‘ziga xos estetikasi, dunyoga qarash tarzi va badiiy umumlashmalari bo‘ladi. Ushbu maqolada badiiy matnda onomastik birliklar, xususan, muvaqqat nomlar orqali namoyon bo‘ladigan badiiyat masalalari tadqiq qilingan.

Muvaqqat nomlar ismlar fondida uchramaydigan, ijodkor tomonidan maxsus o‘ylab topilgan hamda muayyan badiiy niyatni yoritishga xizmat qilgan onomastik birliklardir. Badiiy matnda qahramonlarning ismi, familiyasi, otasmi, shuningdek, joy nomlarini atash uchun doim ham real nomlardan foydalanilmaydi. Maxsus yaratilgan nomlar real nomlarga qaraganda ekspressivlikka, hissiy yukka to‘yingan bo‘ladi [1], shuningdek, ular odatda kontekstda, ya‘ni badiiy matn doirasida o‘z poetik maydonini hosil qiladi hamda tilda mustahkam o‘rnashib olishni talab qilmaydi,

Umuman, muvaqqat nomning shakllanishi mavjud real nomlarning muayyan qoliplariga muvofiq amalga oshiriladi. Masalan, -qul antropoidikatorlari orqali yasalgan muvaqqat nomlar: Balliqul, Bevoshqul (T.Malik), Shoshmaqul (S.Ayniy); -iston, -zor, -obod topoidikatorlari orqali yasalgan muvaqqat nomlar G‘uliston (A.A‘zam), Quyoshiston (M.Yusuf),

Salomobod (M.Shayxzoda) Donishqishloq (E.Vohidov), Tantiboyvachcha (Oybek).

Muvaqqat nomlarning o‘ziga xos ba‘zi xususiyatlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- onomastik birliklar fondida uchramaslik;
- kontekstuallik;
- individuallik;
- maxsus o‘ylab topilganlik;
- situativlik (vaziyatga bog‘liqlik);
- ko‘nikilmaganlik;
- kutilmaganlik;
- ohorlilik.

Odatdagi nomlarga qaraganda, o‘ylab topilgan nomlar atash, nomlash uchungina qo‘llanilmay, balki xarakterlash, ekspressivlik kabi kategoriyalarni ham o‘z ichiga oladi. Mahoratli ijodkorlar, nafaqat, tilimizdagi mavjud nomlardan, balki o‘zlarining badiiy tafakkuri mahsuli orqali yaratgan muvaqqat nomlardan badiiy matn ta‘sirchanligini oshirishda muhim vositalardan biri sifatida foydalanadilar hamda aytmoqchi bo‘lgan fikrlarining badiiy yukini shu “so‘zlovchi” nomlarga yuklaydilar. Shu sababli badiiy matnda real nomlar bilan birga – muvaqqat nomlarning uchrashi o‘quvchiga badiiy zavq beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta‘kidlash kerakki, badiiy matndagi onomastik birliklarning alohida maqsadlar bilan qo‘llanishi kecha yoki bugun paydo bo‘lgan hodisa emas [2]. Antik adabiyot namunalarda ham onomastik birliklardan turli maqsadlarda foydalanilganligini tilshunoslar qayd etishgan. Tilshunos A.A.Fomin antik adabiyotda ham nomlarning alohida ahamiyatga ega bo‘lganligini, faqat til nuqtayi nazaridan emas, balki badiiyat jihatidan ham diqqatga molik vosita sifatida qaralganini shu shaklda ta‘kidlaydi: “Har holda, antik adabiyot davridayoq atoqli otlar muhim ahamiyat kasb eta boshlagan edi. Ular lingvistik muammolar qatorida

o'rganilish barobarida hatto hozirgi adabiy onimlar badiiyatiga aloqador bir qator masalalar ham hal qilingan edi. Masalan, Goratsio uchun atqqli ot g'oyat muhim tasviriy vosita hisoblangan. Ob'ektni nomlashda uning xarakteristik belgilarini nechog'li ifoda etishiga e'tibor qaratgan" [3]. A.A.Fomin bu o'rinda Goratsioning satirik asarida muayyan maqsad bilan qo'llanilgan Novius (Yangi) ismini misol keltiradi.

Badiiy matnlarida uchraydigan muvaqqat nomlar ham o'ziga xos bo'lib, ularni tadqiq etish ijodkorning individual uslubini o'rganishga yordam beradi. Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida bu borada bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bunda, asosan, ijodkorlar tomonidan maxsus yaratilgan antroponimlar hamda toponimlarning estetik vazifalariga diqqat qaratilganini kuzatdik. [4]. O'zbek tilshunosligida muvaqqat nomlarning xususiyatlari yoritilgan ayrim maqolalalar mavjud. Jumladan R.Qo'ng'urov va R.Mo'minovalarning o'zbek badiiy adabiyotida va satirik jurnallarda qo'llangan antroponimlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan maqolasida to'qima antroponimlar asar badiiyatini, ta'sir kuchini orttirishga xizmat qilishi aytiladi. Mualliflar Olg'irboy, G'iybatulla, Tepki, Yelpig'ichxon kabi satirik qahramonlarning ismi bilan bog'liq fikrlarini onomastik stilistika tamoyillari asosida izohlaganlar [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Muvaqqat nomlarni hosil qilishning eng faol usuli sifatida antropoidikarlardan foydalanib turli to'qima nomlar hosil qilishni ko'rsatish mumkin. [6]. Masalan, bu usul bilan hosil qilingan to'qima nomga S.Ayniyning "Qullar" romanidagi Shoshmaql poetonimini misol qilish mumkin. Tilshunos E.Qilichev bu haqda shunday yozadi: "Yozuvchi ba'zi personajlarga ularning xarakteridan kelib chiqib nom bergan. Ya'ni ism personaj xarakterini izohlab turadi. Jumladan, "Qullar" romanida doimo "Men kak partiyniy" deb boshqalarga gap bermaydigan, mahmadana, har qanday ishga yuzaki, shoshma-shosharlik bilan qaraydigan bir personajning nomi Shoshmaqlidir. Uning nomi xarakteriga mos bo'lib tushgan" [7].

Tahlil va natijalar. Ta'kidlash kerakki, ijodkor tomonidan maxsus yaratilgan individual nomlar hajviy va yumoristik asarlarda juda ko'plab uchraydi hamda komik effektini yuzaga keltirishdagi muhim vositalardan bo'ladi. Masalan, T.Malikning "Tilla kalamush" yoxud Yo'qqulobod hangomalari" nomli kitobidan hajviy qissa va hikoyalar o'rin olgan bo'lib, unda jamiyatdagi, odamlar tabiatidagi ba'zi "fazilatlar" yumoristik usulda ifodalangan. Asarning onomastik ko'lami ham shunga uyg'un holda komik effektini hosil qiluvchi maqsadli qo'llangan nomlardan tashkil topgan. Ya'ni joylar va kishilarni nomlashda Janjalqishloq, Yo'qqulobod, Arbobxonim, Yo'g'onbek, Ma'nijon, Falonulla Pismadonxo'jaev, Dumbultoy, Balliqul, Jazqul, Holsizova, Yumalabtortarov, Voyqul, Bevoshqul bobo, O'ngqulobod, Chapqulobod kabi to'qima nomlardan foydalangan. Demak, hajviy asarlar onomastik ko'lamida ism, laqab, familiya yoki taxalluslar, hatto joy nomlarining, asosan, komik effekt hosil qilishi asosiy o'ringa chiqadi. Bunda qahramonning ismi (laqabi, familiyasi yoki taxallusi)dagi komizmndan asarning butuniga oid badiiy kulgu osongina fahmlanadigan bo'ladi. Yozuvchining badiiy niyati qahramonlar ismiga ilk marotaba ko'z yugurtilganda yoki eshiltilgandayoq ilg'anadigan bo'ladi.

Shuningdek, o'zbek adabiyotda ijodkorlar tomonidan yaratilgan yana ko'plab muvaqqat nomlarni misol qilish mumkin. A.Qodiriyning Kalvak Maxsum, G'afur G'ulomning Ko'kan, Said Ahmadning Sotti, E.A'zamning Mafkuraxonim, Ma'shuqaxonim, Alvastixonim, Otashqalb, Tohir Malikning Kesakpolvon, Chuvrindi, G'.Shermuhammedovning "Quduq

tubidagi faryod" asaridagi Lallay kabi Anvar Obidjonning Avtobola to'qima nomlari shular jumlasidandir.

Badiiy matnda komik effektini yuzaga keltiruvchi muvaqqat familiyalar ham uchraydi. Masalan, "Mushtum" jurnalidagi hajviy asarlarda keltirilgan Yebo'tymasov, Yumshoqboev, Harqachonpiyonov, To'ymas Qo'ziev kabi nomlar jamiyatdagi ayrim illatlarni yoritishda qo'llangan. Shuningdek, bunday nomlarda ma'lum bir tagma'nolarga ishora qilinganligi kuzatiladi.

B.Jumaniyozovning "To'n" hajviyasida qo'llangan to'qima familiya orqali ham shunday badiiy niyat maqsad qilingan. Nom denotatiga zid qo'llangani bilan lingvopoetik qimmatga ega bo'lgan. Ya'ni shunday familiyadagi qahramon qo'l ostidagi xodimlariga o'zini g'amxo'rdak ko'rsatmoqchi bo'ladi-yu, aslida g'amxo'rlik amalda emas, balki nomiga ko'rsatiladi. Bu o'rinda nersonaj- nom-antinomiyasi hosil bo'lgan. Oltmish yoshga kirib, yubiley taraddudi bilan yurgan paytimda boshlig'imiz G'amxo'rov yo'qlab qoldilar: - Qayoqlarda yuribsiz? – dedi o'tirishga ishora qilib. – Yo'qlaganimning boisi muborak kuningizni nishonlash uchun tashkiliy qo'mita tuzdik. Axir qirq yillik qadrdonimizsiz-a. Kimsan taniqli shoir Jo'qi bo'lsangiz. G'amxo'rov juda yaxshi odam. Oqko'ngil. Ammo sal laganbardorroq. Xo'jayin oldida egilsa bormi, belida suyagi bormi, yo'qmi, deysiz (B.Jumaniyozovning "To'n").

Ta'kidlash kerakki, xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar onomastik ko'lami muvaqqat nomlarga juda boydir. Ayniqsa, ertaklarda, asosan, qahramonlar ismi o'ylab topilgan bo'ladi hamda qahramonning xarakteriga, asardagi bajaradigan vazifasiga ishora qiladi. Topilgan nom ham shunga xizmat qiladi. To'g'ri, Egri, Yulduzsanar, Daryobog'lar kabi mashhur ertak qahramonlari nomi misol bo'ladi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, xalq og'zaki ijodidagi toponimlar asar turi va janridan kelib chiqib tanlanadi. Susambil nomi qadimdan o'zbek tilida epik yurt (toponim)ni bildirib, ertak (ktematonim)lardan birining nomi ham bo'lib kelgan. Jambil toponimi ham ertaklarda ko'p uchraydi. Chambil – Jambil – Susambil nomlari shakliga ko'ra bir-biriga daxldor bo'lib, Jambil, Susambil nomlarining yaratilishida Chambil toponimi asos bo'lgan [8]. T.Nafasov Jarjon to'qima toponimi xususida shunday deb yozadi: "Shoir H.Olimjon yaratgan yangi, epik OB lardan biri Jarjondir.

Jarjonning dalasida,

Daryoning yoqasida,

Bir chol o'tin terardi,

Doim shunda yurardi. (H.Olimjon. "Oyguil bilan Baxtiyor")

Jarjon – yurt, mamlakat nomi. Matndagi misralar mazmuniga ko'ra Jarjon – aslida daryo nomi. Bu nom Jarjon nomiga o'xshatib yaratilgan. O'zbekistonning hozirgi va qadimiy joy nomlari tizimida jon/jan/shon/shan leksemali nomlar anchagina. Zarafshon (daryo), Andijon (shahar), Badaxshon (Qamashi t. qishloq), Ardaxshon (Jizzax, qishloq), Sherjon (Sherobod t. daryo, qishloq), Navjan (Sherobod, qishloq). Bu nomlarning barchasi gidronim (daryo, jilg'a nomi) sifatida yaratilgan" [9].

S.Vafoning mistik taxayyulga yo'g'rilgan "Bo'tan tog'i" hikoyasida qo'llangan tog' nomi o'quvchining diqqatini tezda o'ziga jalb qiladi. Ushbu tog' nomi etimologiyasidan bexabar o'quvchi nom bilan asar mazmunidan aloqadorlik izlashga urinadi. Biroq yozuvchi nom mohiyatini asar qatlamida o'quvchiga hech bir qiyinchiliksiz orqali ochib beradi. Ushbu hikoyada voqealar Bo'tan tog'i bilan bog'liq holda rivojlanadi. Asar qahramoni Bo'tan tog'iga sayohat qiladi va u yerda boshidan o'tkazgan voqealarni, o'z ichki kechinmalarini hikoya qiladi.

Tilshunos T.Nafasov bo'tan so'zining Qashqadaryo va Surxondaryo shevalariga mansubligini yozadi va quyidagicha izohlaydi: "Bo'tan. 1. (Jar.) Boshqa. *Boshqa o'zi keladi. 2. (Chiroqchi) Alohida bo'lak. Otasidan bo'tan yashaydi" [10]. Demak, hikoyadagi "bo'tan" so'zining muallif tomonidan "boshqa joydan ko'chib kelgan tog'" deya izohlanishi shu so'z lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq, ya'ni "bo'tan" so'zining "boshqa", "alohida" ma'nolarini bildirishi bilan aloqalaniriladi. Asarda tog' nomi uning dialektal ma'nosiga ishora qilishi bilan birga qahramon hayoti bilan qiyoslangan: Odamlar uyqudan uyg'onib qarasha, ovul chetida tog' paydo bo'lganmish. Uni "Bo'tan tog'", ya'ni «boshqa joydan ko'chib kelgan tog'» deyishgan ekan. Men ham o'sha toqqa o'xshab boshqa joydan kelgan bir odam edim. Bu yerga ilgari ham ikki-uch marotaba kelgan bo'lsam-da, yot odam bo'lib qolaverdim (S.Vafo. "Bo'tan tog'i").

Voqealar rivojida qahramon o'zicha nom qo'yib olgan Kohin ismli yo'lbo'shchi Bo'tan tog'i haqida shunday hikoya qiladi: "Bo'tan tog'ini Makka shahridan maloiklar – Jabroil, Mekoil, Isrofil, Azroil to'shakni ko'targanday ko'chirib kelishgan ekan. Qiyyomatda Isrofil surnayini chalishdan oldin, yana olib ketisharkan". Parchadan ko'rinib turganidek, Makka, Jabroil, Mekoil, Isrofil, Azroil kabi agionimik birliklar Bo'tan tog'ining shunchaki tog' emasligini ta'kidlash, muqaddas va sirli bir makon ekanligini urg'ulash maqsadiga xizmat qilmoqda. Bu agionimik birliklar ayni paytda intertekstuallik asosida matnning ko'pqatlamligini ta'minlagan. Kitobxon mazkur nomlar haqida u yoki bu tarzda eshitganligi, o'qiganligi bois ma'lum bir tasavvurga egaligi tayin. Kitobxonning bu

masaladagi "oldindan tayyorgarligi" hikoyaning o'qilishi va uqilishini osonlashtirishi tabiiy. Shu ma'noda mazkur agionimik allyuziyalar pretsedent matni shakllantirishga xizmat qilgan. Shu tarzda sarlavhadagi to'qima toponim voqelarning tadrijiy rivoji mobaynida to'la ma'noda badiiyatga xizmat qiluvchi onomastik birlik – poetonim darajasiga ko'tariladi. Aytish mumkinki, hikoyaning kompozitsion qurilishida o'ziga xos ifoda usulidan foydalanilgan. Sarlavhadagi onomastik birlik asarda turli diniy va mifologik tasavvurlar bilan abstraksiyalanadi. Yoki qahramonning psixologik holati bilan uyg'unlashtiriladi. Tog' va qahramon o'rtasida uch tomonlama aloqadorlik o'rnatiladi. Dastlab "boshqa joydan ko'chib kelgan"lik doirasidagi o'xshashlik ta'kidlansa, asarni o'qish jarayonida aloqadorlikning ikkinchi qirrası – qahramonning ko'ngli, ichki kechinmalarining ham Bo'tan tog'i qadar yuksak va sirli bo'lib ma'lum bo'ladi. Asar yakunida esa uchinchi aloqadorlik bo'y ko'rsatadi: "Yo shayx Sanvon piyrim, men o'zim ikki olam ovorasi – Bo'tan tog'i bo'lib qoldim." Demak, tog' ham qahramon ham mavjudlik va yashash shakliga ko'ra "ikki olam ovorasi" (S.Vafo. Bo'tan tog').

Xulosa va takliflar. Umuman, badiiy matndagi muvaqqat nomlar badiiy ifoda imkoniyatlariga ko'lam bag'ishlaydigan, matnning estetik ta'sir quvvatini oshiradigan vosita bo'lib, ular, lingvopoeitik tadqiqotlar uchun yaxshi material bera oladi. Xususan, muvaqqat antroponim va toponimlar badiiy matnda jiddiy ekspressiv ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Калинин В.М. Семантика имен и поэтика их перечислений // Логос ономастики [Λογος όνομαστικη]. – Донецк. М. Горького, 2009. – № 1 (3). – С. 70–83.
2. Фомин А.А. Литературная ономастика в России: Итоги и перспективы // Вопросы ономастики. № 1. Екатеринбург: Издательство Уральского университета. 2004. – С.108-120.
3. Пулина Е. А. Окказиональные имена собственные в романе Дж. Джойса «Улисс» и их межъязыковая передача // Пермский государственный фармацевтический вестник. 2007. №3. С. 195–198;
4. Яковенко Н. С. О некоторых особенностях окказиональных антропонимов в английских романах В. В. Набокова // МНКО. 2011. №2 С. 48–50; Астафьев А.Ю. Художественные функции окказионализмов. Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2007. 177 с.
5. Кунгуров Р., Муминов Р. Собственные имена в языке художественной литературы / Ономастика Узбекистана. Ташкент, 1989. С. 124–125.
6. Бабенко Н.Г. Окказиональное в художественном тексте. Структурно-семантический анализ: учебное пособие. Калининград, 1997. 84 с.; Несветайло Ю. Н. Неологизмы и окказионализмы как конститутенты лексического макрополя современного английского языка: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Ростов н/Д, 2010. 26 с.
7. Қиличев Э. Айний асарларидаги антропонимларнинг стилистик хусусиятлари //Ўзбек тили ва адабиёти. 1978. № 4. – Б.22.
8. Қаранг: Нафасов Т. Шева ва ономастик бирликлар / Ҳамид Олимжон таваллудининг 100 йиллигига бағишланган ёш олимлар ва иктидорли талабаларнинг илмий анжумани материаллари. 12 март, 2009 йил. – Андижон. – Б. 24.
9. Нафасов Т. Шева ва ономастик бирликлар / Ҳамид Олимжон таваллудининг 100 йиллигига бағишланган ёш олимлар ва иктидорли талабаларнинг илмий анжумани материаллари. 12 март, 2009 йил. – Андижон. – Б. 25.
10. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек сўзлари луғати . – Тошкент, 2011. – Б. 62.



Aziza AXMEDOVA

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, f.f.f.d.
E-mail: aziza.ahmed@inbox.ru
orcid.org/0000-0003-0310-5601*

ToshDO'TAU dotsenti, f.f.d Z.Teshaboeva taqrizi asosida

BADIIY OBRAZ TASNIFIDA NOADABIY VA ADABIY TIPOLOGIYA SINTEZI

Аннотация

Maqola badiiy obraz tipologiyasi masalalariga bag'ishlangan. Badiiy obrazning adabiy tipologiyasini psixologiyada ishlab chiqilgan shaxs tipologiyasining ayrim turlari bilan korrelyatsiyasi tahlil qilingan. Xususan, "Qora triada"ga mansub psixotiplar haqidagi bilimlarni badiiy adabiyotda aksilqahramonlar tahlilida qo'llash samaradorligi Sinkler Lyuisning asarlari misolida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, psixologik tahlil usullari qo'llanilgan. Natijada Sinkler Lyuisning "Arrowsmith", "Elmer Gantry" va "It Can't Happen Here" romanlari qahramonlari "Qora triada"ga mansub narsissizm, makiavellizm, psixopatiya kabi shaxs tiplari bo'yicha tahlil qilingan. Ushbu yondashuv realistlik obrazni, xususan, aksilqahramon obrazini yaratishda va uni tahlil qilishda samarali vosita ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, obraz tipologiyasi, aksilqahramon, "Qora triada", makiavellizm, narsissizm, psixopatiya

СИНТЕЗ НЕЛИТЕРАТУРНОЙ И ЛИТЕРАТУРНОЙ ТИПОЛОГИИ В КЛАССИФИКАЦИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА

Аннотация

Статья посвящена типологии художественных образов. Анализируется соотношение литературной типологии художественного образа с некоторыми типами типологии личности, разработанными в психологии. В частности, на примере произведений Синклера Льюиса рассматривается эффективность применения знаний о психотипах, принадлежащих к «Темной триаде», при анализе антигероев в художественной литературе. В процессе исследования использовались сравнительно-типологические, психологические методы анализа. В результате были проанализированы персонажи романов Синклера Льюиса «Эроусмит», «Элмер Гэнтри» и «Это у нас невозможно» в соответствии с типами личности «Темной триады», такими как нарциссизм, макиавеллизм, психопатия. Такой подход оказался эффективным средством создания и анализа реалистичного образа, в частности образа антигероя.

Ключевые слова: художественный образ, типология образа, антигерой, «темная триада», макиавеллизм, нарциссизм, психопатия.

SYNTHESIS OF NON-LITERARY AND LITERARY TYPOLOGY IN THE CLASSIFICATION OF CHARACTERS

Annotation

The article is devoted to the typology of literary characters. The correlation of the literary typology of the artistic image with some types of personality typology developed in psychology is analyzed. In particular, on the example of the works of Sinclair Lewis, the effectiveness of applying knowledge about the psycho-types belonging to the "Dark Triad" in the analysis of antiheroes in fiction is considered. In the course of the study, comparative-typological, psychological methods of analysis were used. As a result, the characters of Sinclair Lewis's novels "Arrowsmith", "Elmer Gantry" and "It Can't Happen Here" were analyzed according to the personality types of the "Dark Triad", such as narcissism, Machiavellianism, and psychopathy. This approach turned out to be an effective means of creating and analyzing a realistic image, in particular the image of an antihero.

Keywords: literary character, character typology, antihero, "Dark triad", Machiavellianism, narcissism, psychopathy.

Kirish. Zamonaviy postnoklassik fanda turli sohalar sinergiyasiga erishishga intilish natijasi o'laroq **bir butunlik paradigmasi** tan olinmoqda. "...Bunda hozirgi zamon tabiatshunosligining g'oyalari, tamoyillari gumanitar fanlarga keng qamrovli tatbiq etiladi, ba'zan buning aksi ham kuzatiladi" [2]. Anglashiladiki, tabiiy va ijtimoiy fanlar konvergentsiyasi, ya'ni ular o'rtasidagi mulqotning yaqinlashuvi, to'siqlarning bartaraf etilayonganligi olam va odam haqidagi yangi ilm va haqiqatlarning yuzaga chiqishiga xizmat qilmoqda. Tadqiqotimiz predmetiga qaytadigan bo'lsak, xususan, yigirmanchi asr adabiyotshunosligida inson va badiiy obrazlar tipologiyasiga oid qarashlarda ma'lum kesishuvlar, parallellik kuzatildi. Bu haqda adabiyotshunos L.Ginzburg ham e'tirof etadi: " Adabiy va noadabiy tipologiyaning (insonni

modellashtirish bo'yicha. izoh. A.A.) tig'iz a'loqasi namoyon bo'ldi" [1.;144]. "Tipologiya endi shaxsiyat tipologiyasi bo'lishi kerak. Insonni strukturaviy tushunish tendentsiyasining rivojlanishi tufayli psixologik tipologiya va tarixiy va madaniy tipologiya o'rtasida bog'liqlik mavjud" [1], deya haqli ravishda fikrlaydi L.Ginsburg. S.Lyuis asarlari bilan bog'liq quyidagi misollar shaxs tipologiyasi va badiiy obraz tipologiyasining yaqinlashuvini izohlaydi hamda poetikadagi badiiy obraz tipologiyasiga insonning psixofiziologik tipologiyasi ta'sirini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. G'arb davlatlarida "Qora triada"ga mansub shaxsiyat tiplari o'tgan asrdan boshlab turli sohalar doirasida faol o'rganildi. Ushbu tipologiyaga mansub shaxslarning jamiyatga, oilalarga va butun boshli xalqlar

hayotiga kuchli ta'siri dalillangan sari psixologiya, yuridik sohalar, siyosat, biznes va boshqa jamiyatshunoslik fanlarida tadqiqotlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda. "Qora triada"ga mansub shaxs xususiyatlarini ommaviy madaniyatda, media va kinomatografiyadagi talqinini P.Jonason "The antihero in popular culture: Life history theory and the dark triad personality traits" [3] nomli maqolasida evolyutsion psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Jonasonning fikricha, James Bond, Betman, Maykl Korleone ("Cho'qintirgan ota"), Gregori Xaus ("Doktor Xaus") kabi aksilqahramonlar "Qora triada"ga xos xususiyatlarni namoyon etadi. P.Jonasonning xulosa qilishicha, "Qora triada"ga mansub xususiyatlarni insoniyat favqulodda qiyin ekologik sharoit va tahlikali ijtimoiy vaziyatlarda tirik qolish hamda nasl qoldirish uchun orttirgan. Olim buni "fast life strategy" (tezkor hayot strategiyasi) deb ataydi. "Qora triada" psixotiplari g'arb adabiyotshunosligida ham o'rganila boshlanganligini ta'kidlash joiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sinkler Lyuis poetikasini o'rgangan aksariyat olimlar uning aksilqahramon yaratishda favqulodda mahoratli ekanligini e'tirof etganlar. Adibning qator romanlarida, chunonchi, "Babbit" "Elmer Gantry", "It can't happen here", aynan aksilqahramon markaziy o'rinda turishini ta'kidlash joiz. S.Lyuis yaratgan aksilqahramonlarni tahlil qilar ekanmiz, ularni tipologiyasini ishlab chiqish asarlarni badiiy-konseptual mohiyatini ham, qolaversa, insonning murakkab botiniy ta'biatini ham chuqur o'rganishga imkoniyat berishini angladik. Xususan, "Elmer Gantry" asaridagi Elmer Gantri obraziga "narcissistic character" ya'ni "narsistik obraz" deb ta'rif berilganligi e'tiborni jalb etdi. Ma'lumki, psixologiyada narsissizm shaxs ruhiyatining patologik bir ko'rinishi sifatida talqin qilingan. Narsissizm yana ikkita shaxs ruhiyatining patologik ko'rinishlari makiavellizm va psixopatiya bilan birgalikda "Dark triad"ni ("Qora triada") tashkil etadi. "Qora triada" atamasi birinchi marta 2002 yilda Delroy Polxus va Kevin Uilyams tomonidan tasvirlangan. Shaxs ruhiyatini o'rganishda qo'llaniladigan mazkur noadabiy tipologiyani badiiy asarlarda yaratilgan aksilqahramonlar tahlilida qo'llash chuqur tahlil uchun yo'l berishini Sinkler Lyuis ijodi misolida ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. "Qora triada"ga mansub shaxs tipologiyasining biri – narsissizm. Narsissizm atamasining kelib chiqishi antik adabiyot bilan bog'liq. Narsiss (Narkiss) yunon mifologiyasida tasvirlanishicha xushsurat va navqiron yigit bo'lib daryo xudosi Kefnsning o'gli. Tog' nimfasi Exoning sevgisiga butunlay befarqlik bilan javob berishi tufayli Nemezida tomonidan jazolanadi. Kunlarning birida o'z aksini daryoda ko'rgan Narsiss o'z husniga mahliyo bo'lib, ochlik va tashnalikni ham unutib, oqibatda o'sha yerda halok bo'ladi. Uning tanasi suvga g'arq bo'lib ornida nargis guli paydo bo'ladi. Narsiss obrazi adabiyotda kibr va o'z-o'ziga bino qo'yish ramziga aylangan.

Shubhasiz, san'at va xususan, adabiyot borliqqa, real voqelikka taqlid o'laroq vujudga kelgan. Yozuvchi badiiy mahoratining mezonlaridan biri sifatida **hayot haqiqatiga sodiqlik** ilgari suriladi. Bu, ayniqsa realist ijodkor uchun muhim mezon. Yuqorida tavsiflangan narsissizm insonlar orasida tez-tez uchraydigan shaxsiyat turi ekan, uni badiiy obrazlar orasida ham uchratish mumkin.

Amerikalik romannavis Sinkler Lyuis (1885-1951) realizmi shunisi bilan farqlanadiki, hayotiy haqqoniylikka erishish, qahramonning "jonli" insonga imkon qadar yaqin va ishonarli chiqishi uchun yozuvchi har bir romaniga kirishishdan oldin jiddiy tayyorgarlik ko'radi. Roman taaluqli bo'lgan soha vakillarini yaqindan kuzatadi va hatto ular bilan yaqin, do'stona aloqalar o'rnatadi. Sinler Lyuis 1920–40-yillarda romanlari

ustida ishlayotgan vaqtda yuqorida tavsiflangan "Qora triada" kabi shaxs tipologiyasi hali ilm-fanga kirib kelmagan edi. Tabiiyki, Lyuis bu haqda ilmiy ma'lumotga ega bo'lmagan. Biroq S.Lyuis yaratgan aksilqahramonlar, salbiy obrazlarga e'tibor berilsa, yozuvchining insondagi shaxsiyat buzilishlarini, turli illatlarni favqulodda sinchkovlik bilan ilg'ay olganligiga hamda badiiy obrazning ichki va tashqi portretida mahorat bilan singdirganligiga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan, "Erousmith" (Arrowsmith) romanidagi Almus Pikkerbo tipik narsissistga xos barcha xususiyatlar bilan tasvirlangan.

Pikkerbo obrazi karikaturaning yorqin misoli; u mahoratli notiq, jasoratli yo'lboshchi sifatida tasvirlanadi. U har doim balandparvoz, qofiyador nutqlari bilan tinglovchilarni o'ziga ergashtiradi. Romanda bosh qahramon Martin bilan ilk suhbatdoyoq Almus Pikkerbo o'zini prezident Ruzveltga tenglashtiradi hamda sog'liqni saqlash tizimining Longfelou, yoki Kiplingi ekanligini da'vo qiladi. Zero, u ham Longfelou va Kipling kabi shoir, garchi shifokor bo'lsa ham. Pikkerbo o'z ijodidan bir necha to'rtliklarni o'qib bergach, Martinga o'zini yana ham yaqindan tanitish maqsadida unga albom topqazadi. Albomdagi rasmlardan ma'lum bo'ladi: "...albmoldagi sarlavhalarga qarar ekan, Martin doktor Pikkerboning o'zi o'ylaganidan ham mashhurroq ekanligini tushundi. U Ayovadagi Rotary klubining asoschisi ekan; Jamoatchilik faoli; Nautilisdagi Jonatan Edvards yakshanba maktabida etakchi rahbar; "Mokasin" chang'i va yurish klubi, "Westside Bowling" klubi, "Bull Moose" hamda "Ruzvelt" klublari prezidenti; "Quvnoq O'rmonchilar Piktigni", "Moose", "Stonemasons", "Odd Fellows", "Turnverein", "Knights of Columbus", "B'nai Brith" va "Y.M.C.A" kabi tashkilotlar asoschisi; Injil matnlarini eng ko'p o'qish bo'yicha sovrindor; Jonatan's Harvest Moon nomli kattalar Injil maktabida Irlandcha raqsga tushish bo'yicha g'olib.. [4.;225.] Pikkerbo obrazidagi namoyishkoronalik, o'ziga bino qo'yish qator epizodlarda takror tasdig'ini topgan. Nautilus shahrida har bir hafta muayyan tibbiy muammoga bag'ishlanadi hamda Pikkerbo va uning sakkizta qizi (qizlarining ismlari eng antiqa gul nomlaridan olingan) boshchiligidagi paradlar qilish, salomatlikni targ'ib qiluvchi to'rtliklarni (albatta, Pikkerbo ijodidan) baralla kuylash bilan amalga oshiriladi.

Martin Pikkerboning o'rniga boshliq bo'lgach, Pikkerbo «asosiy vaqtini quruq notqlik va ommani ta'sirlantirish»ga sarflaganini angelaydi. Pikkerbo ko'zbo'yamachi, dabdababoz amaldor obrazi bo'lib, uni yaratishda yozuvchi tvencha satira ta'sirida bo'lgani seziladi. Pikkerbo xarakteridagi soxtalik hamda xudbinlik belgilari fosh etilishi fonida Martinga xos fidoyilik, ko'pchilik manfaati uchun qayg'urish fazilatlarini yorqin namoyon bo'ladi.

"Qora triada", shuningdek, makiavellizm va psixopatiya deb nomlangan shaxsiyat tiplarini qamrab olishi haqida yuqorida ta'kidlandi. S.Lyuis ijodi misolida o'rganadigan bo'lsak, "Elmer Gantry" va "It can't happen here" asarlarida bosh obrazlar aynan shunday tipga mansubligi yaqqol namoyon bo'ladi. Psixopatiyaga xos xususiyatlar sifatida empatiyaning yo'qligi, patologik yol' onchilik, hirsiga berilishga moyillik, bag'ritoshlik yoki shavqatsizlik, qo'rquv hissining yo'qligi, "hissiy qashshoqlik" (mehr, hissiy rishtalar, sadoqat, kabi tuyg'ularning past darajada bo'lishi yoki umuman bo'lmasligi), jinoyatga moyillik ilmiy adabiyotlarda sanab o'tilgan. Badiiy adabiyot tarixiga nazar solinsa, bunday obrazlar aksariyat hollarda detektiv janrida va gotik asarlarda uchraydi. S.Lyuisning "Elmer Gantry" asarining bosh qahramonida ham aynan shunday shaxs obrazi gavdalangan.

"Elmer Gantry" (1927 y.) asari Mark Shorer tomonidan S.Lyuis ijodidagi eng "shovqinli" asar deb baholangan. A.B.Gilensonning qayd etishicha, romandan olingan ommaviy taassurotni bomba portlashiga o'xshatish mumkin. Darhaqiqat,

roman amerika adabiyotidagi antiklerikal ruhdagi asarlarning eng ko'p ijtimoiy rezonansga sabab bo'lganidir. Xususan, asarning markazida Elmer Gentrdek aksilqahramon turishi, unga xos bo'lgan, inson aqlini shoshirib qo'yish darajasidagi bir-biriga zid xususiyatlar romanga "shovqinli shuhrat" olib kelgan. Elmer Gentry Molyerning Tartyufiga o'xshagan riyokor, manfaatparast, munofiq shaxs. Zohirdan islohotchi, fidoiy ko'ringan Gentry cherkovdagi xizmatlardan so'ng butunlay teskari hayot tarzini olib borishi, nafs yo'lida har qanday qabihlikka tayyorligi bilan ajralib turadi. Uning asl qiyofasi oddiy xalqqa asar so'ngigacha ham oshkor bo'lmaydi. Gentry obrazida yuqorida tilga olingan belgilar yaqqol namoyon bo'ladi. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

1. Boshqa insonlarga nisbatan empatiyaning yo'qligi /Bag'ritoshlik/shav-qatsizlik

Asardagi bir epizodda Elmer Gentry va uning sherigi Sheron Falkoner faoliyat olib borayotgan cherkovda yong'in sodir bo'ladi. Yong'inida faqat o'z jonini asrab qolishni o'ylagan Gentry cherkovga kelganlarning orasidan ularni chetga surib, yiqitib, oldida uchragan qizni erga qulab, chiqish eshigiga yetib boradi va chiqib ketadi. Omon qolgan yagona odam— Gentry edi... (...In howling panic, Elmer sprang among them, knocked them aside, struck down a girl who stood in his way, yanked open the door, and got through it...the last, the only one, to get through it [5].

2. Ashaddiy yolg'onchilik. Gentry roman voqealari davomida bir necha bor hayotini yangitdan boshlaydi va har safar o'z shaxsi, kelib chiqishi haqida yo'lgo'n to'qib kerakli jamoaga qo'shilib oladi.

3. Hirsiga berilishga moyillik. Asarda Gentry taqvodor diniy voiz bo'lishiga qaramay, bir necha qizlarni yo'ldan urishi tasvirlanadi. Shuningdek, u qanday e'tirofga erishmasin, ichkilik uning doimiy hamrohi bo'ladi.

Gentry obrazida aks etgan psixopatiyaga xos xususiyatlarni yana davom ettirish mumkin, albatta. Biroq shuni muhimki, Gentry obrazini yaratar ekan S.Lyuisning badiiy mahorati yuqori saviyaga erishganligi namoyon bo'ladi. Gentry shunchaki satirik obraz yoki karikatúra bo'lib qolmagan. Uning xarakter mantiqi ancha puxta, ishonarli va hayotning o'zi kabi murakkab. Mazkur obraz S.Lyuisning inson ruhiyatini nechog'li ziyraklik bilan kuzatganligi hamda realistlik obraz sifatida ifoda eta olganligini dalillaydi.

Makiavellizmga xos shaxs tipi o'zgacha dunyoqarashi bilan ajralib turadi. Garchi makiavellizm Uyg'onish davrining yirik faylasufi, siyosatshunos Nikolla Makiavelli (1469-1527) nomi bilan bog'lansada, aslida, makiavellizm insoniyat tarixining ilk davrlaridanoq shakllangan. Makiavelli ko'plab asarlar muallifi bo'lsada, insoniyat tarixida asosan "Hukmdor" (1532 y.) traktati bilan tanilgan. Ushbu asarda Makiavelli kuchli, markazlashgan milliy davlat tuzish yolida qanday vosita va tamoyillar samarador bo'lish haqida o'z davri uchun yangilik bo'lgan qator fikrlarni ilgari suradi. "Tarixiy jarayonlarni o'rganish asosida u birinchi bo'lib siyosatni fan sifatida asoslab berdi, siyosiy faoliyatda cherkov axloqi emas, balki foyda va kuch mezon bo'lganligini qayd etdi" [6]. Makiavelli yashagan o'rta asrlar kontekstida Italiyada hali davlatchilik haqidagi chin liberal go'yalar, demokratik institutlar, fuqarolik pozitsiyasi kabi tushunchalar shakllanmagan edi. Tabiiyki, Makiavelli aynan shu muhitda hokimiyatni qo'lga kiritish va saqlab qolish uchun haqiqatda natija bergan usullarni, tarixiy shaxslar, ularning hatti-harakati misolida, an'anaviy axloq qoidalarini chetga surib, ijtimoiy hayotning tabiiy qonuniyatlarini hisobga olgan holda yoritib beradi. Psixologiyada esa, makiavellizm shaxs tipi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvor strategiyasi sifatida tadqiq etilgan. "Machiavellizm" tushunchasi psixologiyada 1970-yillarda amerikalik psixologlar R.Kristi va F.Xeys tomonidan qo'llanila

boshlandi va ular maxsus "Makiavellizm shkalasi"ni ishlab chiqdilar. Makiavellizm manipulyatsiyaga asoslangan shaxslararo munosabatdagi ijtimoiy strategiya bo'lib, uchta etakchi xususiyatlar bilan xarakterlanadi: ta'magirlilik, boshqalarni manipulyatsiya qilish va "maqsad vositani oqlaydi" qabilida ish tutish tamoyillari [7]. Aytish joizki, makiavellist shaxs yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarni bir-ikki vaziyatlarda emas, doimiy qo'llaydi va bu uning tabiatiga singib ketgan xususiyat. Jamiyatda insonlarning makiavellizmga mansub psixotiplari mavjud ekan, ularning badiiy obrazi adabiyotda, xususan realistlik asarlarda yaratilmaganmi? Xususan, romannavis aksilqahramon obrazini yaratar ekan ijtimoiy hayotda o'zi kuzatgan shaxslar xulq-atvorini, hatti-harakatlarini tipiklashtirib, muayyan obrazda jamlab ko'rsatadi. Bu haqda adabiyotshunos To'xta Boboev yozadi: "San'atkor hayotdagi ko'plab odamlar turmushini, ichki dunyosini, urf-odaitini, ruhiyatini, mehnat faoliyatini puxta o'rganish asosida ularning eng muhim belgilarini, tipik xususiyatlarini saralab, tanlab oladi, umumlashtiradi, sintezlashtiradi, badiiy bir butunlikka yigib, konkret shaxs obrazi orqali ifodalaydi" [8]. Ushbu maqolada S.Lyuisning realistlik qahramon yaratish mahoratiga, jamiyatni jumbushga keltira olgan romanlaridagi aksilqahramonlar tahliliga e'tibor qaratildi. Zero, realistlik asarda, xususan, u zamondoshlar haqida bo'lsa, haqqoniy badiiy obrazlarni yaratish yozuvchidan alohida mahorat talab etadi. S.Lyuisning "It Can't Happen Here" asaridagi Bez Uindrip obrazida makiavellizm yorqin namoyon bo'ladi. Asarning muvaffaqiyati ham shunda.

"It Can't Happen Here"(1935 y.) romani haqida I.Mazirkaning qayd etishicha, bu asar bilan S.Lyuis amerika adabiyotida antifashistik temani ochib berdi [9]. Mazkur asar yaratilgan yillarda "amerikadek demokratik jamiyatda fashizm hech qachon paydo bo'lmaydi", deya ishonch bilan gapiradiganlarga kinoya qilib bu romanni S.Lyuis "It Can't Happen Here" ya'ni "Bizda bu mumkin emas" deb nomlaydi. Aslida esa, bu roman voqealari totalitar rejim, fashizm g'oyalari har qanday jamiyatda tez fursatda urchib ketish ehtimoli borligini badiiy manzaralashtiradi. Asar voqealari 1936-yil prezidentlik saylovlarida Bez Uindripning g'alabasi bilan boshlanadi. Hukumatga kelgach, Bez Uindrip mamlakatdagi barcha demokratik institutlarni tugatadi. Terrorga asoslangan diktatura o'rnatiladi. Albatta, mazkur roman ham kuchli ijtimoiy rezonansga sabab bo'lgan va asarning barcha badiiy unsurlari qator tadqiqotlarda o'rganilgan. Shu bois, ushbu maqolada demagog Bez Uindrip obrazidagi makiavellistik hatti-harakatlar tasviriga e'tibor qaratildi.

"It can't happen here" asaridagi diktator Bez Uindrip obrazi amerika adabiyotida arxetip obrazga aylangan, deyish mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur obrazda o'sha yillarda Germaniya hukumatiga kirib kelgan A.Gitlerni, diktator Mussolini va Luiziana gubernatori Hyu Longni eslatib turadigan xususiyatlar mavjud. Bez Uindrip saylovda g'olib bo'lgach o'z humumatini mustahkamlash siyosatini olib boradi. Asarning 13-18-boblari aynan shu jarayonning tasviriga ba'g'ishlangan. O'zining siyosiy qudratini kuchaytirish yo'lida Bez Uindrip barcha vositalarni ishga soladi, avvalo zo'rvonlikni. Shu maqsadda Minute Men nomli politsiya otryadini tuzadi. Har qanday ijtimoiy norozilik Minute Men tomonidan kuch bilan bostiriladi. Mamlakat bo'ylab ayrim etnik guruhlar uchun konslagerlar quriladi. Zotan, Makiavelli "Hokimiyatni saqlab qolishni istovchi odam zolimlikka tayanishi kerak" deya uqdirgan "Hukmdor" asarida. Bez Uindrip aynan shunday yo'l tutadi.

Xulosa va takliflar. "Qora triada"ga mansub shaxs tipologiyasi badiiy obraz tahlilida, aksilqahramonlar tipologiyasini ishlab chiqishda qo'llanilishi Sinkler Lyuis romanlari misolida ko'rib chiqildi. Muxtasar qilib aytganda,

badiiy adabiyotda realistik asar yaratishda muallifdan inson ruhiyatini haqqoniy tasvirlash uchun favqulodda kuzatuvchanlik va sinchkovlik talab qilinadi. Aksilqahramonni ishonarli, ta'sirchan qilib yaratish uchun muallif ruhiyat

haqidagi keng bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. "Qora triada" psixotiplarini badiiy obraz tahlilida qo'llash obraz tipologiyasi uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Гинсбург Л. О литературном герое. —Л: «Советский писатель, 1979 г. —224 с.
2. Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. —Т.: "Aloqachi". 2008. —В.99
3. Jonason P. K. et al. The antihero in popular culture: Life history theory and the dark triad personality traits //Review of General Psychology. – 2012. – Т. 16. – №. 2. – p. 192-199.
4. Lewis S. Arrowsmith. – Canada, Harper Perennial Classics. 2012. – 510 p.
5. Lewis S. Elmer Gantry. New York: Harcourt, Brace and Co., 1927, 432 p.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/maiavelli-hikmatlari.html>



UDK: 81'23:14:343.23(575.1)

Muqumjon AXUNOV,

(PhD) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru

Bibi Muxlisa G'ULOMOVA,

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

ADChTI dotsenti V.Vositov taqrizi asosida

SYNONYMS OF LEXEME "CRIME" AND THEIR PECULIARITIES

Annotation

The present article is dedicated to the semantic analysis of the concept of "crime" in English and Uzbek. This article also reveals the similarities and dissimilarities between the concept of "crime" in English and Uzbek linguocultures. The main, important features of the criminal lexeme should be called the universal nature of the criminal lexeme, which reflects the objective content of the norms, which puts morality above the interests of a narrow group, ideological or practical ideas, corporativeness.

Keywords: concept, crime, culture, national culture, linguoculturology, socio-cultural reality, values

СИНОНИМЫ ЛЕКСЕМЫ "ПЕСТУПЛЕНИЕ-CRIME" И ИХ ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

Данная статья посвящается семантическому анализу концепта, «криминал» в английском и в узбекском языках. А также в данной статье раскрывается схожие и различные лингвокультурологические особенности концепта «преступления» в английском и в узбекском языках.

Основными, важными чертами криминальной лексемы следует называть универсальный характер криминальной лексемы, которая отражает объективное содержание норм, ставящих мораль выше интересов узкой группы, идеологических или практических идей, общечеловеческого характера

Ключевые слова: концепт, преступление (криминал), культура, национальная культура, лингвокультурология, общественно-культурная реальность, ценность.

"JINOYAT". "CRIME" LEKSEMASI MA'NODOSHLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillarida "jinoyat" konseptining semantik tahliliga bag'ishlanadi. Shuningdek, ushbu maqolada "jinoyat" konseptining ingliz va o'zbek lingvomadaniyatidagi o'xshashlik va farqli jihatlari ham ochib beriladi. Jinoyat leksemasining asosiy, muhim xususiyatlarini axloqni tor guruh manfaatlaridan, g'oyaviy yoki amaliy fikrlardan, korporativlikdan ustun qo'yadigan jinoyat leksemasini me'yorlarning ob'ektiv mazmunini aks ettiruvchi umuminsoniy tabiati deb atash kerak.

Kalit so'zlar. konsept, jinoyat, madaniyat, milliy madaniyat, lingvokulturologiya, ijtimoiy-madaniy voqelik, qadriyat

Kirish. Tilning konseptual sohasini va semantik maydonini belgilash zamonaviy tilshunoslik uchun muhim va fundamental masala bo'lib ko'rinadi. Ko'plab asar mualliflari qarashlarida bu «olaning lisoniy manzarasi» deya talqin qilinadi [1]. Bu manzarada o'zbek tilida «jinoyat», ingliz tilida «crime», rus tilida «prestuplenie» konseptlari ham inson ongi kategoriyasining asosiy tushunchalari sifatida o'rin egallaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ye.M.Mikaelyaning nomzodlik dissertatsiyasi ma'lumoti bo'yicha, zamonaviy ingliz tili diskursida «jinoyat» konsepti yuqori reprezentativlik xususiyati bilan xarakterlanadi [2]. Tadqiqotchining fikricha, zamonaviy Britaniya va Amerika olamning lisoniy manzarasida (demakki, jamiyatida ham) «jinoyat» konsepti muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek, o'zbek jamiyatida ham jinoyat tushunchasi allaqachon xalq ong-u shuurida boshqacha ahamiyat kasb eta boshlagan. Ravshanki, Yevropada jinoiy harakatlar, qonunbuzarliklar, insonni o'ldirish, katta ob'ektlarni tunash yoki nomusga tegish kabi holatlar ko'p uchraydi. Keltirilgan misollar o'z aksini kinofilmlarda ham topadi. Chunki asarlar ham albatta real voqelikka tayanib yaratiladi. Shunga qaramasdan, bularning oldini olish chora tadbirlari va tegishli qarorlar ko'payishi natijasida ingliz va amerikaliklarni qonunlarga qattiq rioya qilishi haqidagi ma'lumot ham hammaga ayon. Shuning uchun,

olaning lisoniy manzarasidagi jinoyat asosan millatning kelib chiqishiga borib taqaladi va voqeliq muayyan guruhga mos bo'lgan milliy va madaniy xususiyatlar prizmasi negizida ifoda etadi. Xalqning yashash tarzi, xatti-harakati, ijtimoiy holati, mentaliteti, hattoki tarixiy o'tmishi ta'sirida jinoyat tushunchasiga qarashlari yuzaga keladi, deyshimiz mumkin. Olamni anglash, bilish va u haqida fikr, tushuncha, shuningdek, g'oyalarni hosil qilish, shakllantirish funksiyasi yordamida ob'ektiv voqelikni mujassam etgan individual yoki jamoaviy ong konsept ko'rinishida universal tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. V.A.Maslova, I.A.Sternin, Z.D.Popova va boshq. fikriga ko'ra, konsept yadro va periferiya nuqtai nazaridan tavsiflanadi. Yadroga eng asosiy, vizual aniq, birlamchi, jonli va ahamiyatli tasvirlarga ega bo'lgan qatlamlar kirsra, periferiyaga ikkinchi darajali, mavhum, assotsiativ shaklli ifodalar kiradi. Asosiy va qo'shimcha qatlamlar yagona negiz-konseptda jamlanadi va konsept tarkibi boyib boradi. «Jinoyat» konseptida «jinoyat» leksemasi yadro bo'lib, u «jinoyat» konseptini nomlash uchun yagona kalit vazifasini o'taydi. Leksemaning sinonim va antonim shakllari «jinoyat» konseptiga tegishli tushunchalar hisoblanadi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da «jinoyat» leksemasi quyidagicha ta'riflanadi: Jinoyat [arabcha-ayb, gunoh; jinoiy

ish] 1.huq. Davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakat. *Og'ir jinoyat. Amaldan foydalanib qilingan jinoyat. Jinoyat ustida ushlamoq. 2. ko'chma.* Yomon oqibatlariga olib boradigan zararli xatti-harakat, ish; gunoh. *Bas siz bilan biz, Tojiboy aka, bu ishga rahbarlik qilish o'rniga qo'l siltar ekanmiz, jinoyat qilgan bo'lamiz va buning uchun xalq oldida javobgar bo'lamiz [4].*


Demak, «jinoyat» leksemasi ikkiyoqlama tushuniladi. Biri yuridik jihatdan bo'lsa, ikkinchisi milliy madaniy tomondan tahlil qilinadi. Birinchi ta'rifga binoan «jinoyat» so'zi huquq, sud, sud hukmi, jazo, ayblov, ijro, qonun hujjatlar, noqonuniy, kodeks, qonunbuzarlik, mahkum, adolat, jabrlanuvchi, aybdor shaxs kabi verbalizatorlar bilan bog'liq.

Ikkinchi ta'rifga binoan, O'zbek xalqi qiyofasida jinoyat, bu katta gunoh hisoblanadi. Dinimiz islom ta'limotida jinoyat tushunchasi katta va kichik gunohlarga bo'linadi: 1. Banda va Alloh taolo orasidagi gunohlar. 2. Bandalarning haqlariga taaluqli gunohlar. Ular tarkibiga suiqasd, zino, poraxo'rlik, sudxo'rlik, o'g'irlik, g'iybat, yolg'on gapirish, tuhmat, behayo ishlarni qilish, qimorbozlik, ichkilikbozlik, birovning haqini yeyish va h.k. kiradi [3]. Islomda bunday jinoyatni insonning o'zi anglab yetib, qilgan jinoyatidan pushaymon bo'lsa va tavba qilsa, u Alloh taolo tomonidan marhamat qilinadi va kechiriladi.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» ma'lumotiga ko'ra: Jinoyat-jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni J.deb hisoblash masalasi har bir davlatda o'zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlar, an'analari va h.k.ga muvofiq xalqaro huquq me'yorlari e'tiborga olingan holda hal etiladi.

Qilmish J. ekanligini aniqlash uchun quyidagi umumiy belgilar nazarga olinadi: 1) qilmishning ijtimoiy xavfliligi; 2) aybning mavjudligi; 2) jazoga sazovorligi. Har qanday jinoiy qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo'lishi shart, ulardan biri mavjud bo'lmasa, qilmishni J.emas, deb hisoblashga asos topiladi. J.lar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan; uncha og'ir bo'lmagan; og'ir; o'ta og'ir J.larga bo'linadi. J.lar tajovuz ob'ektiga ko'ra shaxsqa qarshi J., iqtisodiyot sohasidagi J., jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi J., davlat hokimiyatiga qarshi J., ekologiya sohasidagi J., harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi J., tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi J.ga bo'linadi. Aybning shakliga ko'ra esa qasddan sodir etilgan J. va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan J.ga bo'linadi. Shaxs o'z harakati yoki harakatsizligini va bundan kelib chiqib chiqadigan jinoiy oqibatni anglatgan, o'z harakatlarini boshqara oladigan bo'lsagina qilmishi J. hisoblanadi. Sub'ekt yoshiga yetmagan va aqli noraso shaxslar tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish J. sanalmaydi va ularga nisbatan J. qonunida nazarda tutilgan majburlov choralarini qo'llash mumkin emas. O'z.R. Jinoyat kodeksida qilmishning jinoiyiligini istisno etadigan holatlarining quyidagi 6 turi belgilangan: 1) kam ahamiyatli qilmishlar; 2) zaruriy mudofaa; 3) oxirgi zarurat; 4) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish; 5) buyruq yoki boshqa vazifalarni ijro etish; 6) kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq asosli tавakkalchilik (36-41- moddalar)[4].

Tahlil va natijalar. Demak, o'zbek tilida olamning lisoniy manzarasida «jinoyat» konsepti bevosita «gunoh» tushunchasi bilan ifodalanadi. Bunda biz «jinoyat» konseptiga «ikki shoxli tushuncha» sifatida qarashimiz mumkin.



1-chizma. «Jinoyat» konseptining dastlabki tarkibi

1. O'zbekistonda noqonuniy moliyaviy piramidani tashkil etgan Ahmadboy va uning jinoiy sheriklari bilan bog'liq sud ishi bugun o'z yakuniga yetadi. Ya'ni sudya bugun odil hukmni o'qiydi. Ushbu ish Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati sudi tomonidan sudya Dilshod Komilov raisligida ko'rilmogda [6].

2. Hali to'zoni bosilmagan osmonga qarab turgan bir chol do'ng'illadi:

- Boshlagan ishimiz ollo taolaga yoqmadi chog'i. (Said Ahmad. Ufq. 61)

Ko'rib turganimizdek, «jinoyat» konseptining yadrosi «jinoyat» leksemasi va u ikki tushuncha ostida birlashadi. «Gunoh» tushunchasi diniy axloqiy tushuncha bo'lib, u barcha dinlarda o'ziga xos ko'rinishga ega. Gunohlarning behisobligini, unga tegishli tushunchalarni ko'pligini hisobga olib unga alohida konsept sifatida qarash mumkin. Ammo uning yadrosi jinoyat ekanligini bilish mumkin. Shuning uchun jinoyat-gunoh tushunchalarini yonma yon qo'llash o'rindir, ya'ni gunohning asosi jinoyat, jinoyatning tarkiblaridan biri gunoh. Jinoyatning birinchi tarkibi, davlat qonunlariga zid, noqonuniy, aybli va noto'g'ri ijtimoiy xavfli qilmish bo'lsa, ikkinchi tarkibi shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki hattai harakat, deya olamiz.

Ingliz tilida «crime» so'zi «Macmillan English Dictionary»da shunday ta'riflanadi:

1. An illegal activity or action: commit a crime (=do something illegal) *She was unaware that she had committed a crime.*

2. Something that is morally wrong or a mistake: be a crime to do sth. *It would be a crime to waste all that food [6].*

«ABBY LINGVO x5» elektron lug'atida «crime» so'zi *transgression, offence, violation, delinquency, criminality, sin, wrongdoing* so'zlari bilan ifodalanadi va quyidagi ta'riflar beriladi:

1. noun
 - a) an action or omission which constitutes an offence and is punishable by law
 - b) illegal activities
 - c) an action or activity considered to be evil, shameful, or wrong.
2. verb [with obj.] (especially in the army) charge with or find guilty of an offence [6].

«Crime» so'zining etimologiyasiga yuzlansak, «Collins Etymological Dictionary» bo'yicha, lotin tilidagi *crimen* so'zidan olingan bo'lib, *a charge* ma'nosini anglatadi [7, 88]. «Oxford Etymological Dictionary»da ham XIII asrning o'rtalarida qadimiy Fransuz tili orqali lotin tilidan

olinganini ta'kidlaydi: via Old French from Latin *crimen* 'judgement, offence', based on *cernere* 'to judge' [6, 104]. Yana bir «**Online Etymology Dictionary**»da uni *Sin* so'zi bilan bog'laydi: «sinfulness, infraction of laws of God,» from Old French *crimne* «crime mortal sin» (12 c., Modern French *crime*), from Latin *crimen* (genitive *criminis* «charge, indictment, accusation; crime, fault, offence,» which probably is from *cernere* «to decide, to sift» (from PIE root *krei-* «to sieve»), thus «discriminate, distinguish») [7].

Xulosa va takliflar. Ko'rinib turibdiki, ingliz tilida «crime» konsepti «sin» tushunchasi bilan bog'lanadi va bu o'zbek tilida «gunoh» so'zi bilan ifodalanadi. Yuqorida keltirgan «ikki shoxli tushuncha»miz ingliz tiliga ham bo'ysunishini bildiradi. Bunda «crime» konseptini ham yuridik, ham lingvokulturologik tushunchalar ortidan tahlil qilamiz:

«*It was such a horrible sin to kill an aged creature like Sam Cayhall. His crimes were committed a generation ago. He had suffered and died many times in his six-by-nine cell. How would the state benefit by killing him now?*» (John Grisham. The Chamber, 488)

Ye.M.Mikaelyanning nomzodlik dissertatsiyasida «crime» konseptiga uch tomonlama –trinar tushuncha sifatida qaraladi. «Crime» bu inson qonunlarini, «sin» – ilohiy qonunlarni, «vice» – ahloqiy me'yorlarni buzishni o'z ichiga oladi. Aytib o'tilganlarning birinchisi dunyoda sud hukmi bilan jazolanadi, ikkinchisi oxirat dunyosida jazolanadi, uchinchisiga kelsak, behayolikka berilib jismoniy va ma'naviy jihatdan o'zini yo'q qiladi [3]. Yu.G.Yevtushok esa «crime» konseptini «sin» va «wrong» leksemalari bilan bog'laydi va uni, birinchidan, jinoyat konseptining qismlari sifatida ifoda etishni taklif etadi. Ikkinchidan, ular alohida konsept sifatida qo'llanilishi mumkinligini uqtiradi va shunday izohlaydi: «Crime, sin va wrong tushunchalarining lingvistik ifodalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar bitta sohani tashkil etadi. Ularning lisoniy ifodalari bir-biriga mutanosib sinonim ekanliklarini bildiradi. Biroq, bu tushunchalar bir-biri bilan to'liq mos tushishi ehtimoldan holi bo'lishi mumkin, ularning har biri lisonda turli xil shakllanishi olimlar tomonidan tahlil qilingan».

ADABIYOTLAR

1. Abdumajidov G'. A. va boshqalar. Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: «Adolat», 2003. – 266 b.
2. Abdurahmonov G', Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 352 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati/ M.Madvaliev tahriri ostida. 5 jildlik.– Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. K harfi, 2006-2008. –479 b.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2001-2006. – 237 c.
5. Fallows Samuel. A Complete Dictionary of Synonyms and Antonyms. – New York: Fleming H. Revell Company, 1898. – 516 p.
6. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. – London. United Kingdom: Macmillan Publishers Limited, New Edition, 2007. – 1748 p.
7. Merriam-Webster. URL: <https://www.merriam-webster.com/dictionary/neocolonialist>(data dostupa 1.12.2019).



Fotimaxon BAXTIYAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi

F.f.b.f.d. (PhD) D.A.Nasriddinov taqrizi asosida

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDAGI ASTRONOMIYAGA OID TERMINLARNING SEMANTIK TUZILISHI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi astronomiyaga oid terminlarning semantik tuzilishi va ularning xususiyatlari, xususan, terminografiya bo‘yicha, umumiy filologik hamda sohaviy lug‘atlarni tuzish, terminologik birliklarning soha bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni ajratib ko‘rsatish kabi masalalarga amaliy yondashildi. Maqolani yoritishda tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: Terminosistema, leksema, semema, sema, semantik maydon, lug‘at maqola, barqaror birliklar, nutqiy hodisa, terminsemema, leksikografiya, semantik tavsif, terminologik birlik, milliy terminologiya.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С АСТРОНОМИЕЙ, В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ИХ ХАРАКТЕРИСТИКА

Аннотация

В статье семантическая структура астрономических терминов в «Аннотированном словаре узбекского языка» и их характеристика, в частности, в части терминографии создание общефилологических и отраслевых словарей, выделение специфических аспектов терминологических единиц в поле К таким вопросам, как «показ», был применен практический подход. При освещении статьи использовались методы описания, классификации и компонентного анализа.

Ключевые слова: Терминосистема, лексема, семема, сема, семантическое поле, словарная статья, устойчивые единицы, речевое событие, терминсемема, лексикография, семантическое описание, терминологическая единица, национальная терминология.

SEMANTIC STRUCTURE OF TERMS RELATED TO ASTRONOMY IN EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR CHARACTERISTICS

Annotation

In the article, the semantic structure of astronomical terms in the "Annotated dictionary of the Uzbek language" and their characteristics, in particular, in terms of terminography, the creation of general philological and sectoral dictionaries, distinguishing the specific aspects of terminological units in the field A practical approach was taken to issues such as 'showing'. Description, classification, and component analysis methods were used in the coverage of the article.

Key words: Terminosistem, lexeme, sememe, sema, semantic field, dictionary article, stable units, speech event, terminsememe, lexicography, semantic description, terminological unit, national terminology.

Kirish. Milliy tilshunosligimizda astronomiyaga oid terminlar alohida terminosistemani tashkil etadi. Shu bois, O‘TILda mavjud astronomiyaga oid terminlarning semantik tuzilishida allomorfik va izomorfik jihatlarni aniqlash kabi masalalarning yechimi terminlarning kontekstdagi mavjud imkoniyatlarini tadqiq qilish orqali ularning muayyan semantik guruhlariga o‘rinli birlashtirilishi, shuningdek, astronomiyaga oid tushunchalarning onomastik xususiyatlarini asoslash va shu asosda ularni lug‘atda berish mezonlarini ishlab chiqish kabi jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish o‘rinli, leksema va ularning semalarini belgilashda hamda ko‘p sememali leksemalarni aniqlashda bugungi kunga qadar ishonchli manba vazifasini joriy O‘TIL bajarib kelmoqda. Tilshunoslikning leksik sathida alohida sistema sifatida qaraladigan astronomiyaga oid leksemalar hamda ularning ma‘noviy tabiati shuningdek, lisoniy qiymati kabi jihatlarni aniqlashtirish bo‘yicha astronomiyaga oid terminosistema leksemalarining semantik tarkibi, tabiatiga oid muammoli vaziyatlarda ham suyanadigan asosiy manba “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” hisoblanadi. Shu boisdan O‘TIL(2 tomli va 5 jildli)da mavjud astr. belgili terminlarning semantik tavsifini tadqiq qilish va umumiy xulosalash orqali ushbu terminlarning izohli lug‘atda berilishiga doir mezonlarni

aniqlash, ularni yanada mukammallashtirish va tartiblash maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til sistem tuzilishiga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Sistem-struktur tilshunosligining asoschisi Sossyur tilning sistema ekanligini izohlar ekan, jumladan shunday deydi: “Til belgilari, hodisalari o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini belgilaydi va mantiqiy, zaruriy aloqaga kirishib, bir butunlikni-til sistemasini hosil qiladi. Til g‘oya, fikr, ma‘no tashuvchi belgilar sistemasidir. U ikki tomonga: ifoda tomoni(ifodalovchi) va mazmun tomoni(ifodalanuvchi)ga ega bo‘lgan shartli, ixtiyoriy birlikdir. Ular moddiy va ruhiy tomonlar ya‘ni, tovush va ma‘no birligidan iborat bo‘lib, o‘zaro dialektik bog‘liklikda bitta ijtimoiy vazifani bajaradi, fikr almashuvni-kommunikativ jarayonni ta‘minlaydi”[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Fikr almashuvni-kommunikativ jarayonni ta‘minlovchi bu butunlik “mazmunli” va “maqsadli” bo‘ladi. Ya‘ni tilning turli sathlari ierarxik jihatdan bir-birini taqozo etganidek (matn qo‘shma gaplarga, qo‘shma gaplar sodda gaplarga, sodda gaplar so‘z birikmalariga, so‘z birikmalari so‘zlarga, so‘zlar morfemalarga, morfemalar esa fonemalarga bo‘linganidek), leksema mazmuni ham (LMS nazarda tutilgan) tarkibiy qismlarga bo‘linadi. Bunda so‘z ma‘nosini tarkibiy qism(komponent- sema)larga

ajratishdan ko'zlangan maqsad, har bir semaning so'z ma'nosi-semema tarkibidagi ahamiyati, o'rni va kontekstual yoki nutqiy imkonini aniqlash, belgilash va shu orqali har bir mantiqan ajratilgan zaruriy bo'lak(sema)larning so'z ma'nosi tarkibidagi "quvvati"ni aniqlashdan iboratdir. Mazmunli va maqsadli butunlik esa ko'plab elementlardan iboratligi, bir butunlikni tashkil etuvchi element ekanligi shuningdek, elementlar o'rtasidagi barqaror munosabatlarning mavjudligi[2] bilan xarakterlidir.

Tahlil va natijalar. Ko'rinadiki, bu o'rinda sema va sememalarning o'zaro bog'liqligi butun va bo'lak nuqtai nazaridan baholanadi. Bu barcha terminologik sistemalar uchun xos. Shu jumladan, o'zbek tilining astronomiyaga oid terminologik sistemasi uchun ham. Astronomiyaga oid terminologik tizim tarkibida osmon mexanikasi, kimyo, matematika, fizika, biologiya, geografiya kabi fan sohalariga oid ko'plab terminlar mavjud. Ular umumiy "astronomiya" mazmuniy maydoni ostida birlashib, astrofizika, astrometriya, astrobiologiya, geoastronomiya kabi denotativ tushunchalarni ifodalovchi lisoniy yaxlitliklarni yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, F. de Sossyur tilshunoslar diqqatini lingvistik birliklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, munosabatning paradigmatic va sintagmatic turlari mavjudligini ko'rsatgan edi[3]. Lingvistik birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. Lingvistikada "ma'no" (mazmun) umumiyliigi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilandi. Tilshunoslikda, ayniqsa, semantik maydon nazariyasi keng ommalashdi. Semantik maydonga ta'rif berishda olimlarning fikri turlicha: Masalan, O.S.Axmanovning lug'atida unga shunday ta'rif beriladi: 1) semantik maydon - bu voqelikning insoniy tajriba orqali ajratilgan va nazariy jihatdan muayyan tilda u yoki bu tarzda avtonom leksik mikrosistemaga ega bo'lgan qismidir; 2) tematik qatorni tashkil qiluvchi so'z va ifodalarning yig'indisi; o'z yig'indisi bilan ma'nolarning ma'lum sohasini belgilovchi tilning so'z va ifodalari[4]dir.

Karaulov semantik maydon tushunchasi ostida bir tilda bir-biri bilan mazmunan bog'langan so'zlar guruhini tushunadi[5]. O.V.Sivergina uchun semantik maydon - bu bir xil ma'no bilan xarakterlanadigan va semantik maydonda belgilangan belgiga ko'ra birlashadigan so'zlar guruhidir[6].

Kuzatishlardan aniq bo'ldiki, tilshunoslikda maydon nazariyasi borasida bajarilgan bir qancha tadqiqotlarda maydonlarni ajratish va tushinishda qator ilg'or fikrlar yuzaga kelgan[7]. Demak, maydon "umumiy belgi atrofida birlashadigan va o'ziga xos belgilari bilan ana shu umumiy belgiga ziddiyatda turadigan birliklar"[8] Demak, maydon "umumiy belgi atdan tuzilishi lozim. Terminologik sistemalarga aynan muvofiq bo'lgan ushbu fikr asosini astronomiyaga oid terminlar misolida ham ko'rish mumkin. O'TILda berilgan astronomiyaga oid terminlarning umumiy belgi atrofida birlashib, o'ziga xos belgilari bilan ana shu umumiy belgiga ziddiyat hosil qila olishi izohli lug'atdagi astr. belgili terminlarning o'z semantik maydoniga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan astronomiyaga oid terminlarning semantik maydon hosil qilishiga doir misollarga murojaat qilamiz:

Qo'y, Qisqichbaqa, Tarozi terminsememalari "burj nomlari", "oylarning nomlanishi" semalari bilan umumiylikni

hosil qilgan holda, "bahor", "yoz", "kuz" semalari bilan o'zaro farqlanmoqda. Yoki: Yer, Yupiter, Merkuriy kabi astr. belgili terminsememalar umumiy "osmon jismi", "planeta nomi" semalari orqali bir semantik maydonga birlashmoqda va shu jarayonning o'zida "hayot mavjud", "hayot mavjud emas" semalari orqali differensiyalashmoqda.

Yana ko'rishimiz mumkin: apogey va perigey terminsememalari ham "Oy orbitasi", "Erning sun'iy yo'ldoshi" komponentlari orqali umumiylikni aks ettirish bilan bir qatorda, "Er markaziga eng yaqin" va "Er markaziga eng uzoq" kabi farqlovchi semalari orqali xususiylashmoqda.

O'TILda mazmuniy semantik maydon hosil qiluvchi astronomiyaga oid terminlarga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin: Masalan, meteorit va yulduz terminsememalari "osmon jismi", "astronomiyaga oid" semalari bilan umumiylikni, "stratosferani yorib Yer qatlamiga kirib kelgan va hali yonib rofida birlashadigan va o'ziga xos belgilari bilan ana shu umumiy belgiga ziddiyatda turadigan birliklar" tugamagan qaynoq jism", "issiq gazlardan tashkil topgan samoviy jism" semalari orqali xususiylikni; atmosfera, stratosfera, ozonosfera sememalari esa, "havo qobig'i" semasi bilan umumiylikni, "Erni o'rab turgan va u bilan aylanadigan havo", "Er bilan koinotni ajratib turadigan havo", "Erdagi tiriklikni ta'minlovchi havo" semalari orqali xususiylikni; osmon, fazo, giperfazo, koinot kabi terminsememalari ham o'zaro "bo'shliq" semasi bilan umumiylikni, "qamrov", "kenglik" va "Yerdan gumbazsimon ko'rinish" semalari orqali xususiylikni ifodalab, astronomiyaga oid terminlarning semantik maydonini hosil qilmoqda.

Semasiologiya tilshunoslikning ma'no haqidagi sohasidir. Unda lug'aviy birliklarning mazmuniy tuzilishi o'rganiladi. Leksemaning mazmuniy tuzilishi tarkibi leksema, semema va ma'no ottenkalari(denotativ, konnotativ va ekspressiv)dan iborat bo'ladi. Ana shunday LMS+turli ma'no ottenkalarga ega bo'lgan terminlar(leksema, semema, sema) "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan astr. belgili terminlarning ozchilik qismini tashkil etadi. Bunday terminlar, asosan, o'z qatlamga doir xalq tilidan olingan terminlardir. Masalan, Cho'lpon, Hulkar, Qoraqush (Yupiterning xalq tilidagi nomi) sememalari denotativ ma'noga (Cho'lpon, Hulkar-eng yorug' yulduz, Qoraqush-nur taratmaydigan sovuq planeta); konnotativ ma'noga(Cho'lpon, Hulkar-"ijobiy", Qoraqush-"salbiy") va emosional-ekspressivlik (Cho'lpon+emosiya, Hulkar+emosiya, Qoraqush+emosiya) xususiyatlariga ega. O'TILdagi astronomiyaga oid LSS(leksema, semema, semema) tarkibli terminlarga misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: ekvator(Er sharini Sharq va G'arbga bo'lib turgan chiziq), ekvatorial(teleskop nomi); astronom, astronomik, astronomiya.

Xulosa va takliflar. Milliy tilshunosligimizda mazkur yo'nalish bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: 1. Sistem tilshunoslik va sistem leksikologiyaning umumiy nazariy masalalariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari. 2. So'zlarning shakl va ma'no munosabatlarini tadqiq qilish asosida lug'atlar va glossariylar yaratish.

3. Semantik maydon nazariyasi asosida sohalararo alohida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.

Bizning izlanishlarimiz yuqorida keltirilgan ilmiy-tadqiqotlarning birinchi guruhiga muvofiq kelgan holda, o'zbek tilshunosligida sistem tilshunoslik va sistem leksikologiyaning umumiy nazariy masalalariga doir bajarilayotgan ishlarning rivojlanishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Majidova R.U., Muxitdinova X.S. Umumiy tilshunoslik fanidan ma'ruzalar to'plami.-Toshkent, 2016.-B.77.

2. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv.-Toshkent:Fan, 2007.-B.46.
3. Sosyur F. Kurs obshey lingvistiki. M., 1979.
4. Axmanova O.S. Slovar' lingvisticheskix terminov.–M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1966.-606 s.
5. Karaulov Yu.N. Struktura leksiko-semanticheskogo polya // Filologicheskie nauki. 1972, № 1.-S.57.
6. Sivergina O.V. Glubinnaya i poverxnostnaya strukturi semanticheskogo polya // Lingvistika i metodika prepodavaniya inostrannix yazikov. –M., 1976.-S.193.
7. Bu haqda to'liq ma'lumot olish uchun qarang: Ufimseva A. A. Teoriya «semanticheskogo polya» i vozmojnosti ix primeneniya pri izuchenii slovarnogo sostava yazika // Voprosi teorii yazika v sovremennoy zarubejnoj lingvistike. – M., 1961. – S. 28-44. Shur G. S. Teoriya polya v lingvistike. – M.-L., 1974. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent, 1995. Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish. Toshkent, 1998. Nurmonov A, Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Toshkent, 2001. – B. 91-94.
8. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar'. – M., 1990. S. 380



E’zoza BOZOROVA,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: ezozacon@gmail.com

PhD Z.Pardayev taqrizi asosida

VARIETY OF THEMES IN QUTLIBEKA RAHIMBOYEVA’S POETRY

Annotation

In this article, the work of the poetess Qutlibeka Rahimboyeva is analyzed based on the books “I saw in my heart”, “Long days”, “Awakening season”, “Freedom”, “Tangritog in my bosom”, “My black eyes”. The topics and classification of the poet’s poetry were studied. The specific features of her works are shown.

Key words: Poetry, era, sociality, landscape lyrics, heart lyrics, philosophical lyrics, spirituality, dedication.

РАЗНООБРАЗИЕ ТЕМ В ПОЭЗИИ КУТЛИБЕКИ РАХИМБОЕВОЙ

Аннотация

В данной статье анализируются стихи поэтессы Кутлибеки Рахимбоевой на материале таких книг, как «Я увидел в сердце своем», «Долгие дни», «Сезон пробуждения», «Свобода», «Тангригог в груди моей», «Мои черные глаза». Изучены предметный охват и классификация поэзии поэта. Показаны специфические черты его стихов.

Ключевое слово: Поэзия, эпоха, социальность, пейзажная лирика, сердечная лирика, философская лирика, одухотворенность, посвящение стихотворения.

QUTLIBEKA RAHIMBOYEVA SHE’RIYATINING MAVZU KO’LAMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoira Qutlibeka Rahimboyeva ijodi “Yuragimda ko‘rganlarim”, “Uzun kunduzlar”, “Uyg‘onish fasli”, “Ozodlik”, “Ko‘ksimdagi Tangritog”, “Qorako‘zlarim” kabi to‘plamlari asosida tahlil qilingan. Shoira she‘riyatining mavzu ko‘lami va tasnifi o‘rganilgan. Asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: She‘riyat, davr, ijtimoiylik, peyzaj asar, ko‘ngil lirikasi, falsafiy lirika, ruhiyat, bag‘ishlov.

Kirish. XX asrning 70-yillarida o‘zbek she‘riyatida Cho‘lpon, Hamza, Oybek, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Zulfiya, U.Nosir, E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, H.Xudoyberdiyeva kabi shoirlarga munosib izdosh bo‘la olgan yangi avlod paydo bo‘ldi. Bu davrda U.Azim, Sh.Rahmon, Q.Rahimboyeva singari iste‘dodlar ijodida g‘oyaviy-estetik qarashlarning badiiy tadrijini kuzatish mumkin. Yangi avlod vakillari o‘z davrigacha bo‘lgan milliy adabiyotimiz an‘analari bilan bir qatorda, jahon she‘riyati tajribalaridan ham unumli foydalandilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr o‘zbek she‘riyatidagi poetik masalalar M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, I.G‘afurov, I.Haqqulov, S.Meliyev, Q.Yo‘ldoshev, N.Jabborov, U.Hamdov va yana ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, O.Sharafiddinov o‘tgan asrning 70-yillarida ijod maydoniga kirib kelgan shoirlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “1976-yil poeziyasining xususiyatlari haqida gapirganda yosh shoirlar ham g‘oyat qunt bilan barakali ijod qilganligini ta‘kidlash lozim...Yosh shoirlar ichida bo‘sunlik Usmon Azimov, samarqandlik Xosiyat Bobomurodova va Xurshid Davron, o‘shlik Shavkat Rahmon, qo‘qonlik Maqsuda Egamberdiyeva, Yodgor Obidov, Shukur Qurbonov, toshovuzlik Qutlibeka Rahimboyevalarning asarlari ajralib turadi – ularda izlanish kuchli, o‘ziga xoslikka intilish bor, eng muhimi esa, bu yoshlar she‘rida hali o‘zigacha hech kim aytmagan gaplarni topib aytishga intilishayapti”[1]. Garchi, bu mulohazalar shoirlarning dastlabki she‘rlariga bag‘ishlansa-da, kelajakdagi ijodlari uchun ham yuksak baho bo‘la olgan. Hozirgi o‘zbek adabiyotini sanab o‘tilgan ijodkorlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan Qutlibeka Rahimboyeva she‘riyatiga e‘tiborimizni qaratamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Qutlibeka Rahimboyeva she‘riyati toza hislar bilan himoyalangan qalb, baland ruh, falsafiy mushohada bilan o‘quvchiga ko‘tarinkilik va huzur bag‘ishlaydi. Adabiyotshunos N.Jabborov shoira ijodi xususida shunday deydi: “Qutlibekaning “Qorako‘zlarim” to‘plamidagi she‘rlar metaforalarga boy. Shu bois ular badiiy jihatdan talab darajasida, ta‘sirchan:

Oyning huqqasidan kumush keltirsam,

Yulduz tokchasidan idish keltirsam,

Nayson bulutidan yog‘ish keltirsam,

Darmon bo‘larmanmi dardlaringizga.

“Oyning huqqasi (qutichasi)”, “Yulduz tokchasi” metaforalari, birinchidan, she‘rning badiiyatini ta‘minlagan bo‘lsa, ikkinchidan, qutichadan kumush, tokchadan idish keltirish birikmalari muallifning ayol zotiga mansub ekanini ko‘rsatishi jihatidan ham ahamiyatlidir. Umuman, bu toifaga xos nazokat, ulargagina tegishli nafasat sezilib turishi ayollar she‘riyatining fazilati sifatida baholanishi zarur. Mazkur she‘rdagi “Darmon bo‘larmanmi dardlaringizga” misrasi yurakka yaqin, xalqona ibora ekani bilan fikrning ta‘sir kuchini oshirgan”[2].

Tahlil va natijalar. Shoira lirikasining mavzu ko‘lami keng. Uning ijodida erk, ozodlik, Vatan baxti, qadrdon qishloq sog‘inchi kabi mavzular bilan bir qatorda, she‘riyat, tabiat go‘zalliklari, lirik “men” ning onaga, farzandga, yorga, yaqinlariga eng samimiy tuyg‘ulari, atrofida kechgan voqea-hodisalarga nisbatan tuygan hislari, qalban ardoqlangan tarixiy shaxslar yodi, asl tuyg‘ular madhi, o‘z-o‘zini so‘roqlash kabi turli mavzular bor. Bu mavzularni bir-biriga bog‘lab turuvchi umumiy jihat ham mavjud, ya‘ni lirik qahramon yoxud lirik “men”ning har gal qaytadigan yagona joyi uning ko‘nglidir. Qaytiladigan manzil esa “kichik bir yurak” emas, balki

“bo‘ronlardan kuchli, osmondan ulkan” tuyg‘ular to‘kilgan makon. Shuning uchun ham u qaytishga arziydi. Shoiraning nazdida, tuyg‘ularsiz yashab o‘tilgan umr ilon kabi sudralib yurish bilan teng:

Vahima demagin, cho‘chima hech ham,
Zulumot bir chaqa. Bu – buyuk oqshom.
Faqatgina, do‘stim, oydin yo‘llarda
Bo‘m-bo‘sh yurak bilan sudralmoq – daxshat [7].

Qutlibeka barcha tuyg‘ularni muhabbatga yaqin bo‘lishini istaydi. Aksincha bo‘lgan tuyg‘ularga esa uning aytar so‘zi bor:

Dunyoda muhabbatdan yiroq hislarning,
Yiroq tuyg‘ularning o‘lgani yaxshi [3]!
Shoira she‘rlarida muhabbat ayol qalbining nozikligi, nafisligini saqlab qoluvchi kuch sifatida tilga olinadi. U “Ayol” she‘rida shunday deydi :

Garchand ko‘zortardir, davlatmand, to‘qdir,
Sizdan tashqarida muhabbat yo‘qdir,
Meni qamab qo‘ying o‘z ichingizga [7].

Shoiraning “Xayol” deb nomlangan she‘rida esa lirik “men” ishq-muhabbatdan boshqa barcha so‘zlarni o‘chirib tashlashga ham tayyor:

Yomg‘ir yuvar ikkov solgan izlarni,
Bir Olohd xabardor bo‘lar bizlardan.
“Ishq”dan boshqa barcha bilgan so‘zlarni
O‘chirib tashlaymiz lug‘atimizdan[7].

Qutlibeka Rahimboyeva ijodida tabiatga muhabbat, uning go‘zalligiga havas va hayrat tuyg‘ulari aks etgan she‘rlar ham talaygina. Shoira bahor tabiati, gullar, maysalar, yomg‘ir, kamalak va rangin kengliklarni hammadan ko‘proq sevadi. Tabiatning bu go‘zal pallasida uning vujudi ishq bilan, hayrat bilan mast bo‘ladi va shunday duo qiladi:

Hayratimning umri, ishqimning umri,
O‘zimning umrimdan uzunroq bo‘lsin [3]!

Ijodkor kuz faslini ham bahordan kam ko‘rmaydi. Daraxtlarning bag‘ri bo‘shasa-da, yaproqlarning jilmayganini ko‘radi, faqat kuzdagina quyoshga to‘yguncha termulish mumkinligini anglaydi. Bahor va yozlarda tabiatni chiroyli deb sevgani uchun kuzdan, kuzgi yaproqlar-u yomg‘irdan tiz cho‘kib uzrlar so‘raydi:

Jonim daraxtlarim, yaprog‘im, gulim,
Yuksaklardan kelgan, azizim yomg‘ir,
Moviy bahorlarda, cho‘g‘li yozlarda
Faqat chiroyli deb sevganim uchun
Tiz cho‘kib uzrlar so‘rayman hozir[7].

Qutlibeka she‘riyatidagi peyzaj asarlarda lirik qahramonning o‘ylari, orzu-armonlari tabiat manzarasi bilan qorishib ketgan. Shoiraning “Tong otsa...” she‘rida ozodlik sog‘inchi bor bo‘y-bastini ko‘rsatgan:

Tong otsa, bir suvday suluvligim bor,
Tong otsa, ipakday kulaman mayin.
Faqat bu kechaning o‘tmog‘i dushvor,
Faqat bu tonglarning otmog‘i qiyin...
Nega men istagan tong otmas, nega?
O‘z qalbinga o‘zim emasman ega[7]?

Shoiraning vatanga muhabbatida ham o‘ziga xos samimiylilik bor:

Yomg‘irlar yog‘adi, shamollar esar,
Go‘yo yo‘q hech qanday mo‘jiza-yu sir.
Baribir, quvonchim, armonim bilan
Shu yerda yashagim kelar bir umr[3].

Qutlibeka Rahimboyeva she‘riyatida ona, vatan va ozodlik sog‘inchi egizaklarday bir-biriga o‘xshash. Shoira onasidan uzoqda bo‘lgan kezlari uni “hech chidab bo‘lgusiz” bir istak qiynayveradi:

Endi quvonchimni og‘rita boshlar
Hech chidab bo‘lgusiz yana bir istak.

Qaniydi shu dam yo‘q ilojni topib,
Bag‘rida siz turgan qorachig‘imga
Intiq lablarimni entikib bossam[3].

Shoira ijodida bag‘ishlov she‘rlar ham yetakchi o‘rinni egallaydi. “Muhtarama Zulfiya opaga”, “Xalima opamga”, “Munajotxononga”, “Munavvarxononga”, “Onamga”, “O‘g‘limga”, “Qizimga”, “Soriyaga”, “Ozoda singlimga”, “Tanish ayolga”, “Shoir do‘stlarimga”, “Paxtakor singlimga” kabilar shular jumlasidandir. Bunday she‘rlarda ijodkorning yaqinlariga bo‘lgan tuyg‘usi, ular bilan bog‘liq xotiralar yoxud chorlov aks ettirilgan. Bobur va Cho‘lponga o‘zgacha muhabbati bor shoira ular haqida bir qancha she‘rlar yozgan. Boburning vatan sog‘inchini o‘z ichida kechirgan va Cho‘lponning buyuk ishqini his qilgan Qutlibeka ular ijodidan ta’sirlanib she‘rlariga nazira ham bog‘laydi. “Tuz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” deb boshlanuvchi ruboiydan ilhom olgan shoira “Kuz” she‘rini shunday yakunlaydi:

Bulut qayta butlangan qalqon,
Shamol qilich, daraxtlar zirlar.
Ajb faqat ko‘rinmaydi qon,
Shitob yuvar g‘assol yomg‘irlar.
Tuz oh... Bikajon[5].

Qutlibeka Cho‘lponning “Sozim” she‘rida hukm bo‘lib jaranglagan “Haq yo‘li, albatta, bir o‘tilg‘usi” misrasidan g‘oyat ta’sirlanadi. “Haq yo‘li” deb nomlangan she‘ri yakunida shu misrani aynan keltiradi:

Til bergin, dil bergin, qo‘l bergin,
Hech yo‘qsa, bir oyoq yo‘l bergin,
“Haq yo‘li, albatta, bir o‘tilg‘usi”[6].

Shoiraning “Men” deb nomlangan turkum she‘rlari o‘nta she‘rdan iborat. “Hurmat bilan o‘zimga bag‘ishladim” deb epigraf qo‘yilgan bu she‘rlarni Qutlibeka Rahimboyevaning ko‘ngil olami aks etgan ko‘zgu, deyish mumkin. Shoira she‘rlarida goh muhabbat bilan mashg‘ul ekanligini oshkor etsa, goh o‘zini yurt ozodligi uchun kurasha olmayotgandek nadomat qiladi. Bunday vaqtlarda ena yurtining lirik “men” yuragiga o‘q sanchishini xohlab qoladi. O‘z botiniga achchiq kinoya va nafratini socha boshlaydi:

Jasorat – o‘raga ko‘mik mix,
Adolat maysaga qo‘ngan chig‘i,
Talangan xonlikdir iqtisod,
Nafsdir bizdagi yomg‘ir bisot.
So‘zingizga gullar qadaysiz, Bikam,
O‘lgingiz kelmasa chidaysiz, Bikam[5].

Qutlibeka Rahimboyeva she‘rlari davrlashtirilganda, ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

Mustaqillik davrigacha bo‘lgan she‘rlar;
Mustaqillik davridagi she‘rlar.

Shoira ijodidagi mustaqillik davrigacha bo‘lgan she‘rlarda paxta dalalaridagi og‘ir mehnat, ayollarning ayolligini unuttirgan, bolalarni ulg‘aytirib qo‘ygan mashaqqatli davr, afg‘on urushi fojealari, qullikka isyon, ozodlikni qo‘msash, hurriyatga da‘vat kabi mavzular yetakchilik qiladi.

Mustaqillik davridagi ijodda esa erkni qadrlash, uni har kim va har narsadan qizg‘onish, baxtiyorlik nafasi, shukronalik hissi, diniy qadriyatlar aks etgan mavzular asosiy o‘rinni egallaydi:

Sevgan ko‘z izi bor – nazarli yurtim,
Ildiz bergan kuchdan no‘zarli yurtim,
Kimligin bilgan kun o‘zarli yurtim,
Siz uchun Tangrimga shukrim ko‘p mening[7].

Shoiraning ikki davrdagi she‘rlarida ham o‘zgarmas ruhiyati sezilib turadi. U she‘rlaridan birida shunday deydi:

Ruhim, bunday ketmaklik og‘ir,
Meni yechib tashla, tezroq bo‘l.
Cho‘ksang, baland ko‘kka cho‘k, axir,

O'lsang, yulduz bo'g'izida o'l[7].

Qutlibeka Rahimboevaning yaqin kunlarda nashr etilishi rejalashtirilgan "Saylanma" sini nashrga tayyorlovchi va kirish so'z muallifi adabiyotshunos Marhabo Qo'chqorova shoira she'rlarini mavzu nuqtai nazardan "ijtimoiy", "peyzaj" va "ko'ngil lirikasi deb, uchga ajratib o'rganish mumkin"[8:9]ligini aytadi. Biz bu tasnifni yoqlagan holda, ular tarkibiga falsafiy lirikani ham qo'shishni ma'qul topdik. Nazarimizda, shoira ijodidagi ayrim she'rlarda falsafiylik ijtimoiylikdan, peyzaj yoki ko'ngil lirikasidan ham ustunroq turadi. Quyidagi she'rni ana shunday she'rlar qatorida sanash mumkin:

"Chiroqni yoq", – deysiz,
Hadeb qistaysiz.

Oling, ana yoqdim –
deylik, shu bilan
o'zgarib qoldimi,
Sizningcha, dunyo[4]?

Xulosa va takliflar. Qutlibeka Rahimboeva she'riyati eng samimiy tuyg'ular bilan yo'g'rilgani, ruhiyatning baland ekani, o'quvchini mustaqil mushohada yuritishga undovchi teran mulohazalarga boyligi bilan qimmatli she'riyat darajasiga ko'tarila olgan, deyish mumkin. Shoira ijodida ayol qalbining nozik kechinmalari, xalqning mardona tabiati, Yaratganga cheksiz muhabbat va tubanlikka nafrat tuyg'ulari yuksak pafos bilan ifodalangan. O'zlikni anglash, ruhni tarbiyalash, ko'ngilni chirkini illatlardan himoya qilish Qutlibeka she'rlarining bosh g'oyasidir.

ADABIYOTLAR

1. Sharafiddinov O. Talant – xalq mulki. – T., Yosh gvardiya, 1979. – B.89-90.
2. Jabborov N. Zamon. Me'zon. She'riyat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – B.25.
3. Qutlibeka Rahimboeva. Yuragimda ko'rganlarim: She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – B.48.
4. Qutlibeka Rahimboeva. Uzun kunduzlar: She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – B.52.
5. Qutlibeka. Ozodlik: She'rlar. – T.: "Yozuvchi", 1997. – B.72.
6. Qutlibeka. Ko'ksimdagi Tangritog': She'rlar. – T.: "Sharq", 2002. – B. 64.
7. Qutlibeka. Qorako'zlarim: She'rlar, tarjimalar. – T.: "Adib" nashriyoti, 2012. – B.168.
8. Qutlibeka Rahimboeva. Saylanma: She'rlar. – Toshkent, 2023. (Elektron shaklda)



UDK: 415.61=21(045)

Fayoza BURIYEVA,
Qarshi DU o'qituvchisi
E-mail:fayozabaxriddinovna@gmail.com

Qarshi DU f.f.f d.P.Qurbonov taqrizi ostida

V. SHEKSPIR VA A. NAVOIYNING ADABIY MEROSIDA TIPOLOGIK O‘XSHASHLIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Bu maqola Uilyam Shekspir va Alisher Navoiyning mo'jizalar olamidagi she'riyat olamining noyob durdonalari ekanligi, V.Shekspir esa G'arb adabiyoti olamidagi, A.Navoiy esa Sharq adabiyoti olamidagi inqilob qilganligi, ingliz, va turk tilida badiiy adabiyotning nufuzini oshirganligi, yuzasidan kuzatish va tahlillar atroflicha tahlil va tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: She'riyat, tarixiy, adabiy-madaniy, madaniy, an'analar, tarixchilar, tipologik tahlil, madaniyat o'xshashligi.

ЗНАЧЕНИЕ ТИПОЛОГИЧЕСКОГО СХОДСТВА В ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ В. ШЕКСПИРА И А. НАВОИ

Аннотация

В статье говорится о Вильяме Шекспире и Алишере Навои, которые являются уникальными шедеврами мировой поэзии. В. Шекспир произвел революцию в мире западной литературы, а А.Навои произвел революцию в мире восточной литературы. В статье анализируются и исследуются творчество великих творцов, которые увеличили престиж английской и тюркской художественной литературы.

Ключевые слова: Поэзия, историческое, литературно-культурное, культурное, традиции, историки, типологический анализ, сходство культур.

THE IMPORTANCE OF TYPOLOGICAL SIMILARITY IN THE LITERARY HERITAGE OF V. SHAKESPEARE AND A. NAVOI

Annotation

This article is about the fact that William Shakespeare and Alisher Navoi are unique masterpieces of the world of poetry in the world of miracles, and V. Shakespeare revolutionized the world of Western literature, and A. Navoi revolutionized the world of Eastern literature, and increased the prestige of English and Turkish fiction. Observations and analyzes are thoroughly analyzed and researched.

Key words: Poetry, historical, literary-cultural, cultural, traditions, historians, typological analysis, similarity of culture.

Introduction. A comparative study of the artistic aspects of the works of W.Shakespeare (1564-1616) and A. Navoi (1441-1501) may seem like a very difficult task for many lovers of literature. Research in the field of comparing the artistic mastery aspects of the work of these two poets has not yet been studied in literary criticism.

So, there are still important tasks ahead, such as the full disclosure of typological identities in the "literary-cultural" relations of the West and the East. In this context, we will try below to highlight the important places of typological similarities in literary heritage of Shakespeare and Navoi. The basis of our typological analysis is the similarities of Shakespeare's personality, genius and Navoi in the historical and cultural conditions in which they lived and worked.

It is known that Navoi's personality and genius are closely connected with Herat. In the first half of the XV century, Herat rose to the level of the cultural center of Khorasan, and in the second half, "that period became one of the main centers of the East". Science, especially literature, art, calligraphy, handicrafts, and architecture flourished. According to the sources, Herat had become the land of the most highly skilled craftsmen, architects, craftsmen, artists, calligraphers, in general, and various talented great personalities whose names are still mentioned. According to Bobur, "rub'i maskunda andoq shahr yo'qtur". Navoi played a significant role in the development of beautification and culture in Herat. Herat became a center of creativity, created pamphlets,

commentaries, historical works on fiction, lyric, ethics, calligraphy, painting, music.

Development and prosperity can be seen not only in literature and art, but also in all areas of culture and economics. Clear information about this is given in the works of historians such as Sharafiddin Ali Yazdi, Ibn Arabshah, Mirkhand, Khandamir. Babur writes about the general activity and rise in Khorasan during the reign of the Timurid Sultan Hussein Boykaro: "The time of Sultan Hussein Mirza was a wonderful time. The people of Khorasan and the city of Herat were blessed. Everyone had a job to do, and his devotion and zeal were perfect. During the reign of Sultan Husayn Mirza, the ornaments of Herat flourished together under Mirza's rule and respectfully.

Shakespeare's life and work are inextricably linked with London. It is known that the War of the White and Red Roses (1455-1485) ended with the victory of Henry Tudor, the youngest representative of the Lancaster dynasty. In the second half of the fifteenth century, a system of absolutism was established in England. The reign of Henry VIII and Elizabeth Tudor (16th century) of this system is a period of positive change for England. England embarked on a path of development and in the second half of the 16th century became a rival of Spain in terms of military power and political position.

In the naval battle of 1588, England defeated the Invincible Armada and became king of the seas. During this

period Britain became more self-confident and became a major political, economic and cultural center.

The similarities in social, cultural and enlightenment life of London and Herat is not entirely coincidental, but it reflects the similarities of certain historical processes that took place in Khorasan and in England in the fifteenth and sixteenth centuries, in other words, a single universal historical process.

Literature review. About this, N.I. Conrad writes: "The Renaissance is not only the history of the Italian people, that is, it is not a coincidence in the historical life of mankind, it is a period in the history of ancient peoples with its antiquity, the Middle Ages." It is known that this period, emphasized by academician N.I. Konrad, is known in scientific literature as the Renaissance. Many scholars have done research on the study of Renaissance culture in Europe and the East. [9;85]

The scholars such as I.Muminov, V.Zohidov, M.Khayrullaev, A.Kayumov, F.Sulaymonova, I.M.Filshinsky, I.S.Braginsky, V.B.Nikitina, V.Chaloyan on the history of literature of the peoples of the East "In the East, including Central Asia, during the tenth and fifteenth centuries, there was a great cultural upsurge - the Renaissance, which embodied the main features of the European Renaissance of the fourteenth and sixteenth centuries. The ideas of humanity, active struggle, and extraordinary development in the field of art and literature that arose in Western Europe at this time were established in Central Asia several centuries ago. The East Renaissance produced great scholars, encyclopedic scholars, heroes of thought and creativity, Muhammad Khorezmi, Ahmad al-Farghani, Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Abu Abdullah Rudaki, Abulqasim Firdavsi, Abu Ali Ibn Sino, Hafiz Sherozi, Sheikh Saadi, Jalaliddin Rumi, Mirzo Ulugbek, Abdurahman Jami and finally, the great Alisher Navoi is one of such alpine figures."

At this point, we would like to pay great attention to another aspect of this problem, which, according to scientist U.M. Stein, was not a cultural crisis in the East. Unlike the West, where religious darkness reigned after the Hellenistic era, science and art flourished. Literary critic F. Sulaymonova in her book "East and West" echoes this view: N.I. Konrad was the first to link the existence of the Renaissance in the East, including in the history of Central Asia, with the fact that these countries have a continuously developed ancient culture.

An addition to emphasizing that Italy, which marked the first Renaissance in its historical development, has a centuries-old antiquity, the scholar writes the following just words about the culture formed in Central Asia: We know that in these centuries there was a high level of science, philosophy and enlightenment.

Research methodology. It is also known that al-Khwarizmi and al-Beruni and other great contemporaries of these development mastered the philosophical and scientific heritage of antiquity and created the direction of scientific and philosophical thinking of that period. They rely on the sources of great ancient civilizations connected with their historical destiny Central Asia has long served as a crossroads and also was one of the centers of civilization and human civilizations. In this regard, academician M. Khairullaev argues that "despite the differences in the culture of the Renaissance in Europe and the East, there is an ideological connection between them, and they appear as different aspects of world culture, the general process of world philosophy" [10;4] Academician B.Valikhodjaev writes: "Representatives of the literary environment of this period, continuing the tradition of achievements of artistic thinking until the XV century, enriched them with new directions and features that emerged on the basis of modern requirements and needs."

The main force driving the Renaissance is humanism. Principles that reveal the essence of humanism:

- interest in the human person;
- confidence in human consciousness, capabilities;
- ideas of free labor, love;
- critical look at the artistic heritage of the Middle Ages;
- increased interest in the ancient period;
- The ideas of a just utopian state and a just ruler;
- Transformation of the language of national peoples into a literary language;
- The formation of international relations in Renaissance literature consists of.

Now let us try to observe the peculiar expression of these principles of humanism in the works of Navoi, the great thinker of the Renaissance in the Eastern world, and Shakespeare, the last and greatest representative of the English Renaissance.

At the beginning of the principles of humanism is the idea of man, the singing of his glory. We can see this idea in Navoi's work. In particularly he describes a man in the epic poem "Layli and Majnun":

Insonki erur charog' binish,
Bal chashmu charog'u ofarin ish! [11; 68] deydi,
Ya'ni "Inson-charog'i binish" - "ko'rish chirog'i",
hatto "butun koinotni ko'rish va anglash uchun ko'z"
deb yozgan edi.

The letter expresses the most passionate, the most painful, the saddest cries of the heart of a loving girl, who longs for her lover, who suffers from her loss, the figs who wish for Kays visoli. The traditional letter is an additional description of the image of Layla. Let us compare Layla's letter to Majnun with Laylatulkadr. In the letter, the girl's figurativeness of not only separation, but also her pity for her tribe (forced by her march to the tribe of Navfal), how strong is nationalism - passion?

does not go beyond the bounds of decency, devotion - wishes Majnun to be happy with the daughter of Navfal, aryat - can break the chains of infertility, but can not break the chains of virginity:

Tahlil va natijalar (Analysis and results). The poet depicts the inner experiences of two young people by inserting the letters of love and mistress into one plot line. Thus, in the play, the lyrical image and the epic image are intertwined, creating a noma in a new spirit.

In this play, the poet "reflects the state of his time and, in part, his own state" and condemns the evils of that period.

The words dahr, charkh, gardun, zoli are often used in the epic, and almost everywhere the poet uses them in the spirit of criticism. It should be noted that in the play, these words have become not abstract concepts, but words and images that have a real meaning, and Navoi used them figuratively:

Ey zoli zamona, dodu faryod!
Atfolinga necha zulmu bedod!
Bu xaylnikim, halok etarsen,
Uz bag'ring erurki chok etarsen! (104-bet).

Navoi worked on a traditional theme in the epic, but through this ancient theme he expressed his time, primarily referring to real living beings, the procedures in "movement," the relationship between people. In Oybek's words, the poet was able to demonstrate in the epic "his unparalleled great satirical power and skill ..." [43; 321]

Commenting on the work of art, V.G. Belinsky compares its structure with the structure of the human body: no, but even every invisible organ, every vein, is necessary and in its place. In the same work of art, there must be nothing unfinished or defective or superfluous; every character, every image must be necessary and in its place should.

The introductions of the chapters are also of special importance in the composition of Navoi's epic. Each of the chapters ends differently depending on its character. Some chapters end with the poet's address to different people, to the bartender, while others end with the poet's contribution to the story:

Ey navhagar, ayla navha bunyod,
Kim umr binosi keldi barbod (293-bet).

Yoki

Ey do'st, boshimg'a bir nafas yet
Motomzadalikka boqu rahm et (268-bet),

Yoki

Soqiy, qadahiki shohzoda
Tutqay manga ul kadaxda boda (305-bet).

Lyrical monologues and dialogues in the composition of the epic

availability is also of particular importance. In poetic lyrical monologues

the inner pain, excitement and pain of the heroes, their sorrows, represents the aspirations of the heart. In addition, the interior of the heroes.

The world opens wide. Also dialogues (e.g., Majnun's Zayd with, with the daughter of Navfal) in their essence and logic are important in complementing the general thought and idea in the epic.

In conclusion, although Navoi and Shakespeare addressed the same theme in both genres, they were able to embody the life, customs, character, struggles and aspirations of their peoples, demonstrating their unique creativity. The commonality of the ideological essence of each genre with the theme, the commonality of the tasks in the artistic expression of reality have created a relative similarity of the theme, plot and heroes in the works.

However, an important feature of the compositions of the two works is that one author artistically expresses the most advanced enlightenment ideas of his time without going beyond the boundaries of literary tradition, while the second author writes on social issues, creatively approaching the traditional requirements of the genre, gave a new spirit to the tragedy. It is important to note that the poem "Layla and Majnun" is unique (the answer is a work), and "Romeo and Juletta" is the product of creative artistic thinking, which is not molded by any literary traditions. Hazrat Navoi could not use prose or prose adorned with saj to create a unique image of love and affection, the theme, the plot required a traditional genre, and even the sea of masnavi was defined.

Shakespeare created Romeo and Juliet in the genre of tragedy, with an uplifting spirit. However, his work was not the answer. So even though Romeo and Juletta is a tragedy, it also has a place for humor, pleasure and laughter. Classical examples of the genre of tragedy, such as "King Oedipus", "Medea", "Titus Andronicus", do not see such a phenomenon.

It is known that the idea of a work of art also (approximately) determines its composition from the very

beginning. The two plots, which are very close in content, required a certain genre and compositional system based on the ideological goals of the authors. It was important for Navoi to create an artistic image, which is the highest peak of human perfection, whose heart is enlightened by the light of knowledge. She focuses her lover's attention on the house of her heart. For this, there is absolutely no need to create various episodes, such as mass scenes. Consequently, even if the genre of drama was prominent in Oriental literature during Navoi's reign, it would not have been able to fit Layli and Majnun into the realm of tragedy. The poet's sharp philosophical observations can find a perfect expression only in the epic genre, which has a wide range of artistic possibilities. In Romeo and Juletta, the playwright does not give much space to philosophical observation.

He narrates worldly love in one main vocabulary collapse, and the story consists of a single tragedy.

Second, in the example of the introductions of the works, there are also differences in the worldviews and ideological aspirations of both authors. In Shakespeare's work, the death of lovers is seen as an accusation against the social system of the time, the elements that make up the state - the cultural level of families.

Majnun and Layla's farewell to life, and their physical death, is the second death. The first, lustful death, is long before Qays - when he opens the door of his heart and begins to see the sparks of true love in it.

Conclusion and recommendations. We are absolutely far from the intention to compare the two famous classics in terms of ideological essence, philosophical and philosophical worldview of the authors. Our intention, as we have consistently stated, is to shed light on the similarities and differences in the artistic and aesthetic principles of the authors in the artistic interpretation of the saddest love stories created during the development of Eastern and Western thought. The above comments were made in connection with the analysis of the genres and compositional features of the story. The general conclusion is that Romeo and Juletta and Layli and Majnun are united by a revolt against injustice in the social system of their time and the physical death of their loved ones, which was not a major tragedy for Navoi. In all other matters of artistic creation, these two works differ greatly from each other, and each has its own unique aspects and qualities.

William Shakespeare's contributions to the renaissance were of great significance. He was not just a writer but an advocate of change in the lifestyles of people of Europe, just like the philosophers, artists, and other scholars. Through his works, the popularity of literature, plays, and poems increased. This is because they all were talking about various issues which the society was facing. As a result, therefore, Shakespeare used his works to enlighten the public on what they were facing and means through which they could face such oppression. This led to the emergence of modern society in which we are living now.

ADABIYOTLAR

1. William Shakespeare The complete works. Comedies. V.1. David Campbell Publishers Ltd., 1995.
2. William Shakespeare. Selection. Three volumes. The second volume. Romeo and Juletta. Translated from the English by Jamal Kemal. - Toshkent: Fan, 2008.
3. Alisher Navoi. A perfect collection of works. Volume XX. Volume IX. - Tashkent: Fan, 1992..
4. Thornley G.C. and Gwyneth Roberts. An Outline of English Literature. New Edition. Longman Group Ltd. 1984.
5. Алишер Навоий. Махбуб ул-кулуб. -Тошкент: F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983.
6. Charlton. Romeo and Juliet// Selected commentaries.-London. 1998.
7. Вильям Шекспир. Сайланма. Уч жилдлик. Иккинчи жилд. Ромео ва Жульетта. Инглиз тилидан Жамол Камол таржимаси. - Тошкент: Фан, 2008.



Dilafruz G'ANIYEVA,

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: dilyaganieva17@gmail.com

FarDU PhD H.Yunusova taqrizi asosida

«TA'LIM» MIKROMAYDONINING IYERARXIK TADQIQI

Annotatsiya

Mazkur maqola "ta'lim" mikromaydonini tashkil etuvchi lisoniy vositalarning "ta'lim muassasalari" paradigmasida iyerarxik munosabatlarini turli tizimdagi tillar (o'zbek va ingliz tillari) misolida tadqiq va tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, ikki tilga ta'sir etuvchi milliy-madaniy va o'ziga xos xususiyatlarni ko'rib chiqishni, ikki til o'quv lug'atlarining tarjima muammolarini hal qilish jihatlarini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Semantik maydon, lakuna, iyerarxik struktur tahlil, realia, arxileksema.

HIERARCHICAL RESEARCH OF THE MICROFIELD OF "EDUCATION"

Annotation

This article is devoted to the research and analysis of the hierarchical relations of the linguistic means that make the microfield of "education" in the paradigm of "educational institutions" on the example of languages of different systems (Uzbek and English). It also includes consideration of national-cultural and specific features affecting two languages, aspects of solving translation problems of bilingual textbooks.

Key words: Semantic field, lacunae, hierarchical structural analysis, analogues, reciprocal equivalents, correlate pairs.

ИЕРАРХИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МИКРОПОЛЯ «ОБРАЗОВАНИЯ»

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию и анализу иерархических отношений языковых единиц составляющих микрополе «образование» в парадигме «образовательные учреждения» на примере языков разных систем (узбекского и английского). Он также включает рассмотрение национально-культурных и специфических особенностей двух языков, аспекты решения проблем перевода двуязычных учебников.

Ключевые слова: Семантическое поле, лагуна, иерархический структурный анализ, реалии, архилексема.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi va uning bosqichmabosqich "bilimlar jamiyati" ga aylanishi (ya'ni asosiy qadriyat bilim bo'lgan jamiyat), ilm-fandagi so'nggi yutuqlar "ta'lim" konsepsiyasi, ta'lim va ta'limni o'z ichiga olgan aniq bilimlar, ko'nikma va tushunchalarni qamrab oladigan yangi izlanishlar, bilimlarni ham talab qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Ta'lim" mikromaydoni lisoniy vositalarining tadqiqida o'zbek va ingliz tillarining aktiv lug'atlari, Xoliyorov O'ral Mengleyevichning kompyuter lingvistikasi doirasida "O'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari" nomli ilmiy tadqiqotidan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda "ta'lim" mikromaydonini tashkil etuvchi terminologik tizimidagi lisoniy vositalarning o'ziga xosliklari va umumiyliklarini aniqlash uchun kontrast tahlil, komponent tahlil va lug'atlardagi izohlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

o'zbek va ingliz tillarida "ta'lim" mikromaydonining qiyosiy iyerarxik struktur tahlili;

turli tizimdagitillarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri realia terminlariga egaligi (ingliz tili)va kontrast tahlili;

o'zbek va ingliz tillari uchun universal mikromaydonlarning arxileksmalari tahlili;

o'zbek va ingliz tillarida turlicha ta'lim jarayonini tashkil etish va oliy ta'limga talabalarni qabul qilish jarayoni lug'aviy birliklarining qiyosiy tahlili.

Muhokama. O'zbek va ingliz tillarida ta'lim sohasining farqli xususiyatlari birinchi navbatda O'zbekiston, Buyuk Britaniya va AQSh madaniyatlarining bir - biridan turli xil tarixiy asoslari tufayli ya'ni mamlakatlarning geografik uzoqligi, ma'muriy bo'linishidagi farqlar, turli etnik tarkibi bilan tubdan farq qilishidir. Keltirilgan mavjud farqlar, hamda rivojlanish va taraqqiyotning turlichaligi, qadriyatlar va madaniyatlarimizning xilma-xilligi tahlil qilinayotgan ob'ektimizning leksikonida ham xilma-xillikni paydo qiladi. Quyida "ta'lim" semantik maydonining iyerarxik struktur tahlilini ko'rib chiqamiz.

1. Umumiy o'rta ta'lim:

O'zbekistonda to'liq umumiy ta'lim tuzilishi quyidagicha :

a) Boshlang'ich ta'lim - davomiyligi 4 yil;

b) Umumiy o'rta ta'lim 1-9-sinflar, (ixtiyoriy 10-11-sinflar);

s) Umumiy o'rta - maxsus ta'lim: Kasb-hunar ta'limi (umumiy o'rta maxsus ta'lim va o'rta maxsus ta'lim) - kunduzgi akademik litsey yoki kasb -hunar kollejlari, texnikumlar 3 yil davomida) .

Buyuk Britaniyada umumiy o'rta ta'lim maktablarining quyidagi bo'linish sxemalari mavjud:

a) Infant school or nursery school (3 yil) - junior school (4 yil) – grammar (comprehensive) school (5yil);

b) Primary school (7 yil) – secondary school (5yil) ;

s) First school – (4 yil) – middle school (4 yil) – junior high school (4 yil).

Umumiy o'rta ta'limning bunday tarkibi O'zbekiston ta'lim tizimida va unga tegishli lug'aviy birliklarda uchramaydi. Shuningdek, B.B. da Sixth Form College alohida avtonom umumiy o'rta ta'lim tizimi sifatida mavjud bo'lib, bunda o'quvchi o'rta ta'limni tugatganidan so'ng (16-19 yoshlarda) yana 3 yil davomida Sixth Form College da tahsil oladi va o'qish yakunida Xalqaro bakalavr diplomi, A daraja yoki [General Certificate of Secondary Education](#) (GCSE) sertifikatiga ega bo'ladi. Yurtimiz ta'lim tizimida esa oliy ta'lim ixtiyoriydir.

Shuningdek, AQSh ham yagona doimiy umumiy o'rta ta'lim sxemasiga ega emasligi shtatlararo turlicha qonunlarga amal qilinishiga bevosita bog'liqdir.

a) Elementary school (6years) – middle school (2 years) – 4-year high school (4years);

b) Elementary school (6 years) – junior high school (3years) – senior high school (3 years);

s) Elementary school (8years) – combined junior and high school (4 years).

Nazariy jihatdan, AQSh da umumiy o'rta ta'lim 12 yil, O'zbekistonda 11 yil, Buyuk Britaniyada esa 13 yilni tashkil qiladi.

2. Oliy ta'lim. Yurtimizda oliy ta'limda bakalavr darajasini olish muddati AQSh kabi 4 yil, Buyuk Britaniyada esa 3 yil. Har ikki davlatda ham O'zbekiston kabi bakalavrlilik darajasidan so'ng 2 yillik magistratura ta'limi mavjud. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida talabalar bakalavr darajasini egallashlari bilanoq magistraturada o'qishlarini davom ettirishlari mumkin. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini tashkil etishda ma'lum farqlar borligini ham ko'rib o'tishimiz zarur: masalan, O'zbekiston ta'lim tizimida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim alohida ajralib turadi va PhD (Falsafa fanlari doktori), DSc (fan doktori) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish himoya qilinadi. AQSh va Buyuk Britaniyada esa xuddi shunday ta'lim darajasi oliy ta'lim tarkibiga kiritilgan va graduate school (Amr.), post-graduate school (B.Br.) lug'aviy birliklari qo'llaniladi. Yana bir farqli jihati, AQSh da professional school (kasb-hunar maktabi)ga ajratilgan bo'lib, maxsus soha mutaxassislarini tayyorlaydi (yurist, shifokor kabi), ta'lim so'nggida dissertatsiya himoyasidan so'ng bakalavr yoki magistrlik darajasini olishi mumkin.

“Ta'lim” mikromaydonining tahlil qilingan yuqoridagi iyerarxik strukturasi jamiyatdagi ta'limning tuzilishini va uni ishlash tizimini ham o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston, AQSh va Buyuk Britaniya mamlakatlarining oliy ta'limga talabalarni qabul qilish jarayoni ham turlicha. “2020-2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi Prezident qaroriga ko'ra, abiturentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo'lgan beshtagacha bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etish huquqi berildi. 2019-2020-o'quv yillarida 3ta bakalavriat yo'nalishini tanlash imkoni bo'lgan bo'lsa, ungacha abiturentlar faqatgina bitta ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan. Buyuk Britaniyada esa oliy o'quv yurtlariga kirishni istagan talabalar to'g'ridan to'g'ri universitet yoki kollejlarning onlayn arizalarni qabul qilish bo'limi (UCAS) ga murojaat qilishadi va kirmoqchi bo'lgan 5ta ta'lim muassasasini tanlaydilar va UCAS hujjatlarni kerakli ta'lim muassasalariga yuboradi. Oliy o'quv yurtlari abiturentning baholariga ko'ra ularni kirish imtihonlari uchun tanlab oladi. AQSh da ham deyarli xuddi shunday ariza topshirish jarayonini ko'rishimiz mumkin. Kirish imtihonlari test shaklida (SAT (Scholastic Aptitude Test), Achievement Test ACT (American College Test)) oliy ta'lim muassasasi yoki tijorat tashkilotlari tomonidan

o'tkaziladi. Testlar o'quv yili boshida o'tkazilib, natijalari talaba ariza topshirgan o'quv yurtiga yuboriladi. O'zbekiston, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar (AQSh va Buyuk Britaniya misolida) ta'lim tizimida juda ko'p farqlar mavjud bo'lib, biz yuqorida faqat ta'lim jarayonini tashkil etishdagi asosiyilarini aytib o'tdik.

Ko'rib turganimizdek, “ta'lim” mikromaydoni murakkab iyerarxik strukturaga ega va bu jamiyatdagi ta'limning ishlash tizimi va tuzilishini semantik maydon lug'aviy birliklarida aks ettiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, “ta'lim” mikromaydonining ingliz tiliga xos xususiyatlaridan yana biri realia terminlariga egaligidir. Masalan, rolling admission (amr.) – istalgan payt ro'yxatdan o'tish. Ya'ni abiturentlardan oliy ta'lim muassasasiga ariza qabul qilinishi 6 oydan ortiq muddatda davom etadi; assistant professor(amr.) – katta o'qituvchi (bakalavr yoki magistr darajasiga ega, yirik universitetlarda doktor); second class (B.Br.) – ikkinchi toifali diplom (ingliz universitetlarida); sixth-former (B.Br.) – 6-sinf o'quvchisi (o'rta maktabning so'nggi sinf o'quvchisi); dinner lady (B.Br.) – maktablarda tanaffusda tushlik yetkazib beruvchi ayol; old school tie (B.Br.) – 1 eski maktab galstugi (xususiy maktablarda bitiruvchilar uyushmasi a'zosi bo'lgan maktab bitiruvchisining galstugi), 2) bunday muassasa bitiruvchilarini bog'laydigan aloqa, rishta; cow college (amr.) – 1) (so'zlashuvda) qishloq xo'jaligi kolleji, 2) madaniyat va rivojlanishdan orqada qolgan viloyat kolleji yoki universitetiga nisbatan; All But Degree (A. B. D.) – (amr.so'zl.) “Hammasi, darajadan tashqari”, doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishdan tashqari, doktorlik darajasini olish uchun barcha talablarni bajargan doktorant; va shu kabilar milliy o'ziga xos “ta'lim” semali lug'aviy birliklar yoki realialarni ifodalab, asosan ingliz tili uchun xosdir. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, turli millatlar uchun turli tillardagi lug'aviy birliklarning iyerarxik strukturasi, uni tashkil etuvchi lisoniy vositalar ham mamlakatdagi boshqaruv, taraqqiyot rivoji milliy va madaniy qadriyatlarining o'zgachaligi bilan farqli xususiyatlarga egadir.

Shuningdek, tahlil qilinayotgan ob'ektimizda o'zbek tili va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar Amerika va Britaniya har bir lug'aviy birliklarini bitta umumiy xususiyati bilan birlashtiruvchi tarkibiy qismga, uning tashqarisidagi maydonga egadir. Bunday mikromaydonlarning arxileksmalari quyidagilar:

O'zbek tilida: boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim; ingliz tilida (B.Br.) primary education, secondary education, further education, higher education; ingliz tilida (Amr.) elementary education, secondary education, post-secondary education va ular birbiriga tizimli bog'langan. O'rganilgan har ikkala til mikromaydoni o'z tarkibida o'zbek va ingliz tillari uchun xam umumiy bo'lgan semantik xususiyatlar bilan birlashtirilgan leksik semantik guruhlariga ega: ta'lim muassasalari (educational institutions); o'quv jarayoni ishtirokchilari (pupils, students, teaching staff (amr.faculty)); fanlar (subjects);baholash va baholash tizimi (evaluation and assessment system); ta'lim jarayonini tashkil etish (organization of the process of education); toifa yoki daraja olish uchun xujjatlar (credentials); malaka va ilmiy unvonlar (degrees and qualifications); artifakt (artefacts). O'rganilayotgan va tahlil qilinayotgan mikromaydonimizning struktur tuzilishi ikkala til uchun ham xosdir.

O'zbek tilining leksik semantik maydonida maxsus ta'lim mikromaydonlari ham mavjud. Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim umumiy ta'limni, kechki va sirtqi ta'lim shakli esa o'rta-maxsus kasb-hunar va oliy ta'limga aloqadrolikni ifodalaydi. Masofaviy o'qitish bilan bog'liq bo'lgan

mikromaydon kichikroq bo'lib, bu ta'lim shakli O'zbekistonda endi paydo bo'lib rivojlanmoqda. O'zbek tili leksik semantik maydonidagi bo'shliq (lakuna) ingliz tili Britaniya varianti mikromaydonida sandwich learning (mashg'ulotlarning o'qish va korxonadagi ishlar bilan birlashgan shakli) ning mavjudligi bilan ajralib turadi.

O'zbek va ingliz tillaridagi ta'limga oid lug'atlarni, lug'aviy birliklarni qiyosiy tadqiq qilganimizda shuni guvohi bo'ldikki, Amerika va Britaniya ingliz tili variantlarida bugungi kunda ta'limning o'ziga xos milliy variantlari mavjud bo'lib, ularning shakllanishiga ta'lim tarmoqlarining ko'p yillar davomida jamiyat hayotidagi barqarorligi katta ta'sir ko'rsatganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda esa ta'lim tizimini isloh qilish hali ham davom etmoqda.

O'zbek va ingliz tillarida "ta'lim" semali lug'aviy birliklar terminologiyasi ushbu terminlar tizimining muhim tarixiy komponentlari (istorizmlar) mavjudligi bilan harakterlanadi: opposer – (tarixiy) ilmiy munozarada raqib, chamber-deacon – (tar.) o'rta asrlarda Irlandiya universitetning kambag'al olimi, jadid maktabi (yangi usul maktabi)- The Jadids' school, alloma – (hist.) great scholar, sarkor (qayta iste'molga kirib kelayotgan eskirgan so'z) – group leader va h.

Semalarning uzualligi faqatgina ingliz tiliga xos bo'lib, Amerika va Britaniya milliy til variantlarida namoyon bo'ladi: Grades K through 12 - (amr.) to'liq umumiy o'rta maktab (K- kindergarten, bolalar bog'chasidan 12-sinfacha), Sixth

Form – Brit. tayyorlov kolleji (mustaqil yoki maktab tarkibida mavjud bo'lgan 16 yoshdan yuqori o'quvchilarni universitetga tayyorlaydigan maktab).

Xulosa va taklif. "Ta'lim" mikromaydoni lisoniy vositalarining keng tarqalganligiga qaramay, umumiy adabiy til va kasbiy muloqotdan tashqari har bir atamadan ommaviy foydalanish imkonsizdir.

O'zbek va ingliz tilidagi "ta'lim" semali lug'aviy birliklarning ikki tomonlama mos tushuvchi qo'llanmaga ega emasligi o'zbek tilida undagi ma'nolarni yetarli ifodalay olmaslikni anglatmaydi. Sathlararo qiyosiy tadqiq qilish, turli tizim va madaniyatga mansub til birliklari ekanini inobatga olsak, tarjima ekvivalentlari, ba'zi belgilarni ifodalaydigan tushunchalar mavjudligini ko'rsatadi.

Shunday bo'lsada, o'zbek va ingliz tillarida tahlil qilingan mikromaydon komponentlarida milliylikni aks ettiruvchi realialar (ingliz tilida) mavjudligini inobatga olib, ushbu lisoniy vositalar miqdorini teng ham deya olmaymiz. Har bir mamlakatning o'ziga xos bo'lgan ta'lim tizimi, ta'lim madaniyati, uning terminologiyasi va leksikasida aks etadi. Turli mamlakatlar madaniyati uchun yagona standard ta'lim tizimi imkonsizdir, shu sababdan ularni o'rganish, taqqoslash, umumiy va farqli xususiyatlarini topish, tadqiq va tahlil qilishimiz, tarjima va o'zaro tushunish muammolarini bartaraf etishda yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Abduxalimova S. (2023). Yaxshilikni Ifodalovchi Maqollarning Lingvomadaniy Xususiyatlari. Innovative Science in Modern Research, 8-11.
2. Bright W. International Encyclopedia of linguistics. Cambridge: Cambridge University Press. 1995.
3. Dilafuz, G., & Xusnida, B. (2022). Colloquial layer in microfield "Education". Conferencea, 58-60.
4. Djuraev B. Strukturno - semanticheckoe issledovanie mnogoznachnix slov sovremennogo uzbekskogo yazika. - A.K.D. Tashkent, 1985.
5. Encyclopedia of Modern Education/Ed.by H.Rivlin and R. Schueler .-N.Y.: Philosophical Library of New York,1943.-902p
6. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantical classification of construction terms in English and Uzbek languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 571-575.
7. Gafurova N. I., Muhammadjonova, M. D. Q., & Marufova, Y. A. Q. (2022). Problems of translation of construction terminology. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 129-132.
8. Ganieva D., & Moxichexra, I. (2022). Study of synonyms in the uzbek and english languages. Conferencea, 56-57.
9. <http://www.canteach.gov.uk/help/glossary/htm>
10. <http://www.canteach.gov.uk/teaching/how/index.htm>
11. Kempson M.R. Semantic Theory.- Cambridge University Press,-1995.-977p
12. Khasanovna G. D. (2022). Three levels of access in the semantic group of "educational process participants" in the uzbek and English languages.
13. Oxford Advanced Learners Dictionary. Oxford University Press, 2000. 1428p
14. Pakirdinova S. (2023). Psychological factors of foreign language learners. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(4), 135-138.



Xolida DAULANOVA,

EMU University Ijtimoiy fanlar kafedrası lotin tili o'qituvchisi

E-mail: daulanovaxolida@gmail.com

O'zDSMI dotsenti, f.f.d. G.N.Isakova taqrizi asosida

WAYS OF ENTRY OF GREEK-LATIN TERM-ELEMENTS IN ENGLISH HISTOLOGICAL TERMINOLOGY

Аннотация

Histological terms are the least studied and still insufficiently regulated area of the terminological lexicon of medical and biological sciences. This article highlights the specific aspects that determine the appearance and use of histological terms in English. In order to clarify the characteristics of the introduction of Greek-Latin term-elements into English histological terminology at the initial and modern stages, the principles of international term creation are discussed.

Key words: Terminology, medicine, histology, antiquity, Greek-Latin, term- element, English language, acquisition.

ПУТИ ПРОНИКНОВЕНИЯ ГРЕКО-ЛАТИНСКИХ ТЕРМИНОЭЛЕМЕНТОВ В АНГЛИЙСКУЮ ГИСТОЛОГИЧЕСКУЮ ТЕРМИНОЛОГИЮ

Аннотация

Гистологические термины являются наименее изученной и еще недостаточно упорядоченной областью терминологической лексики медико-биологических наук. В данной статье освещаются специфические аспекты, определяющие появление и использование гистологических терминов в английском языке. С целью уточнения особенностей введения греко-латинских терминоэлементов в английскую гистологическую терминологию на начальном и современном этапах обсуждаются принципы интернационального терминообразования.

Ключевые слова: Терминология, медицина, гистология, античность, греко-латинские, терминоэлемент, английский язык, усвоение.

YUNON-LOTIN TERMIN-ELEMENTLARINING INGLIZ GISTOLOGIK TERMINOLOGIYASIGA KIRIB KELISH YO'LLARI

Аннотация

Gistologik terminlar tibbiy-biologik fanlar terminologik leksikasining eng kam o'rganilgan va hanuzgacha yetarli darajada tartibga solinmagan sohasi hisoblanadi. Mazkur maqolada gistologik terminlarning ingliz tilida paydo bo'lishi va qo'llanilishini belgilaydigan o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Yunon-lotin termin-elementlarining ingliz gistologik terminologiyasiga kiritishni dastlabki va zamonaviy bosqichidagi xususiyatlarini oydinlashtirish uchun xalqaro termin yaratish tamoyillariga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Terminologiya, tibbiyot, gistologiya, antik davr, yunon-lotin, termin-element, ingliz tili, o'zlashtirish.

Kirish. Terminologiya professional leksikaning asosi sifatida yildan-yilga ko'plab olimlarning diqqatini tortmoqda. Bu esa hozirgi jamiyatda fanning naqadar muhim o'rin egallaganligidan dalolat beradi. Fanlarning rivojlanishi bilan uning terminologiyasini tartibga solish muammosi yanada dolzarb bo'lib bormoqda, ayniqsa, bir necha minglab terminlardan foydalanilayotgan va tushunish murakkabligi hamda ko'p qirraligi bilan xarakterlanadigan tibbiy-biologik fanlarda bu hol o'z isbotini topmoqda. Gistologik terminlar tibbiy-biologik fanlar terminologiyasining eng kam o'rganilgan va hanuzgacha yetarli darajada tartibga solinmagan sohasi hisoblanadi. Ingliz tili gistologik terminologiyasi bo'yicha tadqiqot ishlarining dolzarbligi nafaqat tilshunos olimlar uchun, balki tibbiyot xodimlari uchun ham juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ilmiy tadqiqotlarda yangi tillarda yunon-lotin termin-elementlari asosida termin yasash kamida ikkita omilga bog'liqligi berilgan. Masalan, N.V.Vasilyeva: "Birinchidan, bunda har bir lug'at tarkibining chet tillarga umumiy moyilligi, bu esa o'z navbatida tilning tarixiy va madaniy foni bilan bog'liq va u tahlil qilishning tashqi aspektini belgilaydi; ikkinchidan, ma'lum bir ilmiy fan terminologiyasi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq, chunki har bir terminologik tizimning shakllanishi umumiy tilning lug'atiga nisbatan boshqa tendensiya va munosabatlar bilan tavsiflanishi mumkin

hamda bu uning ichki jihatini ifodalaydi" [3] degan xulosviy fikr bildirgan.

Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashlariga ko'ra, qadimgi ilmiy matnlarga hozirgi zamon mezonlari bilan yondashib bo'lmaydi, ular umumiste'moldagi so'zlardan ajratib turuvchi, bir ma'nolik, nisbiy turg'unlik, maxsus so'z yasash vositalariga ega bo'lgan maxsus nominativ termin fondni izlash lozim emas. Antik matnlar terminologiyasi, S.S.Averinsevning fikriga ko'ra: "Bu in statu nascendi, ya'ni "boshlang'ich holat terminologiyasi" har bir so'z o'quvchining ko'z o'ngida kundalik turmushdan terminologik foydalanish uchun tortib olinadi va hali ham yangi qo'lga tushgan baliq kabi titraydi" [1].

Tibbiyot terminologiyasining shakllanish jarayonlari ancha chuqur o'rganilgan deyish mumkin. Masalan, M.N.Chernyavskiy XVII asrdagi yangi ilmiy fanlar va fundamental ilmiy yo'nalishlarning shakllanishi bilan xarakterlanadigan va ko'plab yangi terminlarning yaratilishiga olib kelgan ilmiy inqilob tibbiyot fanining jadal rivojlanishiga sabab bo'lganligini hamda Uyg'onish davrining oxirlaridan boshlab tibbiyot tili asta-sekin jonli milliy tillarni rivojlanish ehtiyojlariga moslasha borganligini ta'kidlaydi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Yangi davr terminologiyasi qadimgi tillardan tushunchalarni terminga aylantirish tamoyilini emas, balki hozirgi kunda yangi terminlarni yaratish

uchun zarur bo'lgan birliklarni va ba'zi termin-tizimni belgilaydigan – so'z yasash modellarini meros qilib olgan hamda shu yo'sinda hozirda ham yangi terminlar yaratilmoqda.

Lotin tilining faoliyatida gumanistik an'analarni o'zida mujassamlashtirgan Uyg'onish davrining "jonli lotin" tili Siseron tili bilan belgilangan va shuning uchun boshqa tillardan so'zlarni kiritmagan. Sxolastik ilmnining o'rta asr lotini esa, erkin tarzda yunon elementlarini kiritgan va o'zlashtirgan. Bu yerda ba'zi o'xshashliklar, yunon-lotin termin-elementlarga asoslangan zamonaviy terminlarni yasash jarayoni kuzatiladi. Har ikki holatda ham, turli til kombinatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradigan sun'iy til materiallariga murojaat qilinganligi aniq, lekin desemanizasiya qilinmagan, balki qachondir jonli tilga taaluqli bo'lgani uchun ma'lum bir semantik yukni ko'taradi. Zamonaviy terminologiya qadimgi tillardan nafaqat o'ziga xos elementlar va tayyor modellar, balki yangi so'zlarni yaratishda elementlarni birlashtirishning ma'lum erkinligini ham oladi.

Tahlil va natijalar. Quyida biz gistologiyaning asosiy tushuncha va terminlari misolida ingliz tilida ularning paydo bo'lishi va qo'llanilishini belgilaydigan o'ziga xos jihatlarni yoritishga harakat qilamiz. Shu bilan birga asosiy e'tibor yunon-lotin termin-elementlarini ingliz gistologik terminologiyasiga kiritishning dastlabki va zamonaviy bosqichiga qaratiladi. Mazkur jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirish uchun xalqaro termin-elementlari manbalaridagi termin yaratish tamoyillariga to'xtalib o'tiladi.

Ma'lumki, XVI asrga qadar lotin tili hukmronlik qilgan, u fanning xalqaro yozma tili hisoblangan. XVI asrda endigina shakllanayotgan ingliz ilmiy tilida o'ziga xos va ziddiyatli vaziyat yuzaga keladi. Bir tomondan, qadimiy ilmiy merosga qiziqish katta bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan - lotin tili rolining keskin pasayib ketishi va ilmiy tafakkur yutuqlarini ifodalashning imtiyozli vositasi sifatida lotin tili o'z mavqeini yo'qota boshladi. Shuningdek, bu jarayon norman istilochilarining (XI-XIV asrlar) ta'sirida eski fransuz tilini ingliz tiliga o'tganligi sababli yanada murakkablashib boradi.

Lotin tili bilan ingliz tilining to'qnashuv muammosini B.N.Yarseva quyidagicha izohlaydi: "XVI asrda ingliz tili ba'zi an'anaviy sohalarda lotin tilining o'rnini egallashida emas edi... Uyg'onish davrida inson bilimining barcha sohalar uchun ochiq bo'lgan yangi g'oya va tushunchalarning hajmi, fanning yangi ufqlari, an'analar bilan bog'lanmagan yangi fikrlash qurolini talab qildi. Ko'p asrlik O'rta asr ritorikasi tomonidan qonunlashtirilgan lotin tili yangi talablarga javob bera olmadi..." [8].

Boshqa tomondan, o'sha davrdagi ingliz tilida lotin tilida bo'lgani kabi ilmiy fikrni ifodalash usullarining barcha boyliklari mavjud emas edi. Ingliz tilining leksik tarkibi ilmiy konseptual va mantiqiy tizimlarni ifodalash vositasiga aylanishi uchun kengayishi lozim edi. Fan tilining yangi leksemalarga bo'lgan ehtiyoji katta bo'lib, uni ichki imkoniyatlar, ya'ni mavjud leksemalarning yangi ma'nolari paydo bo'lishi yoki tashqi, ya'ni, birinchi navbatda, lotin va yunon tillaridan so'z o'zlashtirish hisobiga qondirish mumkin edi. Klassik tillardan o'zlashtirish XVI asr ingliz olimlari tomonidan milliy tilning terminologik lug'atini shakllantirish jarayonida muqarrar hodisa sifatida qaraldi.

Ilmiy ingliz tilining lotin va yunon tillaridan kelib chiqishining sabablari, T.Seyvori fikriga ko'ra, birinchi navbatda, Rim imperiyasi qulagandan keyin uzoq vaqt lotin tilining jonli til sifatida qo'llanganligida bo'lsa, ikkinchi sabab, lotin va yunon tillarining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq. Afina mualliflarining yunon tilidagi manbalari o'zlarining go'zalligi va nozikligi bilan ajralib turardi, bu esa ushbu tilni

fikrni ifodalashning erishib bo'lmaydigan vositasi va inson nutqining eng oliyanob shakliga aylantirdi.

Lotin tili ko'plab boshqa noyob fazilatlariga ham ega. Siseronning notiqligi, Liviyning ulug'vorligi, Goratsiyning shoirona tasavvurlari mukammal lotin tiliga xos kuch va aniqlikka egadir. Lotin jumllarining qisqa, lo'nda va aniqligi barcha olimlar ilmiy ishlarida yuksak qadrlanadigan fazilatlardir.

T.Seyvorining fikricha, ingliz ilmiy tili quyidagi toifalarga bo'lish mumkin: 1) o'zlashtirgan; 2) o'zgarishsiz kirib kelgan (import qilingan); 3) kashf qilingan [6].

Muallif birinchi toifaga kundalik nutqdan olingan berry, current, salt kabi so'zlarni va o'zgacha tarixga ega bo'lgan so'zlarni kiritadi. Unga ko'ra, parasite so'zi XVI asrda yunon tilidan ingliz tiliga sifat gap bo'lari sifatida kirib kelgan va dastlab "yonida ovqatlanadigan" degan ma'noni anglatgan. Keyinchalik bu so'z o'zining dastlabki asl ma'nosini yo'qotib, "birovning hisobidan yemoq" ma'nosida keng omma orasida haqoratomuz so'z sifatida ishlatiladigan bo'lgan. Tibbiy terminologiyada esa bu so'z deyarli ikki asr o'tib, 1727-yilda "boshqasi hisobiga yashaydigan organizm" ma'nosida paydo bo'lgan.

Shuningdek, gistologik terminologiyada qo'llanadigan corpuscle "kichik zarracha" yoki "kichik tana" – 1660-yilda, "qonning, limfaning tarkibidagi zarracha (protoplazmatik hujayra)" – 1741-yilda; yunon tilidan aithor "yonmoq" – Yether "yuqori sof havo" – 1398-yilda, efir (kimyoviy modda) – 1757-yilda paydo bo'lganligini aytish mumkin.

Ikkinchi toifa - lotin va yunon tillaridan o'zgarishsiz kirib kelgan so'zlar. Bu borada G.Brendli, butun lotin tilining lug'at tarkibi ingliz tiliga kirib kela boshlaganligini ta'kidlaydi. Chunki Uyg'onish davri olimlari lotin tili lug'atlaridan keng foydalanishgan va son-sanoqsiz so'zlar bevosita o'zlashtirilgan. O'zgarishsiz kirib kelgan yunoncha so'zlar lotin so'zlari kabi ko'p sonni tashkil qilmagan, yunoncha so'z va elementlar ingliz tiliga asosan, lotin tili orqali kirib kelgan.

Uchinchi toifa izohlanishicha, ingliz olimlari yunon va lotin tillaridan foydalangan holda o'zlari yaratgan so'zlar. Bu ilm-fanning jadal rivojlanishi va yangi Yevropa tillari rivojlanishdan oldinda bo'lganligi bilan bog'liq edi. Ingliz tilida klassik tillar elementlarining bunday bog'liq oqimi avvalgi kirib kelgan o'zlashtirma so'zlari asosida amalga oshirilgan. Mazkur yaratilgan yunon va lotin so'zlari shu tariqa yangi tillarning ilmiy matnlarga kirib kelgan.

Tibbiy terminlar tarixini lingvistik jihatdan o'rganish uchun ingliz tilining katta Oksford lug'atiga murojaat qilish kerak. Chunki unda ingliz tilidagi har bir so'zning ma'nolari davri bilan keltirilgan. Mazkur usuldan E.Endryus tibbiy-biologik terminologiyaning rivojlanish tarixini o'rganishda foydalangan [2].

Ingliz tibbiy tilining kelib chiqish ildizlari antik davr tillariga borib taqaladi. Bu tillar ko'p asrlar davomida tibbiy-biologik terminologiyaga katta ta'sir ko'rsatib kelgan va bugungi kungacha ham shunday davom etmoqda. Yunon tibbiyotiga ellinlarning tibbiy bilimlaridan ko'ra rivojlanishning yuqori bosqichida bo'lgan Misr, Finikiya va Krit-Miken madaniyatlari kuchli ta'sir ko'rsatgan. Krit so'zlarining shu kungacha ishlatilib kelinayotganligini E.Endryus manbasida keltirilgan porphira; elai - olive, oil; toxon terminlari orqali bilish mumkin.

Aleksandriya shifokorlari Gerofil va Erazistrat (mil. av. 300-250-yillar) davridagi yunon tibbiy tili, hattoki, hozirgi zamon ilm-fani nuqtai nazaridan ham uyg'unlik va ilmiy aniqlik me'yorida. Yunon tili rimliklarning tibbiy tiliga kuchli ta'sir ko'rsatgan. A.K.Selsga mansub lotin tili Gippokrat,

Aleksandriyalik tabiblar tilining boyligini o'ziga singdirgan holda tibbiyot fanining klassik tiliga aylangan.

Tibbiy ingliz tili yunon elementlarini lotin tilidan o'zlashtirgan. Lotin va lotinlashgan yunon shakllari ingliz tiliga oson o'zlashtirilgan va ularning assimilyasiyasi ko'pincha qo'shimchalarning yo'qolishi bilan cheklandi. Aslida, ingliz tibbiy terminologiyasida asl ingliz tili so'zlarining miqdori juda kam, lekin yunon va lotin o'zlashtirma so'zlari ingliz tiliga juda moslashib ketganki, ular xuddi asl ingliz so'zlari kabi qabul qilinadi.

E.Endryusning fikricha, ingliz tibbiy tilidagi ellinizmlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: 1) o'zgaragan yunoncha so'zlar, 2) lotinlashgan shakldagi yunoncha so'zlar, 3) qo'shimchalarsiz yunoncha so'zlar.

Birinchi guruh o'z asl ma'nosini saqlab qolmagan so'zlarni o'z ichiga oladi. Ingliz tibbiy tili bu so'zlarning faqat o'ziga xos ma'nosini o'zlashtirib olgan va shu yo'l bilan o'z til boyligiga erishgan, ingliz tiliga yetishmayotgan narsani, ya'ni alohida o'ziga xoslikni qo'shgan. Bunga misol qilib, nucleus, nucleolonema, endocytosis, cytoskeleton, apoptosis, endomitosis, meiosis, parenchyma, aplasia, hyperplasia, hypoplasia, metaplasia, hypertrophia, hypotrophia singari ko'plab terminlarni keltirish mumkin.

Ikkinchi guruh lotinlashgan shakldagi yunon so'zlaridir (yunon qo'shimchalari lotin qo'shimchalari bilan almashtirilgan). Masalan, myocardium – myokardio (yun.), periosteum – periosteon (yun.), hypochondrium – hypochondrion (yun.) va boshq.

Uchinchi guruh qo'shimchalarini yo'qotgan (yoki o'qilmaydigan -e) yunon so'zlaridir. Ushbu guruhga gistologik terminlardan: cytoplasma (yun.) – cytoplasm (ing.), chromatinum (yun.) – chromatin (ing.), podosoma (yun.) – podosome (ing.), axonema (yun.) – axoneme (ing.)larni keltirish mumkin.

Shunisi diqqatga sazovorki, murakkab tushunchalarga nom berish kerak bo'lganda, yunon tili lotin tiliga nisbatan ko'proq afzalliklarga ega bo'lgan. Bu ingliz tibbiy tilidagi yunon kompozitlarining ustunligidan darak beradi, chunki lotin tilida bunday holatlarda yunon tili o'zlashmalari ustunlik qilgan. Ko'pgina yunon kompozitlarining lotin tilida ekvivalentlari mavjud emas.

Aytish mumkinki, lotin tilining ta'siri, tibbiyotni zamonaviy tillarda o'rganila boshlagan vaqt, ya'ni taxminan ikki asr oldin mustahkamlangan. Masalan "mikroskop" yaratilgan ilk davrlarda "ko'rish trubasi" ma'nosida turlicha nomlanib kelingan. 1624-yil G.Galiley o'zi yaratgan qurilmani "okkiolino" (ital. Occhiolino - kichik ko'z, ko'zcha) deb nomlagan. Oradan bir yil o'tib, 1625-yil nemis botanigi I.Faber qadimgi yunon termin-elementlari asosida "microscope" terminini iste'molga kiritgan va mazkur shakl keng ommalashib ketgan.

E.Endryusning fikriga ko'ra, tibbiy terminologiyada deyarli har bir neologizm bilan shunday holat yuz bergan. Muallif buni o'tgan ikki asr mobaynida deyarli har bir o'quvchi Siseron, Vergiliy, Sezar, Gomer, Ksenofontlarning qadimiy merosi bilan tanish bo'lganligi, hattoki shifokor ham, Sels, Gippokrat yoki Galenning asarlaridan nom izlamaganligi bilan izohlaydi. Shunga ko'ra, agar shifokor yangi termin yaratmoqchi bo'lib lug'atga murojaat qilsa, u tibbiy tilining texnikasi umuman aks ettirilmagan klassik lotin tili lug'ati bo'lishi mumkin.

Gistologiyaning tarixiga nazar tashlasak, gistologiya hali mikroskop ixtiro qilinmasdan ancha oldin yaralgan. To'qimalarning ilk ta'riflari Aristotel', Galen, Ibn Sino, Vezaliya ishlarida uchraydi. 1665-yili R.Guk hujayra tushunchasini kiritadi va mikroskop ostida ba'zi to'qimalarning hujayra tuzilishini kuzatadi.

Ma'lumki, o'sha paytlarda Angliyada ikki tillilik hali ham mavjud edi, yirik olimlar o'z asarlarini ham ingliz, ham lotin tillarida nashr etishardi. Ingliz shifokor, zamonaviy fiziologiya va embriologiya asoschisi Uilyam Garvey ham o'zining mashhur "Exercitatio anatomica de motu cordis et sanguinis in animalibus" (1628) nomli asarini lotin tilida nashr ettirgan.

Tabiatda ko'zga ko'rinmas tirik jonzotlarning mavjudligi haqidagi g'oya ko'pgina olimlar orasida paydo bo'lgan (Gippokrat – mil.av. VI asr, J.Frakastro - XVI asr, A.Kirxer - XVII asr). Lekin buni tasdiqlovchi ma'lumot yo'q edi. A.Levenguk mikroskop ostida mikroblarni kuzatadi va 1683-yilda ilk bor bakteriyalar tasvirini taqdim qiladi.

Bakteriyalarning tasnifi va nomenklaturasi inson bakteriyalarning mavjudligi haqida tushuncha paydo bo'lishidan ikki asr oldin paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. Bu ikki asr A.Levenguk kashfiyoti va mikrobiologiyada eng buyuk kashfiyotlarni amalga oshirgan L.Paster hamda uning zamondoshlari tomonidan bakteriyalarni o'rganila boshlagan davrni ajratib turadi. Levenguk bugungi kunda fanga ma'lum bo'lgan barcha morfologik tiplarni, ya'ni kokklar, bakteriyalar, spiralsimon shakllarni tasvirlab berdi va asosladi. U mikroorganizmlarning birinchi tasnifini yaratdi.

Umuman gistologiyaning tarixiy rivojlanishini uch davrga bo'lib o'rganiladi: 1) mikroskopgacha bo'lgan davr; 2) mikroskop davri; 3) zamonaviy davr.

1. Mikroskop yaratilgunga qadar bo'lgan davr inson tana tuzilishi haqidagi tasavvurlar evolyusiyasi bilan bog'liq va mil.av. V asrdan 1665-yilga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi.

2. Mikroskop davri 1665-yildan, ya'ni ingliz fizigi R.Gukning mikroskop yaratishi bilan boshlanadi. Kashfiyotchi biologik tadqiqotlar olib boradi va ilk bor "cell" (hujayra) terminini qo'llaydi. Mazkur terminning keng yoyilishiga esa N.Gryuning o'simliklar haqidagi manbasi [4] sabab bo'lgan. Hozirgi vaqtda ingliz tilida mazkur so'zdan yasalgan 30 dan ortiq tibbiy terminlar mavjud bo'lib, ular quyidagilar: host cell, killer cell, helper cell, memory cell, adherent cell, precursor/progenitor cell, companion cell, mucous cell, basket cell, clear cell, fat cell, ghost cell, prickle cell, taste cell, wandering cell va boshqalar.

Etimologik jihatidan "stem cell", ya'ni ildiz hujayrani izohlashga harakat qilamiz. Hozirgi vaqtda ildiz hujayralar kosmetologiya va plastik tibbiyotda juda faol qo'llanilganligi bois bu termin keng ommalashib ketti. Ingliz tili manbalarida berilishicha, ushbu terminning paydo bo'lishini M.R.Santos va X.Villenbringning tadqiqotlarida keltirilgan. Ular "ildiz hujayra" terminining paydo bo'lishining tarixiy jihatlari haqida o'z qarashlarini bildirganlar. "Ildiz hujayra" termini ilmiy adabiyotlarda 1868 yildan beri mashhur nemis tabiatshunosi va faylasuf E.Gekkel asarlarida paydo bo'lgan. Gekkel filogenetik daraxtlarga asoslangan hayvonot dunyosi tizimini yaratishga harakat qiladi, bu hayvonlar evolyusiyasi jarayonida umumiy ajdodlarga qadar ketma-ket tushishni tasvirlab beradi. Ushbu kontekstda Gekkel "Stammzelle" (nem. - ildiz hujayra) terminini bir hujayrali organizmni tasvirlash uchun ishlatgan, u taxmin qilganidek, barcha ko'p hujayrali organizmlar shundan rivojlangan [5]. Gekkel, "Antropogeniya" kitobining 3-nashrida ba'zi toifalarni evolyusiyasi (filogenez)dan embriologiya (ontogenez)ga o'tkazishga, shuningdek, urug'lantirilgan tuxumni "ildiz hujayra" deb atashni taklif qiladi. Shunday qilib, E.Gekkel "ildiz hujayra" terminini ikki ma'noda ishlatgan: barcha ko'p hujayrali organizmlarning bir hujayrali ajdodini belgilashga va ko'p hujayrali organizmning barcha hujayralarini keltirib chiqaradigan urug'langan tuxumni belgilash uchun.

3. Gistologiyadagi zamonaviy davrning boshlanishi elektron mikroskoplarning ilk qo'llanilish davri, ya'ni 1950-

yildan boshlanadi. Mazkur asrda metodologiyani yanada takomillashtirish davom etdi va bu gistologiyaning hozirgi ko'rinishda shakllanishiga olib keldi. Zamonaviy gistologiya sitologiya, embriologiya va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Gistologiya hujayralar va to'qimalarning rivojlanish qonuniyatlari va differensiyasi, hujayra va to'qimalar darajasida moslashish, to'qimalar va organlarning yangilanish muammolari kabi masalalarni ishlab chiqdi. Patologik gistologiyaning yutuqlari tibbiyotda keng qo'llanadi, bu kasalliklarning rivojlanish mexanizmini tushunish va ularni davolash usullarini ko'rsatish imkonini beradi.

Xulosa. Ko'rinadiki, ingliz tibbiy tilining kelib chiqish ildizlari antik davr tillariga, ya'ni yunon va lotin tillariga borib taqaladi. Mazkur tillar ko'p asrlar davomida tibbiy-biologik terminologiyaga katta ta'sir ko'rsatib kelgan va bugungi kungacha ham shunday davom etmoqda. Ingliz tibbiy terminologiyasiga ular ko'p hollarda o'zgarmagan, ya'ni asl holicha yoki yunoncha so'zlarning lotinlashgan shaklida kirib kelganligi ko'rinadi. Shuningdek, yunon va lotin tillaridan foydalangan holda ingliz olimlari tomonidan yaratgan terminlar ham ko'p sonni tashkil qiladi. Ularda yunon-lotin asoslari saqlangani holda qo'shimchalarida o'zgarishlar kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Аверинцев С.С. Классическая греческая философия как явление историко-литературного ряда // Новое в современной классической философии. – Москва, 1979. – С.41-81.
2. Andrews E. A history of scientific English: The story of its Evolution based on a study of Biomedical Terminology. – New York: Richard R.Smith, 1947. – 342 p.
3. Васильева Н.В. Греко-латинские элементы в лингвистической терминологии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1983. – 24 с.
4. Grew Nelemian. The Anatomy et Vegetables Begun. -London: Printed for S.Hickman, 1672. -198 p.
5. Haeckel E. Anthropogenie / E. Haeckel. – 1st edn. – Leipzig: Wilhelm Engelmann, 1874; – 3rd edn., 1877.
6. Savory T.H. The Language of science. – London, 1953.
7. Чернявский М.Н. Краткий очерк истории и проблемы упорядочения медицинской терминологии // Энциклопедический словарь медицинских терминов. – М., 1984. – Т.3. – С. 411-425.
8. Ярцева Б.Н. Развитие национального литературного английского языка. – Москва, 1969. – 286 с.



UDK:811

Z. DJUMANIYAZOVA,
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'zDJTU f.f.d., prof. R.U. Madjidova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ANTROPOSENTRIK MAQOLLARDA AYOL TASVIRINING LEKSIK IFODASI

Аннотация

Maqol xalq og'zaki ijodining bir ko'rinishi bo'lib, unda xalqning orzu umidlari, o'y hayollari va ko'ngil kechinmalari aks ettiriladi. Shu jihatlarini hisobga olib maqollarni lingvokulturologik tomonlarini o'rganish bugungi kun tilshunosligining dolzarb masalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi maqollardan ayol xarakteriga ega bo'lgan bir qancha maqollar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi. Unda ingliz va o'zbek tilshunosligida ayol tasviri leksik jihatdan ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Maqol, ayol, xotin, xarakter, folklor, milliy paremiologiya, gender, hikmatli so'z, gender tarafkashlik, antroposentrik maqol, sharq madaniyati, g'arb madaniyati.

ЛЕКСИКОН ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ СТАТЬЯХ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Пословица – форма народного устного творчества, в котором отражаются мечты, надежды, мечты, душевные переживания людей. Учитывая эти аспекты, не будет преувеличением сказать, что изучение лингвокультурологических аспектов пословиц является одной из актуальных проблем современного языкознания. В данной статье с лингвокультурологической точки зрения были проанализированы несколько пословиц из английского и узбекского языков с женским характером. В ней лексически анализируется образ женщины в английском и узбекском языкознании.

Ключевые слова: Пословица, женщина, жена, персонаж, фольклор, национальная паремология, гендер, мудрые слова, гендерный уклон, антропоцентрическая пословица, восточная культура, западная культура.

LEXICON OF THE IMAGE OF WOMEN IN ANTHROPOCENTRIC ARTICLES IN ENGLISH AND UZBEK Annotation

A proverb is a form of folk oral creativity, which reflects people's dreams, hopes, dreams, and emotional experiences. Considering these aspects, it is no exaggeration to say that studying the linguistic and cultural aspects of proverbs is one of the topical issues of today's linguistics. In this article, several proverbs from English and Uzbek languages with a female character were analyzed from a linguistic and cultural point of view. In it, the image of a woman in English and Uzbek linguistics is lexically analyzed.

Key words: Proverb, woman, wife, character, folklore, national paremiology, gender, wise words, gender bias, anthropocentric proverb, eastern culture, western culture.

Ingliz xalq maqollari ham o'zbek xalq maqollari kabi juda mukammal va xalq o'zgaki ijodiyotining eng sara janrlaridan biridir.

Maqollarni ko'rib chiqishda ba'zi geografik jihatlariga duch keldik. Ingliz tili xalqaro til bo'lib, turli mamlakatlarda qo'llaniladi. Shuning uchun ma'lum ingliz maqollarini tanlab, ularning geografik diapazoni bo'yicha farqlar qo'ydik. Biz ingliz tilidagi maqollarni tanlash jarayonida muayyan geografik nuqtaning madaniyatini emas, balki ma'lum bir tilning o'ziga xos omillarini topdik.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tillar emas, maqollar orqali gender masalasi solishtirishdir. Maqollarni yig'ish paytida, biz gender munosabatlari bilan bog'liq bo'lganlarga e'tibor qaratdik. Maqolada mavjud maqollar gender munosabatlarini ko'rsatuvchi turli omillar asosida tasniflangan ya'ni tanlov turli usullar bilan amalga oshirildi.

Tanlash uchun ishlatilgan so'zlar: ayol, qiz, xonim, ona, buvi kabi so'zlar ham ingliz, ham o'zbek maqollari uchun tilning turli xil o'ziga xos jihatlarini o'z ichiga oladi.

Tanlovning boshqa darajasi subyektiv mulohazaga asoslangan, chunki aynan mana shu usul maqollar gender munosabatlari mavzusiga mos yoki mos emasligini belgilab beradi.

Tadqiq qilish jarayonida, tilda mavjud gender tarafkashlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan faktorlardan ehtiyot bo'lishga harakat qilish zarur.

Dunyoning zamonaviy ingliz paremiologik rasmida biz ayolning jonsiz narsalarga assimilyatsiya qilish chastotasining sezilarli darajada pasayganini aniqlashimiz mumkin, bu maqollardagi metaforalarning deyarli to'liq yo'qligida namoyon bo'ladi.

Ikkala tilda to'plangan maqollar turli xil toifalar bo'yicha farqlandi. Buni quyidagi jadval orqali ham ko'rishingiz mumkin:

1-jadval.

Tematik toifalar	Pozitiv	Negativ
Oilaviy munosabatlar	+	
Kasblar		-
Tashqi ko'rinish	+	

1-jadvalda ko'rsatilganidek, ingliz tilidagi ayollar haqidagi maqollarni biz to'rtta tematik toifa va uchta pozitivlik darajasidagi toifalarni ko'rishimiz mumkin. Tematik toifalarga oilaviy munosabatlar, kasblar, tashqi ko'rinish va boshqalar kiradi.

Ikkala tildagi antroposentrik maqollarda ham oilaviy munosabatlar turkumiga nikoh, ota-ona munosabatlari, ota-ona roli va boshqalar bilan bog'liq maqollar kiradi.

Oilaviy munosabatlar sohasida qiz bolaning tarbiyasi asosan onaga yuklanadi. Buni quyidagi ingliz maqoli misolida ham ko'rishimiz mumkin: "As is mother, so is daughter", "Like mother, like daughter", o'zbekcha varyanti "Onasini ko'rib qizini ol".

Shuningdek er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning yaxshi yoki yomonligi asosan ayol kishi zimmasida hisoblanadi. Quyidagi maqolda bu yaqqol ko'zga tashlanadi: "A good wife makes a good husband", "A worthy woman is the crown of her husband", o'zbekcha varyanti "Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin".

Oilada muhim qaror qabul qilish masalasi erkak kishining vazifasi bo'lsa ham, bunda ayollarning ham ta'siri borligi ba'zi ingliz va o'zbek maqollarida o'z ifodasini topadi: "A man is the head of the family, and the woman the neck that turns the neck", o'zbekcha varyanti "Er bosh bo'lsa, ayol bo'yindir, Bo'yin qay tomonga qarasa bosh ham shu tomonga qaraydi".

Farzandlarni erkalash masalasi ham ko'proq ayollarga xos ekanligini quyidagi ingliz maqolida ham ko'rishimiz mumkin: "Every mother thinks her own gosling a swan" o'zbekcha varyanti "Onaning ko'ngli bolada".

Qilayotgan tadqiqotimizning ikkinchi toifasiga qaraydigan bo'lsak, kasblar yoki uy yumushlari haqidagi maqollarning asosiy qismi ayollarga xosdir ya'ni ayol kishining barcha uy yumushlariga javobgarligi, erkak esa uydagi ta'minlovchi shaxs ekanligini ko'rishimiz mumkin: "A house well-furnished makes a woman wise" o'zbekcha varyanti "Ayolning sarishtasi, ro'zg'orning farishtasi", "Man makes houses, woman makes homes", "Women in mischief are wiser than men", "Men get wealth woman keep it" o'zbekcha varyanti "Ayol kishiga qirq hunar oz", "Erkak ta'minlovchi, ayol sarflovchi", "Ayol so'm qilar, erkak chaqa".

Keyingi toifamiz hisoblanadigan tashqi ko'rinish va go'zallik haqidagi maqollarning asosiy qismi ham ayollar haqidadir: "A man is old as old as he feels, and a woman as old she looks" o'zbekcha varyanti "Erkak kishi qariganini his qilganda qaridi, Ayol kishi qariganida qaridi".

Insoniyat tarixi patriarxat jamiyatga aylanganda, erkaklar jamiyatning markaziga aylana boshladilar. G'arb yoki sharq mamlakatlari tarixida ayollar past mavqega ega bo'lgan va jamiyat tomonidan kamsitilgan.

Xristianlik g'arbiy mamlakatlarda hukmronlik qiladi va ayollarning yordamchi pozitsiyasi Injilda ham o'z aksini topgan. Injilga ko'ra, Xudo birinchi navbatda odamlarni yaratdi va ularga butun dunyoning hukmronligiga yo'l qo'ydi. Biroq, ayol erkakning faqat bir qovurg'asi. Shunday qilib, biz Injil erkaklarni ustun mavqega, ayollarni esa yordamchi pozitsiyaga qo'yishini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilidagi maqollarda bu fikrni o'z ichiga olgan ba'zi misollar mavjud: "A man of straw is worth of a woman of gold", "If the husband be not at home, there is nobody", "Man, woman and devil are three degrees of comparison" o'zbekcha varyantlari "Erkaksiz uy zindon", "Yomon erkak ham ayollarning eng yaxshisiga munosibdir".

Yuqoridagi maqollarning barchasida gender masalasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda erkak shovinizmini ham uchratishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu maqollarda ayollar

haqidagi ko'plab haqiqatlar aks ettiriladi. Ikkinchi misolda, agar er uyda bo'lmasa, hech kim yo'qligi aytilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ayol doimo e'tibordan chetda, er, ya'ni erkak doimo markaz sifatida qaraladi, oilada ham va jamiyatda ham. Ko'p hollarda ayollar ikkinchi darajali pozitsiyada deb hisoblangan.

G'arb tarixida ayollarning oddiy ta'lim olish imkoniyati juda kam bo'lgan va ko'pincha oliy ma'lumot olish imkoniyati faqat erkaklarda mavjud bo'lgan. An'anaga ko'ra, jaholat ayolning fazilati ekanligi haqida maqollar ham keng tarqalgan. Shunday qilib, ayollarga ta'lim olish huquqi deyarli berilmagan. Ayollar ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lganligi sababli, ular erkaklardek mukammal shaxs hisoblanmagan. Ko'p hollarda mashhur olimlar va buyuk odamlar doimo erkaklardan chiqqan. Shunday qilib an'anaviy hayot va doimiy yashash tarzi tufayli ayollarning jamiyatga hissasi deyarli e'tiborga olinmagan. Bundan tashqari, g'arb madaniyatida ayollar har doim ba'zi salbiy jihatlari bilan bog'liq hisoblangan, ular ko'pincha behudalik, zaiflik va ko'z yoshlar sinonimi hisoblangan. Bunday maqollar ingliz tilida juda ko'p: "A woman's advice is never to seek", "Women are like wasps in their anger", "A woman and a glass are ever in danger", "Women are wavering as the wind" o'zbekcha varyantlari "Sochi uzun aqli kalta", "Yomon ayol ketaman deb qo'rqitar", "Maslahatni erkakdan so'ra, ayoldan emas".

Yuqoridagi maqollarning barchasi fe'l-atvor va donolik haqida ayollarga nisbatan gender munosabatini aks ettiradi. G'arb tarixida ayollarning hissasi doimo e'tibordan chetda qolgan. Birinchi misolda ayollarning fikri e'tiborga olinmasligi ko'rsatilgan. Ikkinchi misolda, ayolning xarakteri mo'rtligi va shisha bilan bir xil xususiyatga egaligi ko'rsatilgan. Garchi ular ba'zi tarixiy harakatlarda katta hissa qo'shgan bo'lsalar-da, ko'p holatlarda ular doimo behudalik, zaiflik va ko'z yoshlar sinonimi sifatida ko'rsatiladi.

Nikoh har bir madaniyatning muhim jihati hisoblanadi. U har bir jamiyatning ijtimoiy va madaniy qarashlarini aks ettiradi. Ingliz tilida nikoh haqidagi maqollar ikki xil turi bor. Ulardan biri qizlarga uylanish istagini aks ettirish bo'lsa, boshqasi ayollarning iffatiga e'tibor qaratgan maqollar turidir. Bu ikki turning ikkalasi ham ayollarga nisbatan kamsitishni aks ettiradi. Ayollar faqat uy ishlari uchun mas'ul shaxs sifatida ko'rsatiladi lekin shunda ham ular erlari va jamiyat tomonidan hurmat qilinishi kerak emas deb ko'rsatilgan. Bu hodisani quyidagi maqollarda ko'rishimiz mumkin: "Daughters and dead fish are not keeping wares", "It is harder to marry a daughter well than to bring her up well", "Marry a wife of thine own degree" o'zbekcha varyantlari "Qiz bola paloxmon toshi, qayerga otsang o'sha yerga tushadi", "Qizim bor deb kerilma, Esli-xushli bo'lmasa", "Onasi yomonning qizini olma".

Ushbu maqollardan ko'rishimiz mumkinki, nikohning markaziga doimo erkaklar qo'yilgan bo'lib, ayollarni qo'g'irchoqqa aylantiradi. Birinchi maqolda, oilada xotinlar va qizlar oilaning haqiqiy qismi hisoblanmaydi. G'arb tarixida oilada muhim masalalar hal qilinganida, xotinlar batafsil so'rash va o'z fikrlarini berish huquqiga ega bo'lmaganlar, chunki ular nikohda pastroq mavqega ega edilar. Uchinchi misolda, erkak kimgadir uylanmoqchi bo'lsa, u xotining oilaviy ahvolini hisobga oladi.

Bundan tashqari, barcha xalqlar madaniyatida bo'lgani kabi gapga chechanlik, suhbat davomida yutqazmaslikka harakat qilish va ko'p gapirish xususiyatlari ham ayollar ishtirokidagi maqollarda uchraydi: "One tongue us enough for a woman", "Woman will have the last world", "A silent woman is gift from God" o'zbekcha varyantlari "Elakka ketgan

xotinning ellik og'iz gapi bor", "Erkakka ish yarashar, ayolga gap", "Ayolning gapini ayol tushunadi".

Shuningdek, o'zaro nizolar va suhbatlarning ko'pligi ham asosan ayollar haqidagi maqollarga xosdir: "There was never conflict without a woman", "Many women, many words; many geese, many turds", "Women's counsel is cold" o'zbekcha variantlari "Ayol kishi bilan faqat axmoq odam gap talashadi", "Ko'p ayol ko'p gap".

Bundan tashqari, diniy masalalar yuzasidan ingliz tilidagi antroposentrik maqollardagi gender masalasiga qaraydigan bo'lsak, ayollar asosan yomon obrazlarda namoyon bo'ladi: "Man, woman, and devil are the three levels of comparison", "Hell has no fury like a woman scorned", "No mischief but a woman or a priest is at the bottom of it". Lekin o'zbek tilidagi antroposentrik maqollarda diniy masalalar yuzasidan ayollar asosan yaxshi obrazlarda namoyon bo'ladi:

"Jannat onalar oyog'i ostida", "Ayolini rozi qilgan erga jannatdan bitta joy ajratilgan" kabi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ingliz va o'zbek maqollarining gender tahlili natijalariga ko'ra shu narsa ma'lum bo'ldiki, har ikki tilda ham ayolning salbiy ifodasi uning ijobiy ifodasidan ustun turadi. Bu jamiyat a'zolarining salbiy xususiyatga nisbatan munosabatini belgilaydigan alomatdir.

G'arb madaniyatida ham sharq madaniyatida ham oilaviy munosabatlarda ayolning o'rni yuksaltirilgan. Bu esa ayollarning yuqori darajada hurmat ehtiromga loyiq ko'rilganligidan dalolatdir. Ayollar ba'zi o'rinlarda yomon o'rinlarda tasvirlangan bo'lsa ham lekin ularning oiladagi ahamiyati doim yuksaltirilgan. Ayollar har ikki madaniyatda ham erni yo'lga soluvchi, erni o'z makri ila boshqaruvchi qilib izohlangan bo'lishiga qaramasdan har ikki madaniyatda ham erkaklar oila boshi sifatida, ayollar esa ularning oiladagi yordamchisi sifatidagina tasvirlangan.

ADABIYOTLAR

1. Panos Karagiorgos. Greek and English Proverb // Cambridge Scholars Publishing Lady Stephenson Library. - Newcastle upon Tyne, UK., 2015.
2. Meider W, Dundes A. The Wisdom of Many: Essays on the Proverb. – New York, Garland. 1995.
3. Schipper M. Never marry a woman with big feet: Women in proverbs from around the world.- Amsterdam: Amsterdam University Press. 2010.
4. Shaimardanova, M.R. Akhmetova L.A. The Representation of Women in English and Russian Paroemiological Picture of the World // International Journal of Environmental and Science education. - Russia.
5. Dushatova S. (2022). "Evfemizm tushunchasi tahlili. youth, science, education: topical issues, achievements and innovations" 1(3), 159-163.
6. Soxibovna, M.G. (2022, August). "The role of linvo-cultureme in the study of national and cultural features of speech units. in international conference: problems and scientific solutions". (Vol. 1, No. 3, pp. 48-52).
7. Ganieva M. S. (2021). "Socio-philosophical aspects of the study of the issue of gender and entrepreneurial woman in a new society". Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 441-445.
8. Ганиев Б. С., & Ганиева, М. С. (2020). "Семья как важный социальный фактор формирования предпринимательских навыков у молодежи" (Опыт Узбекистана). In Проблемы социальной психологии и социальной работы (pp. 25-27).



UDK: 415.61=22(045)

Vaydulla JUMANOV,
Qarshi davlat universiteti (PhD) v.b. dotsent
E-mail: vaydullajumanov@gmail.com

SamDCHTI, f. f. d. prof. Sh. S. Safarov taqrizi ostida

METAKOMMUNIKATIV SO'ROQ GAPLAR

Annotatsiya

Maqolada metakommunikativ vazifasini bajaruvchi so'roq gaplar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Metakommunikatsiya, so'roq gaplar, kommunikatsiya, bajarmoq, vazifa, nutqiy akt.

МЕТАКОММУНИКАТИВНЫЕ ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросительные предложения, выполняющие мета коммуникативную функцию.

Ключевые слова: Метакоммуникация, вопросительные предложения, коммуникация, исполнение, функция, речевые акты.

METACOMMUNICATIVE INTERROGATIVE SENTENCES

Annotation

The article deals with interrogative sentences that perform a metacommunicative function.

Key words: Metacommunicative, interrogative sentences, communication, perform, function, speech acts.

Kirish. Metakommunikatsiya muhim axborotni yetkazish emas, balki ijtimoiy faoliyatning bir qismi bo'lgan ijtimoiy aloqani amalga oshirish hisoblanadi [Palmer:1993: 29]. Suhbatdosh bilan aloqa o'rnatishda, salomlashishdan tashqari, so'roq gaplarda adresatning e'tiborini tortish maqsadida ham foydalaniladi. Bu metakommunikativ vazifa muloqotning boshlangich fazasida o'ta muhim hisoblanib, adresat tomonidan kommunikativ muhim bo'lgan axborotni qabul qilishda e'tiborsizlik to'sig'ini buzib tashlashni talab qiladi, negaki "nogahoniy nutq (adresatning e'tibori qaratilmaganda) umuman qabul qilinmasligi yoki qisman, buzilgan tarzda qabul qilinishi mumkin" [Pochevov 1981:52].

Adresatning e'tiborini qaratish va uni xabarni qabul qilishga chorlash maqsadida:

Would you+Inf...? Would you mind+Ger...?

Would you mind if + Pr+Inf...?

Would you be so good as+Inf...?

Can/Could + Pr + Inf...? qoliplarida tuzilgan so'roq gaplardan foydalaniladi. Bu gaplardan, odatda, notanish va unchalik tanish bo'lmagan kishilar neytral-rasmiy va kundalik-maishiy sohalarida muloqot shakllarida foydalaniladi. Bunday holatlarda muloqotga, umuman, mehnat faoliyati sifatida qaralib va uni yengillashtirish uchun xushmuomalalik qoidalari – nutqiy etiketga alohida e'tibor berish talab qilinadi. Shunday qilib, Can/Could+ Pr+Inf...? qolipida tuzilgan so'roq gaplar notanish kishi e'tiborini jalb qilishning umumiy shakllari hisoblanadi. Bunda could o'ta xushmuomala va ijobiy tarzda eshitilib, "agar sizga malol kelmasa" iborasini anglatadi. Masalan: Shifoxonaning mijozlar kutish xonasida odamlar o'tirishibdi. Ularni ichkariga kiritishmayapti, lekin, ular u yerda nimadir sodir bo'lganini sezishadi. Ehtimol, kasallardan kimdir, qaysidir o'lgan. Nihoyat hamshira keldi. Mijozlarga nigohini tashlab, ulardan birining yoniga keldi:

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Mr Tomson, could I please speak to you right now?" [<http://www.processtext.com/abclit.html>]. Bunday turdagi nutqiy aktlar murakkab nutqiy aktlar deyiladi. Ushbu nutqiy

aktning birinchi komponenti Mr Tomson murojaati bo'lib, u o'zida uchta vazifani, ya'ni adresatning e'tiborini jalb etish (perlokutiv funktsiya), kommunikantlarning shaxslararo munosabatlarini ko'rsatish, xususan, adresatning adresatga munosabati (ijtimoiy funktsiya) va nutqiy akt adresatini ajratish vazifalarini o'zida mujassamlashtiradi. [qarang: Karaban 1989: 241]. Bunday holatda Mr Tomson murojaati bir vaqtning o'zida adresatning e'tiborini jalb qiladi, buyruq nutqiy akti adresatini ko'rsatadi, kommunikantlarning rasmiy o'zaro munosabatini va adresatni adresatga izzat-hurmat munosabatini ta'kidlaydi. Could I please speak to you right now? gapi bilan ifodalangan yengillashtiruvchi nutqiy akti, nafaqat metakommunikativ vazifa, balki, adresat bilan so'zlashishga ruxsat olish talabini ham ifodalaydi.

So'zlovchi nutqiy aloqani o'rnatish maqsadida ritorik so'roq gaplardan ham foydalanishi mumkin. Ular adresat diqqat-e'tiborini faollashtirishga, idrok darajasini oshirishga yordam beradi va shuning uchun ham dialogik nutqda keng qo'llaniladi. Masalan:

That's how I spend my nights! ... What's the use of talking of forgiveness! I have forgiven as it is! [<http://www.planetpdf.com/>].

Ritorik so'roq gaplar diqqat-e'tibor aktualizatori sifatida namoyon bo'lib, so'zlovchi nutqining davom etishini kutish holatini yaratadigan va tinglovchida yangi axborot qabul qilishga moyillik hosil qilish xarakteriga egadirlar. Barcha introduktiv gaplar singari ular davomiylikni talab qiladi: chunki keyingi axborotning aniq emasligi adresatda axborotdan qoniqmaslik hissiyatini o'yg'otishi mumkin [Arutyunova 2007: 223]. Masalan:

Do you think that a design like this will ever come into fashion? That kind of dance will never come into fashion [SDAI, p.111];

If we don't hit what we're after, then we can move forward until we do.

"Do you think that there ever was a native population here?" [N. Andre, p.28]. Ushbu parchadagi Do you think that

there ever was a native population here ritorik so'roq gapi kommunikatsiya davom etishi istagini tug'diradi va adresatni mulqotga kirishishga tayyorlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ritorik so'roq gaplar so'zlovchi replikasini anglash uchun qulay bo'lgan mazmun bo'laklariga ajratilishi asosiy fikrni alohida ta'kidlashi va so'zlovchiga zarur bo'lgan axborot bahosini adresatdan aniqlab olishi mumkin. Masalan: "I'm going home," she repeated stubbornly, "and you can't stop me. You're being awfully selfish, Harry, couldn't you see that I'd rather have the baby in a modern hospital – with all my family around me? I'm not going to be stuck here alone." Anger and fear made her voice rise querulously [N. Andre, p.128].

Xuddi shunday vazifani So what? va What do you know? tarzidagi suhbat formulalari ham bajaradi. Lug'aviy izohlarga e'tibor bering: So what? – What does that matter? What difference does that make? /used when one accepts that a fact, statement, etc. is true, but doubts or questions its suggested meaning or importance. Masalan: "You say his father's very rich. So what? He wouldn't accept any help from his father, even if it were offered." [MDCI].

He doesn't know the language, and what do you know? He has the nerve to translate [ARFS].

Tahlil va natijalar. Adresat diqqat-e'tiborini kuchaytirish va yetkazilayotgan axborotni faollashtirish kabi fatik (metakommunikativ) vazifa maqsadlarda foydalanilayotgan turg'un shakldagi so'roq gaplar qatoriga "refleksiv" deb nomlanuvchi savollar ham kiritiladi. Ular so'zlovchining o'ziga-o'zi beradigan yoki u birdaniga javob berishga tayyor savollardir [qarang: Paducheva 1981: 81; Matyuxina 2003: 127-131]. Bu turdagi savollar so'zlovchining xotira faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turg'un shakldagi so'roq gaplardir. Masalan, unutuvcchanlik bilan bog'liq gaplar: Where were we? What else was there? Lug'aviy izohlarga e'tibor bering: Where were we? – What were we talking about before our thoughts were interrupted? Masalan:

Where were we? Oh, yes, we were discussing the arrangements for the party next month [MDCI, p.176]. Berilishi kutilayotgan xabarga e'tiborni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, What do you think? Do you know what+N+V...? modelidagi turg'un strukturali tarkibli so'roq gaplardan ham foydalaniladi. Ular adresatning qiziquvchanligini kuchaytirib, uning xayolini band qilishga xizmat qiladi.

Do you know what+N+V...? modelining lug'aviy izohlarini taqqoslang: A comment, or exclamation, introducing a statement, especially one which may cause some surprise [ODIE,151]. Masalan: What do you think gapi ham lug'atlarda shunday qayd etiladi: What do you think? – used to introduce something surprising. Masalan: What do you think? I've been promoted. [MDCI, p.167]. Yuqorida keltirilgan misollarda turg'un shakldagi so'roq gaplar introduktiv vazifani bajaradi. Ular suhbatdoshning axborot so'rovidan xabardorligidan ko'ra, so'zlovchi yetkazmoqchi bo'lgan yangi axborot haqida oldindan xabar beradi. Turg'un shakldagi refleksiv so'roq gaplar so'zlovchi replikasini idrok qilish uchun qo'lay bo'lgan mazmun bo'laklariga ega bo'lib, butun axborot yetkazish jarayoni davomida adresatning e'tiborini susaytirmay turadi:

I shrank under her touch. "What do you think that is?" she asked me, again pointing with her stick; "that, where those cobwebs are?" "I can't guess what it is, ma'am." "It's a great cake. A bride-cake. Mine!" [http://www.planetpdf.com/].

Ushbu savollardan ma'lumki, so'zlovchi tinglovchini e'tiborini jalb qilib, keyingi mulqot jarayonini uzaytirishga zamin tayyorlashdan iborat.

Nutqiy aloqani quvvatlashga yordam beruvchi turg'un shakldagi so'roq gaplar vazifasi adresatning retseptiv va tafakkur faoliyatini kuchaytirishdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, so'zlovchi turg'un tarkibli gaplardan foydalanib, suhbatdoshi uni tinglayotgani va angliyatganligini tekshiradi. Xususan, adresatning retseptiv faoliyati Can/can't /you hear me? Would you care to hear? ko'rinishidagi gaplar yordamida nazorat qilinadi. Biroq, bunday gaplar so'zma-so'z izohlanishi va javob bilan birga davom etishi mumkin. Masalan:

Can you hear me? [SDAI, p.312].

Would you care to elaborate on that? [Usha asar, 184 b].

Xulosa va takliflar. Berilgan matn parchalari misollardan ayon bo'ldiki, so'roq gaplar vositasida bir vaqtning o'zida ham savol ma'nosining, ham metakommunikativ vazifaning faollashuvi kuzatilyapti. Shuningdek, metakommunikatsiyaning roli shundan iborotkim, ular diqqatni faollashtirib, adresatning fikrlar jarayoni va so'zlovchining mulohazalariga aloqadorlik effektini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл.– М.: URSS, 2007. – 383с.
2. Карабан В.И. Сложные речевые акты как речевые единицы: Дис. ... д-ра филол. наук. – Киев: 1989. – 465 с.
3. Матюхина Ю.В. Типы и стратегии английского фатического метадискурса XVI–XX вв. // Вісник Харків. нац. ун-ту ім. В.Н. Каразіна. – 2003. – № 611. – С. 127-131.
4. Падучева Е.В. Прагматические аспекты связности диалога // Известия АН СССР. – Сер. лит. и языка. – М.: – Наука, 1982. – т. – С. 305- 313.
5. Почепцов Г.Г. Фатическая метакоммуникация // Семантика и прагматика синтаксических единств. Межвуз. Тематич. Сб. – Калинин: Изд-во Калининского ун-та, 1981 а. – С. 52-59.
6. Palmer, F. R. Semantics - 2nd ed. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 1993. – 213 p.
7. Andre N. Key out of time – Harmondsworth: Penguin Books Ltd, 2008.– 192 p.
8. АРФС – Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.: 1984. – 944 с.
9. MDCI – Manser M. H. A Dictionary of Contemporary Idioms. London and Sudney: Pan Books, 1993. – 219 p.
10. ODCIE – Cowie A.P., Mackin R. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. - Oxford University Press, 1994. – V. 2. – 685 p.
11. SDAI – Speare R.A. Dictionary of American Idioms and phrasal verbs. R.A. Spears. New-York: McGraw-Hill, 2005. – 1098 p.
12. [http://www.planetpdf.com/].
13. [http://www.processtext.com/abclit.html].



Dilso'z ZOYIROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqatchisi
E-mail: dilsuz@nuu.uz

O'zMU professori, f.f.d. A.Mamatov taqrizi asosida

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS OF ANDRAGOGIC RESEARCH

Annotation

This article talks about the problem of learning English for adults, which is one of the most pressing today, and about the problems that exist in this area. Androgogy, i.e. studies conducted in the field of adult education have analyzed the issues raised in them and examined existing principles. Research will also be discussed that has identified the demand and need for learning English, and some of the existing problems in teaching English to adults will be identified.

Key words: Androgogy, adult education, virtual language individual, independent learning.

НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА АНДРАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается о проблеме изучения английского языка для взрослых, которая на сегодняшний день является одной из самых актуальных, и о проблемах, существующих в этой сфере. Андрогогика, т.е. исследования, проведенные в области образования взрослых, были проанализированы поднимаемые в них вопросы и изучены существующие принципы. Также будут обсуждены исследования, определившие спрос и потребность в изучении английского языка, и будут выявлены некоторые из существующих проблем в обучении английскому языку взрослых.

Ключевые слова: Андрогогика образование взрослых, виртуальный язык, индивидуальное, независимое обучение.

ANDRAGOGIK TADQIQOTLARNING ILMIIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan katta yoshlilarning ingliz tilini o'rganish masalasi va mazkur sohada mavjud muammolar haqida so'z boradi. Androgogika ya'ni katta yoshlilar ta'limi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar, ularda ko'tarilgan masalalar tahlil qilinib mavjud tamoyillar o'rganilgan. Shuningdek, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyoj aniqlangan tadqiqotlarga munosabat bildiriladi hamda katta yoshlilarga ingliz tilini o'rgatish borasida mavjud ayrim muammolar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Androgogika, katta yoshlilar ta'limi, vertual dunyo tili, individual, mustaqil o'rganish

Kirish. Oxirgi yillarda zamonaviy axborot kommunikatsiyasi texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda va axborotlar ko'lamida daqqa sayin oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida har bir mutaxassisdan o'z sohasiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni, yangiliklarni tezlik bilan o'zlashtirishini talab etadi aks holda bunday axborot jamiyati shiddat va tezlik bilan qadam tashlamagan har qanday insonni chetga surib chiqarishi muqarrar. Zero, har bir inson yoshi, jinsi, sohasi, mavqei va lavozimidan qat'iy nazar to'xtovsiz o'z sohasiga tegishli ma'lumotlarni o'rganishi, axborot texnologiyalarni o'zlashtirishi, qisqa qilib aytganda zamon bilan hamnafas bo'lish lozim.

Ma'lumki, jahonda yuz beradigan axborotlardan to'g'ridan-to'g'ri xabardor bo'lish ingliz tili vositasi orqali amalga oshmoqda va hozirgi kunda ingliz tilining ommaviylashishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda.

Ingliz tili – ijtimoiy tarmoq tili ya'ni «virtual dunyo tili» hisoblanib, butun dunyo bo'ylab tarmoq yordamida turli mamlakatlar, millatlar va madaniyatlarni insonlar orqali bir-biriga bog'laydi;

Ingliz tili – har qanday ishbilarmon insonning asosiy muloqot tili;

Ingliz tili – texnologiya va progressiv rivojlanish tilidir.

Ingliz tili madaniyatlararo va millatlararo aloqa vositasi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyoning rivojlangan davlatlarida ingliz tilini bilgan mutaxassislarni ishga qabul qilish nafaqat kompaniyaning balki mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatishini tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilmoqda. Masalan, M.G. Baxtiozina bu borada quyidagilarni aytib o'tgan, "... nedavno provedenniy opros jurnala «The Economist» pokazal, chto pochti 70% rukovodyashix rabotnikov v Yevrope i SSHA vidyat ostruyu neobxodimost sovershenstvovaniya znaniy angliyskogo yazika svoix sotrudnikov dlya uspeshnoy integratsii kompaniy v mejdunarodniy biznes; chetvert iz nix govorit o tom, chto polovina rabotnikov kompaniy nujdayetsya seychas v xoroshem znaniy angliyskogo. Takje otmechayetsya yavnaya vzaimosvyaz ekonomicheskogo rosta strani v selom i potrebnosti v obuchenii lyudey angliyskomu yaziku. Naprimer, ustanovleno, chto v razvivayushixsya stranax s visokim tempom ekonomicheskogo rosta vse bolshe osoznayut sennost spetsialistov (vovlechennix v razlichniye sferi deyatelnosti), obladayushix znaniyami angliyskogo yazika. Sredi stran, otmechayushix svoeyevremennost obucheniya vzroslix lyudey angliyskomu yaziku na pervix pozitsiyax naxodyatsya Kitay i Indiya (daleye sleduyut Indoneziya, Pakistan, Braziliya, Meksika, takje krupniye strani Afriki: Nigeriya, Efiopiya, Sudan, i tolko potom – Rossiya)[1].

Haqiqatdan ham, ingliz tilini o'rganish masalasi barcha davlatlarda birdek, ustivor masala darajasiga ko'tarilgan. Bu

borada M.K.Kabachki "Rol angliyskogo yazika v sovremennom mire znachitelno izmenilas. Angliyskiy yazik stal ne prosto yazikom mirovogo soobshchestva, proisxodit "globalizatsiya angliyskogo yazika", to yest vse narodi mira mogut obshchatsya drug s drugom na odnom, vsem izvestnom i ponyatnom yazike – angliyskom"[2] deya ta'kidlaydi. Olim fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, bugungi kunda nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham ingliz tilini bilishga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda va bu o'z-o'zidan ingliz tili muloqot va ilmiy til darajasiga ko'tarilib borayotganidan dalolat bermoqda.

Xorij olimlari tomonidan katta yoshli mutaxassislarga ingliz tilini tez va samarali o'rgatishning aniq tamoyillari ishlab chiqilmagan bo'lsada, biroq ayrim tadqiqotlarda pedagogika va psixologiya sohasidagi muammolar o'rganilgan. Xususan, I.A.Zimney, G.A.Kitaygorodskoy, E.C.Polat, N.D.Galsko, E.I.Passov, A.K.Morkova, A.N.Leontoyevlarning tadqiqotlarini aytib o'tish mumkin.

O'zbek olimlari ham mazkur sohada tadqiqotlar olib borganlar. Ularda asosan, androgogikada o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlari[3], androgogik ta'limning ijtimoiy pedagogik asoslari[4] xususida so'z boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmida katta yoshlilarning ta'lim olishi va shu bilan bog'liq masalalarning o'rganilishi avj oldi hamda olimlarning andragogikaga mustaqil fan va ilmiy yo'nalish sifatida yondashib olib borgan ilmiy ishlari ko'paydi. Ayniqsa, Amerikalik tadqiqotchi E.Torndayk yoshi kattalar ta'limiga bag'ishlangan monografik tadqiqoti bu sohada bahs munozoralar boshlanishiga yo'l ochib berdi.

Ayniqsa, chet tillarni xususan, ingliz tilini katta yoshlilarga o'rgatish masalasi dunyo olimlari tadqiqot markazida turibdi. Hattoki, aksariyat davlatlarda xodimlarni lavozimga tayinlashda yoki tavsiya qilishda ham ingliz tilini bilish darajasiga e'tibor qaratilmoqda[5]. Bundan maqsad dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh va professional kadr tayyorlash, har bir mutaxassis o'z sohasi doirasida dunyoda sodir bo'layotgan tadqiqotlardan bevosita xabardor bo'lishi, yangiliklarni o'zlashtirishi hamda xorijiy hamkorlari bilan tajriba almashishlari nazarda tutilmoqda. Aytish joizki, yoshlarning chet tilini bilishi yoki ingliz tilini o'rganishi borasida albatta muammo mavjud bo'lmasada, biroq yoshi katta kadrlar uchun bir qancha muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, katta yoshlilar uchun til o'rganishda psixofiziologik, psixolingvistik, neyrofiziologik muammolar mavjud. Albatta, bu muammolarni batafsil aniqlash alohida monografik tadqiqotlarni talab etadi.

Ingliz tilini ommalashish sabablarini aniqlash va bu borada statistik tahlillar olib borgan olim S.V.Altarev 1996-1999 yillarda Rossiyadan xorijga chiqqan va 1995-1999 yillarda Rossiyaga tashrif buyurgan xorijliklarning oqimini tahlil qiladi va bu orqali u bozor iqtisodiyoti davrida ingliz tilini bilish kasbiy, hayotiy jarayonda muhimligi, shuningdek, barcha texnik vositalarning qo'llanilishidagi yorliqlar ham ingliz tilida bo'lishi ham insonlarni til bilishiga undovchi omil ekanligini ham ko'rsatib o'tadi. Tahlillar orqali olim yildan yilga turistlarning ko'payishi, mamlakatga kiruvchi xorijliklar va xorijga chiquvchi fuqarolar sonining oshganligini raqamlarda ko'rsatib beradi. Mazkur tadqiqotda ingliz tilini o'qitish xususan, katta yoshlilarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Olim katta yoshlilarni til kurslarida ingliz tilini o'rganishlarini yoqlasada, biroq mazkur kurslarda dars beradigan o'qituvchilarning hech qanday andragogik tayyorgarliksiz va bu sohadan xabardor bo'lmay turib dars berishlarini tanqid qiladi. Shuningdek, yuqoridagi olimlar fikrini qo'llagan holda S.Altareva ham katta yoshlilarga ingliz tilini o'rgatishda aniq metodika va tamoyil yo'qligi to'g'risida

quyidagi fikrlarni bildiradi: Teoriticheskuyu bazu obucheniya vzroslix v bolshinstvo stran mira sostavlyayut konsepsii obrazovaniya vzroslix. V nashey strane andragogika (nauka ob obrazovaniy vzroslix) toje nachala aktivno razvivatsya, no prakticheski vse obucheniye vzroslix yeshe stroitsya na traditsionnix pedagogicheskix prinsipax, chto sushestvenno snijayet yego effektivnost"[6]. Ta'kidlanganidek, katta yoshlilarga ingliz tilini o'rgatish masalasini ta'lim konsepsiyasi darajasiga ko'tarish, andragogik ta'limni rivojlantirish va mazkur sohada nazariy va amaliy metodikani zudlik bilan ishlab chiqish lozim.

M.K.Kabachkin ingliz tilini katta yoshlilarga o'qitishning leksik-grammatik tomonlarini o'rganar ekan bunday ta'limni til kurslarida intensiv o'qitish masalasini ko'tarib chiqadi va tadqiqot amaliy natijasi sifatida ingliz tilini katta yoshlilarga o'rgatishning amaliy natijasi sifatida mashqlar to'plamini ham ishlab chiqadi. Tadqiqotchi tomonidan yaratilgan ingliz tilining intensiv kurs modeli nafaqat ingliz tilini o'rganuvchilar uchun balki chet tilini o'rganuvchilarga ham tavsiya etish mumkinligi ta'kidlab o'tilgan[7].

M.A.Serebryanikova yoshi kattalarga ingliz tilini o'rganishlarida uch xil yo'lni ta'ni:

Individual o'rganish;

Guruhda o'rganish;

Mustaqil o'rganishni tavsiya etadi[8].

Mazkur ta'lim tizimida olim ko'proq individual ravishda til o'rganishni yoqlaydi, chunki mazkur ta'lim turida o'rganuvchiga alohida e'tibor qaratilishi, faqatgina bir kishi bilan to'g'ridan to'g'ri ishlash yaxshi natijaga erishishni kafolatlashini aytib o'tadi.

Guruh bo'lib til o'rganishda o'quvchiga individual ishlashga qaraganda yetarli vaqt, yetarli e'tibor bo'lmay qolishini ham izohlab o'tadi. Olima mustaqil til o'rganishda xatolarni tuzatish, tushuntirish va nazorat mavjud bo'lmasligini aytib mazkur til o'rganish usuli doim ham o'zini oqlamasligini tushuntiradi.

Mazkur tadqiqotda katta yoshlilarni til o'rganishi xususan, ingliz tilini o'rganishda mavjud muammolarni ko'rib chiqamiz va bu borada mavjud tadqiqotlardagi nazariyalar hamda amaliyotdagi natijalarni qiyosiy aspektda tahlil qilamiz. Ma'lumki, til o'rganish masalasi ancha ilgari boshlangan bo'lsada, ammo katta yoshlilarga til o'rgatish, mavjud usullar va materiallarga bag'ishlangan tadqiqotlar asosan XX asrning o'rtalarida faollashdi. Chunki XVIII-XIX asrlarda fransuz va nemis tili xalqaro muloqot tili hisoblangan bo'lsa, XX asrga kelib ingliz tili nafaqat xalqaro munosabatlarda, madaniyat va ta'limda balki turizm, biznes va boshqa sohalarda ham muloqot tiliga aylanib ulgurdi.

Insonni ingliz tilini va boshqa tilni o'rganishga undagan sabablar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, kattalar ta'limi masalasi alohida yondashuvni talab etadi. Kattalar ta'limi o'ziga xos psixologik asoslarga ega, bu asoslarni katta yoshlilarni o'qitadigan har bir pedagog bilishi zarur. Shu munosabat bilan hozirgi mashhur fan – andragogiyani o'rganish dolzarbdir. Biz avvalambor, katta yoshli insonlarning til o'rganishi borasidagi tadqiqotlarni tahlil qilishdan oldin mazkur muammolarni o'rganadigan – andragogikaga sohasiga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Andragogika grek tilidan olingan bo'lib, "andros" katta yoshli inson, "gogika" esa yetaklamok, boshlamok ma'nosini anglatadi va mazkur soha katta yoshli insonlarni o'rganuvchi fan yo'nalishi hisoblanadi hamda bu tushunchani ilk bor ya'ni 1833 yilda nemis olimi Aleksandr Kapp fanga olib kirgan[9]. Ma'lumki, XX asr boshlarida katta yoshlilarni o'qitish masalalari olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq qilingan. Ayniqsa, M.Durko, D.Bromley, J.Drevey, N.Koshel[10] androgogik tadqiqotlar yuzasidan samarali tadqiqotlar olib borgan.

Tahlil va natijalar. Psixologik yo'nalishdagi tadqiqotlarda inson hayotining turli bosqichlarida xususan, ruhiy rivojlanish jarayonida til o'rganishi masalalari o'rganilgan va unda inson hayotining barcha bosqichida ta'lim olishi mumkinligi haqidagi turli xil qarashlar, yondashuvlar bo'lgan hattoki, bu jarayonga shubha bilan qaralgan hamda o'z qarashlarini isbotlash uchun turli xil faktlar, tahlillar keltirilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, andragogika sohasida ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsada, biroq katta yoshlilarga ingliz tilini tez va samarali o'rgatish orasida aniq metodika ishlab chiqilmagan.

Katta yoshlilar muntazam o'z malakasini oshirib turishi, nafaqat mehnat bozoriga raqobatbardoshligi balki, o'z sohasida mavjud muammolarni hal qila olish lozimligi anglatadi. Bu muammolar yechimi topishda dunyo tajribasida xabardor bo'lishlik bilimning muhimligi shundaki mutaxassis o'z sohasiga tegishli ma'lumotlarni o'zlashtirish va xorijiy xamkasblari bilan bevosita muloqot olib borishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish joizki, katta yoshli kadrlarning ingliz tilini o'rganishi bu davr talabi va

zarurat hisoblanadi. Fikrimizni isbotini va mavjud faktoarni yuqoridagi tadqiqotlar tahlili orqali ochib berdik. Shuningdek, O'zbekistonda kadrlarning ya'ni yoshi katta mutaxassislarni til o'rganishi borasida mavjud ayrim muammolarnikuzatuvlar va tahlillar orqali aniqladik. Bular quyidagilar:

kattalar uchun qo'shimcha ta'lim uchun yagona davlat siyosati mavjud emasligi;

soha pedegoglarining andragogik ta'lim tamoyillarini to'liq anglamasdan til o'rgatishi;

yoshi kattalar ta'limida ularning shaxsiy, kasbiy ehtiyojlari va maqsadlarini hisobga olmaslik.

Shunday ekan, bugungi kunda katta yoshli o'zbek mutaxassislarimiz, rahbar kadrlarimizni o'qitadigan maxsus mutaxassislar, kurslar va metodlar mavjud emasligi mazkur sohada ilmiy tadqiqot olib borish zaruratini keltirib chiqardi. Buni yuqorida tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlarda va olimlar tomonidan keltirilgan faktlarda guvohi bo'ldik. Mazkur tadqiqotning amaliy natijasida mobil ilova va maxsus qo'llanma yaratish maqsadi sohada mavjud ayrim muammolarga yechim bo'la oladi deyishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Бахтиозина М.Г. Обучение взрослых английскому языку: о некоторых особенностях мотивации и практики учебного процесса. Язык. Культура. Перевод. Коммуникация: сборник научных трудов. Вып. 2. М., 2018.
2. Кабачки М.К. Обучение взрослых лексико-грамматической стороне речи на английском языке в условиях краткосрочных курсов. Дисс... канд.филол.наук. М., 2002.
3. Юлдашева Н. Андрогогикада ўқувчи шахсига йўналтирилган таълим машғулотларини ташкил қилиш ва бошқариш. ПЕдагогик технологиялар. Т.,2014. №2. Б.36-40.
4. Арзикулов Ш. Андрогогик таълимнинг ижтимоий педагогик асослари. Экономика и социум. №4 (95), 2022,
5. Серебряникова М.А.Обучение английскому языку взрослых людей. –Ленинград, 1931. 7-стр.
6. Кабачки М.К. Обучение взрослых лексико-грамматической стороне речи на английском языке в условиях краткосрочных курсов. Дисс...канд.филол.наук. М., 2002. –С. 169.
7. Кабачки М.К. Обучение взрослых лексико-грамматической стороне речи на английском языке в условиях краткосрочных курсов. Дисс... канд.филол.наук. М., 2002.
8. М.А Серебряникова. Обучение английскому языку взрослых людей. –Ленинград, 1931. 17-стр.
9. <https://www.leadinglearning.com/guide-to-andragogy/>
10. Durko M. Pedagogical aspects of adult education. University textbook. - Budapest, 1966; Bromley D.B. Age and Adult Education. // Studies in Adult Education. Newton Abbot, Oct 1970. - W. 2, N 2; Dewey J. Democracy and Education. An Introduction to the Philosophy of Education. New York, 1966; Challenges of Humanistic Psychology. Ed. by J.F.T.Bugental. N.Y.,1967; Модельная программа подготовки андрагогов : учеб.-метод. пособие / Н.Н. Кошель [и др.]; под ред. канд. пед. наук Н.Н. Кошель. – Минск : АПО, 2011. – 314 с.; Витлин Ж.Л.Методические рекомендации по учету психологических особенностей взрослых в процессе обучения иностранному обучению иностранному языку//Л.:НИИ 1976. 110с.; Кулоткин Ю.Н. Психология обучения взрослых. М.: Просвещение, 1995. 123.с.; Росляков С. Как освоить английский? Особенности обучения взрослого человека// Школа Жизни. 2010.



UDK: 415.61=22(045)

Dilshoda IBRAXIMOVA,

Qashqadaryo VPyAMO‘MM “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrası v/b dotsenti

E-mail: dilshodaxonibraximova69@mail.ru

Qarshi DU f.f.d.prof. X.Jabborov taqrizi ostida

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ANTROPONIMIK BIRLIKLARNING ANTROPOTSENTRIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada inson inson bo‘lib yaralgandan so‘ng juda ko‘p faoliyat bosqichlarini bosib o‘tganligi, jamoadan o‘ziga o‘xshaganlar orasidan ajralib turish uchun nomlash zaruriyatini boshidan o‘tkazganligi, inson aql va zakovati bilan farq qilishi, inson o‘z jamoasidan ajralib turish uchun, eng avvalo, ismga bo‘lgan ehtiyojni anglab yetganligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Inson, avlod, antroponimik, antropotsentrik, semantik-funksional, kontekst, lingvomadaniy xususiyat.

АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье анализируется, что человек проходит много этапов деятельности после того, как стал личностью, испытывал потребность в имени, чтобы выделиться из толпы, он отличается разумом и интеллектом, он осознал потребность в имя, прежде всего, чтобы выделиться из сообщества людей.

Ключевые слова: Человек, поколение, антропонимический, антропоцентрический, семантико-функциональный, контекстный, лингвокультурологический признак.

ANTHROPOCENTRIC FEATURES OF ANTHROPONYMIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

In this article, it is analyzed that a human being went through many stages of activity after becoming a person, he experienced the need to name in order to stand out from the crowd, that he differs in mind and intelligence, a person, first of all, realizes the need for a name in order to stand out from his community.

Key words: Person, generation, anthroponymic, anthropocentric, semantic-functional, context, linguistic and cultural feature.

Kirish. Inson fenomenini olam markaziga qo‘yib o‘rganish, uni olamni tushinishda ongli, faoliyatli omil sifatida tadqiq qilish, insonning olamni baholash qobiliyati shakllanishini ijtimoiy jarayon ko‘rinishida o‘rganish antropotsentrizm falsafasining asosiy tamoyilini tashkil qiladi. Shu sababli antropotsentrik yondashuv bugungi kun tadqiqotlarining, shu jumladan, tilshunoslikning ham eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki antropotsentrizm bevosita tilga va til sohibiga daxldor hodisadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insonning inson sifatidagi mohiyatini aniqlash, V.Gumboldtning fikricha, odamga xos insoniy belgilarini ajratish demakdir. Til ana shunday vositalardan biri, odam faqat til va ong orqaligina insonga aylanadi va bu jarayonda insonning ijodiy qudrati, uning ichki imkoniyatlari harakatga keladi. Shu sabab, “odam” konseptosferasi doirasiga oid birliklarning ma‘naviy-mantiqiy, semantik-funksional hamda lingvomadaniy xususiyatlarini turli tillar bilan qiyoslab o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ma‘lumki, shaxs nomlari o‘zi mansub bo‘lgan insonlarni bir-biridan ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qilishidan tashqari, birlashtiruvchi funksiyani ham bajarishi mumkin, buning uchun onimlardan nom egalarini ma‘lum ijtimoiy tartibda joylashtirish talab etiladi. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, ko‘plab xalqlar uchun qadimgi davrlardayoq shaxsiy nomlar o‘z sohiblarining ma‘lum bir jamoaga, ijtimoiy sinfga yoki qaysi bir oilaga mansub ekanligini aniqlab berish uchun xizmat qilgan. Shaxs nomlari va taxalluslarning oilaga aloqadorligi har xil bo‘lishi mumkin, katta yoki kichik darajada,

boshqacha qilib aytganda, bunday bog‘liqlik aniqlik bilan yoki uncha aniq bo‘lmagan holatda namoyon bo‘ladi. Bitta oila yoki urug‘ a‘zolari nomlarining semantik yaqinligi saqlanib qolgan, taqvimiy bo‘lmagan ismlarda kuzatilishi mumkin. Shaxs nomlarini oilaviy ravishda bog‘lashning ushbu usuli ko‘pincha bir avlod vakillari orasida uchraydi: “Anvar, Akbar Azizovlar; Azizovning bolalari”; “Chori, Panji va Oltiboy – Said otaning farzandlari; Uzun qishlog‘idagi Saidovlarning Beshinchisi va Oltinchisi” va boshqalar. Ingliz tilida ham butun oila, avlod yoki sulolani bir antroponimik birlik yordamida umumlashtirish holati kuzatiladi: the Simpsons, the Johnsons.

Tadqiqot metodologiyasi. Ismlarning o‘xshash aloqasi bir necha avlod vakillari orasida kuzatilishi ham mumkin: Anvar, Akbar Azizovlar; Azizovning bolalari emas, nabiralari ham bo‘lishi mumkin. Ismlarni birlashtiruvchi funksiyasining eng aniq namoyon bo‘lishi bitta oilaning bir nechta a‘zolariga bitta ism berishdir. Ushbu guruhda bir nechta variant mavjud:

1) ikkita aka-uka bitta ismga ega: Styuart litl (ingliz tiliga xos) – bu kabi nomlarda qo‘shimcha ta‘rifning mavjudligi oilada shunday ismli boshqa bir odam bo‘lganligini dalillovchi ko‘rsatkichdir;

2) ota va o‘g‘il uchun bitta ism: Baxtiyor Baxtiyor o‘g‘li; Louis the First (Lyuis Birinchi), Louis the Second (Lyuis Ikkinchi) ... va boshqalar;

3) bobosi va nabirasi uchun xuddi shu ism: Akbarov Akbarjon Ne‘matovich; Louis the First (Lyuis Birinchi), Louis the Third (Lyuis Uchinchi) ... va boshqalar;

4) amakivachchalar (amakisi va jiyani) uchun bitta ism: Sodiqov Akbar Olimovich – Sodiqov Akbar Botirovich;

Otajonov Jahongir Po'lat o'g'li - Otajonov Jahongir Sobir o'g'li va boshqalar.

Nomlarning turli xil og'zaki variantlari bir oiladagi ismdoshlarni farqlash usuli hisoblanadi: Otabek – Otash, Otti, Bek, Ota, Oto; Gulnora – Guli, Gulya, Gulli, Gulish, Gul; Catherine – Kate, Kitty, Katya; Daniel – Dan, Danny, Danny va boshqalar. Shaxs nomlarining tizimli uyg'unligi yoki epiforik aloqasi taqvimiy bo'lmagan ismlarda aks etadi (bir vaqtning o'zida bu fonetik yaqinlikdan darak beradi). U xuddi shunday bir xil qo'shimcha yoki onimlarning psevdosuffiks elementlarida namoyon bo'ladi. Kamdan-kam hollarda, alohida semantik nomlash segmentlari bir-biriga mos kelganda, oiladagi onimlarning faqat fonetik bog'liqligini qayd etish mumkin: “Zilola, Hilola, Shalola va Lola Gullolaning bolalari”; “Ubaydullo va Zubaydullo Vaydulloning bolalari” va boshqalar. Aniqlik darajasi kamroq ifoda etilgan, ammo tez-tez uchraydigan anaforik aloqa, bu yaqin qarindoshlar ismlarining boshlanishi bir xilligida namoyon bo'ladi: “Zafar – Zarif – Zufar, Dilshoda – Dilfuza – Dildora – Dilrabo”; “Maryam – Marziya – Marhabo – Marhamat”. Xuddi shu holatni ism va familiyalarda ham kuzatish mumkin: “Fazliddin Fayozov, Turob To'la, Hulkar Hamidova” va boshqalar.

Shunday qilib, alohida olingan oilalarda, ehtimol, o'rnatilgan an'anaga ko'ra, bolalarga umumiy komponentlar yoki tovushlar takrorlanadigan ismlarni berish bilan bir oila yoki shajara a'zolarini birlashtirishga bo'lgan hatti-harakat kuzatiladi. Bunday hodisalar ehtimol odatiy holdir, ehtimol odatiy hol emasdir, ular, balki vaqti-vaqti bilan ro'y berar, ammo ular umumiy antroponimik fonda juda sezilarli. Bu esa shaxs nomlari hech qanday ma'noga ega emas degan fikrning asossiz ekanligini isbotlaydi. Har qanday shaxs nomida ham tildagi boshqa so'zlarda bo'lgani kabi semantikaning barcha turlari mavjudligiga shubha yo'q. Bundan tashqari, biz turli xil kommunikativ amaliyotlarda qo'llash jarayonida shakllanadigan shaxs nomlarining konseptual ma'nosi haqida ham to'xtalib o'tmoqchimiz, zero, aynan ushbu jarayonda shaxs nomlariga nisbatan alohida qiymatga ega munosabat shakllanadi.

1. Shaxs nomlari asosidagi tushunchalar turi va konseptual “zalvori” bilan o'zaro farq qiladi. Masalan, o'zbeklar uchun Ivan tushunchasi Sergey tushunchasidan kuchliroq.

2. Internet-qidiruv tizimlarining statistik ma'lumotlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan konseptual tarkibni aniqlash va tavsiflash usullaridan birini keltirib o'tamiz. Internetdagi so'z uchun so'rov odatda ushbu so'z qidiruv mexanizmi korpusida paydo bo'lgan sahifalar sonini ko'rsatishi bilan birga keladi. Ushbu turdagi miqdoriy indeks ortida ma'lum bir so'zning semantikasi, pragmatikasi, sintagmatikasi haqida muhim ma'lumotlar mavjud, lekin birinchi navbatda u konseptual tarkibni aks ettiradi.

3. Internetda nomlarning barcha turlari, odatda filologik lug'atlarda belgilanmaydiganlari ham, hattoki yasama nomlar ham osongina topiladi. Quyida tez-tez uchraydigan o'zbekcha ismlarning kamayish tartibida ro'yxatini keltiramiz (2021 yil “Google” qidiruv tizimi ma'lumotlari):

Alisher - 11 600 000, Anvar - 4 200 000, Shavkat - 3 670 000, Islom - 3 320 000, Nurbek - 2 150 000, Muhammad - 2 060 000, Temur - 1 540 000, Mustafo - 290 000 kontekst. Shaxs ismiga oid barcha tushunchalarni qavsdan tashqarida qoldirib, ular etnonimlarning onomastik maqomini aniqlashda deyarli foydasiz ekanligini tan olish kerak, chunki an'anaviy ravishda etnonimiya, agar onomastik makon chegaralaridan to'liq tashqarida bo'lmasa, odat bo'yicha, uning atrofidagi barcha fikrlarga tayaniladi. Ammo markazda har doim antroponimlar va toponimlar mavjud bo'lib, bu holat tabiiydek

ko'rinib-da, ular har doim ham onomastik nazariya foydasiga ishlaymaydi [<https://www.google.com/search>].

Tahlil va natijalar. Har qanday tilda shaxs nomlarining mavjud bo'lishi majburiy ekanligi lisoniy universaliya sifatida ma'lum. V.N.Toporov “Shaxs nomi mavjud bo'lmagan insoniy jamiyatning o'zi yo'q. Aynan ushbu holat insonlarni hayvonlardan ajratib turadigan faqat inson jamoalarigagina xos bo'lgan xususiyatdir deb hisoblashga asos beradi” degan fikrni qat'iy turib himoya qilganda nihoyatda haq edi. A.K.Matveyev insonning “o'zligi” eng yorqin ifodasini topadigan, inson shaxsining shakllanishi, shaxsiy o'z-o'zini anglashining rivojlanishini aks ettiradigan narsa – bu o'zining ismidir”, deb yozgan edi.

Shaxs nomlarining umuminsoniy ekanligini tan olish barobarida yana bir qadam qo'yamiz va quyidagicha faraz qilamiz: har qanday shaxs nomi antropotsentrikdir, ya'ni u nafaqat obyektning individualizatsiya qilibgina qolmasdan, balki uni insoniylashtiradi, chunki shaxs nomi birinchi navbatda shaxsning faqat o'ziga tegishlidir. Antroponimiya – har qanday til onomastik tizimining yadrosi ekanligi bejiz emas. Bundan tashqari, nomlarga xos bo'lgan barcha boshqa turlarning ham mohiyati antroponimlarga o'xshashligidadir. Ismsiz odam yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, lekin nomsiz tog'lar, daryolar, ko'llar va hattoki aholi punktlari mavjud (bular faqatgina odamlar tark etgan joylar, ya'ni “insonsarsiz” aholi punktlari emas). Geografik obyektlar o'z nomlarini faqat odam orqali oladi.

Shaxs nomi tilning boshqa belgilariga qaraganda ko'proq ijtimoiy belgidir, ammo uning ijtimoiy ekanligining o'zi yetarli emas, balki ma'lum bir insonning shaxs sifatidagi va o'ziga xos insoniylik xususiyatlariga bog'liq. Hayotda hech qachon uchrashmagan insonlarning ismi ba'zan boshqa bir insonda ma'lum bir his yoki tuyg'ularni uyg'otishi, psixologik ta'sir qilishi mumkin. Inson o'zi yoqtirgan, sevgan insonning nomini eshitganda iliq tuyg'ularni his qilishi, nafratlanagan insonning ismini eshitganda yoqimsiz hislarni tuyishi, jamiyatda ma'lum bir mavqega ega insonning ismini eshitganda hushyor tortishi va hurmat tuyg'usi bilan bir qatorda biroz hadik hissini tuyishi mumkin. Bunday hislarni badiiy asarlar qahramonlari bo'lgan to'qima obrazlar ham uyg'ota oladi. Kishilar ismi ular haqidagi ma'lum bir axborotlarni tashiy oladi deyish mumkin. Nom jamiyatdan tashqarida ham paydo bo'lishi mumkin, masalan, odamlar orasida emas, balki jonsiz narsalar va tilsiz hayvonlar orasida yashaydigan zohidning nutq faoliyatida – u atrofida qilarga avvalo nom beradi. Biror narsani o'ziga xos nom bilan atab, inson o'sha narsa bilan o'ziga teng subyekt sifatida suhbatga kirishadi, chunki u inson sifatida allaqachon o'z nomiga ega. Ko'plab onomastlar antropologiyadan tashqarida o'ziga xos nom olib, go'yo har qanday geografik obyektlar (va nafaqat inson qo'li bilan yaratilgan) hisobiga onomastik makonni hatto kosmik jismlarga qadar “kengaytirmoqda”, ular o'zlarini bu obyektlar o'z-o'zidan obyekt ekanligiga va bu obyektlar inson ongi, inson bilimlari obyektlari emasligiga osongina ishontiradilar. Tog' tizmasining tekislikdan ajralib turishi odamning aqliy faoliyatining natijasidir, aslida esa ular o'rtasida hech qanaqa chegara yo'q: tog' tizmasi tekislikning davomidir.

Agar biror xalq o'ziga xos nom sifatida tushunilgan o'z ismiga ega bo'lmasa, demak u xalq emas, balki boshqacha bir odamlar to'dasidir (agar biz qabiladan millatgacha bo'lgan jamoani “xalq” deb tushunadigan bo'lsak, ya'ni kelib chiqishi bir xil bo'lgan odamlarning har qanday birlashmasi – qondoshlarmi, madaniy yoki davlatga xos bo'lsin, bundan qat'i nazar). Agar biror qabila yoki xalq o'zini o'z nomiga loyiq alohida qabila yoki xalq deb o'ylamasam, demak u uchun qabilalar va xalqlar umuman yo'q, shu bilan birga, demakki, etnonimlar ham yo'q. Ijtimoiy taraqqiyotning ushbu bosqichida

qabilalar, xalqlar kabi atamalardan foydalanishning ma'nosi yo'q, etnonimlar haqida-ku, gapirmasa ham bo'ladi. O.N.Trubachevning fikriga ko'ra, "Biz – ular", "biznikilar – begonalar" kabi qarama-qarshiliklarning tug'ilishi – bu etnonim paydo bo'lishiga qaratilgan birinchi va hal qiluvchi qadamdir. "Biz – ular", "biznikilar – begonalar" deyingning o'ziyoq allaqachon birinchi etnonimlar hisoblanadi.

Tillarning antroponimik tizimlarida xalq tarixi va madaniyati, dunyoqarashi va qadriyatlar aks etadi. Shuning uchun til so'z boyligining ushbu qatlamini o'rganish etnolingvistikada muhim o'rin tutishi kerak, uning yo'nalishlaridan biri tilda xalq siyosini ochib berishga qaratilgan. Boshqa tomondan, shaxs nomlarini o'rganish muhim amaliy ahamiyatga ham ega: shaxs nomlari tizimining rivojlanish tendensiyalarini bilish til siyosati doirasida ushbu jarayonlarga ongli va ilmiy asoslangan ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Shaxs nomlarini o'rganishning amaliy ahamiyati yana shundaki, ism tanlashda ikkita tendensiya – urf-odatlarini saqlab qolish va yangilikka intilish to'qnashadi. Ismni tanlash mezonlari jamiyatning dunyoqarashini namoyon etadigan, ayniqsa, uning jadal rivojlanish, madaniyatlararo aloqalar, ijtimoiy siljishlar va h.k. davrlari uchun juda kuchli ko'rsatkichdir. Onomologik konsepsiyani yaratish uchun ishlatiladigan umumiy ismlarni taqqoslash va tipologik o'rganish natijalari turli lingvistik oilalarga mansub tillarda ba'zi tipologik o'xshash hodisalar to'g'risida xulosa qilishimizga imkon beradi.

Yozma yodgorliklarda qayd etilgan antroponimlarni o'rganishning kognitiv jihati zamonaviy tilshunoslik ilmiy paradigmasining o'zgarishi, til hodisalariga antroposentrik

yondashuvning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu turli antroponimik birliklarning maxsus ma'lumot mohiyatini ochib berish va ularning bilim salohiyatini aniqlash uchun alohida hissa qo'shgan. Kognitiv yondashuv imkoniyati shuni ko'rsatadiki, antroponimni onomastik tizimning turli qirralarini tahlil qilishda ko'rish mumkin bo'lgan lingvistik jarayonlar haqida ma'lumot bilan to'ldirilgan birlik sifatida, xalq ruhiy olamining til tizimidagi aksi sifatida, insonning makon markazi sifatida tushunilishi qonuniyatdir.

Xulosa va takliflar. Ingliz-o'zbek tillari antroponimlarini o'rganish natijasida shuni aytish mumkinki, har bir ismning paydo bo'lishida inson bevosita ishtirok etadi. Antroponim kishilarning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish uchun yuzaga keladi va ularning ko'pchiligi iste'moldan chiqib ketishi mumkin, boshqalari esa tarixiy ma'nolarini o'zida saqlab qoladi. Ingliz-o'zbek tillarida shunday antroponimlar borki, ular ma'lum bir tarixiy voqealar natijasida yuzaga keladi va ularni aks ettiradi. Ingliz-o'zbek tillaridagi antroponimik birliklar tub va turli tillarga xos apellyativlarning atoqli otga ko'chishi natijasida yuzaga kelgan. Ular turli davrga xos bo'lgan lisoniy o'zgarishlarni aks etadi.

Antroponimlar o'zi mansub bo'lgan insonlarni bir-biridan ajratib ko'rsatish uchun xizmat qilishidan tashqari, birlashtiruvchi funksiyani ham bajarishi mumkin, buning uchun onimlardan ism egalari ma'lum ijtimoiy tartibda joylashtirish talab etiladi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, ko'plab xalqlar uchun qadimgi davrlardayoq shaxs nomlari o'z sohiblarining ma'lum bir jamoaga, ijtimoiy sinfga yoki qaysi bir oilaga mansub ekanligini aniqlab berish uchun xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Bakhtiyorova M.B. "Onomasticon is the recognition of proper names in cognition and creative processes". – АЭТЕРНА/Академическая публицистика, eLIBRARY, 2020.
3. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985.
4. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984.
5. Матвеев А. К. Апология имени // Вопросы ономастики. – Екатеринбург // УралГосУн., 2004.
6. Топорова Т.В. Язык в зеркале культуры: древнегерманские имена двучленные имена собственные. – М.: Языки русской культуры, 1996.
7. Трубочев О.Н. Труды по этимологии. Слово. История. Культура. Т.1. – М., 2004.
8. [https://www.google.com/search].



UDK:050/070:808.3(575.1)

Mukaddas ISRAIL,

O'zDJTU professori, filologiya fanlari nomzodi, professor

E-mail:israil19mukaddas@gmail.com

O'zJOKU dotsenti, PhD S.X. Shamaksudova taqrizi ostida

MEDIA TEXT IN LANGUAGE DEVELOPMENT: SOCIOLINGUISTIC ASPECT

Annotation

It is known that the process of formation and development of vocabulary occurs in different ways. In each period of language development, preference is given only to those paths that correspond to the needs of society and the specific capabilities of the language system. At present, the mass media serve as a source of new nominative units. This is also directly affected by the changing tasks of mass communication and the transitional processes taking place in society. This gives rise to the need to study the text of mass communication, taking into account the processes taking place in society in culture and politics. This article analyzes the issue of language development in the context of the formation of a media text.

Key words: Information, language development, mass communication, mass media, media language, media text, sociolinguistics.

МЕДИАТЕКСТ В РАЗВИТИИ ЯЗЫКА: СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Аннотация

Известно, что процесс формирования и развития лексики происходит по-разному. В каждый период развития языка предпочтение отдается только тем путям, которые соответствуют потребностям общества и конкретным возможностям языковой системы. В настоящее время источником новых номинативных единиц служат средства массовой информации. Непосредственное влияние на это оказывают и меняющиеся задачи массовой коммуникации, и переходные процессы, происходящие в обществе. Это порождает необходимость изучить текст массовой коммуникации с учетом процессов, происходящих в обществе, культуре и политике. В данной статье анализируется вопрос развития языка в условиях формирования медиатекста.

Ключевые слова: Информация, развитие языка, массовая коммуникация, СМИ, язык медиа, медиатекст, социолингвистика.

TIL TARAQQIYOTIDA MEDIAMATN: SOTSIOLINGVISTIK ASPEKT

Annotatsiya

Ma'lumki, leksikaning shakllanish va rivojlanish jarayoni turli yo'llar bilan sodir bo'ladi. Til taraqqiyotining har bir davrida jamiyat ehtiyojlari va til tizimining aniq imkoniyatlariga mos keluvchi yo'llargina afzal ko'riladi. Hozirgi paytda OAV yangi nominativ birliklar manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Ommaviy kommunikatsiyaning o'zgaruvchan vazifalari, jamiyatda ro'y berayotgan o'tish davri jarayonlari ham bunga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, jamiyatda, madaniyatda va siyosatda ro'y berayotgan jarayonlarni inobatga olgan holda, ommaviy kommunikatsiya matnini anglash zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada mediamatnning shakllanishida til taraqqiyoti masalasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot, til taraqqiyoti, ommaviy kommunikatsiya, OAV, media tili, mediamatn, sotsiolingvistika.

Kirish. Ommaviy kommunikatsiya (OK) hozirgi zamon lisoniy jarayonlarning markazidan joy olgan yangicha borliqdir. U milliy tilning hozirgi zamondagi modeli hisoblanib, unda adabiy va noadabiy sohalar doimiy o'zaro ta'sirlashuv holatida bo'ladi. Bunday sharoitlarda ommaviy kommunikatsiya turli til vositalarining o'zaro bir-biri bilan ta'sirlashishiga imkon beruvchi o'ziga xos poligonga aylanadi, deb ham bemalol aytish mumkin. Ommaviy kommunikatsiya tabiatan singuvchan va singdiruvchan bo'lgani uchun OK ijtimoiy ahamiyatli mavzu va syujetlarni hamda ijtimoiy baholash ma'nolarini kasb etgan lisoniy vositalarning barchasini o'z ichiga oladi [1].

Ommaviy kommunikatsiya – televideniye, radio, gazeta, jurnal, Internet orqali media xabarlarini keng ko'lamli auditoriyaga yetkazish vazifasini qo'yadi. Darhaqiqat, ommaviy muloqot ma'lum makondan olingan axborotni keng auditoriyaga yetkazishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalarini bu jihati jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, jamoatchilik fikrini shakllantirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turkiy matbuotshunoslik va medialingvistikada A. Shomaqsudov, I. Toshaliyev, Q. Irnazarov, G. Bakiyeva, D. Teshabayeva, N. Qurbonov, A. Abdusaidov, B. Do'stqorayev, M. Xudoyqulov, L. Tashmuxeimova, S. Shamaksudova, S. Arifxanova, A. Nurmatov, N. Toshpo'latova, N. Muratova kabi jurnalist va filolog-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida media tili va uslubi, uning lisoniy-uslubiy, janriy-uslubiy, sotsiolingvistik xususiyatlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari keltirilgan.

MDH davlatlarida mediamatnlarni o'rganishga doir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, ilmiy adabiyotlar yaratilgan. V. Kostomarov, G. Solganik, D. Rozental, V. SHestova, T. Dobrosklonskaya, M. Duskayeva, M. Volodina, M. Jeltuxina, I. Lisakova, L. Fedotova, I. Galperin va boshqalarning ilmiy risolalarida media tili va uslubi, mediamatnlarning lisoniy-uslubiy va sotsiolingvistik aspektlari ilmiy tahlilga tortilgan.

G'arb mutaxassislaridan Lauren Kessler, Duncan Mc Donald, Colin Macfarlane, H.Jones, Sylvia Jaworska, Yerhan Aslan, Nazmi Avchi, S.A.Ozerkan, Y.Yurdigul mediamatnlarning til xususiyatlariga, janriy-uslubiy jihatlarga,

massmedia aspektida mediamatnlarning yuzaga kelish qoidalariga e'tibor qaratishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqola mavzusini yoritishda nazariy (tahliliy-sintetik, tarkibiy-tipologik, kontent-tahlil), qiyosiy, tasniflash va tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, kommunikatsiya – insonlar o'rtasida axborot va xabar almashish jarayoni bo'lib, bu jarayonda til, belgi va ramzlar yordamida axborotni auditoriyaga uzatiladi, ikkinchi tomon esa, bu axborotni qabul qiladi va tushunadi. Kommunikatsiya ikki shaklda verbal (og'zaki va yozma) va noverbal (tasvir, xarakterlar va h.k.) amalga oshiriladi.

Shu o'rinda, lisoniy kommunikatsiya borasida to'xtalmoqchimiz. Zero, lisoniy kommunikatsiya, ya'ni axborot almashinuvi har doim muayyan modellar (matnlar) asosida o'ziga xos lisoniy shakllarni yaratishni taqozo etadi. Ular, o'z navbatida, ishtirokchi – hamkorlar ongida xos ravishda o'z aksini topadi. Muloqot dinamikasi ikki qutb orasida yuzaga keluvchi hodisa:

1) Yaratilayotgan til birliklarini “o'xshash tarzda anglash”ga imkon beruvchi meyor;

2) Bunday bunyodkorlik jarayonidagi tanlash erkinligi zaruratlarini taqozo qiladi.

Vilxelm fon Humbold: “Insonlar bir-birini suhbatdoshlariga predmetlar belgisini yetkazishgani uchun emas va hatto bir-biriga o'xshash tushunchani aniq va to'liq qayta yaratishga taraddudlanganliklari uchun ham emas, balki, ular bir-biriga hissiy tasavvurlar zanjiridagi biror halqa va ichki tushunchalarning ilk ko'rinishlaridan birortasini o'zaro hamjihatlik bilan ishga solishgani uchun tushunadilar, chunki har bir kishi ongida shunga muvofiq, biroq aynan o'xshash bo'lmagan mazmun-ma'no yarq etib paydo bo'ladi” deya ta'kidlagan [2].

Avstriyalik faylasuf L.V. Vitgenshteynning fikricha, bunday xatti-harakat uchun muayyan tilda gaplashuvchilarda mana shu hissiyotga nisbatan umumiy ta'sir hosil bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. “Til, dastavval, muayyan hissiyotlar natijasida paydo bo'lgan to'g'ri harakatni bajarishga undaydi [3]. Shuningdek, L.V. Vitgenshteyn til jamiyatning tajribalarini aks ettiruvchi so'zlar orqali insonga dunyoni konvensional (kelishilgan, hamma uchun umumiy) idrok etish imkoniyatini beradi. So'zning belgi sifatidagi vositali vazifasi aslida shundan iborat. Tilda qayd etilgan va tizimlashgan ajdodlarimiz tajribasi insonning uni o'rab turgan dunyo haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi, deb hisoblaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, madaniyat har doim kommunikatsiya bilan, ya'ni insonlar o'rtasida axborot almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan. Madaniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turli xil kommunikatsiya turlari mavjudligi, hozirgi vaqtda ommaviy kommunikatsiya, ya'ni axborotni bir manbadan ko'plab qabul qiluvchilarga uzatish inson hayotining barcha sohalariga kirib keldi va global miqyosda o'zaro ta'sirning asosiy usuliga aylandi.

Mediamakonda lisoniy kommunikatsiya mediavoqea va mediareallik asosida yuz beradi. Bunda “mediavoqea” va “mediareallik” tushunchasi bilan o'zaro bog'liqlik jihatining mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. «Mediavoqea – jurnalist ijodiy faoliyati jarayonida olingan voqelik modeli. Mediamakonda tilning murakkab tabiati (ijod materiali), ijodkorning shaxsiy lisoniy didi va moyilliklari, bosma nashr, televizion kanal, radiostansiyaning manfaat va imkoniyatlari hamda boshqa omillardir. Shuningdek, gazeta, radio, kino, televideniye, audio, video va boshqa mass-media tillarida mazmunan bir xilda beqaror auditoriyaga qaratilgan bo'lib, u bilan muloqot texnikasi vositasida amalga oshirilgan umumiylik kuzatiladi» [4].

Mass-media kontekstida “axborot” termini turli xil aloqa vositalari orqali uzatiladigan ma'lumotlarga murojaat qilish uchun ishlatiladi. Mediareallik va zamonaviy mass-medialar axborotni uzatishga asoslangan insonlar o'rtasidagi yangi o'zaro ta'sir maydonini yaratadi [5]. Mediareallik va mass-media kontekstidagi “axborot” turli mediamakonda madaniyatning sohasini o'rganish uchun qulay usul hisoblanadi. “Mediareallik – ommaviy kommunikatsiya vositalarining faoliyati va mediamadaniyat mahsuli tufayli paydo bo'lgan ijtimoiy-madaniy makonning yangi turi” [6] sifatida qaraladi. Ana shu makonda mediavoqealar asosida “mediamatn” yuzaga keladi.

Mediamatn mediamahsulotning aniq natijasi, axborotdan iborat bo'lgan va medianing har qanday turi va janrida (gazetadagi maqola, teleko'rsatuv, videoklip, film va h.k.) bayon etilgan xabardir. U lisoniy va mediabelgilarning dialektik birligidan iborat bo'lib, medianutqning uch darajasi: so'zlardan iborat matn, videoqator va grafik tasvir darajasi, ovoz jo'rliq darajasi orqali taqdim etiladi [7]. An'anaviy ravishda ommaviy kommunikatsiya matnlarining barcha tarkibiy unsurlari va darajalari lisoniy va ekstralingvistik omillar bilan birga an'anaviy ravishda tahlil qilinadi: mediamatnlarni tuzish va tarqatish usullarining ularning lingvoformat xususiyatlariga ta'siri, funksional-janriy tasnifi masalalari, fonologik, sintagmatik va uslubiy tavsiflar, talqiniy xususiyatlar, madaniy-o'ziga xos belgilar, mafkuraviy modallik, pragmalingvistik baho va boshqalar shular jumlasidan [1].

T.G. Dobrosklonskaya lisoniy va ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda, ommaviy axborot matnlarining barcha komponent va miqyoslari sinchiklab tahlil qilinishi kerakligi haqida gapirib, “mediamatnlarni yaratish va tarqatish usullari ularning lisoniy hajm xususiyatlariga, funksional-janriy tasniflashga, fonologik, sintagmatik va uslubiy xususiyatlariga, talqin etish xossalriga, madaniy-xususiy belgilarga, mafkuraviy modellilikka va pragmalisoniy qimmatiga bog'liq» deydi [8].

M.R. Jeltuxinaning fikricha, ommaviy kommunikatsiya – auditoriyani eng yangi axborotdan xabardor qilish va insonlarning fikri, baholari va xatti-harakatlariga mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy, ruhiy yoki tashkiliy ta'sir ko'rsatish uchun turli xil aloqa kanallaridan foydalanilgan holda xabarlarini muntazam ravishda tarqatishdir. U verbal, majoziy va musiqiy axborotni tezkor uzatish va takrorlashni ta'minlaydigan ommaviy axborot vositalarini o'z ichiga oladi [9].

Yangi voqeliklarning zamirida mediamatnlarni shakllantirish OAV xodimlariga katta ma'suliyatni yuklaydi. Buning sababi sifatida bitta makonda auditoriyaning saviyasi, qiziqishi, yoshi, madaniy xususiyatlariga egaligidir. Bundan tashqari, mediamatnlarda xabarning yetarlicha ravshan yoki aniq yoritilmagani, stereotiplar va xurofotlarning mavjudligi, auditoriyaning kontekstiga e'tibor berilmasligi, noaniq yoki ko'p ma'noli iboralarning qo'llanilishi va h.k. mediakommunikatsiyada murakkabliklarni tug'diradi.

Mediamatnlarni tadqiq etish jarayonida yangicha yondashuvlar faqat dunyo tilshunosligi taraqqiyotining umumiy yo'nalishlari bilangina bog'liq emas. Ommaviy kommunikatsiyaning o'zgaruvchan vazifalari, jamiyatda ro'y berayotgan o'tish davri jarayonlari ham bunga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, jamiyatda madaniyat, siyosat va mafkurada ro'y berayotgan jarayonlarni inobatga olgan holda, ommaviy kommunikatsiya matnini anglash zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z o'rnida, media tilida sotsiolingvistik qimmatni belgilab beradi.

Sotsiolingvistik aspekt doirasida media tilining holati, uning afzalliklari yoki, aksincha, undagi cheklanishlar, ya'ni tildan tashqari hodisalar xususidagi jurnalistik fikrlarning

tahlili katta qiziqish uyg'otadi. OAV muammolari bo'yicha rus tilshunoslarining XX asr boshlaridagi ilmiy ishlarida jurnalist ijodiga nisbatan ijtimoiy va lisoniy yondashuvlar birgalikda qo'llanilganligi sababli yangi fan – sotsiolingvistika yuzaga keldi. Uning tadqiqot doirasiga sotsiologiya bilan tilshunoslik orasidagi umumiy tushunchalar kirgan. Bular «ommaviy kommunikatsiya», «til», «muloqot», «axborot mazmuni» kabilardir [10].

Prof. D.M. Teshabayeva OAV tilida sotsiolingvistik aspekt borasida quyidagi fikrlarni keltiradi “Sotsiolingvistika tilning ommaviy kommunikatsiya jarayonida kommunikantlarning ijtimoiy xususiyatlari, muloqot vaziyatining xususiyatlari, aloqa kanali, axborot mazmuni va boshqa ijtimoiy omillarga bog'liq holda qanday modifikatsiyalarga uchrashini o'rganadi. Lisoniy va lisoniy bo'lmagan xususiyatlar mutanosibligi OAV janrlariga xos va doimiy namoyon bo'lib keluvchi hodisa hisoblanadi. Ulardan oqilona foydalanilganda, ular bir-birini to'ldiradi. OAV matnlariga xos bunday xususiyat ularni faqat sotsiologik aspekt nuqtai nazaridan o'rganilganda, yaqqol ko'zga tashlanadi” [11].

Xulosa. Mediatnning shakllanishida sotsiolingvistik yondashuv axborot bilan ishlashda uning iste'molchilarining ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. U yoshi, jinsi, millati va boshqalar kabi turli xil ijtimoiy va madaniy xususiyatlarga asoslangan holda auditoriya guruhleri o'rtasidagi farqlarni ko'rsatishi mumkin bo'lgan lisoniy xususiyatlarini aniqlay oladi. Demak, media tilini o'rganishda sotsiolingvistik yondashuv zamonaviy jamiyatdagi lisoniy hodisalarni tushunishning muhim vositasidir. U tilning OAVda qanday qo'llanilishini, shuningdek, jamoatchilik fikri va madaniyatiga qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Umuman olganda, media tili tadqiqida sotsiolingvistik yondashuv lisoniy vositalar orqali ijtimoiy meyorlar, qadriyatlarini aks ettirishi, shuningdek, ularning shakllanishiga ta'sir qilishi nuqtai nazaridan til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yoritishi hamda jamiyatdagi o'zgaruvchan fikr va e'tiqodlarning shakllanishini ochib beradi. Zero, mediatnlarining sotsiolingvistik tabiati shundaki, ular insonlar tomonidan ma'lum bir ijtimoiy va madaniy kontekstda yaratilgan va idrok etiladigan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi [12]. Shu o'rinda mediatnlar ular yaratilgan

jamiyatning lisoniy va madaniy xususiyatlarini, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sirlarni aks ettiradi.

Shu bilan birga, mediatnlarining sotsiolingvistik aspekti tilning ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiruvchi va axborotni uzatish va ma'lum ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish uchun ishlatiladigan lisoniy kommunikatsiya shakli bo'lib, bunda til taraqqiyoti hamda tilning jamiyatga va mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarning tilga ta'sirini tahlil qilishga imkon berayotgan tadqiqotlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Umuman olganda, mediatnlarni sotsiolingvistik jihatdan o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishi bo'lib, zamonaviy dunyoda bu hodisaning lisoniy va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlashga va tilning ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy munosabatlar va o'ziga xoslikni shakllantirish va saqlashdagi rolini ochib berishga imkon beradi. Zero, publitsistika jamiyatning siyosiy-mafkuraviy sohasiga xizmat qiladi. Zamonaviy publitsistik uslubda tilning ikki teng huquqli vazifasi ko'zga tashlanadi: axborot berish va ta'sir etish. Shuning uchun funksional uslubshunoslikda publitsistik uslubning publitsistik va informatsion uslub hosil qiluvchi omillarning dioxotomiyasiga alohida e'tibor beriladi.

Shunday qilib, mediatnlarni sotsiolingvistik aspektda tadqiqi doirasida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan quyidagi muhim omillarni: tilning muayyan ijtimoiy ma'nolarni va mafkuralarni singdirishdagi roli; mediamatnybyu auditoriya ongiga va ijtimoiy o'zaro ta'sirini; mediatnlarni shakllanishida yoshi, jinsi, saviyasi hamda millati kabi ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini; lisoniy o'zgarishlarning mediamkonda aks etishida jurnalist pozitsiyasi va lisoniy bilimni o'z ichiga oladi. Mediamatnda qo'llaniladigan lisoniy vositalar ijtimoiy-madaniy jihatdan ahamiyatli fenomenlarni, shu jumladan, gender identikligini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun har bir lingvomadaniyatda turli-tuman diskursiv va nominativ strategiyalar mavjud, turli-tuman perlokutiv salohiyatga ega lisoniy vositalar ularni amalga oshirishga ixtisoslashadi. Madaniyatda ma'lum bilimlarning borligi kommunikantlar o'rtasidagi o'zaro anglashuv jarayoni uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Тешабаева Д.М., Бакиева Г.Х., Исраил М. ва бошқ. Медиалингвистика ва тахрир. –Тошкент, 2019.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984.
3. Витгенштейн Л. Философские исследования. // Философские работы. Часть 1. – М., 1994.
4. Кожанова В.Ю. Проблема рецепции медиатекста как фактор взаимодействия автора и читателя. // Гуманитарные исследования: Материалы междунар. интернет-конф. «Актуальные проблемы журналистиковедения, литературоведения, книговедения и смежных областей знания». – Краснодар: КСЭИ, Парабеллум, 2010.
5. Варганова Е.Л. Медиаэкономика зарубежных стран. –М.: Аспект Пресс, 2003.
6. Чельшева И.В. Социокультурное поле медиа: реальность, коммуникация, человек. – М: МОО «Информация для всех», 2016.
7. Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов: Опыт исследования современной английской медиа речи. – М.: МАКС Пресс, 2000.
8. Желтухина М.Р. Специфика речевого воздействия тропов в языке СМИ: дис. ... д-ра филол. наук. – М., 2004.
9. Лысакова И.П. Язык современной русской прессы: социолингвистический аспект. // Язык массовой и межличностной коммуникации. – М., 2007.
10. Федотова Л.Н. Социологический аспект изучения языка СМИ. Контент-анализ в арсенале социологии. //Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Учебное пособие. Ч.2. – М., 2004.
11. Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.д-ри. дисс. – Тошкент, 2012.
12. <https://voluntary.ru/termin/sociolingvistika-mediateksta.html>.



UDK:811.3

Marguba KURBONOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti erkin tadqiqotchisi
E-mail: kmarguba2020@gmail.com

O'zMU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida

USE OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

It is known that in the study of phraseology, it is impossible to study its historical development without analyzing the semantic and structural features of phraseological units. The word and the phraseological unit have some common features, but at the same time there is a considerable structural and semantic difference between them, which is manifested in the structural, semantic and stylistic aspects. In English, as in other languages, a certain phraseological unit must have at least two lexemes as an expression plan. Such units are interpreted as a semantic unit rather than a syntactic unit that can be understood as a whole from a sentence and acquires a phraseological meaning.

Key words: Phraseological units, the term somatism, human body parts, literal components, phrasemes, structural – semantic structure.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Известно, что при изучении фразеологии невозможно изучение ее исторического развития без анализа семантических и структурных особенностей фразеологических единиц. Слово и фразеологизм имеют некоторые общие черты, но в то же время между ними существует значительное структурно-семантическое различие, проявляющееся в структурно-семантическом и стилистическом аспектах. В английском языке, как и в других языках, в составе определенной фразеологической единицы в качестве плана выражения должны участвовать не менее двух лексем. Такие единицы трактуются как семантическая, а не синтаксическая единица, которая может быть понята из предложения в целом и приобретает фразеологическое значение.

Ключевые слово: Фразеологизмы, термина соматизма, части тело человека, буквенные компоненты, фраземы, структурно – семантическая структура.

INGLIZ TILIDA SOMATIK FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING QO'LLANILISHI

Annotatsiya

Ma'lumki, frazeologiyani o'rganishda uning tarixiy taraqqiyotini yoki frazeologik birliklarning semantik va struktur belgilarini tahlil qilmasdan o'rganish mumkin emas. So'z va frazeologik birlik bir qancha umumiy belgilarga ega, lekin bu bilan birgalikda ular o'rtasida anchagina struktur, semantik farq mavjud bo'lib, bu farq struktur, semantik va stilistik tomondan namoyon bo'ladi. Ingliz tilida ham boshqa tillardagi kabi ma'lum bir frazeologik birlikning tarkibida albatta, ifoda plani sifatida kamida ikkita leksema qatnashishi shart. Bunday birliklar gapdan yaxlitligicha anglanishi mumkin bo'lgan va frazeologik ma'no kasb etadigan sintaktik birlik emas, balki semantik birlik sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, somatizm atamasi, inson tana a'zolari, tom ma'noli komponentlar, frazemalar, struktur-semantik tuzulish.

Kirish. Frazeologiyani o'rganishda uning tarixiy taraqqiyotini yoki frazeologik birliklarning semantik va struktur belgilarini tahlil qilmasdan o'rganish mumkin emas. Bunga ko'ra, shu narsani ta'kidlash joizki, so'z va frazeologik birlik munosabatlari haqidagi muammo ularning bir xil til sathiga yoki tilning har xil sathiga tegishlilik masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Leksik birlik va frazeologik birlik o'rtasida o'xshash umumiy xususiyatlarning mavjudligini tilshunoslar o'z tadqiqida e'tirof etib o'tishgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Frazeologik birliklarga kelsak, ular so'zlarning muqobili ekanligi haqidagi nazariy qarashlar tilshunos olimlar tomonidan juda keng tarqalgan. Ushbu g'oya tarafdorlarining ko'pchiligi so'z va frazeologik birliklarning har xil ko'rinishga ega ekanligidan qat'iy nazar, ulardagi ma'noviy munosabatlarning ajralmasligiga va ularning funktsional umumiylikka ega ekanligiga asoslaydilar. Biroq, ushbu masala bo'yicha boshqacha yo'nalish ham mavjud. Bunda A.V.Kunin, L.I.Royzenzon va boshqa bir qator olimlarning fikriga

qo'shilgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, so'z va frazeologik birlik bir qancha umumiy belgilarga ega, lekin bu bilan birgalikda ular o'rtasida anchagina struktur, semantik farq mavjud bo'lib, bu farq struktur, semantik va stilistik tomondan namoyon bo'ladi[1].

Ingliz tilida ham boshqa tillardagi kabi ma'lum bir frazeologik birlikning tarkibida albatta, ifoda plani sifatida kamida ikkita leksema qatnashishi shart. Bunday birliklar gapdan yaxlitligicha anglanishi mumkin bo'lgan va frazeologik ma'no kasb etadigan sintaktik birlik emas, balki semantik birlik sifatida talqin qilinadi.

Shu sababli frazeologik iboralarning birikmaga va gapga tenglik xususiyati haqida gapirganda, iboraning ichki gramatik tuzilishi inobatga olinadi, ya'ni ibora tarkibini grammatik jihatdan tahlil qilish nazarda tutiladi[3].

Umuman olganda, ibora tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi gramatik bog'lanish o'z kuchini yo'qotmaydi yohud saqlanadi. Vaholanki, undagi so'zlar o'rtasidagi munosabat

faqat ichki munosabat, ya'ni shu ibora doirasidagi munosabat hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy chog'ishtirma, differentsial-semantik va komponentli tahlil, shuningdek, distributiv usullardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Akademik V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni ma'nosidagi motivatsion o'zgarishlariga ko'ra ya'ni frazemadan yaxlitligicha anglashilgan ma'no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazemalarning uch semantik turini farqlaydi. Shu jihatdan V.V. Vinogradovning ta'limotini, biz somatik frazeologik birliklar jihatidan farqlab ketamiz [8].

1. Frazeologik butunlik; frazeologik butunlik (birlashma) — frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanadi, shu ma'nolar asosida umumlashiruvchi ko'chma ma'no ifoda qilinadi (ko'pincha bunday birlashmalarning o'z ma'nosida qo'llanadigan variantlari ham mavjud buladi):

a) O'zbek tilida: Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan; qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoq; miyani (yoki quloq miyani) qoqib qo'lga bermoq va h.z

Ingliz tilida: What the eye does not see the heart cannot grieve: ones eye and plague ones heart,

2. Frazeologik qo'shilma — bunda frazemalar tarkibidagi bir so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqasi esa o'z lug'aviy ma'nosini saqlaydi:

b) O'zbek tilida: Qoshni chimirmoq; qoshni qoqmoq va h.z

Ingliz tilida: bound hand and foot; to shake a head and etc [13].

2. Frazeologik chatishma; frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi, frazemadan anglashilgan ko'chma ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan izohlanmaydi: oyog'ini qo'lga olib chopmoq, boshini olib chiqib ketmoq va lay ones hand on (upon) ones heart; beat smth. into smbs head.

3. Frazeologik qo'shilma; frazeologik qo'shilma — bunda frazemalar tarkibidagi bir so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqasi esa o'z lug'aviy ma'nosini saqlaydi: qo'li gul, strong hand. Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan, shu leksik ma'nolar umumiy mahraji sifatida gavdalanadigan frazema-frazeologik butunlik deyiladi. Masalan:

Ingliz tilida: brains in ones little finger (ko'proq aqlga ega bo'lmoq);

O'zbek tilida: qorachig'i qinidan chiqib ketgudek;

Ingliz tilida: be on one's hands and knees – (yerdan oyog'i uzilmoq);

O'zbek tilida: Bir qorindan talashib tushgan;

Ingliz tilida: be head over ears in (biror narsa qilishga qattiq kirishmoq); Beam/grin/smile from ear to ear (mazza qilib kulmoq)

O'zbek tilida: og'zi qulog'ida bo'lmoq; burnini tishlab qolmoq;

Frazeologik butunlikda obrazlilik yuqori darajada bo'ladi. Uning komponentlari orasidagi bog'liqlik asoslangan bo'lib, metaforizatsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. Frazeologik butunlikning boshqa frazeologik birliklardan farqlovchi, o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib bular quyidagilar:

-yuqori darajadagi obrazlilik hamda ayrim hollarda so'z birikmalari bilan omonimlik munosabatiga kirishishi;

-alohida frazeologik komponentlarning semantik butunligi;

-komponentlar tartibiga o'zgartirishlar kiritila olinmasligi;

-boshqa frazeologik birliklar hamda alohida so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishi [5];

Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydigan, leksemaning leksik ma'nolari hisobga olinmaydigan frazema-frazeologik chatishma deyiladi. Masalan: nail (one's) ears back (qattiq qichqirmoq); ikki qo'lini burniga suqib; foot in one's mouth (haqoratli so'zlarni aytmoq); have (put or set) ones foot on smbs neck (qul qilib olmoq); labi-labiga tegmaydi; In your heart of hearts (ikkilanish); yuragi betlamaslik;

Frazeologik chatishmaning boshqa frazeologik birliklardan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ba'zan tarkibida arxaizmlarning qo'llanilishi;

- sintaktik jihatdan yaxlitligi;

- komponentlari tarkibining turg'unligi;

-komponentlar leksik ma'nolarining umuman ahamiyatini yo'qotganligi

V.V. Vinogradov tahliliga asosan frazeologik birliklarning uchinchi turi bo'lmish frazeologik qo'shimlar ham turg'un ko'chma ma'noga asoslangan birlik bo'lib, boshqa frazeologik birliklardan asosiy farqi takibidagi komponentlardan biri, o'z lug'aviy ma'nosida qo'llanilishidir. Masalan: face to face (yuzma-yuz); to cut off your nose to spite your face (e'tibor bermaslik); can't see hand in front of face (hech narsani ko'ra olmaslik); cut off one's nose to spite one's face (e'tibor bermaslik) [8];

Frazeologik birikma tarkibiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkinligi sababli yorqin birikmalarga yaqin turadi. Ammo shu o'rinda faqat frazeologik birikmalar uchun xarakterli jihatlarni sanab o'tish joiz:

-tarkibida turli semantik-struktur o'zgartirishlar kiritila olinishi;

-komponentlardan biri albatta erkin holatda ishlatilishi;

-ba'zan tarkibida aniqlovchining ishlatilishi

-komponentlar tartibining o'zgartirila olinishi;

Ba'zi frazeologiyani keng ma'noda o'rganilishi tarafdorlari frazeologik birliklarning to'rtinchi turini ham farqlab ko'rsatadilar va unga so'zlashuv birliklari hamda qanotli so'zlarni ham kiritadilar. Bu turga maqollar, matallar hamda mashur tilshunoslar va olimlarning aforizmlari ham kiritiladi. Masalan:

a) I gave so much advice that hair grew on my tongue. ~ Iranian Proverbs

Tekin tomoqning ta'mi boshqa, yeganlarning boshi qashqa

b) A hair in the head is worth two in the brush. ~ Oliver Herford [13]

Erlik bilakda emas, yurakda, yurakda bo'lsa, bilakda bo'lar.

Frazeologik birikma tarkibiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkinligi sababli yorqin birikmalarga yaqin turadi. Ammo shu o'rinda faqat frazeologik birikmalar uchun xarakterli jihatlarni sanab o'tish joiz:

-tarkibida turli semantik-struktur o'zgartirishlar kiritila olinishi;

-komponentlardan biri albatta erkin holatda ishlatilishi;

-ba'zan tarkibida aniqlovchining ishlatilishi

-komponentlar tartibining o'zgartirila olinishi;

Ba'zi frazeologiyani keng ma'noda o'rganilishi tarafdorlari frazeologik birliklarning to'rtinchi turini ham farqlab ko'rsatadilar va unga so'zlashuv birliklari hamda qanotli so'zlarni ham kiritadilar. Bu turga maqollar, matallar hamda mashur tilshunoslar va olimlarning aforizmlari ham kiritiladi. Masalan:

a) The tongue can paint what the eye cant see. ~ Chinese Proverb

b) If the eyes didnt see, the hands wouldnt take. ~ Yiddish Proverb [10]

I.B. Arnold ingliz frazeologik birliklarini uch turini farqlagan: set expressions, semi fixed combinations, free phrases deb ajratilgan birliklar Vinogradov klassifikatsiyasiga to'la mos keladi[7]. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ingliz tili frazeologik fondining asosiy qismini frazeologik butunliklar tashkil qiladi.

Buyuk rus akademigi A.V. Kunin frazeologik birliklarni yasalishiga ko'ra ikki turga ajratadi:

Erkin birikmalar asosida yasaladigan frazeologik birliklar;

Frazeologik birliklar asosida yasaladigan frazeologik birliklar [3];

Hozirgi zamon ingliz tilida keng tarqalgan frazeologik birliklarning aksariyati erkin birikmalar asosida yasalgan bo'lib, ularni o'zini ham bir necha sinflarga ajratish mumkin:

Safarovning ta'kidlashicha, lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. XX asr boshlaridan butun dunyo tilshunosligida tilga semiotik nuqtai nazardan yondashuv asosiy o'rin egalladi. Ferdinand de Sossyur g'oyalari asosida til belgilar sistemasi sifatida qaraldi va til birliklarining sistemaviy tabiatini ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi. Natijada til sistemasi bilan uning funksiyalashuvi, bu jarayonda til sistemasidagi invariant birlikparning turli-tuman variantlanishi va o'zgarmas birliklarning o'zgaruvchanlik kasb etishi namoyon bo'ldi[6]. Tilshunosning bosh vazifasi bevosita kuzatishda xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'luvchi lisoniy birliklar zamirida yashiringan zotiy, o'zgarmas birliklarni aniqlash va bu birliklarning til sistemasidagi o'rmini belgilashdan iborat bo'ldi. Bu esa tilshunoslikda o'tkinchi, vaqtincha hodisalardan barqaror, doimiy mohiyatlarni aniqlash imkonini berdi. Natijada tilning har bir sathida shu sath birliklarining modellari va bu modellarning nutq jarayonidagi ko'rinishlari aniqlandi. Sistem-struktur tilshunoslik umumiylik va xususiylik dialektikasini e'tiborga olgan holda til va nutqni izchil ravishda farqlaydi hamda asosiy e'tiborni xususiyliklarda takrorlanuvchi umumiy jihatlarni belgilash orqali ularni modellashtirishga qaratadi. Bunday modellashtirish dastlabki davrda faqat shaklga qarab belgilangan, tilshunos uchun eng ahamiyatli narsa substansiya emas, shakl deb qaralgan bo'lsa, keyinchalik shu narsa oydinlashdiki, shakldan mazmuni soqit qilish mumkin emas. Sistem-struktur tilshunoslikning otasi sanaluvchi Ferdinand de Sossyurning o'zi ham shakl va mazmun munosabatini daftar varag'iga qiyoslaydi. Varaqning ust qismi shakl bo'lsa, ost qismi mazmundir. Lekin varaqni hech qachon ust va ost qismlarga alohida-alohida ajratib bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, til sistemasining quyi fonologik sathidan tashqari barcha sath birliklari ma'no bilan bog'langan. Ular shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Shuning uchun har qanday lisoniy model (kolip) mazmuni o'zidan soqit qilolmaydi. Ko'p hollarda lisoniy qolipni belgilashda mazmun yetakchi planga o'tib qolishi mumkin. Ayniqsa, bu sintaktik omonimiyalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois sistem-struktur tilshunoslik keyingi davrlarda lisoniy birliklarning shakl va mazmun munosabatiga ham alohida e'tibor qila boshladi. Buning natijasida tilshunoslikda alohida yo'nalish - mazmuniy yo'nalish maydonga keldi deya ta'kidladi olim[1].

Asosiy qism. Pragmatika sohasining yetuk mutahassislari, o'z ilmiy nazariyalarini oldinga surdilar va bir qator ijobiy natijalarga erishdilar, ularning izdoshlari esa ustozlarining tadqiqini davom ettirgan holda hanuzgacha bahs-munozara, solishtirish, taqqoslash orqali muhokamalarini davom ettirmoqdalar.

Mazkur maqolani yozish barobarinda, lingvistik pragmatikaning umumiy masalalari, kommunikatsiya jarayonining kengayishi munosabati bilan uni tadqiq etish jarayoni ham murakkablasha bordi hanuzgacha yakunlanmay qoldganligini guvohi bo'ldik. Boshqa fan sohalarida bo'lgani kabi tilshunoslikda ham yangi tarmoq yangi tadqiqot obyektlari yuzaga kela boshladi. Ma'lumki, muloqotga kirishuv jarayonini bilish, anglash, ifodalash, sezish, o'qish bilan uzviy aloqador ifoda formalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Ifoda formalarining qo'llana boshlanishining o'zidayoq munosabat tushunchasi namoyon bo'la boshlaydi. Shuning uchun bularga xos semantika, sintaktik, ayniqsa, pragmatik xususiyatlarni ma'lum lingvistik mezonlar vositasida ajratish bugungi tilshunoslikning asosiy masalalaridandir[2]. Aloqa-aralashuv jarayoniga xos mana shu uch ifoda turining neytral va affektiv xususiyatlari lingvistik pragmatikaning tadqiq doirasi sifatida

ajratiladi. Mashhur tilshunos T.V.Kolshanskiyning ta'kidlashicha, so'zlovchi subyekt his-tuyg'ulariga xos xususiyat belgilardan ajralgan ma'lum bir axborotni ifoda etishi mumkin emas. Nutq mazmuniga hamohang his-tuyg'u va barcha baholar konkret tinglovchiga qaratilgan buladi. Ana shu tinglovchi uchun qaratilgan subyekt nutqiga xos munosabat belgilari - nutqdagi barcha buyoqlar yaxlit tarzda pragmatika deb nomlanadi. Bu ularning pragmatik tayinlanishi deb qaraladi[2]. Pragmatik hodisalar mohiyatini o'rganish tilshunosdan mantiqiy va falsafiy mushohadalarni ham talab qiladi. Shuning uchun lingvistik pragmatika masalalari hodisani faqat lisoniy tahlil etibgina kolmasdan, balki uning mantiqiy, falsafiy va sotsial xususiyatlarini ham o'rganadi[7]. Shu ma'noda L.A.Kiselevaning pragmatolingvistikaning dolzarb masalalari xususidagi qarashlari diqqatga sazovordir. Jumladan, pragmatolingvistika: a) nutqning yuzaga kelishi bilan bog'liq so'z va qurilmalarning qo'llanishiga oid pragmatik xususiyatlarigina emas, balki turli sathdagi yordamchi so'z va morfemalar, so'z birikmasi[8], gaplarga xos pragmatik xususiyatlar; b) til va nutqning pragmatik funksional konuniyatlar; v) nolingvistik vaziyatning tipik shakllari; g) sotsial maqsad, vazifalar; d) nutq subyekt, adresati, sotsial va ruhiy tip sifatida hamda faqat mana shularga asoslangan holda aniq nolingvistik vaziyatga muvofiq ravishda ifodada shaxsning suhbatdoshlarga qaratgan maqsad, vazifalarini o'rganadi[9]. Umuman, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi verbal ifodada ma'lum maqsad hamda vazifalarga asoslangan his-tuyg'uga ta'sir etuvchi) xususiy munosabat bayoni bu ishning asosiy mazmunini tashkil qiladi. "Semantikaning tekshirish ko'lami g'oyat kengayib ketganligi tufayli, uni bir oz yengillatishga, ma'noning kontekst bilan bog'liq qismidan xalos qilishga to'g'ri keldi"[10]. Keyingi paytlarda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, bayon qilingan har bir ifoda tarkibidagi propozitsiyada so'zlovchi shaxsi bilan uzviy aloqador mazmuniy strukturalar ham aks etayotganligi, bularning asosiy belgi va xususiyatlari, mohiyatiga oid tafsilotlar fanda hamon ochiq qolayotganligi lingvistik pragmatikaga ehtiyojni kuchaytirdi. Mazkur tilshunoslik sohasining o'rganish yo'nalishlari, boshqalariga qaraganda chuqurroq izlanish olib borishni taqozo etishligi bilan ajraib turadi.

Muhokama va natijalar. Pragmatika keng qamrovli fan sifatida inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq bir qator masalalar, xususan, kommunikativ sintaksis, nutq va nutq faoliyati nazariyasi, tipologiyasi, kommunikatsiya va funksional uslublar nazariyasi, sotsiolingvistika nazariyasi, psixolingvistika nazariyasi, diskurs nazariyasi, ritorika va stilistika doiralarida ko'p asrlik tarixga ega bir qator muammolarni o'z ichiga qamrab oladi[5]. Sohaga oid ko'plab adabiyotlarni, ilmiy izlanishlarni, olimlarning tadqiqotlarini o'rganish natijasida, tilshunoslikning bugungi kundagi taraqqiyoti mezonlari, bu yo'nalishning insonlarni muloqot vaziyatida bir birlariga yaqinlashtiruvchi, shu bilan birga turli muommolarda yechim topishda yetakchi o'ringa turuvchi nutqiy vaziyatni o'rganuvchi bo'lim ekanligi aniq bo'ldi.

Lingvistikada lisonni mazkur sohada tadqiq qilish ba'zi yo'nalishni izlanishlarni umumlashtirsak, ular o'rtasida o'zaro o'xshash va bir biriga yaqin tomonlari ham borligi aniqlanadi. Tilshunoslikning bu yo'nalishida qilingan izlanishlarda insonlarning muloqotga kirishish jarayoni haqida mulohaza yuritilganda quydagicha to'htamga kelinadi, aloqa qurolining muloqot jarayonida sifatli munosabatni ta'minlash bilan birga, so'zlashuvchilarning ham firklarini bir biriga erkin yetkazishligi bilan ajralib turadi. Yo'nalishda mazmunli izlanishlar olib brogan olimlarning fikricha "pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu

qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi"[1] deb izohlab, lingvistik pragmatikaning nutq subekti, nutq obekti, nutq vaziyati bilan bog'liq xususiy masalalarini belgilab beradi. Demak, pragmatik tilshunoslik tadqiq predmeti nutqiy akt nazariyasi, deyxsis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmatistika kabi sohalarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Xulosa. Nutqni an'anaviy lingvistik tahlil qilish bilan bir qatorda, bugungi kunda nutqning kommunikativ yo'naltirilgan tavsifi bilan bog'liq murakkab sohalar jadal rivojlanmoqdaligini yuqorida aytib o'tgan edik. Ohirgi olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma'lumki, bayon qilingan har bir ifoda tarkibidagi propozitsiyada so'zlovchi shaxsi bilan

uzviy aloqador mazmuniy strukturalar ham aks etayotganligi, bularning asosiy belgi va xususiyatlari, mohiyatiga oid tafsilotlar fanda hamon ochiq qolayotganligi lingvistik pragmatikaga ehtiyojni kuchaytirdi. Mazkur tilshunoslik sohasining o'rganish yo'nalishlari, boshqalariga qaraganda chuqurroq izlanish olib borishni taqozo etishligi bilan ajraib turadi. Shu jihatlar to'liq qamrab olingandagina nutq ishtirokchilarining o'zaro muloqot jarayoni to'g'ri amalga oshiriladi. Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari nutq subyekti, nutq obyekt, nutq vaziyati bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, 2000. –300 б.
2. Нўрмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - 232 б.
3. КОГНИТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ДИСКУРСА. Шадрина Ю.Ю. Екатеринбург. 2022. http://elar.uifu.ru/bitstream/10995/28000/1/sk_2014-20.pdf
4. Сусов И.П. Введение в языкознание: учебник для студентов лингвистических и филологических специальностей / И.П. Сусов. – М.: АСТ: Восток–Запад, 2007. – 379 с.
5. Нестерова Ю.О. Языковая игра в современной русской разговорной речи. Владивосток. 2001
6. <https://www.researchgate.net/publication/341655163> Tilsunoslikning_muammolari_Aktualnye_problemy_azykoznanania_Actual_problems_of_linguistics dolzarb
7. <http://elibrary.ru/item.asp?id=24363146>
8. http://cheloveknauka.com/yazykovaya_igra-v-sovremennoy-russkoy-razgovornoj-rechi
9. <http://elibrary.ru/item.asp?id=21111721>
10. https://tsuull.uz/sites/default/files/ldm_toplam.pdf
11. https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_810_20210505.doc



UDK 413:4

Mohinabonu RAXIMOVA,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi, (PhD)

E-mail: mohinabonu1992@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, professor D.B.Urinbayeva taqrizi asosida

ESSE MATNIDA OLAMNING LISONIY MANZARASI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi esse matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari, ularda olamning lisoniy manzarasining namoyon bo'lishi atroflicha yoritilgan. Hayot tarzi konseptosferasi orqali, uy konsepti izohlangan. Bunda o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan uy-joy qurilishi, undagi elementlar uchun ishlatilgan lisoniy birliklarning lingvomadaniy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: esse matnlari, lingvomadaniyatshunosli, konsept, konseptosfera, hayot tarzi konseptosferasi, tuproq ko'chalar, uy-joy.

ЯЗЫКОВАЯ КАРТИНА МИРА В ЭССЕ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются лингвокультурологические особенности текстов сочинений на узбекском языке, проявление в них языкового ландшафта мира. Через концептосферу образа жизни объясняется понятие дома. При этом анализируются языковые единицы, используемые для жилищного строительства, характерные для узбекского менталитета, и языковые и культурные аспекты его элементов.

Ключевые слова: тексты эссе, лингвист, концепт, концептосфера, концептосфера образа жизни, грунтовые улицы, жилье.

LANGUAGE PICTURE OF THE WORLD IN THE ESSAY

Annotation

In this article, the linguistic and cultural characteristics of the essay texts in Uzbek language, the manifestation of the linguistic landscape of the world in them are detailed. Through the lifestyle conceptosphere, the concept of home is explained. In this, the linguistic units used for the housing construction, characteristic of the Uzbek mentality, and the linguistic and cultural aspects of its elements are analyzed.

Key words: essay texts, linguist, concept, conceptosphere, lifestyle conceptosphere, dirt streets, housing.

XXI asrning boshlariga kelib lingvomadaniyatshunoslik jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Jumladan, N.Mahmudov [1], D.Xudoyberganova [2], Sh.Ussonova [3], N.To'xtaxodjayeva [4], D.Rustamov [5], D.Tosheva [6], G.Nasrullayeva [7], Sh.Maxmaraimova [8], F.Ussonov [9], Z.Muqimova [10], Yu.Nurmuhamedov [11]larning ishlari shu xarakterdagi tadqiqotlar jumlasidandir.

Professor N.Mahmudovning «Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...[12]» nomli maqolasida lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishining mazmun-mohiyatini atroflicha va asosli yoritib bergan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagicha fikr bildiradi: «Til va madaniyat deganda, ko'pincha, «nutq madaniyati» deyiladigan muammo assosiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvomadaniyatshunoslikdagi madaniyatning ma'nosi «aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)» emas, balki «kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)» demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyekti tamoman

boshqadir». Shuningdek, tilshunos olim D.Xudoyberganova «Matnning antroposentrik tadqiqi» monografiyasida o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari, presedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari xususida fikr bayon etdi.

Yo.Odilov yozadi: «tilni shaxs omili asosida o'rganishni maqsad qilgan tadqiqotchilar uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda[13]».

D.Xudoyberganovanning «O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini» mavzusidagi tadqiqotida antroposentrik paradigmaning nazariy asoslariga doir fikrlar ilgari surilgan. Tadqiqotda lingvomadaniyatshunoslikning matn-metafora, matn-o'xshatish, presedent birliklar, lingvomadaniy konsept, olamning lisoniy manzarasi kabi asosiy masalalariga munosabat bildirilgan.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvomadaniyatshunoslikning asosiy maqsadidir[14]. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarning milliy-madaniy mentalitagini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifalari sanaladi.

Esse matnlarini tahlil etar ekanmiz, quyida keltirilgan «Olam» - «Inson» - «Inson va Olam» trixotomiyasidagi konseptosfera lavhalari, mavzuviy guruhlarining ro'yxatini lingvokulturologik nuqtai nazaridan o'rganish mumkin:

“Hayot tarzi” konseptosferasi: Uy konsepti. Bu uy Janggohdan uncha uzoq emas, hozirgi Sag'bon ko'chasida. Keyinroq esa Ko'kaldosh madrasasida to'qqiz oy yashagan (S.Rahmon. Tinch oqar daryo). Murakkab ixtirolar o'z nomi bilan murakkab, oddiygina loy zuvaladan tiklangan uylardagi tokcha, daricha va taxmon degan nimarsalar ham o'z istiqomatchisining biron kor-holiga asqatardi. Masalan, taxmonga ko'rpa-to'shak, kundalik ehtiyoj uchun zarur sopol, chinni idishlar terilsa, daricha yozning avj jaziramasida ochib qo'yilib, xona havosini tozalar, kuz, qish oylarida tashqi tomondan suvalib, tokchasiga mayda-chuyda buyumlar terib qo'yilardi (A.Abdiyev. Kitobga qaytish). Chunki, uning “Tuproq ko'chalar”ida har kuni biz teng-to'sh bolalar bir-birimizning qadam izlarimizni o'lchab oyoqyalang yurar edik (Sh.Bo'tayev. Shukur, ayt-chi, bu hayot nima?). Ko'z ilg'amas beqiyos adirlar, yuksak tog'lar, so'qmoqlar, tuproq ko'chalar,ayniqsa, yoshlik chog'laringizda qalbingizdan joy olgan bo'lsa, bilingki, endi umr bo'yi ularning yodi ham sizni tark etmaydi (Sh.Bo'tayev. Shukur, ayt-chi, bu hayot nima?).

Misollardagi “Tuproq ko'chalar”, loy zuvaladan tiklangan uy, tokcha, daricha, taxmon, madrasa kabi konseptlari faqat sharq xalqlari, jumladan, o'zbek millatiga xos.

“Tuproq ko'chalar” birikmasida tuproq - yerning kovlash, chopish, hay-dash, ezilish va sh.k. natijasida hosil bo'lgan yumshoq qismi, qatlami (O'TIL. 4, 201), ko'cha- “[f. -shahar yoki qishloq ichidagi yo'l] aholi yashaydigan joylarda yo'lovchilar o'tib turadigan, transport qatnaydigan yo'l” (O'TIL. 2,553) denotat semasini ifodalaydi. Milliy-madaniy konsepti sifatida tuproq ko'chalar metaforik epiteli birikma teran falsafiylik, betakror badiiylik bag'ishlagan. Chunki garchi nutqimizda tuproq ko'cha qo'llaniladi, ammo bunda muayyan obrazlilik mujassam bo'lib, Shukur Xolmirzayevning “Tuproq ko'chalar” hikoyasidagi muallifning sog'inchi, yoshlikni xotirlash, oddiylik va samimiylilik ramzi, ayni paytda, “rizqing tuproqda” hadisi, “har kimsaning ko'nglini anglash, dardi-dunyasini tushunish uchun unib-o'sgan yerini, kamol topgan tuprog'ini bilish kerak”, degan roviylarning ibratli gapi, “odamlar asli tuproqdanidir. U tuproqdan yaratilgan va tag'in tuproqqa – o'zligiga qaytish muqarrar” degan Termiziy fikrlari mujassam ekanligini ta'kidlovchi, kuchaytiruvchi lingvopoetik vositaga aylanadi va milliy steriotip bo'lib, mahalliy qadriyatlar, an'analarni o'zida tashiydi.

Uy konsepti universallik tabiatiga ega bo'lgan holda, milliy o'ziga xos mazmunga ham ega. Madaniyat taraqqiyoti tilda o'z in'ikosini topadi. Shunday ekan, tilda milliy o'ziga xoslik kulturologik belgilar mutanosibli, semantik maydon va guruhlar, tushunchaning konseptuallashuvida namoyon bo'ladi. Uy leksemasi “yashash uchun mo'ljallangan bino ichidagi har bir xona; biror oila yoki xonadon o'rnashgan bino va shu binoga taaluqli yer; hovli; oila; xonadon; biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan muassasa sifatida izohlanadi (O'TIL. 4, 271). Ushbu izohlardan ma'lum bo'ladiki, avvalambor, uy til belgisining denotati yashash uchun mo'ljallangan bino semasini, uning konnotativ belgilari ijtimoiy muassasa, oila, boylik va qudrat semalarini ifodalaydi. Uy konseptini bevosita nomlovchi o'zbek tili birliklari: qo'rg'on, saroy, o'tov, chayla, chodir, kapa, katalak, kulba. Uy konseptini bilvosita nomlovchi sinekdoxa shakldigi leksemalar: devor, tom, eshik, ostona, chordevor. Bundan tashqari, muayyan millat istiqomat kilib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, jug'rofiy-hududiy va iqlimiy omillar ta'sirini ko'rsatib o'tish joizdir. Ma'lumki, mamlakatimizning asosan tekislik va cho'lardan iborat keskin kontinental iqlimli, jug'rofiy hududda joylashganligi, jazirama issiq, yoz bilan qahraton qishni, almashinishi, bahor va kuzning shiddat bilan kelishi va ketishi xalqimizning fe'l-atvorida aniqlik va lo'ndalikni, to'poriliq qaynoq mehrini, qattiqqo'llik va intizomni tarkib toptirgandir. Misolda keltirilgan loy zuvaladan tiklangan uy odatiy o'zbek xalqining bino qurilish materiallariga ko'ra loy va paxsadan bo'lishi ifodalangan. Bu bilan muallif o'zbek mentalitetiga xos, o'zbek tilida mavjud loy zuvala, sinch, paxsa, xom g'isht, pishiq g'isht kabi til birliklarini qo'llaydi. Loy zuvaladan tiklangan uy madaniy steriotip sifatida insonning uy haqidagi tasavvurlarini quyidagi lisoniy birliklardan aks ettiradi: turli murakkab ixtirolardan xoli o'zbekning uyi. Loy va somon bilan pardoq qilingan, loyning va qishloqning hidi anqib turgan uy. Bunaqa uylar faqat o'zbek etnosida mavjud. Shunday ekan, o'zbek etnosida asosiy yashash joyi uy hisoblanishi, uylar qurilish uslubi, foydalaniladigan materialini anglatuvchi barcha til birliklari, aynan, o'zbek milliy madaniyatiga urg'u beradi.

Milliy dunyoqarash, milliy odatlar, madaniy qadriyatlarini tasvirlash uchun ijod jarayonida muallif o'z his-tuyg'ulariga mos keladigan va uni to'g'ri ifodalay oladigan har bir so'zning ichiga kirib borib, uning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetgandan keyingina matnga olib kiradi. Xuddi shunday boshqa bir so'z bilan bog'liqlik jihatlarini izlaydi va ularni o'zaro aloqaga kiritiradi. Shuning uchun ham esse mualliflarining mehnati badiiy tafakkurning cheksiz ummonlaridan javohir terishga qiyoslanadi.

ADABIYOTLAR

1. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Махмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш//Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015. №3. – Б. 3-12.
2. Худойберганаева Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.
3. Усмонова Ш. Таржиманинг лингвомаданий аспекти. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2015. – 192 б.; Usmonova Shoira. Lingvomadaniyatshunoslik. –Toshkent, 2019. –B.12-13. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан. бўйича фалсафа фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2019. –Б. 160.
4. Тухтаходжаева Н. Бадий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. –Тошкент, 2017. – 141 б.
5. Рустамов Д. Лексемалар миллий маданий хосланган семемасининг лингвомаданий аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. – Фарғона, 2018. – 129 б.
6. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. –Тошкент, 2017. – 151 б.
7. Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лингвомаданий, коммуникатив, прагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. – Қарши, 2018. – 147 б.
8. Махмараймова Ш. Лингвокультурология. –Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. –Б.16;

9. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи : Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. –Б. 160.
10. Муқимова З.Р. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – Б.160.
11. Нурмухаммедов Ю.Ш. Миллий-маданий дунёқарашнинг фразеологик сатҳ аспектидаги таҳлили: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Самарқанд, 2021. – Б.160.
12. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2012. -№5. - В. 3-16.
13. Одилов Ё. Ўзбек тилшунослиги мустақиллик йилларида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2016. – №4. – Б.49. – 47-52 б.
14. Сабитова З.К.Лингвокультуроология. Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013.- С.10.



UDK: 821.111.

Dilnoza RUZMATOVA,
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti dotsenti
Shaxnoza BEGIMKULOVA,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Yangiyer filiali katta o'qituvchisi
E-mail: cool.begimkulova@inbox.ru

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b X.Mamatova taqrizi asosida

AFG'ON-AMERIKA ADIBALARI SAIMA VAHAB VA NILUFAR PAZIRA IJODIDA PATRIARXAL USTUNLIK VA UNING TASVIRIY IFODASI

Annotatsiya

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan afg'on-amerika adibalaridan Saima Vahabning "In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate" ("Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari") va Nilufar Paziraning "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" ("Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab") asarlarida qadriyatlar insoniy, milliy, oilaviy rakurslarda talqin etilib, ularda afg'on millatining o'ziga xos sifatleri, fazilatleri, donishmandligi, milliy g'urur orqali o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, millatning madaniyati, imon-e'tiqodi, milliy urf-odatleri, mehr-oqibati, milliy tarbiyaning barcha qirralari o'ziga xos qadriyatlarida namoyon bo'lgan.

Kalit so'zlar: Afg'on-amerika adabiyoti, oilaviy qadriyat, patriarxal ustunlik, ta'lim, tarbiya, avtobiografik metod, Afg'oniston.

ПАТРИАРХАЛЬНОЕ ГЛАВЕНСТВО И ЕГО ВИЗУАЛЬНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ АФГАНСКО-АМЕРИКАНСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ САЙМЫ ВАХАБ И НИЛУФАР ПАЗИРА

Аннотация

Среди афганско-американских писателей, являющихся объектом нашего исследования, «В стране моего отца. (Афганская женщина бросает вызов своей судьбе)» Саймы Ваха и Нилуфар Пазира «Кровать красных цветов: в поисках моего Афганистана», их произведения общенациональные и общечеловеческие, литературно-художественный анализ производился на ценностной основе. В произведениях ценности интерпретируются с человеческой, национальной и семейной точек зрения и отражают уникальные качества, добродетели, мудрость и национальную гордость афганского народа. Иными словами, культура нации, вера, национальные традиции, доброта и все аспекты национального воспитания проявляются в своих уникальных ценностях.

Ключевые слова: Афганско-американская литература, семейная ценность, патриархальное превосходство, образование, воспитание, автобиографический метод.

PATRIARCHAL HEADSHIP AND ITS VISUAL EXPRESSION IN THE WORKS OF AFGHAN-AMERICAN WRITERS SAIMA WAHAB AND NELOFER PAZIRA

Annotation

Among the Afghan-American writers who are the object of our research "In My Father's Country (An Afghan Woman Defies Her Fate)" by Saima Wahab and Nelofer Pazira's "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan", their works are national and universal literary and artistic analysis was done on the basis of values. In the works of these creators, the values are interpreted from human, national, and family perspectives, and they reflect the unique qualities, virtues, wisdom, and national pride of the Afghan nation. In other words, the nation's culture, faith, national traditions, kindness, and all aspects of national education are manifested in their unique values.

Key words: Afghan-american literature, family value, patriarchal superiority, education, upbringing, autobiographical method

Afg'on-Amerika adabiyoti yozuvchisi Saima Vahabning "In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate" ("Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari") [1] asarida erkak dominant rolida tahlilga olsak. Yozuvchi Saima Vahob Afg'onistonning Qobulida tug'ilgan bo'lib, bolaligida otasining KGB xarbiylari tomonidan hibsga olishlarini guvohi bo'ladi va bu unga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Afsuski, shundan keyin boshqa otasini ko'rmaydi va har doim Afg'onistonni ona yurt deb emas, balki ota yurt deb eslaydi. U o'n besh yoshida Amerikada istiqomat qiluvchi amakisinikiga ko'chib keladi va juda qisqa muddatda uch yil ichida ingliz tilini mukammal o'rganib, o'rtta maktabni ham tugatadi. E'tiborlisi, amakisinikiga kelganlarning barchasi 6-17 yosh oralig'idagi o'spirinlar bo'lib, ularning to'rt nafari qarindosh o'smir yigitlar va ikki nafari Saima va uning singlisi

Najiba edi. Amerikaga kelish sanasiga 1991-yil 3-may deb urg'u berarkan, muallif bu kuni bir umr o'zi uchun "ozodlik kuni" deb hisoblaydi: "I was fifteen years old when we arrived in America, on May 3, 1991. Later we would call that day Liberty Day, and celebrated it each year" [1,35]. (1991-yil 3-mayda Amerikaga yetib kelganimizda o'n besh yoshda edim. Keyinchalik bu kuni Ozodlik kuni deb nomladik va har yili birgalikda nishonlardik.)

2004-yilda Saima Vahob Afg'onistonda tarjimon sifatida ishlash uchun mudofaa pudratchisi bilan shartnoma imzolab, armiya safiga yagona tarjimon ayol sifatida ishga qabul qilinadi. U hayoti davomida ko'rgan-kechirganlarini, o'zining "In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate" ("Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari") nomli avtobiografik romanida tasvirlaydi. Asar

Saimaning tug'ilishi va otasining nihoyatda xursand bo'lishi-yu, juda mamnunligidan quroldan osmonga o'q uzishi bilan boshlanadi. Garchi qiz farzand bo'lsa ham, aynan o'sha quroldan o'q otilishi asarda ramziy ma'no kasb etib, Saima Vahobning butun hayoti harbiy lagerlar bilan bog'liqligiga ishora beradi. Otasining qizidan faxrlanishini quyidagi jumlar ham isbotlaydi: "I promise that my daughter will prove that she is better than many Pashtun sons, and will do more for help than one hundred sons combined"[1,9] (Qizim ko'plab pushtun yigitlaridan a'lo va yuzlab o'g'il farzandlar bilan taqqoslaganda vatanga ulardan ko'ra ko'proq nafi tegishiga va'da beraman.) Saimaning otasi Yevropada ta'lim olgan, g'arbiy madaniyatga guvoh bo'lgan va o'sha tamaddunning o'ziga kerakli ijobiy tomonlarini qabul qilgan inson sifatida, diniy ta'lim bilangina cheklangan ayoliga ham istasa o'qishni davom ettirishi mumkinligi va bu yo'lda doimo uni ham moliyaviy, ham ma'naviy qo'llashini ta'kidlaydi. Saima Vahobning otasidan qanchalik faxrlanishini, xatto otasining oshxonada oilasi, xotini uchun yaratib bergan imkoniyatlardan ham ko'rish mumkin. "But my father not only loved to cook, he designed our kitchen to suit his strange methods. Traditionally, Afghan women squat on their heels while cooking because everything- the burners, the food - is on the ground level, but my father realized how much easier it was to cook while standing. So in the late seventies, we were the only family we knew in all of Kabul who had kitchen countries, and Mamai cooked standing up"[1,12]. (Otam faqatgina ovqat pishirishnigina yoqtirmasdan, oshxonamizni noodatigi tarzda jixozlashga ham qiziqardi. Afg'on ayollarining an'anaviy oshxonasi yerda o'tirib ishlashga moslashgan bo'lib, o'choq atrofida o'tirib taom tayyorlashgan. Otam tikka turib oshxonada ishlash afzalliklarini bilgach, yetmishinchi yillarning oxirlarida butun Kobul bo'ylab yagona o'zgacha uslubda ya'ni tikka turib ishlash mumkin bo'lgan oshxona jihozlarini o'matgan va onam endilikda tik turgan holda taomlar tayyorlard.)

Saima Vahobning bolalik chog'larini xavotirga to'la bo'lib, mamlakatga sovet ittifoqi armiyasi bostirib kiradi va mamlakat aholisi qo'rquvda yashay boshlaydi. Otasi xibsga olingandan so'ng bobosi ya'ni Baba oila mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi va ularni Kobuldan o'z qishlog'iga olib ketadi. Bobosi balki otasi qamoqdaligi sabab bolalarga va keliniga juda mehribon bo'lib, ularga qo'lidan kelganicha sharoit yaratib beradi, "Qur'on" o'qishni va uni arab tilidan pushtun tiliga o'girishni o'rgatadi.

Bobosi oilada erta turmushga qarshi bo'lib, Saimaga sovchilar kelganda qat'iy yo'q deya javob beradi. U nabirasining qishloq ayollaridan farqli ravishda ta'lim olishini, jamiyatda o'z o'rnini egallashini xoxlard. "The first time he refused a marriage proposal, he was very respectful, knowing how quickly you can make a mortal enemy out of a Pashtun by insulting him. But over the next couple of years, I heard stories of him kicking out men who came into our mehmaan khana, guest house, asking for my hand in marriage for their sons, Baba yelling at them, "Are there no other girls left in the world? Leave my granddaughter alone!"[1,22] (Bobom ilk bor menga sovchi bo'lib kelgan martabali insonni rad etarkan, bu bilan Pushtunlar orasida dushman orttirishi hech gapmas edi. Yillar o'tib eshitganlarimga ko'ra, kimki o'g'li uchun qo'limni so'rab kelsa, bobom dunyoda nabiramdan boshqa qiz yo'qmi deb haydab solarkan.) Bobosining o'rnini Saimaning hayotida be'qiyos bo'lib, u Saima erishgan barcha muvaffaqiyatlarga birdek sababchi inson sifatida gavdalanadi. "I was too shy to say anything about what he was doing, but he knew exactly what I felt and would put his arm around me." Don't worry, he would say. "Everything will work out. As long as I am alive, everything will be fine. "I believed him completely, and with him on my side, I felt like I could conquer any obstacle in

life"[1,23].(Bobomning qilayotgan ishlari haqida nimadir deyishga juda uyalardim, ammo nimani his qilishimni bilar va yelkama qo'limni qo'yib, "Hammasi o'z iziga tushadi, toki men tirik ekanman, hammasi zo'r bo'ladi", derdi. Men unga batamom ishonardim, agar bobom men bilan birga bo'lsa, barcha to'siqlarni yengib o'tadigandek tuyulardi.)

Ammo mamlakatdagi vaziyat jiddiy tus olgani bois bobosi Saimani va yana boshqa nevaralarini Amerikaga professor tog'asiniqiga jo'natadi va tog'asi ularning ilm olishida katta rol o'ynaydi. Hatto bolalar uchun uyda til o'rganishlari uchun ingliz tili o'qituvchisini yollaydi. 2004-yilda institutni bitirib, Afg'onistonga kelganida Saima ham ingliz, ham pushtun tillarida ravon tarjima qila oladigan yagona tarjimon edi. U asosan xarbiy bazalarda erkaklar bilan yonmayon ishladi va barcha u bilan faoliyat olib borgan amerikalik harbiylar uni ham ayol emas, oddiy bir askar sifatida qabul qilishadi. Ayrim o'rinlarda bu holat hatto Saimani hayron qoldirardi. Demak, o'z nomi bilan harbiylar patriarxal jamiyat namunasi sifatida Saima Vahobning "Ota yurtimda" romanida tasviriy ifodalangan.

Saima yozuvchi sifatida o'z hayotini tasvirlarkan otasi va bobosidan boshqa hech kim uning hayotidagi muhim erkaklar safida bo'la olmadi, garchi bir necha bor munosabatlarga kirishsa ham, hech bir aloqalar jiddiy yakun topmaydi. Barcha uni yoqtirgan yigitlarning rad javob olishlariga yoki munosabatlarning to'xtatilishiga Saimaning diniy, siyosiy va ijtimoiy qadriyatlarini sababchi bo'ladi. Vasiliy, Greg va Erik portretlari ijobiy bo'yoqdorlik bilan yo'g'rilgan bo'lib, hech birini salbiy xususiyatlar bilan tasvirlamaydi. Muallif hayotidagi barcha yigitlardan bobosining siyosini gavdalandirishni xoxlard va aynan bobosining xususiyatlarini qidirardi. Nega otasining emas, bobosining siyosini Saima Vahab uchun muhim degan haqli savolga, aynan o'zligini tanigan yillari bobosi bilan birga o'tganligini sabab qilib keltirish mumkin.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan quyidagi jumla orqali bosh qahramonning psixologik portretiga chizgilar beradi: "You know the American in me wants to jump up and hug you and accept the proposal with teary eyes, but the practical Pashtun in me wants to know if I am ready to fight my extended family, all two hundred of them, for you. You have to convince me that we are going to be together forever because I am causing this type of drama just once, and then never again in my life. More than that, I have to convince myself I can be with you for the rest of my time on earth. I am only doing this once, and it has to be worth it." [1,186] (Bilasanmi, ichimdagi amerikaligim quvonchdan sakrab, seni quchoqlab, ko'zida yoshlar bilan taklifingni qabul qilmoqchi, ammo pushtunligim ikki yuzdan ortiq urug'-aymog'imga sen uchun qarshi kurash olish yoki olmasligimni bilmoqchi.) Bu bilan Saima Vahobning har ikkala madaniyatga ham tegishliligi va har qanday vaziyatni ham ikki xil qarash bilan ya'ni amerikancha va avg'oncha tahlil qilishini ko'rsatadi.

Oilaviy qadriyatlarda ota roli va uning farzandlar tarbiyasidagi ahamiyatiga bag'ishlangan yana bir asar Nilufar Paziraning "A Bed of Red Flowers:in Search of My Afghanistan" ("Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab") [2] romani bo'lib, bu asar ham to'liq biografik uslubda yozilgan. Nilufar Pazira – adiba, rejissyor, jurnalist va aktrisa sifatida faoliyat olib boradi. U 1973-yilda Hindistonning Xaydarobodida afg'onlar oilasida dunyoga keladi, otasi shifokor va onasi o'qituvchi bo'lib ishlagan. Bolaligi Qobulda o'tadi. Mamlakatdagi notinch vaziyat oilani Pokistonga ko'chib ketishiga sabab bo'ladi va bir yil o'tgach Kanadaga immigrat oila sifatida butunlay ko'chib ketishadi. Hozirga kunda Nilufar Pazira Torontoda istiqomat qiladi va Kanada teleradiokompaniyasida ishlaydi. Ottavadagi Karleton

universitetida jurnalistika va ingliz adabiyoti bo'yicha bakalavr darajasini (1997-yil) va Monrealdagi Konkordiya universitetida antropologiya, sotsiologiya va din bo'yicha magistr darajasini oldi.

2001-yilda Nilufar Pazira bosh rolni ijro etgan "Qandahor" nomli xujjatli filmning suratga olinishiga adibaning 1998-yilda Tolibonlar hukmronligidagi Afg'onistonga borib, bolalikdagi do'stini qutqarish uchun qilgan sa'y-harakatlari asos qilib olinadi. Shu yilning o'zida Pazira "Kandahar Films" studiyasiga asos soladi. 2004-yilda u "Dayana Afg'oniston ayollar jamg'armasi" tashkil qilarkan xayriya jamg'armasining nomlanishida ham aynan o'sha bolalikdagi do'sti nomi bilan tashkil etdi. "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" ("Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab") romanini Afg'onistonda yashagan yillari yozib tugatgan va asar Kanada adabiy mukofoti "Drainie-Taylor Biography Prose" bilan taqdirlangan. 2007-2009 yillarda Nelofer Pazira –Pen Kanada prezidenti ya'ni Kanada yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qiladi. U Karleton universitetining faxriy huquq doktori darajasiga (2006), shuningdek Tompson Rivers universitetining adabiyot bo'yicha fan doktori darajasiga sazovor bo'lgan.

Adibaning rahm-shafqat, aql va zakovat bilan yozilgan "Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab" avtobiografik asari – ishg'ol ostida bo'lgan hayotning chuqur ta'sirchan portreti hamda oila, xalq va mamlakatning unutilmas hikoyasi tasvirlangan chuqur hissiyotga boy asardir. Asar Nilufar Paziraning bolalik xotiralari ya'ni qamoqdagi otasi Habibuloni ko'rishga borgani bilan boshlanadi. Voqealar rivoji bola ko'z o'ngida sodir bo'ladi. Hattoki oilada aka-ukaning mamlakatda bo'layotgan siyosiy o'zgarishlarga qarashlari farqli bo'lib, aka-Habibullo mustaqillik, ayollar ilm olishi, teng huquqli bo'lishi tarafdori bo'lsa, uka-Asad eski tuzum tarafdori edi. Oila boshi haqiqiy vatanparvar Sovet hukumatiga qarshi bo'lsada, onasi Jamila bunday notinch mamlakatda yashay olmasligini, ona

sifatida bolalarining hayoti xavf ostida ekanligi uchun tinmay eri bilan baxslashardi, ya'ni qizi Nilufar bilan mamlakatni tark etish kerak deb hisoblashardi.

Asar avtobiografik usulda muallif tilidan bayon qilingan. Romandagi asosiy g'oyalar:

- mamlakat boshiga kim kelishidan qat'iy nazar ayollarning huquqlari poymol bo'layotgani;

- bosh qaxramon va uning dugonasi, ular ortidagi ikki oilaning qarama-qarshi fikrlari;

- Habibulloning vatanparvarligi, do'stining esa demokratiyaga qarshiligi;

- diniy ta'limotlarning to'g'ri-noto'g'ri talqin qilinishi.

Asar to'liq realizm asosida yozilgan bo'lib, Nilufar Paziraning otasidan fahrlanishi motiv darajasiga ko'tariladi. Ta'kidlash joizki, ushbu roman oilaviy qadriyatlardan ko'ra Avg'onistonning tarixiy tasviriga urg'u beradi va tarixiy dalillar asosida xujjatli asar xususiyatlarini namoyon etadi.

Yuqorida tahlil qilingan afg'on-amerika adibalari Nilufar Pazira va Saima Vahab asarlari erkak dominant afg'on jamiyatida ayol va uning o'rmi masalasini badiiy tasvirlashgan. Ularning asarlari avtobiografik usulda yozilgan bo'lib, mualliflar o'zlari guvoh bo'lgan voqealarni reallikka asoslanib, afg'on milliy qadriyatlari bilan yo'g'rilgan "erkak" ijobiy portretini yaratishgan. Har ikkala adibaning hayot va ijod yo'lida erishgan muvaffaqiyatlariga ular tegishli bo'lgan jamiyatdagi erkaklar asosiy sababchi sifatida ko'rsatiladi. Ayollarning ilm olishi va ziyoli bo'lishida ota-bobo-tog'a-amaki zanjiri mohiyati Saima Vahobning "Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari" hamda Nilufar Paziraning "Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab" asarlarida mayda detallarga tayanib, ochib beriladi. Demak, tahlilga tortilgan ikkala asarlarda qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan erkaklar obrazi adibalar tomonidan har tomonlama ijobiy bo'yoqdorlik asosida yoritilgan.

ADABIYOTLAR

1. Saima Wahab. In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate. New York: Crown Publishers, 2012. – 463 P.
2. Nelofer Pazira. A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan. New York: Free Press, 2005. – 416 P.
3. Umurov X. Badiiy ijod asoslari.-Toshkent, O'zbekiston, 2001.
4. Xoldorov D.E. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo'tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida): Filol.fan.bo'y. fal. d-ri (PhD) diss. ...-Toshkent, 2017.-147
5. Ruzmatova D.R. Xolid Husayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi. Filol. fan.bo'y. fal. d-ri. ...diss.-Toshkent, 2020.-146 b



UDK:894.375 (092)

Otabek SAFAROV,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: otabeksafarov@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor Q.Yo'ldoshev taqrizi ostida

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING ADABIY-TANQIDIY MEROSIGA DOIR

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning adabiy-tanqidiy qarashlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, manbalari va bosqichlari o'rganilgan. Adibning adabiy-tanqidiy qarashlari o'sib-rivojlanib borgani tahlil qilinib, yozuvchining shu yo'nalishdagi merosini tadqiq etishning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, yozuvchining adabiy-tanqidiy qarashlari, hikoya, uslub, badiiy shakl, "Adabiyot o'ladimi?", Karpenker, komil inson orzusi, yozuvchilikning maktabi.

O ЛИТЕРАТУРНО-КРИТИЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация

В этой статье речь идет о литературно-критическом взгляде Шукура Холмирзаева. В литературно-публицистическом творчестве писателя огромное значение имеют критические статьи, в которых изучаются вопросы психология творчества, природа творчества, ответственность перед литературной слово, отношения общество и литературы.

Ключевые слова: Шукур Холмирзаев, литературно-критические взгляды писателя, рассказ, стиль, художественная форма, «Литература умрет?», Карпенкер, мечта совершенного человека, писательская школа.

ABOUT THE LITERARY-CRITICAL HERITAGE OF SHUKUR KholmIRZAEV

Annotation

This article deals with the literary and journalistic heritage of Shukur KholmIRZAEV. In literary and journalistic work of the writer is crucial critical articles, which examined issues of work psychology, the nature of creativity, responsibility to the literary word, attitudes society and literature.

Key words: Shukur KholmIRZAEV, literary and critical views of the writer, story, style, artistic form, "Literature will die?", Carpenter, the dream of a perfect person, writer's school.

Kirish. Ijodkorning adabiy-tanqidiy, estetik qarashlari nafaqat muallifning ijodini to'laroq o'rganishga yordam beradi, ayni paytda uning dunyoni idrok qilishi va bu anglamlarining o'z asarlarida zuhur etishini kuzatishda, badiiy didining shakllanish omillarini bilishda, hayot, inson va adabiyotga munosabatini aniqlashtirishda ham eng birinchi manbadir. Chunki shoir-yozuvchining adabiy-tanqidiy faoliyati uning ijoddagi izlanishlari, binobarin, mahorat bobida o'sish va chekinishlarini ham ko'rsatishi bilan qimmatli. Masalan, Shukur Xolmirzayev shunday yozadi: "O'tgan besh-olti yil men uchun og'ir yillar bo'ldi. Yozishni qayta boshdan mashq qilib, ko'p ko'chalarga kirib chiqdim – adashmaydigan, hamisha to'g'ri yo'ldan yuradigan yozuvchilarga havas qilaman..." [1] Bu jumalalarda doimiy izlanishda bo'lgan, uslub, badiiy shakl bobidagi o'ziga xosliklarni anglab va ijodiga tatbiq qilib borayotgan yozuvchining iqrorlari aks etadi, adabiyotda novatorlikka erishish birinchi galda boshqalar ijodini chuqur o'rganish va tahlil qilishni talab etadi, degan xulosa anglashiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yozuvchi Shukur Xolmirzayevning badiiy asarlari maxsus monografik aspektda ham tadqiq etilgan. Masalan, adabiyotshunos Sh.Doniyorova "Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi" [2] nomli nomzodlik dissertatsiyasida yozuvchining ijodiy uslubi va badiiy mahoratini ko'rsatish, asar qahramonlarining ma'naviy olami, ularning milliy va umuminsoniy xarakterini yoritishga e'tibor qaratadi. Filologiya fanlari nomzodi G.Tavaldiyeva esa Shukur Xolmirzayev hikoyalarini tahlil qilish orqali adibning voqelikni badiiy idrok

etishdagi ijodiy prinsiplarining shakllanishi va taraqqiyotini o'rganadi [3]. Tadqiqotchi K.Shaxobov zamonaviy o'zbek nasrida o'tish davrining badiiy talqinini Shukur Xolmirzayev ijodi misolida o'rganadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-badiiy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tadqiq usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bizningcha, Shukur Xolmirzayevning adabiy-tanqidiy, badiiy-estetik qarashlari quyidagi yo'nalishlarda moddiylashgan:

ilmiy-adabiy maqolalarida;
adabiy-publitsistik suhbatlari, interv'yularida;
so'zboshilari, so'ngso'zlarida;
yozuvchilarga yozgan xatlarida;
qutlov-tabriknomalarida;
kundaliklarida, qayd va izohlarida;
adabiy esse va ocherklarida.

Ilmiy kuzatishlar shundan dalolat beradiki, Shukur Xolmirzayevning adabiy-estetik qarashlari o'zga san'atkorlarning shu xildagi fikrlaridan izchilligi, muntazamligi va puxta ilmiy asoslarga egaligi bilan ajralib turadi. Zero, ko'pchilik ijodkorlar adabiyotshunoslikka onda-sonda qandaydir bir munosabat tufayliga murojaat qilgan bo'lsalar, Sh.Xolmirzayev adabiyot ilmi bilan butun ongli umri davomida jiddiy va muntazam shug'ullanib keldi. Buning asosiy sababi u adabiyot ilmini adabiy jarayondan, ilmiy izlanishlarni badiiy ijoddan ayri tutmadi. E'lon qilingan va shaxsiy arxivida saqlanayotgan yuzga yaqin adabiy-tanqidiy maqolalari, suhbatlari, taqriz va so'zboshilarida yozuvchining o'ziga xos

yondashuvi, ko'zqarashi, so'zga va ijodga bo'lgan munosabati yaqqol sezilib turadi. Garchi ular turli mavzu va yo'nalishlarda bo'lsa-da, lekin deyarli barchasini adabiyotga bo'lgan muhabbat, so'zga nisbatan sadoqat, ijodga bo'lgan mas'uliyat tuyg'ulari uyg'unlashtiradi.

Yozuvchi adabiy mashqlarini ancha erta – o'quvchilik davridanoq boshlagan bo'lsa, ana shu ijodiy izlanishlari mohiyati haqida fikr yuritish va ularni matbuotda chop etish bosqichiga keyinroq – talabalik davrida keladi. Shukur Xolmirzayevning adabiy-tanqidiy merosini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. 1960–1975 yillar. Ochig'i, ushbu davrda adibning adabiy-tanqidiy qarashlarini aks ettiruvchi chiqishlari soni ko'p emas. Jumladan, Moskvada yoshlar ishtirokida bo'lib o'tgan adabiyot kunlari taassurotlariga bag'ishlangan “Ulkan yakun, zo'r sinov”, “Kengash taassurotlaridan” sarlavhali muxtasar maqolalar, hikoya janri tabiati to'g'risida fikr yuritilgan dastlabki “Hikoya haqida” maqolasi, Ne'mat Aminov ijodiga oid “Dovonlar oldinda” taqrizi, ijodiy niyatlari haqidagi “Rejalarimmi?” sarlavhali maqolasi hamda Ibrohim G'afurovga yo'llangan uchta ochiq xati shu davrga mansub. Biroq yozuvchining bu yillardagi adabiy-tanqidiy qarashlarining ahamiyati shu bilan xarakterlanadiki, birinchidan, u ijodiy uslubini topish borasida muntazam izlanishdalgini ma'lum qiladi. Ikkinchidan, adibning Ibrohim G'afurovga yo'llagan uchta maktubi badiiy asarni tahlil qilish, uning mohiyatiga kirish, ijodkor dunyoqarashini anglash hamda adabiy tanqidchining bu boradagi yutuq va kamchiliklari yuzasidan ilmiy-nazariy fikr yuritilgani bilan ahamiyatlidir.

2. Adibning 1975–1991 yillarda yaratilgan adabiy-tanqidiy maqolalarida adabiyot va ijod haqidagi qarashlari muayyan darajada qaror topgani ko'rinadi. Aynan shu davrda chop etilgan, tanqidchi Umarali Normatov bilan qilingan “Uslub, badiiy shakl muammolari” sarlavhali suhbat-maqolada ilgari surilgan g'oya-xulosalar yozuvchining keyingi faoliyati uchun ijodiy tamoyilga aylanganini ko'ramiz. Masalan, Shukur Xolmirzayev adabiy didni yuksaltirish, o'quvchini tafakkurga chorlaydigan uslubda ijod qilishni ijodkorning vazifasi sifatida ko'radi: “Shaxsan men kitobxonni bir yoqqa torta bilgan, uning didiga mo'ljallab – unga asarini nima qilib bo'lsa ham yoqtirish maqsadida emas, o'sha didni bir bahya bo'lsa-da ko'tarish niyatida ter to'kkan yozuvchilarni sevaman” [5]. E'tiborli jihati shundaki, Shukur Xolmirzayev jahon adabiyoti namoyondalari va zamondosh ijodkorlar, ularning ijodiy faoliyati xususiyatlariga baho berganda ham, adabiy janrlar tabiati haqida fikr yuritganda ham, badiiy uslub va uni shakllantirish yo'l-yo'riqlari to'g'risida so'zlaganda ham, birinchidan, adabiyot ilmi mezonlaridan kelib chiqadi, ikkinchidan, fikrlarini misollar yordamida dalillaydi, uchinchidan, o'zining

mulohazalari yakuniy, barchaga majburiy xulosa emas, talqin o'laroq qabul qilinishini so'raydi.

3. Shukur Xolmirzayevning 1991–2004 yillardagi adabiy-tanqidiy merosi. Ushbu davr adibning ham ijodiy, ham adabiy-tanqidiy faoliyati uchun juda samarali bo'lgan, deyshga har jihatdan asos bor. Bu yillarda “Adabiyot o'ladimi?”, “Yozuvchilikning maktabi yo'q...”, “Adib shaxs bo'lishi kerak”, “Adabiyot, adabiyot, adabiyot...”, “Yozuvchi kim?”, “Orzularning alamli yuki”, “Faqat o'zligimni anglashim uchun yozaman...”, “Kechirasiz, janob Carpenter, vaqtim ziqroq!”, “Komil inson orzusi”, “Aytar so'zimizga mas'ul bo'laylik”, “O'ttiz besh yoshda ham...”, “Jahonbop asar yoza olaman, lekin...”, “Sholoxovning ashaddiy muxlisi edim...”, “Tolstoyning niyati meni maftun etgan” va boshqa – yozuvchining olam, odam, adabiyot, ijod, tarbiya kabi tushunchalar haqida bahs etgan maqola-suhbatlari yuzaga keldi. Ularning asosiy xususiyatlari shularda ko'rinadiki, avvalo, o'tish davri jarayonlarini badiiy idrok obyektini sifatida ijodida aks ettirgan yozuvchi adabiy-tanqidiy qarashlarida ham tahlil qilib, qadriyatlariga e'tiborning susayishi, inson tabiatiga mol-dunyoga havasning ortishi va uning ma'naviy oqibatlarini haqida mulohaza yuritadi. Ikkinchidan, “Ijodkorning shaxsi butun bo'lishi kerak”, degan tezisni ilgari surib, yozuvchi-shoirning o'z ijodi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini ko'rsatib beradi. Uchinchidan, Shukur Xolmirzayev ayni davrdagi adabiy-tanqidiy qarashlarida o'z ijodiy yo'lga baho beradi, uslubini shakllantirgan omillarni ko'rsatib beradi, realizm adabiy metodiga rioya etishning sabablarini asoslab beradi. To'rtinchidan, yangi adabiy metodlarga munosabatini bildirib, ushbu yo'lda asar yaratayotgan yozuvchilarning yutuq-kamchiliklarini tahlil qiladi.

Xulosa va takliflar. Har qanday ijodkorning (bizning tadqiqotimiz misolida, Shukur Xolmirzayevning) adabiy-tanqidiy qarashlarini ilmiy tadqiq etishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bunday qarashlar tizimi u mansub jamiyat oydinlarining muayyan davriy bosqichdagi intellektual saviyasini ko'rsatadi. Shu orqali o'sha davrda yashagan kishilarning tafakkur tarzi va tuyg'ulari yo'nalishini bilish va ular haqida yaratilgan asarlarni to'g'ri tushunish hamda xolis ilmiy tadqiq etishning yo'llarini belgilab olish mumkin. Shuningdek, biror asar haqidagi qarashlar uning qanday nuqtai nazarlar tizimi asosida yuzaga kelganligini bexato aniqlashga yordam qiladi. Binobarin, yozuvchining adabiy-tanqidiy qarashlari uning o'z ijodiga baho berilgan ilmiy konsepsiyagina bo'lib qolmay, balki zamondoshlari yaratgan asarlardagi yetakchi badiiy-estetik jihatlarining asl qimmatini nimada ekanligini bilishga sharoit yaratishi bilan ham qimmat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Холмирзаев Ш. Режаларимми?//“Ўзбекистон маданияти”, 1973 йил, 26 январь.
2. Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги. Филол. фан. номзоди дисс-я автореф. –Тошкент, 2000.
3. Тавалдиева Г. Шукур Холмирзаев ҳикояларида воқеликни бадий идрок этиш принциплари. Филол. фан. номзоди дисс-я автореф. –Тошкент, 2001.
4. Шахобов К. Ҳозирги ўзбек насрида ўтиш даврининг бадий талқини (Шукур Холмирзаев асарлари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс-я автореф. –Фарғона, 2019.
5. Холмирзаев Ш. Услуб, бадий шакл муаммолари (Сухбатдош – Умарали Норматов)//“Шарк юлдузи”, 1977 йил. № 8.



UDK: 82-83:81`322.2

Zarifa SULTANOVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi

E-mail: Zarifasultanova8@gmail.com

O'zDJTSU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti M.Ayxodjayeva taqrizi ostida

NUTQIY ETIKETNING SOTSIOPRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutqiy etiketning sotsiopragmatik talqini orqali til va nutqning chambarchas bog'liqligi hamda bu jarayon tilshunoslikda lingvokulturologik birlik sifatida o'rganilish holati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Antropotsentrik, kontekst, axloq konseptlari, lingvomadaniyatshunoslik, lakuna, paremiologik fond.

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА

Аннотация

В данной статье через социально-прагматическую интерпретацию речевого этикета раскрывается тесная связь языка и речи и состояние изучения этого процесса как лингвокультурологической единицы в языкознании.

Ключевые слова: Антропоцентризм, контекст, нравственные концепты, лингвокультурология, лакуна, паремиологический фундамент.

SOCIOPRAGMATIC INTERPRETATION OF SPEECH ETIQUETTE

Annotation

In this article, through a socio-pragmatic interpretation of speech etiquette, the close connection between language and speech and the state of the study of this process as a linguocultural unit in linguistics are revealed.

Key words: Anthropocentrism, context, moral concepts, linguoculturology, lacuna, paremiological foundation.

Jahon tilshunosligida bugungi kunda tilni antropotsentrik yondashuv asosida tadqiq etish barqarorlashib, lisoniy birliklarni "til va uning egasi" munosabatdorligida tadqiq etish, til egasiga xos bo'lgan milliy-madaniy, ijtimoiy, ruhiy va kognitiv belgilarni e'tiborga oluvchi lisoniy yo'nalishlarning rivojlanishi natijasida tilning jamiyat bilan aloqadorlikda o'rganuvchi sotsiolingvistika tarmog'i ham istiqbolli yo'nalishga aylandi. Bunda tilni o'z sohibi, uning milliy mentaliteti, jamiyatda tutgan o'rni, yoshi va jinsi bilan birga tadqiq etishga e'tibor qaratildi. Ayniqsa, nutqiy etiket va uning yuzaga chiqishini ta'minlovchi turli vositalar tilshunoslikning asosiy o'rganish ob'yektlaridan biriga aylandi.

Ko'plab olimlar til va madaniyat uzviyligiga urg'u beradi. Brovnga ko'ra "til madaniyatning bir qismi bo'lishi bilan birga madaniyat ham tilning bir qismi hisoblanishini, ularni bir-biridan ajratish har ikkalasining ham kemptikligiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi"[1]. Bryam til lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan denotativ va konnatativ semantik ma'nolari orqali bevosita madaniyatni ham o'qitishini ta'kidlab o'tadi[2]. Kramshch til va madaniyat uch tomonlama o'zaro bog'langanligini ta'kidlab o'tadi.

Birinchidan, til madaniy reallikni ifodalaydi, ya'ni so'zlar nafaqat fakt va g'oyalarni balki insonlarning muayyan masalalardagi munosabatlarini ham ko'rsatadi. Ikkinchidan, til madaniy reallikni qamraydi, ya'ni insonlar kommunikatsiya vositasi orqali o'z hayotiy tajribalarini anglatadi. Uchinchidan, til madaniy reallikni ramzlashtiradi, ya'ni til egalarining ijtimoiy hayot normalari til vositasida voqealanadi[3].

Bugungi tahlikali va murakkablashib borayotgan dunyoda muvaffaqiyatli kommunikatsiya davlatlararo va millatlararo tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikning kaliti sifatida e'tirof etilayotgan bir paytda, nutqiy muloqotda tilda

xato qilsang qil, lekin madaniyatda xato qilma degan tamoyilga asoslangan madaniyatlararo yondashuvning tarafdorlari ko'payishi ham til va madaniyat uzvlarining qanchalik muhim ahamiyatga yega ekanligini ko'rsatadi. Lingvokulturologik birliklar muayyan bir madaniyatning tilda verballashgan shakli hisoblanib, ularsiz tilning kommunikativ funksiyasidan to'laqonli foydalanish imkonsizdir.

Shu o'rinda aytish kerakki, madaniyatning o'zi ham juda katta kontsept hisoblanadi. Keng ma'noda madaniyatni insonning olamni idrok etishi va tafakkur qilishi natijasida o'zi uchun to'g'ri deb hisoblagan haqiqatlari deb hisoblasak bo'ladi[4]. Bu o'rinda madaniyat insonni hayvonot dunyosidan farqlab turuvchi belgisi hisoblanadi. Shuningdek, madaniyat konseptini muayyan davr yoki sivilizatsiya haqida fikr yuritilganda ham qo'llashimiz mumkin. Misol uchun turkiy etnoslarning shakllanishida katta o'ringa ega bo'lgan "Qovunchi madaniyati" yoki "Sharq madaniyati". Madaniyatga xususiy nuqtayi nazardan yondashsak, uning muayyan guruh yoki qatlamga xos xususiyatni aks ettirganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan: yoshlar madaniyati, ko'cha madaniyati. Bu kontekstda madaniyat, etiket, xulq-atvor, axloq konseptlari bilan bir konseptosferaga birlashadi.

Madaniyat konseptining murakkab konseptual xarakterga ega ekanligi unga nisbatan aniq tavsif yoki ta'rifni keltirish imkoniyatimizni cheklaydi. Bu esa leksikograf olim Hinkelning "madaniyat konseptini insoniyat jamiyati, guruh, tizim, xulq-atvor yoki faoliyatga oid diskurs tarkibida olib tavsiflash kerak[5]", degan mulohazalari asosli ekanligini ko'rsatadi.

Ko'pchilik insonlar uchun madaniyat muayyan etnosga tegishli san'at, adabiyot, urf-odatlar va kundalik turmush-tarzi sanaladi. Ammo bu madaniyatning muayyan ko'rinishga ega

bo'lgan qismlari hisoblanib, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan kognitiv anglanadigan madaniy axloq tarkibiy qismlarining e'tibordan chetda qolayotganligini anglatadi. E'tiqod, qadriyatlar, ijtimoiy normalar va munosabatlar ham aynan madaniyatning aspektlari doirasida o'rganiladi. Misol uchun, islom qadriyatlari asosida shakllangan andisha, uyat, nomus, or kabi fazilatlarini va ular voqealanadigan hayotiy va nutqiy vaziyatlarni o'zbek madaniyatining ajralmas bo'lagi sifatida talqin qilish mumkin.

Madaniyatni konsept sifatida tavsiflashga bo'lgan dastlabki urinishlar antropologlar tomonidan olib borilgan. Ingliz antropologi Tylor "Madaniyat ibtidosi" (Primitive culture) deb nomlangan kitobida "Madaniyat - ... bilim, etiqod, san'at, axloq, urf-odat, qadriyat, qoida va inson faoliyatiga oid ko'nikmalarni birlashtirishi[6]" haqida fikrlarini bayon qiladi. Antropologiyaning shakllanishi madaniyat haqida kengroq tavsiflarning paydo bo'lishiga turtki bo'ladi. Amerikalik antropologlar Kroyeber va Kluckhohn "Madaniyat: konseptning tanqidiy tahlili va ta'riflar" (Culture: Critical review and concept definition) asarida madaniyatning 300 ortiq ta'rif va tavsiflarini keltirib o'tadi[7]. Bu ta'riflarning insoniyat hayotining barcha aspektlarini qamrab olganligi va aksariyatida qaysidir insonga xos xarakter-xususiyat izohlanganligi bilan e'tiborni tortadi. Lingvomadaniyatshunoslikning alohida fan sifatida tadqiqot maydoniga ega bo'lishi madaniyat konseptining tilshunoslar tomonidan ham tavsiflanishiga sabab bo'ladi. Lado "madaniyatlar bo'ylab tilshunoslik" (Linguistics across cultures) kitobida madaniyat Chastain, Brovn kabilar tomonidan "yashash tarzi, hayot tarzi" sifatida talqin qilinishini ta'kidlab o'tadi va madaniyatni muayyan bir davrda ma'lum bir insonlar guruhiga berilgan g'oyalari, urf odatlar, ko'nikmalar va boshqalar majmuasi ekanligini alohida izohlaydi[8].

Lingvokulturologik birlik sifatida muayyan bir xalq madaniyatiga tegishli bo'lgan va tilda verbal va noverbal vositalar orqali voqealanuvchi birliklar tushuniladi va ularning mohiyatini ochib berish uchun qiyoslash, tavsiflash, komponent tahlil metodlari samarali hisoblanadi. Ushbu toifadagi birliklarning xarakter-xususiyatlarini yanada yorqinroq ifoda etish uchun ularni tasnifiy guruhlariga ajratgan holda ko'rib chiqish o'rinli sanaladi. Ammo har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari va ifoda imkoniyatlariga ko'ra tasnifiy guruhlarda farqlar uchrashi kuzatiladi. Quyida o'zbek tilidagi lingvokulturologik birliklarga oid tasnifiy guruhlariga to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Muqobilsiz leksika va lakunalar. Har qanday til leksikasi fondida boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar mavjud bo'ladi. Bunday so'zlar muqobilsiz leksika deyiladi. Ular tilshunoslikda realiyalar birliklari deb ham ataladi va o'zida xalq madaniyatining o'ziga xos qirralarini aks ettiradi. Bunday leksik birliklar ko'pincha muayyan ramzlar, o'xshatishlar, stereotiplar bilan assotsatsiyalanadi. O'zbek madaniyatiga xos realiyalarga palov, do'ppi, belbog', sumalak, chopon, ko'rpacha kabi so'zlarni misol qilish mumkin. Ular ekvivalentsiz leksika hisoblanib, til o'qitish va tarjima jarayonida alohida yondashuvni talab etadi. Ularni uzatish uchun chopon o'rniga coat (palto), do'ppi o'rniga cap (shapka) muqobillarini ishlatish o'zga til sohibi ongida dissonanse yuzaga kelishiga yoki oddiyroq til bilan aytganda, ingliz kishisiga do'ppi va chopon kiygazib qo'yishga o'xshaydi. Shuning uchun ularni tarjimada transliteratsiya yo'li bilan talqin qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi. Lakunalar (lot. lacuna – bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy) – matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy, "tilning semantik

xaritasidagi oq dog'lar"dir[9] Lakunalar turli ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'riflanadi. Xususan: "O'zga til va boshqa madaniyatdagi nomuvofiq, farqli unsurlarni ifodalashda turli terminlar, jumladan, lakunalar (J.P. Vine va J. Darbelne, V.L. Muravev), oraliq, lakuna (K. Xeyl), zid so'zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog'lar (Y.S. Stepanov), tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar (V.G. Chernov), muqobilsiz, nol so'z (I.A. Sternin), muqobilsiz yoki fonli leksika (L.S. Barxudarov, Y.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov), tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika (L.S. Barxudarov)" [10]kabi atamalar qo'llanilganini kuzatish mumkin.

Mifologiyalashtirilgan til birliklari. Har bir xalq muayyan tarix kechmishlariga, ming yilliklar davomida shakllanib rivojlanib kelayotgan afsona va miflariga, rivoyat, urf-odat, qadriyat hamda an'analariga ega. Bularning hammasi o'sha xalq madaniyatining sarchashmalari hisoblanadi. Bu sarchashmalar madaniyatning ko'zgusi hisoblanmish tilda ham aks etadi. Yillar davomida tilning leksik fondiga, frazeologizmlarga singishib ketadi. Afsona va asotirlar o'zida turli tuman ramzlar, ijobiy stereotiplar, obrazlar va o'xshatishlarni mujassamlashtiradi. Muayyan lingvomadaniy birliklar o'zida etnolingvistik semamalarini aks ettiradi. Masalan: o'zbek madaniyatida kundalik turmushdagi asosiy ozuqa non sanaladi. Xalqimiz nonga azaldan hurmat bilan qaraydi, hamma narsadan afzal, aziz va muqaddas deb biladi. Ota-bobolardan qolib kelayotgan udum, an'anaga binoan, hatto nonni teskari tishlamaydi, nonning ustiga boshqa narsalarni qo'ymaydi, nonni ustidan hatlab o'tmaydi, agar non qo'ldan yerga tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o'pib, peshanalariga suradi, non ushoqni dasturxon ustida ko'rsalar barmoqni ho'llab, ushoq ustiga bosib, yeb qo'yishadi. Nonga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish bolalarga yoshlikdan o'rgatiladi, ularga nonning ushog'ini yerdan yig'ib olish, uni e'zozlash va oyoq osti qilmaslik zarurligi uqtiriladi. Biron o'zbek yo'lga chiqsa, albatta, o'zi bilan birga non oladi. Non rizq-nasiba hisoblanadi. Non leksemasi boshqa leksik birliklarning ham tarkibiy komponentiga aylanib ketadi. Masalan: non yemoq, noni butun, noni yarimta bo'ldi, non ursin singari frazeologizmlarning asosida non leksemasi yotadi. Non leksemasi ingliz tilida bread leksemasi bilan ekvivalent hisoblanadi. Lekin inglizcha bread leksemasi o'zbekcha non bilan bog'liq madaniy assotsatsiyani aks ettira olmaydi.

Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi. Xalq madaniyatining javohirlar sandig'i maqol va matallardan tashkil topadi. Ular bevosita va bilvosita xalq maishiy turmush tarzi hamda madaniy, ma'naviy qiyofasi bilan bog'langan bo'ladi. Tarjima va til o'qitish jarayoni ularni ham o'zga til sohibiga muvofiq uslubda yetkazishni talab qiladi. Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik birlik sifatida foydalanilavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati va h.k. bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi va o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir.

Tilning frazeologik fondi. Ular xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli manbaasi hisoblanadi. O'zbek tili leksikasi fondida frazeologik birliklar muhim o'rin tutadi. Ular kommunikatsiya jarayonida nutqni emotsional-ekspressivligini hamda ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida faol ishlatiladi. Ularning ko'pchiligida madaniyatga xos belgilar aks etadi. Masalan: mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan maqolida o'zbek xalqiga xos mehmondo'stlik odatlari aks etgan. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda, mashq va topshiriqlarni tuzishda lingvomadaniy frazeologiyalardan ham unumli foydalanishi o'zbek tilining ichki jozibasi va boyligini ochib beradi. Bundan tashqari

lingvomadaniy birliklar o'xshatishlar, ramzlar, sterotiplar, bilan bog'liq leksik, frazeologik unsurlarni ham o'z ichiga tilning stilistik qatlamlari, nutqiy muomala va nutq etiketi oladi.

ADABIYOTLAR

1. H.D. Brown. Principles of Language learning teaching. Fourth edition. London. Longman. 2000
2. M. Bryam. Cultural studies in foreign language education. Clevedon. Multilingual Matters. 1989
3. C. Kramsch. Language and Culture. Oxford University Press. 1998.
4. L. Teppermen. J.Curtis. S.Wilson and others.. Small world. International reading in sociology. Ontario. Prentise Hall Canada. INC.
5. E. Hinkel. Culture in Second Language Teaching and Learning. Cambridge University Press. 1999.
6. The New Encyclopedia Britannica. 1991. Volume 16.
7. H.N. Seelye. Teaching culture: Strategies for intercultural communication. Third edition. National textbook company. 1993.
8. R. Lado. How to compare two language. Culture bound. Bridging in the cultural gap in the language classroom. Cambridge university press.1986
9. Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М., 1965. –С. 120.
10. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лақуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. - Тошкент: Akademyashr, 2013. Б . 152-156.



UDK:811.1

Laylo TO'YCHIYEVA,
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: toychiyevalaylo0@gmail.com

SamDU professori, filologiya fanlari doktori E. Musurmonov taqrizi asosida

“ULISS SARGUZASHTLARI” ROMANING BADIY XUSUSIYATLARI

Annotsiya

Ushbu maqolada Irland yozuvchi Jems Joysning ijodi va uslubi tahlil qilingan. Bunda yozuvchining “Uliss sarguzashtlari” romanning badiiy xususiyatlari maxsus o'rganilgan. Romanning syujeti kompozitsiyasi va uslubidagi o'ziga xos xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jems Joys “Uliss sarguzashtlari” romani. Badiiy uslub. Badiiy xronotop. Badiiy tasvir. Roman syujet. Badiiy kompozitsiya.

ARTISTIC OF THE NOVEL “ADVENTURES OF ULYSSES” CHARACTERISTICS

Annotation

Three articles analyze the work and style of the Irish writer James Joyce. The artistic features of the writer's novel "The Adventures of Ulysses" were specially studied. The peculiarity of the composition and style of the plot of the novel is highlighted. Key words: James Joyce. Adventures of Ulysses. Style. Chronotope.

Key words: The Adventures of Ulysses by James Joyce. Artistic style. Artistic chronotope. Artistic image. Novel plot. Artistic composition.

АРТИСТИКА РОМАНА “ПРИКЛЮЧЕНИЯ УЛИССА” ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация

В данной статье анализируется творчество и стиль ирландского писателя Джеймса Джойса. При этом отдельно исследуются и художественные особенности романа писателя «Приключения Улисса». Выделены особенности композиции и стиля сюжета романа.

Ключевые слова: Приключения Улисса Джеймса Джойса. Художественный стиль. Художественный хронотоп. Художественный образ. Роман сюжет. Художественная композиция.

Kirish. XX asr boshlarida Jems Joys ijodini o'rganish keng tus oldi. Insonning ichki olami, uning psixologiyasidagi evrilishlar ijodkorlarni tobora qiziqtiradigan jarayonga aylandi. Shu boisdan “Uliss sarguzashtlari” singari bir qancha asarlar yaratildi. Uni o'rganishga Karl Yung, Viladimir Nobokov, Bernard Shou, Richard Oldington, Arnol Bernetti, Bekket kabi adabiyotshunos va psixologlar kirishdilar. Ushbu olimlar o'zlarining psixologik- falsafiy qarashlarini adabiyot orqali aks ettirdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson ichki olamini taftish etish negizida yangi uslub va yangi talqin shakli – modernizm adabiyoti yuzaga chiqdi. Jems Joys ushbu oqimning asoschilaridan biriga aylandi. Undan so'ng, Frans Kafka, M.Prust, X.Borxes, J.-P.Sartre, A.Kamyu asarlarida modernizm an'analari davom ettirdi. O'zbek adabiyotida esa Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Xurshid Do'stmuhammad, To'xtamurod Rustam kabi ijodkorlar shaxs ichki kechinmalari va uni o'rab turgan jamiyatga nisbatan qarashlarini o'ziga xos tarzda aks ettirdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi aksariyat modernistik yozuvchilar ijodida shaxs ruhiyati, uning atrof muhit bilan aloqasi, Jamiyatga kirishuvi ichki olami bilan muloqoti o'z-o'zidan qoniqmaslik holatidagi qahramonlarni gavdalanirish masalasi yetakchi motivlardan biri hisoblanadi. “Uliss sarguzashtlari”ni dastlab yevropaning bir qator psixologlari o'rgandilar. Buyuk psixolog Karl Yung roman bo'yicha bir qancha fikrlar bildiradi. U “Uliss”ning labirentlarida uzoq yugurib yurganini ta'kidlaydi. Roman

haqida “Jems Joys uslubining sira aqlbovar qilmas ko'p qiyofaligi odamga gipnosdek ta'sir ko'rsatishi haqida gapiradi.

Bugungi ilm, fan-texnika taraqqiy etgan davrda, adabiyotda modernizm, postmodernizm oqimlari yetakchi bo'lib turgan ayni paytda psixologiya, falsafa, estetika, adabiyot sohalarida global masalaga aylanib ulgurgan shaxs ichki olami hamda uning jamiyat bilan kirishuvini uning ichki monologi, ong oqimini yoritish bugun tom ma'noda sindrom darajaga ko'tarildi. Ong oqimi, ichki monolog ayni damda adabiyotda ham global masala ekanligini ta'kidlash mumkin.

Tahlil va natijalar. Butun yevropa adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan Irland yozuvchisi Jems Joys o'zining g'ayrioddiy, shu davr yozuvchilaridan butunlay farq qiladigan tarzda yozishi bilan jahon adabiyotida katta o'rin tutadi. Jahon adabiyotshunosligida Jems Joys ijodi ko'plab bahsmunozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Bu bahsmunozaralarning asosi nimada? Ijodkorning uslubidami? Roman voqealarining badiiy jihatdan bo'shligidami? Yoki o'zigacha bo'lgan ifoda shakllarining yangilanganligidami? Yuqoridagi savollarning har-biriga qisman bo'lsada asosli tarzda javoblar mavjud. Chunki Jems Joysning o'z uslubi, shuningdek, asarning o'z ixlosmandlari mavjud. Ijodkor qo'lga qalam olar ekan u kitobxonning darajasidan emas o'z ilmiy salohiyatidan kelib chiqib asar yaratadi. Shuning uchun barcha asarlar hammani birdek qamrab ola olmaydi. Kimgadir Jems Joys ijodi yoqsa kimgadir Frans Kafka, yana kimdir Jek London asarlarini sevib o'qiydi. Har bir yozuvchi yoki shoir

asar yozar ekan uning ijodiga o'zi yashab turgan davr va muhitning ta'siri sezilib turadi. Shu o'rinda Jems Joysning hayot yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak uning Irlandiya aholisiga va Irlandiya yozuvchilariga o'xshagan hayot tarzi borligining guvohi bo'lamiz. Yozuvchi asarlariga boqar ekanmiz, uning Irlandiyadagi bo'lgan mehrini yoki ona yurtida bo'layotgan nohaqliklarga nisbatan qalbida tug'ilgan isyonini ko'ramiz. Ijodkor avtobiografiyasida esa u, hatto, Irlandiyaning ozodligi uchun kurash olib boruvchi Irland ziyolilari bilan bir safda tura olmagani ham ma'lum. Bu haqda adabiyotshunos Akmal Saidov shunday yozadi: "Joys itimoiy va milliy tengsizlikka to'pori boyonlarcha to'qlikka qarshi chiqqan bo'lsa hayotda, inqilobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishonmagandi o'z xalqining siyosiy va madaniy ozodligi uchun kurash olib boruvchi Irland ziyolilari bilan hamnafas bo'lib ketolmagandi. [Jems Joy "Uliss sarguzashtlari"romani 2013:3]

Ammo J. Joys asarlari ularda qo'llanilayotgan poetik tasvirlar, va voqealar fabulasining asosiy bosh makoni Irlandiya ekanligi barchamizga ma'lum. Bu haqda ijodkorning o'zi shunday yozadi: "Men yurtimning axloqiy tarixidan bir bobni yozish niyatida edim, shu bois sahna sifatida Dublinni tanlagandim, Chunki bu shahar menga falajlik markazidek bo'lib ko'ringan edi..." [Jems Joy "Uliss sarguzashtlari"romani 2013:4] J. Joys 1994- yilda yozilgan "Dublinliklar" hikoyalar to'plami bosilib chiqqanda aynan shu gaplarni aytgan edi. Yuqoridagi fikrlarning aksi o'laroq, Joys ijodiga ko'p sonli adabiyotshunoslar tomonidan salbiy ma'noda tilidan, dinidan, millatidan uzilgan ijodkor. Imkoniyatlardan mosuvo bo'lgan yozuvchi sifatida qarashlar ham mavjud. Bu kabi qarashlar haligacha kitobxonlar o'rtasida munozarali jarayonlarni vujudga keltirmoqda. Bu munozaralarga yozuvchining ona vatani haqida "O'z bolalarini g'ajiyotgan cho'chqa" [Akmal Saidov. Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish 2020:424] deya salbiy sifat berganligi sabab bo'lgandir, balki. Endi yuqoridagi fikrlarga qaytsak. Joysning hayot yo'li boshqa ijodkorlamikiga o'xshamaydi va u vatanini juda erta tark etgan. Hatto Irlandiya ozodligi uchun kurash olib borgan ziyolilar safiga ham Joysning qo'shilganini ko'rmaymiz. Biroq uning qalbida mudom vatan o'ylari va vatan tashvishlari borligini asarlaridagi deyarli har bir obraz tilidan bilishimiz mumkin. Ammo, Joys ushbu tuyg'uni juda ham bertartib tarzda bir qarashda kitobxon anglolmaydigan yo'sinda ko'rsatib beradi. Bu esa ijodkor uslubining o'ziga xosligidan dalolatdir.

Ko'plab adiblar singari Jems Joys adabiyotga shoir sifatida kirib keladi. Va "Kamer musiqasi" she'rlar kitobini nashr ettirdi. Ushbu she'riy to'plam ham o'ziga xosligi bilan ajralib turardi. Mana shu davrdan boshlab yozuvchi ijod namunalari kinoya, taqlid, hajv kabi unsurlardan ajralmagan holda asarlar yaratish davri boshlandi. Va bu holat uning keyingi asarlarida ham davom etdi. Ijodkor sekin-asta nasriy asarlar yozishga o'tadi. Nasriy asar yozganda ham nihoyatda puxta o'ylangan yetti marta o'ylab bir marta yoziladigan asarlar yaratadi. Bu asarlar kitobxonga shunchaki estetik lazzat berib hayotning go'zal taraflarini ko'rsatibgina qolmay, uni biroz o'ylantirishga hayotga real ko'z bilan qarab, mushohada qilishga chorlaydi. "Uliss sarguzashtlari" romani o'zining yozilish uslubi bilan bir qancha asarlardan farq qiladi. Roman yuzasidan adabiyotshunoslarning turli fikrlari mavjud. Yuqorida nomi tilga olingan adabiyotshunos, Akmal Saidov "Uliss sarguzashtlari" romani bo'yicha, uni qanday o'qish kerakligi to'risida kitobxonga manzur bo'ladigan o'nta maslahat beradi. Va ushbu tavsiyani beribgina qolmay roman haqida o'zining hissiy fikrlarini ham bildirib o'tadi: Hech shubhasiz "Uliss" ba'zilar o'lgudek yomon ko'radigan, ammo, yana eng ko'p o'shani o'ylaydigan roman. Yelkangizdan tog' ag'darilgandek o'zingizni yengil his etasiz, o'qib bo'lib kitobni yopar ekansiz inson sifatida endi hech qachon oldingidek bo'la

olmasligingizni anglaysiz. [Jems Joy "Uliss sarguzashtlari"romani 2013:15] Deya ta'kidlaydi. Darvoqe "Uliss"ni tushungan odam ko'z o'ngida misli ko'rilmagan bir oyna ochilganday va atrofnii o'rab turgan tuman bir zumda yo'q bo'lib ketganday bo'ladi. Buning uchun "Uliss"ni tushunmoq darkor. Aksincha "Uliss"ni tushunmas ekanmiz ko'z oldimizda paydo bo'layotgan xiraliklar quyuqlashib turg'unlashib boraveradi.

Romanning yozilish tarixiga keladigan bo'lsak. Joysning "Uliss sarguzashtlari"romani yozuvchining "San'atkorning yoshlikdagi suvrati" kitobining mantiqiy davomi o'laroq yozilganligi ma'lum. Bu haqda turli manbaalarda ko'plab ta'kidlab o'tilgan. Jems Joys ijodiga xos xususiyatlardan biri har bir obraz va detallarni ramziy ma'no kasb etishidir. Jamiyatda ro'y berayotgan axloqiy kentikliklarni ma'lum bir ramzlar bilan berilishi ijodkor uslubining o'ziga xosligidir. Masalan it obrazi. Roviylardan aytilayotgan har bir hikoyada itning qaysidir harakati keltirib o'tiladi. Yoki bo'lmasa Stevin Dedalning o'qituvchilik faoliyatida uchraydigan uning yoshligiga o'xshab ketadigan bilimga chanchoq ammo, ko'zlari biroz ojiz bo'lgan Sarjin ismli bola. Va asarning boshqa o'rinlarida keladigan ko'rlik holatlari. Yoki Uyqu mamlakati, har bir qismda alohida alohida uchraydigan inson tana a'zolari, o'lik mavsum va boshqalar. Bularning barchasi yuqori darajada ramziy ma'no tashiyotganligini ko'rishimiz mumkin. Joys ijodidagi ramziylikni adabiyotshunos Tilovoldi Jo'rayev quyidagicha ta'riflaydi: "Joys ijodida ramzlar katta o'rin tutadi. Adib uslubidagi bu muhim xususiyat norvegiyalik dramaturg Genrix Ibsen metodiga mansub". [«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi 2009 yil 29-son]. Har bir fikrning zohiriy va botiniy ma'nosini anglash uchun kitobxon doimo sergak va xushyor turmog'i lozim. Undan tashqari ijodkor uslubiga xos xususiyatlardan yana biri sahnada roviylarning almashinib turishida ko'rinadi. Chunki voqealalar shu darajada shiddat bilan bir makon va zamondan ikkinchi makon va zamonga ko'chadiki, kitobxon ularning ibtidosi-yu, intihosi haqidagi aniqlikni tezda ilg'ab olishi qiyin. Bu esa kitobxon nazarida ma'lum ma'noda mantiqsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu mantiqsizlikdan ma'no topish uchun kitobxondan xushyorlik talab etiladi. Birgina "Uliss sarguzashtlari" romani 15-voqeaga e'tiborimizni qaratsak. Bir maromda tasvirlanib kelinayotgan L. Blumning uydagi holati va tezlikda ko'chada paydo bo'lib qolayotgan L. Blum tasvirlanadi. Hatto, undan keyingi jarayonlar ham biroz tartibsizdek tuyulaveradi. Masalan, Leaopold Blum ayni damda ko'chada xazon oralab ketayotganida bir fohishaxona oldida to'xtab eskittan tanish bo'lgan Zoyaning yonida bo'ladi. Va yana xuddi shu paytda u sud jarayonida paydo bo'ladi. Uslubning bu kabi noadatiyligi haqida buyuk psixolog olim Karl Yung shunday degan edi "Jems Joys uslubining sira aqlbovar qilmas ko'p qiyofaliligi odamga gipnosdek ta'sir ko'rsatadi" [Jems Joy "Uliss sarguzashtlari"romani 2013:5] Bu kabi holatlar kitobning boshidan oxirigacha to'lib yotibdi. Puxta tayyorgarlik ko'rmagan kitobxon ushbu so'qmoqlarda biroz esankirab qolishi hech gap emas. Roman ustida izlanishlar olib borgan va boshqalarga ham uni o'qishni tavsiya etayotgan yozuvchi va tarjimon Viladimir Nabokov "Bu asarni qalb va hissiyot bilan emas miya bilan o'qish kerak" ["ЕШЛИК", 2016 йил 3-сон] deb aytadi. Chunki, bu yerda bir emas bir qancha g'ayrioddiy ifoda shakllariga duch kelamiz. O'zbek madern adabiyoti vakili Nazar Eshonqul esa ushbu holatga quyidagicha fikr bildiradi. "Joysda tushunarsiz, ma'nosi yo'q jumalalar juda ko'p. gazetadagi xabar kabi rasmiy va quruq tildagi lavhalar ham tez-tez uchraydi. Ba'zida she'rga o'xshash sajlar kelib qoladi, Ba'zida tinish belgilarga bo'ysunmagan gaplar tuzilib qoladi. Bularning hammasi ma'lum maqsad bilan

asarga kiritilgan ["Yoshlik", 2016 yil 3-son]. Bizning fikrimizcha, ham "Uliss"dagi ushbu tushunarsizliklar atrof muhitda bo'layotgan voqealarga ijodkorning o'zgalarga o'xshmagan nigoh bilan bo'qishidadir. Natijada yozuvchi ushbu qarashlarini umumlashtirgan holda o'z uslubini yaratganini ko'rishimiz mumkin. O'qirman kitobxon bu chigalliklarga nisbatan qalbida "...asarda nega aynan bu kabi voqealar qalashib yotibdi?" degan savol bilan biroz jazavaga tushishi turgan gap. Yuqoridagi fikrga qo'shimcha qilgan holda ushbu jarayonlar bekorga keltirilmagan degan xulosaga keldik. Asarda keltirilgan har bir detal avval puxta o'ylab chiqilib keyin tadbiiq etilgan. Yozuvchi uslubining yana bir xususiyatlaridan biri u shu kungacha bo'lgan an'analarni inkor etdi. An'anaviy roman tasvirlariga zid tasvir yo'lidan bordi. Shaxs kechinmalarining rang-barang hodisalar bilan to'qnash kelishiga majbur qildi. Inson ruhi, ichki dunyosining tanazzullarini bevosita ochiq oydin aks ettirdi. "Uliss sarguzashtlari" romani tasvirda juda ochiq ma'noda ming bir yashirin holatlarni o'zida aks ettirishi bilan ma'lum aqidalarni buzib yubordi. Yunon afsonasi "Odessiy"ning prototipi tarzida

yozilgan "Uliss sarguzashtlari" romanida Telemaxga nisbatan Steven Dedal otani rad etish yo'lidan bordi. Bu kabi zid tasvir usullari adabiyotshunoslar o'rtasida ko'plab munozalarga sabab bo'lmoqda.

Uslubning yana bir o'ziga xosligi, roman qismlarining har biri mustaqil holda tasvirlanishidadir. Va bu har bir qism alohida-alohida ramzlarni hosil qiladi. Ular xuddi tizimlangan umumiylikning qismlariga o'xshaydi. Uning qismlari birlashgandagina asarning umumiy mazmuni ochiladigandek g'oyo

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adibning inson his-tuyg'ularini o'ta botiniy, ammo, juda ham aniq tarzda aks ettirishi boshqa yozuvchilar uslubidan keskin farq qiladi. Yozuvchi romanda bir obraz ichida bir nechta shaxsning namoyon bo'lishini juda ustamonlik bilan yoritgan. Asarning har bir qismida shu kabi inson tuyg'ularining eng yashirin hududlarigacha yetib borgan holatlar ko'rinadi. Buni hech bir kitobxon shunchaki befarq o'qiy olmaydi. Uliss har bir shaxsning botinida kechadigan tuyg'ular jamlanmasidir.

ADABIYOTLAR

1. Jems Joys "Uliss sarguzashtlari" roman Toshkent "O'zbekiston" 2013 y.
2. Джеймс Джойс. Дублинцы. Рассказы. Портрет художника в юности. Роман. 2. Москва Знаменитая Книга 1993
3. Jo'raqulov U. "Nazariy poetika masalalari". T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
4. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva.-T.:Fan 2006.
5. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva.-T.:Fan 2006.
6. Jo'raqulov U. O'zbek romani genezisi.-T.: "Nurafshon business"-2022
7. Akmal Saidov "Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish". Toshkent 2020-y
8. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2012. № 11
9. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2009. № 9
10. "Sharq yulduzi" jurnali. 2010. № 1
11. "Yoshlik", 2016 yil 3-son



UDK:859.9(896)

*Muhammadyusuf TURSUNOV,
NamDU tayanch doktoranti*

Namangan davlat chet tillar instituti dotsenti PhD O.Dadaboyev taqrizi asosida

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI PAYTNI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI XUSUSIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani inglizcha tarjimalarida paytni ifodalovchi o‘lchov birliklari leksemalarining qay darajada asliyatga mos yoki mos bo‘lmagan tarzda berilganligi ayrim misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tarjima, asliyat, adekvat, tarjimon mahorati, tarixiy davr, payt o‘lchovi.

ABOUT PROBLEMS OF TRANSLATION OF LEXEMES DESIGNATING TIME IN THE NOVEL "DAYS GONE BY" INTO ENGLISH

Annotation

In this article, some examples are used to show how lexemes of time units are given in English translations of A. Kadiri's novel "O'tkan Kunlar".

Key words: Translation, originality, adequacy, translation skill, historical period, time scale.

ПРОБЛЕМАХ ПЕРЕВОДА ЛЕКСЕМ ОБОЗНАЧАЮЩИХ ВРЕМЕНИ В РОМАНЕ "МИНУВШИЕ ДНИ" НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В данной статье на некоторых примерах показано, насколько лексемы единиц времени приведены в английских переводах романа А. Кадири «Уткан кунлар».

Ключевые слова: Перевод, оригинальность, адекватность, переводческое мастерство, исторический период, масштаб времени.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, hayotiy ehtiyojlar tug‘ilishi barobarinda biror bir narsani, vaqtni, masofani, hajmni o‘lchashga ehtiyoj tug‘ilgan. Bu xususda ikkilanmay aytalolamizki, har bir o‘lchov birligi o‘zining uzoq tarixiga ega. O‘lchov birliklari mavjud bo‘lmagan davrlarda odamlar o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, biror narsaning miqdorini o‘lchashda aynan o‘zlari uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birliklaridan foydalanishgan. Tabiiyki, har bir davr va joyning o‘ziga xos o‘lchov birliklari bo‘lgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, qadimda inson tana a’zolari ham o‘lchov vositasi sifatida qo‘llanilgan va bu o‘lchovlarni hamma ham ishlata olishi hisobga olingan holda joriy etilgan. Masalan, vaqtni ifodalashda yil, fasl, oy, kun, quyosh chiqishi, quyoshning botishi, fasllarning boshlanishi, yakunlashnishi, tong otishi, kun botishi va boshqa narsalar asos qilib olingan.

1918 yil — dunyoda metrik tizim joriy qilingunga qadar O‘rta Osiyo mamlakatlarida turli o‘lchov birliklaridan foydalanilgan. Vaqtni ifodalashda hijriy, dalv oyi, quyosh botqan, hamduna, bir tutam, choshgog‘, yarim tun, bomdod, peshin, asr, shom, og‘irlikni va masofani o‘lchashda marhala, farsax, (farsang), tosh yig‘och tanob, botmon, pud, isbat (barmaq), qadoq, chorak, quloq, tutam, enli, qarich, qadam, manzil, gaz, cho‘zim, mina, misqol, nima, nimata, paysa, payt, pina, posira quruh, shohruxiy, man, shibir (qarich), po‘ta, sotih, chilla, talant, tassuj, turmusa, uqiya, unsiya, ziro, suyam, aqirim, paqir, miri, dahsar, nimcha, shair, yetmay, yesirak, dona va boshqalar. Har xil qiymatlarni ifodalovchi bu o‘lchov birliklari qadimdan xalqlarimiz o‘rtasida turli qiymatga ega bo‘lgan o‘lchov vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Jumladan, badiiy yoki tarixiy kitoblarni o‘qiganimizda ba’zi buyuk shoir

va allomalarimizning o‘sha davrda qo‘llanilgan o‘lchov birliklariga oid notanish so‘zlariga duch kelamiz.

Tadqiqotimiz vazifasidan kelib chiqib, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida kelgan o‘lchov birliklariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Asar sodda tilda ifodalangan bo‘lishiga qaramay asarda o‘z davrida xalqqa nisbatan adolatsizliklar, nohaqliklar, urush-nizolar oqibatida xalqning jabr ko‘rishi, inson qadr-qimmatini yo‘qligi chuqur badiiy-falsafiy mushohada bilan tasvir etilgan.

“O‘tkan kunlar” romani bir qarashda ikki sevishgan qalbning hayotini ifodalovni badiiy asar bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi qalbida isyon ko‘targan tuyg‘ular, o‘sha davrning adolatsizliklari, xalqqa nisbatan zulm va nohaqliklarni, xonlar va beklarning o‘z manfaatini yo‘lida olib borgan urush va nizolarini fosh etuvchi, tarixni, siyosatni o‘zida namoyon eta olgan asardir. Romanda o‘zbek xalqining turmush tarzini jonli ifodalash uchun o‘zbek tilining leksik boyliklaridan unumli foydalanilgan va albatta unda turli sohalar kabi o‘lchov birliklari leksemalariga ham katta e’tibor qaratilgan.

Sistem tilshunoslik nuqtai-nazaridan vaqt birliklarinig matn hosil qilishdagi imkoniyatlariga bag‘ishlangan tadqiqot M.Hakimova[1] qalamiga mansub bo‘lib, unda vaqt ma’noli lug‘aviy guruhlar sistem tilshunoslik nuqtai-nazaridan keng va atroflicha tahlil etilgan.

“O‘tkan kunlar” romanining o‘ziga xos yana bir jihati unda voqea va hodisalarni jonli va hayotiy tarzda, tarixiy voqea-hodisalarni esa tasviriy vositalar orqali yorqin fodalanihidir. Asarda voqea-hodisalar haqqoniy tarzda badiiy tasvir vositalari orqali ifodalab berilganki, o‘quvchi beixtiyor o‘zini asar qahramonlari bilan birga yurgandek, o‘sha zamon va makonda bo‘lib qolgandek xis etadi. Tasvir jilosi,

lo'ndaligi va undagi fikrlar ko'lamini kishini hayratga soladi. "O'tkan kunlar" uslubida asosan quyidagi jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi:

Abdulla Qodiriyning tarixiy voqea-xodisalarni haqqoniy, jonli tarzda tasvirlab berishi;

Davr manzarasini, milliy urf-odatlarini ro'y-rost ko'rsata olishi va ilmiy-amaliy tahlil qilib, badiiy tarzda ifodalashi;

O'ziga xos uslub – "adolatsizlikka qarshi isyon" bitishi;

Voqea-xodisalarni yuksak badiiy saviyada, badiiy-tasvir vositalari orqali o'quvchiga yetkazish xususiyatidir.

Vaqt o'lchovini ifodalovchi eski oy nomlari bilan hozirda tilimizda qo'llanilayotgan baynalminal oy nomlari orasida ma'lum darajada farq bor. Shuningdek, Grigoryan kalendari bilan quyosh kalendari o'rtasidagi farq 11 kundan iboratdir. Grigoryan kalendari 365 kunni, Quyosh kalendari esa 354 kunni"[2] tashkil etadi.

"O'tkan kunlar" romanida vaqt ma'nosini ifodalovchi numerativ so'zlar juda ko'p: asr, oy, yil, fasl, haftadagi kunlar, soat, minut, sekundini ifodalovchi daqiqa, namoz bilan bog'liq bo'lgan namozi shom, namozi peshin, namozi digar, bir piyola choy ichkuncha, ot minguncha fursat, ko'z ochib yumguncha va shu kabilardir. Vaqt ma'nosini ifodalovchi bunday numerativ so'zlarni ma'nosiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Yilni ifodalovchi numerativlarga asarda aks ettirilgan yil sanalarini keltirish mumkin. Masalan, asarning boshlanishida Otabekning Marg'ilonga savdo ishi bilan kelgan vaqti quyidagi tarzda ifodalangan: 1264-nchi hijriya[3];

2. Fasl ifodalovchi numerativlarga qish, yoz, kuz, bahor. "Kuz kunlarining oyog'i qish kunlarining boshi"[4];

3. Oylarni ifodalovchi numerativlarga dalv, javzo, xamal...[5].

Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida voqea-xodisalarni haqqoniy ko'rsatish va davr ruhini ifodalashda ko'plab tasviriy vositalardan keng foydalangan. Ayniqsa, voqea-xodisaning sodir bo'lgan vaqtini ko'rsatishda o'sha vaqt manzarasini ham to'laqonli tasvirlab bera olgan. Bunda o'quvchi ko'z o'ngida vaqt bilan bir qatorda atrof-muhit manzarasi ham to'laqonli ravishda gavdalangan. Masalan:

"1264-nchi hijriy, dalv oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitaladur"[6].

Ushbu olingan parchada yozuvchi avvalo yilni ifodalagan bo'lsa, aniqlik kiritish maqsadida "qishki kunlarning biri" deb alohida ta'kidlagan. Bu yerda "dalv oyi" deyilganda yanvar oyini tushunish mumkin[7]. Yanvar o'z-o'zidan qishki oylardan sanaladi. Shu bilan bir qatorda "quyosh botgan" vaqtini ifodalovchi leksemani orqali yanada aniqlik kiritilgan. YA'ni o'sha kunning kechki payti ya'ni quyosh botgandan keyingi payt ekanligi ifodalangan. Bundan tashqari, "shom azoni eshitaladur" iborasi ham aynan musulmon olamida besh vaqt nomozning birini vaqti bo'lganligini bildiradi. YA'ni, quyosh botib, qorong'ulik tusha boshlagan payt va shu paytda o'qiladigan namoz. (Odamlar tashqariga chiqqanda shom qorong'usi cho'kkan edi. S. Karomatov. So'nngi barhan[8]). Shu tariqa, paytni ifodalovchi leksemalar bir-birini to'ldirgan holda o'quvchi ko'z o'ngida aniq bir vaqt tasvirlanishi bilan bir qatorda tarixiylik ham to'laqonli ifodalab berilgan.

Ushbu badiiy tasvir ifodasi asarning ingliz tiliga qilingan har uchchala tarjimalarida qay tarzda ifodalab berilganligini ko'rib o'tamiz:

"It was the 17th day of the winter month Dalv in the year of 1264. After the sunset, calls for evening prayers came from nearby"[9]. (1264 yil, qishning dalv oyi, 17chisi edi. Quyosh botgan, yaqindan kechki diniy marosimga (namozga) chaqiriq ovozi eshilib turardi. Tarjima bizniki - M.T.) deb

tarjima qiladi. Bu yerda "month Dalv" o'ying nomi o'zbek tildidan ingliz tiliga transkripsiya yo'li bilan tarjima qilingan va sahifa ostida (Dalv-january, ya'ni dalv-yanvar) tarzida izohi berilgan. Ingliz tilidagi "prayers" so'ziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "a regular religious ceremony with prayers: daily/morning/evening prayers. He reads the Koran and attends daily prayers"[10] (doimiy ravishda bo'ladigan diniy marosim (namoz): kunlik, ertalabki, kechki Ollohga sig'inish. Tarjima bizniki-M.T.)

Bu yerda tarjimonlar mahorati ko'rinib turibdi. So'z birkmalari, ilmiy atamalarni berishda ularga mos ekvivalent tanlash muhimdir. Tarjimonlar muallif tomonidan ifodalangan tasviriy vositalar orqali bildirilgan vaqtni ingliz o'quvchisiga tushunarli qilib ifodalab berishga harakat qilganlar va bunga erishganlar. Sahifa ostida keltirilgan "dalv" oy nomi qisqa holatdagi izohi kitobxonda tushunish uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Tarjimonlar adekvatlikka erishish maqsadida tarjimada muallif uslubini saqlash uchun unga ergashgan holda "qishki kunlarning biri" iborasini "day of the winter month" (qish faslidagi o'ying bir kuni) tarzida tarjima qilganlar. Tarjimada muqobilikka erishilgan.

Romanning yana bir tarjimoni Kerol Yermakova tarjimasida:

"It was the seventeenth day of the month of dalv, hijri year 1264. A winter day. Calls to evening prayer rang from all around as the sunset"[11]. (Hijriy 1264 yil dalv oyining 17 chisi edi. Qish kuni edi. Quyosh botgan atrofidan kechki namozga qo'ng'iroq ovozlari eshitalardi. Tarjima bizniki-M.T.)

Asliyat matnida keltirilgan "1264-nchi hijriy" paytni bildiruvchi leksema ingliz tiliga transkripsiya yo'li bilan "hijri year 1264" tarzida o'girilgan. Ingliz kitiobxoniga tushunarli bo'lishi uchun "hijri" so'ziga matn ostida "Hijri-Prophet Muhammad's a flight from Makka to Madina (16 July 622 AD). This event marks the beginning of the Islamic calendar. The date referred to here corresponds to 7 February 1848"[12] (Hijriy-Payg'ambar Muhammad Alayhissalomning Makkadan Madinaga borishi kuni. Bu voqea islomiy kalendarning boshlanishi bilan belgilanadi. Bu kun 1848 yil 7 fevral kuni bilan bog'liq. Tarjima bizniki-M.T.) tarzida izoh berib o'tilgan. Matn ostida keltirilgan ushbu izoh inglizxonida kitobxonda vaqtni anglash, tushunish imkonini berish bilan bir qatorda islom olami haqida hamda janobi Payg'ambarimiz Muhammad Sallohu Alayhi Vasallamning Makka shahridan Madinaga borishlari haqida ham qisqacha ma'lumot olish imkonini beradi. Tarjima davomida muallif uslubini saqlagan holda "A winter day" – "qishning bir kuni" tarzida aniqlik kiritib o'tilgan. Umuman olganda asliyatda ma'nosi tarjimada o'z aksini topgan.

A. Qodiriyning ushbu romani dunyo kezishida, inglizxon o'quvchilar qo'liga yetib borishi uchun xizmat qilgan yana bir tarjimon Mark Riiz tomonidan asar 2018 yilda yana bir bor ingliz tiliga tarjima qilindi. Yuqorida asliyatdan olingan matn Mark Riiz tarjimasida quyidagicha berilgan:

"It was the year 1264 of the Hijra, the seventeenth day of Dalv, a winter day. The Sun descended into the horizon as darkness set in, and one could hear the call to prayer resonating in clear tones throughout the still evening air"[13]. (Hijriy 1264 yil, dalv oyining 17 chi sanasi, qish kuni edi. Quyosh ufqqa botgan va qorong'ulik tushgan, muazzinning kechki namozga chorlovchi ovozi aniq eshilib turardi. Tarjima bizniki-M.T.)

Ko'rinib turibdiki, tarjimon muallif tomonidan ifodalangan har bir detalga alohida e'tibor qaratgan. To'g'ri, "1264 of the Hijra" vaqtni ifodalovchi leksemani ingliz kitiobxoniga tushunarsiz bo'lishi mumkin. Buni oldini olish uchun tarjimon ushbu leksemani transkripsiya yo'li bilan tarjima qilib, izohini roman tarjimasi so'nggida bibliografiya tarzida keltirib o'tgan. "Day of Dalv" vaqtni ifodalovchi

leksema ham transkripsiya yo'li bilan tarjima qilingan va xuddi yuqorida ta'kidlaganimizdek izohi berilgan. Asliyat matnidagi "quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladur" vaqtini ifodalovchi leksema "The Sun descended into the horizon as darkness set in, and one could hear the call to prayer resonating in clear tones throughout the still evening air" tarzida o'girilgan. Bir qarashda tarjima matni biroz cho'zilganday tuyuladi. Lekin asliyatda anglashilgan ma'no to'raligicha o'z ifodasini topgan. Tarjimon muallifning ifoda uslubini yanada go'zalroq qilib ifoda eta olgan. Masalan, asliyat matnidagi "Quyosh botqan" birikmasini jo'ngina qilib "sunset" tarzida o'girsam ham bo'lardi. Ingliz tilida "Sunset" – noon. The time in the evening when the Sun goes down below the horizon and night begins"[14]. (Tun. Kechki payt, quyosh gorizontdan pastga tushgan va tunning boshlanishi) kabi ma'nolarni anglatadi. Mark Riiz esa quyosh botishini ingliz tilida badiiy asarlarda qo'llanadigan varianti "to descend" fe'li bilan ifodalagan. Ingliz tildagi "to descend"-literary if night or darkness descends, it starts to get dark"[15] (badiiy asarlarda-qorong'ulik tushishi, tunning boshlanishi. Tarjima bizniki-M.T.) Ko'rinib turibdiki, badiiy asarlar tarjimasida "quyosh botishi"ni "sunset" fe'li bilan emas, "to descend" fe'li bilan ifodalansa to'g'riroq bo'larkan. Bu jihatdan asar tarjimoni Mark Riiz so'z tanlashda to'g'ri yo'ldan borgan. Asliyat matnidagi "tevarakdan shom azoni eshitiladur" birikmasi orqali asliyat muallifi nafaqat kechki payt bo'lganligini bildirmoqchi, balki aniq vaqt-soatini ifodalay qilib tasvirlab bergan. Bizga ma'lumki, "tevarakdan shom azoni eshitiladur" iborasi "dalv oyining 17-nchisi" bilan birgalikda kelganda aniq bir soatni ifodalab keladi. Sababi, musulmon olamida besh vaqt namozning o'qilish vaqti fasl, oy, kunga va ana kunning o'zida quyosh botishiga qarab o'zgarib turadi. Demak, "dalv oyining 17-nchisi"da shom namozi aniq bir soatda o'qilishi va o'sha vaqt soati asliyat matni o'quvchisi uchun tushunarli. Ushbu xolni tarjimonlar to'la anglagan holda tarjimoni o'quvchiga aniq yetkaza olishi kerak bo'ladi. Bu jihatdan Mark Riiz tarjimasida asliyatga mos kelgan.

Kerol Yermakova tarjimasida "Calls to evening prayer rang from all around as the sunset" (quyosh botishi bilan muazzinning kechki namozga chorlovchi qo'ng'iroq'i har tomondan eshitiladi) (b.t.). biroz asliyatdan yiroqlashgan. Bu yerda ingliz tilidagi "rang"- the past tense of ring, to make a bell produce a sound: a bell rang and the children trooped back into the school"[16] (to ring fe'lining o'tgan zamon shakli, ovoz chiqarish uchun qo'ng'iroq chalmoq) ma'nolarini anglatadi. Musulmon olamida esa muazzin tomonidan qo'ng'iroq chalinmaydi, bu xol boshqa dinga mansub xalqlarda bo'lishi mumkin.

Mazkur asarni ingliz tiliga o'girishda tarjimonlarning har biri o'z yo'li, uslubiga ko'ra tarjima qilgan. Ayniqsa,

qiyosiy tasvirlarni mukammal o'rganib, qayta tiklashga xarakat qilganlar. Qiyosiy tasvirlarni aks ettirishda grammatik transformatsiyaning sintaktik moslashuv turlaridan foydalanganlar. Bularning hammasi tarjimon mahoratiga bog'liq, albatta. Tarjimashunos olim G'. Rahimov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llangan obrazli yoki hissiy-ta'sirchan lisoniy vositani, balki amaliy jihatdan qiyinchilik tug'dirmaydi deb tasavvur qilinadigan erkin ma'nodagi u yoki bu so'z yoxud so'z birikmasini o'girishda ham har doim o'sha vosita mazmunini tarjima tilida qanday so'z yoki so'z birikmasi aniqroq va to'laroq ifoda etishi mumkinligi, mavjud variantlardan qaysi birining asliyat ruhiga mos kelishi haqida o'ylashi va doim o'z oldiga nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada ravonroq bayon etish mumkin degan savolni qo'yishi zarur"[17].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlangan holatlar asarning har uchala tarjimonlarida ham ma'lum ma'noda aks etgan. Pragmatiklik, adekvatlik, vaqt o'lchov birliklari tarjimasidagi badiiyat va aniqlik shundan dalolat beradi. Mumtoz asar yaratilgan davr uchun odatiy bo'lgan ammo hozirda tutilgan passiv qatlamidan o'rin olgan, asliyatning xaqiqiy tarixiy manba ekanligini ta'minlovchi bu kabi til birliklarining tarjimada meyorini belgilash juda nozik masala. Tarjimada ularning qanday aks ettirilganini o'rganish esa muhim ahamiyatga egadir. Bu o'rinda tarjimon bir mamlakatda yashovchi hamda yagona bir tilda so'zlashuvchi xalq tilini ham sinxronik, ham diaxronik jihatidan olib o'rganishi kerak bo'ladi. Chunki, bir xalq tilida nafaqat qatlamdan joy olgan til birliklari, boshqa bir xalq tilida aktiv qo'llanishda bo'lishi hisobga olinishi zarur. Bunday holatda tarjimonidan tarjimaga tarixiy yondashish hamda tarixiy voqealar bayonini buzmay to'g'ri aks ettirish talab qilinadi.

Asliyatga muqobil tarjima yaratishda vaqt o'lchovini bildiruvchi birliklar haqida to'xtalib, taniqli tarjimashunos olim A.V.Fyodorov "asliyatdagi bir ma'noli so'zga turli kontekstlarda birday mos keladigan bir ma'noli so'zning to'g'ri kelishi amaliyotda juda kam"[18] deya ta'kidlaydi, bunday moslik faqat ba'zi leksik birliklarga, ya'ni so'zlar, kalendar tushunchalarini anglatuvchi (oy nomlari, hafta kunlari) vaqt birliklariga tegishlidir. Yana shuni ham aytib o'tish joizki, kalendar tushunchalarini yoki vaqt o'lchovini anglatuvchi bunday leksik birliklar grigoriyan yil hisobi qo'llangan asarlar tarjimasida ustada gap borganda, ularni o'girish yoki transliteratsiya qilish ham aynan gregoriyan yil hisobida amalga oshirilganda bu o'z isbotini topadi. Ammo, sharq hayoti tasvirlangan mumtoz asarlarda hijriy shamsiy-qamariy yil hisobi qo'llangan hollarda ularni zamonaviy tilga o'girish tarjimonlar uchun murakkabroqdir.

ADABIYOTLAR

1. Ҳақимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. НДА. Фарғона, 2004.
2. Холмирзаев Ф. Хотира уйғонса гўзалдир. – Т.: Фан, 2003. – 56 б.
3. Қодирий А. "Ўткан кунлар". –Тошкент, Ф. Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994 й, 7-б.
4. Ўша асар. 209-б.
5. Ўша асар. 300-б.
6. Ўша асар. 7-б
7. Далв – Шамсия йил хисобиди ўн биринчи ойнинг арабча номи.(22-январ-22-феврал даврига тўғри келади). Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Э. Бегматов ва бошқалар. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. – Тошкент. D-pdf, 548-бет.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Э. Бегматов ва бошқалар. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. – Тошкент: Sh-pdf, 594-бет.
9. Qodiriy, Abdulla. The Days Gone By: Novel. Translators: I.M. To'htasinov, O.M.Mo'minov, A.A. Khamidov. – Тошкент: "Mashhur press", 2017, p-6.
10. Macmillan English dictionary for advanced learners. Bloomsbury Publishing Plc. 2002. p.1105.

11. Abdulla Qadiri, Days Gone By, Translated by Carol Ermakova, Nouveau monde. Paris, 2018, p-11.
12. Abdulla Qadiri, Days Gone By, translated by Carol Ermakova, Nouveau monde. Paris, 2018, p-11
13. Abdullah Qodiriy, Bygone days, translated by Mark E. Reese, Library of Congress Control Number 2019914747, 2018, p-41
14. Macmillan English dictionary for advanced learners. Bloomsbury Publishing Plc. 2002. p.1440.
15. Macmillan English dictionary for advanced learners. Bloomsbury Publishing Plc. 2002. p.374.
16. Macmillan English dictionary for advanced learners. Bloomsbury Publishing Plc. 2002. p.1223.
17. Шодмонова С, “Бобурнома” матнидаги вақт ўлчов бирликлари лексемаларини инглиз тилига таржима қилиш муаммолари. Илмий мақола. – Тошкент 2020.
18. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). – М.: Высшая школа, 1983. – С.134



UDK:812.547

Dilorom XAMIDOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shuxratmagdiev90@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor A.N.Nasirov taqrizi asosida

THE INTERPRETATION OF MENTAL AFFAIRS IN THE NOVEL "PEOPLE IN THE HEAT" BY LUQMON BORIKHAN

Annotation

This article analyzes the features of the character traits and mentality of Lolahan and Ashur, which are at the center of the events of the novel "People in the Heat" by Lukman Borikhan, one of the prominent writers of literature of the period of independence. The writer satirically describes the efforts of people living an ordinary life in the heat of the desert to win their place in society and the shortcomings of the social environment.

Key words: Character, psyche, artistic psychology, image, ironic image, tragedy.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДУШЕВНЫХ ДЕЛ В РОМАНЕ "ЛЮДИ В ТЕПЛЕ" ЛУКМОНА БОРИХАНА

Аннотация

В данной статье анализируются особенности черт характера и менталитета Лолахана и Ашур, которые находятся в центре событий романа «Люди в жару» Лукмана Борихана, одного из выдающихся писателей литературы периода независимости. Писатель сатирически описывает усилия людей, живущих обычной жизнью в зной пустыни, завоевать свое место в обществе и недостатки социальной среды.

Ключевые слова: Персонаж, психика, художественная психология, образ, иронический образ, трагедия.

LUQMON BO'RIXONNING "JAZIRAMADAGI ODAMLAR" ROMANIDA RUHIY IZTIROBLAR TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik davri adabiyotining ko'zga ko'ringan adiblaridan biri Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani voqealarining markazida turuvchi Lolaxon va Ashur obrazlarining xarakter xususiyatlari va ruhiyatidagi o'ziga xosliklar tahlil etilgan. Yozuvchi cho'l jazirasida oddiy hayot kechiruvchi odamlarning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga intilishini va ijtimoiy muhitdagi kamchiliklarni kinoyaviy tarzda tasvirlagan.

Kalit so'zlar: Xarakter, ruhiyat, badiiy psixologizm, obraz, kinoyaviy tasvir, fojia.

Kirish. O'tgan asrning so'nggi choragida badiiy adabiyotda turfa xil ohanglar, talqinlar, obrazlar olamini badiiy talqin etish an'anasi yuksak darajaga ko'tarildi. Shu jihatdan, keyingi davr adabiyotining yetuk vakillaridan biri Luqmon Bo'rixondir. Badiiy adabiyot to'g'risida adib quyidagicha fikr bildirgan: "Adabiyot insonning jon tomiri. Chunki adabiyot odob-axloq ta'limiga daxldordir... Inson go'daklik chog'idayoq ona bag'rida adabiyotga duch keladi. Aynan, ona allasi adabiyotning, badiiy so'zning ibtidosi, yuksak namunasi. Unda umid, ishonch, tilak, iltijo – hammasi bor" [4].

Adib asarlarida ko'pincha bir qarashda sodda, oddiy odamlar tasvirlangandek bo'ladi. Vaholanki, uning asarlaridagi qahramonlari qayerda va qay sharoitda yashayotgan bo'lmasin, boshqalar kabi orzu qiladi, ba'zan hayotning qay bir jabhasida g'alaba qozonadi, ba'zan mag'lub bo'ladi. Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanida turfa xil xarakter va ruhiy olamga ega qahramonlar tasvirlangan. Yozuvchining obrazlar ruhiyatini ifodalashdagi mahorati shundaki, u muallif sifatida har bir personajning xakteri va ruhiyatidagi evrilishlarni ularning xatti-harakatlari va nutqi, mimikasi, turli vaziyatlarda qanday yo'l tutishlari orqali ko'rsatib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Adabiyotshunos D.Quronov tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da badiiy psixologizmga shunday ta'rif berilgan: "badiiy asarda to'laonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining

ochib berilishi, xatti-harakatlar va gap-so'zlarning psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jamlanmasi" [2]. Yozuvchi personaj nutqidani foydalanib, asardagi obrazlarni tasvirlaydi. Bunda Luqmon Bo'rixon ko'pincha kinoya, kesatqlardan foydalanadi, personajlarning xarakter xususiyatlarini ba'zan o'z holicha, ba'zan kinoyaviy tarzda bo'rttirib ifoda etadi. Adabiyotshunos Islomjon Yoqubov adibning ijodi xususida to'xtalib, quyidagicha fikr bildiradi: "Luqmon Bo'rixonning falsafiy-estetik konsepsiyasida insonni ijtimoiy voqelik, xalq hayoti, davr taraqqiyoti bilan bog'liq holda tadqiq etish kuzatiladi. Yozuvchi qahramon xarakterini epik ko'lamdorlikda, teran psixologizm asosida ijtimoiy muhit muammolari bilan uyg'unlikda ifoda etadi. Ijtimoiy voqelik inson ma'naviy-ruhiy olami, fikrlash tarzini o'zgartirayotgani millat psixologiyasi uchun xarakterli xususiyat ekanligi bois, adib hayotiy jarayonlarning o'zinigina ko'rsatish bilan cheklanmay, tafakkur darajasi o'zgarishga yuz tutgan jamiyatning ruhiyatini, tobora teranlashib borayotgan xalq intellektual dunyosini tasvirlashga harakat qiladi" [5].

Xarakter so'ziga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da "Xarakter" (yun. Character – belgi, farqlovchi xususiyat) – "muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida mujassam etgan inson obrazi" [2] Albatta, badiiy asar qahramonlari ijtimoiy hayotdan chetlashmagan holda o'z shaxsiy

xususiyatlarini uyg'unlashtiradi. Ruhiyatshunoslik lug'atlarida xarakter – "Shaxsning xatti-harakati va atrof-muhitga munosabatida namoyon bo'ladigan individual xususiyati"[3] deya ta'riflanadi.

Badiiy adabiyotda asarning g'oyaviy-estetik samaradorligini personajlar xarakteri ifodalasa, personaj xarakterining adib tomonidan ochib berilishi psixologik tahlil hisoblanadi. Asarda asosiy urg'u qahramon botiniy dunyosi, o'y-kechinmalariga qaratilgan bo'lishi kerak. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev asar bo'yicha fikrini bildirib, shunday yozadi: "Romanning tasvir yo'siniga doir asosiy xususiyat shundan iboratki, har bir qahramon o'z tabiatiga mos o'y o'ylaydi, gap gapiradi, ish qiladi. Asarda qahramonlar tabiatiga zarra qadar zug'um o'tkazilmaydi" [1].

Tahlil va natijalar. Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" asar voqealari markazida Lolaxon obrazi turadi. Shahardan 4-sovxoza-Fayzulla buxgalterni xonadoniga kelin bo'lib tushgan bu kelinchak, cho'lning jazirama havosiga go'yo bahorni olib kirgandek taassurot uyg'otadi. Go'zal, samimiy va u ham boshqalarga o'xshagan oddiy ayol:

"Oppoq to'lishgan yuzlari, zulukdek qoshlari ostidagi qop-qora ko'zlari, qip-qizil lablari to'la tabassum! Qomatiga yarashiq atlas ko'ylak-lozimi, boshidagi qizg'ish durrachasi uning chinakam shaharcha did-farosatidan darak berib turar edi" [1,64]. Ijodkor Lolaxon obrazi va sodda odamlar timsolida jamiyatdagi soxtaliklarni fosh qiladi. Go'yoki, Lolaxonning quvonchli damlarida, O'roq hayot ekanligida o'z xonadonidan tortib, hamma odamlarning hayotida ajoyib o'zgarishlar bo'ladi, ammo Lolaxon beva bo'lib qolgach, garchi uning o'zi buni xohlamagan bo'lsa-da, boshqalar tomonidan sevgi va vafo timsoliga aylantiriladi. O'roqning haykali singari uni ham hissiz va orzu-maqsadsiz shaxs sifatida baholay boshlaydilar:

Zo'r haykal ekan-a.

Shaharlik kelin anovi-da, a?

Yo'g'-e... yoshgina-ku?! Men kap-katta xotin xayol qilgandim.

Bechora har kuni supirib-sidirib yursa kerak-a?

Ha... ko'pincha kechalari shu yerda yotib qolarmish.

O'h... haqiqiy sevgi...

Ha-a, shunday xotining bo'lsa bema'lol o'lsang arzirdi"

[1].

Biroq Lolaxon ham hamma ayollar kabi mehr-muhabbatga muhtoj, u hayotsevar inson, uning ham o'z ehtiyojlari bor. Lekin u yashayotgan jamiyatdagi odamlar bunga to'siq bo'layotgan edi. Odamlar Lolaxon haqida turli gaplar chiqarib, bularga o'zlarini ham, o'zgalarni ham ishonitirishga harakat qilardilar. Hech biri Lolaxonning ko'nglidagi tuyg'ular bilan qiziqmasdi. Ammo adib Lolaxonning ichki kechinmalarini, qalb tug'yonlarini qalamga olmaydi, balki aksar hollarda uning tashqi holati, nutqi vositasida ruhiy iztiroblarini tasvirlaydi:

"Qo'qqis Lolaxonni ko'rib qoldim! U to'dasidan adashgan ohuday davra sirtida, sershox bir daraxt tanasiga yelka tirab, tevarakka hurka-hurka ko'z tashlab turibdi. Hoynahoy, haligina uni boshlab kelgan qizlar har xil bahonalar bilan o'zlarini har tarafga urishgan"[1].

Lolaxonga taajjub-u achinish bilan munosabatda bo'layotgan odamlar aslida, uning bahonasida o'zlarining manfaatlarini ko'zlab, soxta obro' va iltifotga ega bo'lishni istashadi. O'roqning vafotidan so'ng Lolaxonni yuksaklarga ko'tarib, e'zozlagan qishloq ahli, birgina yosh bolaning yolg'on gapiga ishonib, uni butunlay qoralab, uning ustidan hukm chiqarishadi:

"Ba'zi birovlar Lolaxonning asli buzuqi fe'l jodugar ekani, O'roq bechoraning tuprog'i hali sovimay turib pardoz-andozga zo'r bergani, kundan kun xushro'ylashib, ko'ringanga

ko'z suzib, qosh qoqib qilpanglab yurganini ashyoviy dalillar bilan isbotlashga kirishgan emish" [1].

Olomon Lolaxonni qay darajada ko'kka ko'tarib, alohida bir maqom berib yurishgan bo'lsa, u bilan sodir bo'lgan voqeadan keyin ayolning sha'ni va qadr-qimmatini shu darajada yerga uruvchi bo'htonlar to'qishadi. Yozuvchi bu orqali asl insoniy qiyofasini topa olmagan, soxta shon-shuhratga o'ch bo'lgan, faqatgina xo'ja ko'rsinga ish qiladigan kimsalarni tasvirlaydi.

Romanda adib bir qancha obrazlarni kinoyaviy tarzda tasvirlagan. Shulardan biri Ashur obrazidir. Romanda bu obrazning tashqi ko'rinishi va xarakter xususiyatlari juda bo'rtirilgan. Ashur insonlarning nozik ko'ngil his-tuyg'ulari, ya'ni ishq-muhabbatdan yiroq, faqat o'zining jismoniy kuchini ko'rsatish va odamlarning olqish-u maqto'vlariga ega bo'lishni va shu orqali har vaqt atrofida gillarning diqqat markazida bo'lishni xohlaydi. Bunga asarning bir necha o'rnlari guvoh bo'lish mumkin. Masalan, akasi O'roq bilan Lolaxonning to'y oqshomiga Ashurning o'rtoqlari bilan kirib kelishi quyidagicha tasvirlangan:

"Badaniga chippa yopishgan yengsiz-yoqasiz ko'ylagi ostidan qo'l-ko'krak muskullari bo'rtib turgan Ashur va uning to'rt-besh nafar "jangari"lari davraning goh u yonida, goh bu yonida janjalga talabgor izlashgandek ivirsib yurishar, unda-bunda g'uj bo'lib to'y bazmini ishtaha bilan tomosha qilayotgan qizlarga tegajakliklar qilishar edi" [1]. Ashurning xarakterida manmanlik va xudbinlik samimiylik va odamgarchilikdan ustun turadi. U faqat o'zini tashqaridan ko'rishni, odamlarda o'zgacha taassurot qoldirishni xohlaydi. Bunday shaxslar uchun chin insoniy fazilatlar va tuyg'ular begona. Ashur do'sti bilan kuzatishga chiqqan kelinning dugonalariga yaxshi ko'rinish uchun bor pullarini berib yuboradi-yu, uylariga qaytish uchun gazli suv sotuvchisining pullarini o'g'irlaydi va bundan uning vijdoni hech ham qiyalmaydi. Umuman olganda, uni inson ko'ngli bilan bog'liq masalalar qiziqirmaydi. Adibning o'zi bir o'rinda ta'kidlaganidek, "... faqat Ashur polvongina noyob his-tuyg'ular iforidan begona, o'z shon-shuhrati iforidan mastligicha qolavergan ekan!" [1] Ashurning xarakteridagi ana shunday qusurlar uning ruhiyatiga bevosita bog'liq. U harbiy xizmatdan qaytgach, akasi O'roqning halok bo'lganligini eshitib, o'zini butun olami ostin-ustun bo'lgan insondek tutadi, namoyishkorona qasam ichadi. Bunday "mardlik", "mehrbonlik" faqatgina odamlarning ko'zi uchun, u hattoki akasining o'limi ortidan ham shon-shuhratga ega bo'lishni istab, akasi uchun qasos olishini ko'p bora aytadi, ammo shu ishni ham bajarolmaydi. Aksincha, Ashur soxta obro'ga ega bo'lish uchun ham turli to's-to'polonlar qiladi. Shuncha kuch-quvvatga ega bo'lsa-da, u munofiqlik yo'lini tutib, go'yoki ruhiy iztirob-u g'am-anduhda qolgan uka sifatida o'zini namoyish qiladi. Jumladan, Ashur Azamat polvon bilan kurash tushib, yiqilgach, mag'lubiyatni tan olmay, hiyla yo'lini tutadi:

"Ashur bir seskanib ko'zlarini ochdi. So'ng qirindi gardlariga belangan lablarini qimtib-qimtib gapirindi:

- Akam... akajoni-im...

- Gapir, gapir! – deya vahima bilan baqirdi Safarmurod aka. – Qo'rqitma-da bizni!..

Ashurning ko'ziga marhum akasi O'roq ko'rinish ketibdi. Xayolida go'yo o'z og'asining yoqasidan tutib turgandek bo'libdi-yu qo'qqis, a'zoyi badanlari bo'shashib..." [1] Asardagi voqealar rivojiga nazar tashlar ekanmiz, u mag'lubiyatga uchragisi kelmaydi. Shu usul bilan yanada ko'proq shon-shuhratga erishgisi keladi va maqsadiga erishadi. Marhum akasining xotirasi bahona u o'ziga shon-shuhratdan haykal o'rnatishga intiladi. Shuning uchun Lolaxonga boshqa turmush qurishga ruxsat bermaydi. Roman so'ngida Lolaxon haqida yolg'on xabar eshitganda u voqea tafsilotlarini

aniqlashtirish o'rniga, Lolaxonning hayotiga qasd qiladi. Adib Ashur obrazi orqali o'zligini topa olmagan, aniq maqsadga ega bo'lmagan, faqat atrofidagi odamlarning gap-so'zi va olqishi uchun yashaydigan, moddiy hayotni ustun qo'yib, ma'naviy dunyosini boyitishni o'ylamaydigan insonni tasvirlangan.

Xulosa. Xullas, asar qahramonlarining fojiasi sifatida inson qalbidagi iztiroblarni anglamaslik, uning ruhiy-ma'naviy

qiyofasini his eta olmaslik sababli ham ularning hayotidagi tanazzullar mahorat bilan talqin etilgan. Davrning murakkab qirralarini, inson botinidagi ziddiyatlar romanda mahorat bilan talqin etilganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun badiiy xarakterlar ifodasida, insonni anglashga bo'lgan intilish bilan birlikda, uning ruhiyatidagi qalb iztiroblari teran tasvirlarga, kinoyaviy talqinlarga sindirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Bo'rixon Luqmon. Jaziramadagi odamlar: Roman. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – 336 b.
2. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2013.
3. Abdullayeva D. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va masalaning tarixi // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali. 2021-yil, iyul soni. 385-393-b.
4. Soliyeva G. ”Yaxshi asar o'z-o'zidan yozilib qolmaydi”(Yozuvchi Luqmon Bo'rixon bilan suhbat). “Oila davrasida” gazetasi. – T.: 2014-yil, 18-mart soni.
5. Yoqubov I. Adib sog'ingan manzil-ma'volar. <https://kh-davron.uz>



UDK: 811.11-112

Aziza KHOLBOBOEVA,
PhD in Philology (PhD) Doctoral candidate of UzSWLU
E-mail: azizakholboboeva1611@gmail.com

ToshDO'TAU dosenti, f.f.d. Z.Teshabayeva taqrizi asosida

IMPLEMENTATION OF GESTALT PRINCIPLES IN ADVERTISING DISCOURSE

Аннотация

This article tries to discuss the main features of "gestalt" in advertising text.

Key words. human perception, principle of proximity, the principle of integrity, the principle of closure, principle of adjacency, the language game.

РЕАЛИЗАЦИЯ ГЕШТАЛЬНЫХ ПРИНЦИПОВ В РЕКЛАМНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В данной статье предпринята попытка обсудить основные черты «гештальта» в рекламном тексте.

Ключевые слова. человеческое восприятие, принцип близости, принцип целостности, принцип замкнутости, принцип смежности, языковая игра.

GESHTALT TAMOYILLARINING REKLAMA MATNIDA IFODASI

Аннотация

Ushbu maqola reklama matnidagi "gestalt" ning asosiy xususiyatlarini muhokama qilishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar. inson idroki, yaqinlik tamoyili, butunlik tamoyili, yopilish tamoyili, qo'shnilik printsiipi, til o'yini.

Introduction. Advertising discourse is defined as a special kind of imperative discourse that occupies an intermediate position between argumentative (persuasive) and propagandistic (manipulative) discourses. On the one hand, the advertiser does not have the ability to give orders; he can only convince, persuade, which is also typical of the argumental discourse. On the other hand, advertising presents as an argument only the merits of the product, real or constructed, affects the mass consciousness in order to make changes in the cognitive base of the addressee [Kholboboeva A., 2021].

The advertising text should not only communicate information, but also affect emotions, catch the attention of the target audience with this information - in this case, the advertising message will remain in the memory of the recipient and be able to effectively influence him. One of the factors that arouse the interest of a person, making this or that phenomenon bright, noticeable, memorable for him, is a game, a mystery of varying degrees of transparency. If we talk about advertising texts, then such a spectacular and effective factor is a language game based on the principles of gestalt. In this article we try to analyze the main characteristics of "gestalt" in advertising text.

Methods. Advertising discourse is an institutional discourse. Institutional discourse analysis in linguistic research can be conducted on the basis of two approaches: descriptive and critical. Descriptive approach covers the following aspects: 1) study of speech behavior within a certain social institution: linguistic tools, rhetorical techniques and language strategies; 2) analysis of the content of institutional communication is one of them.

Discussions. What is "gestalt"? The concept of Gestalt (from German Gestalt – "image", "form") originates in gestalt psychology. The primary data of psychology are integral structures (gestalts), which in principle cannot be derived from the components that form them. The main provisions of Gestalt

theory boil down to the following: the whole is not equal to the sum of the parts that make it up; the whole sets the context and order in which the individual parts are acquired have a certain meaning [8, 29].

The tendency in cognitive linguistics to represent immaterial entities through metaphors has gained theoretical understanding in conceptual metaphors. This is understood as the primary means of conceptual systems by which we understand and perceive one type of object as another. As an understanding of the more abstract realm in terms of the more familiar and mostly concrete realm, metaphor is a "visual" modeling of the sensory imperceptible entity, a form of its representation. [11:24-25]. Gestalts emphasize the integrity of images stored in the individual's mind, as opposed to frames that select parts for structuring and classification. A frame is a shape in its mechanics, structure, and connection with other shapes. Karasik as V.I: "Professional communication (and literary texts) requires the expression of forms through signs. H. Someone must make the forms the property of others" [11:128].

According to V.V. Krasni, concepts are preserved in form, gestalts are stored in the form of frames with stereotypes. A stereotype is an image expressed in a shell of language [13:133], or behavior, a particular "model" of behavior [14:177]. This model is associated with specific choices of specific tactics and behavioral strategies in specific situations. In this approach, stereotypes are defined as "signs that somehow represent the linguistic fixation of the targeted needs of particular social groups, ethnic groups, or national cultural spaces", and "fixed forms of activity in which products function as objects. considered as a reflection. It meets a specific need". Gestalt psychology arose from the study of the human perception. At the center of her attention is the characteristic tendency of the psyche to organize experience into an

intelligible whole. The integrity of perception and its orderliness are achieved thanks to the basic principles of gestalt:

- the principle of "figure and background" (any image or object perceived

is perceived as a figure that stands out against some background. The figure is the most significant gestalt at the moment, and the background is made up of less significant gestalts; sometimes the figure and background can change places depending on the current needs of the person);

principle of proximity (stimuli located nearby have tendency to be perceived together);

- *principle of similarity (stimuli similar in size, shape, color or shape tend to be perceived together);*

- *the principle of integrity (perception tends to simplify and integrity);*


- *the principle of closure (reflects the tendency to complete the figure*

so that it takes on a full form, "close" the border);

- *the principle of adjacency (proximity of stimuli in time and space, while adjacency can predetermine perception when one event causes another);*

- *the principle of the common zone (the principles of gestalt form our everyday perception along with learning and past experience, while anticipatory thoughts and expectations also actively guide our interpretation of sensations) [5: 24].*

Gestalt principles are consistent with the desire of the human consciousness to systematize information and fit it into existing schemes. In this regard, it is useful to connect



Picture-1. Gestalt Laws Of Perceptual Organization.

The Gestalt principle is consistent with the human consciousness's desire to organize information and fit it into existing schemes. In this context, it is useful to combine compelling facts with eternal truths that are used to explain the harmonious system of the universe. After all, people want a solid standard of reference in every endless choice situation, including consumer choice.

From an advertising point of view, the design effect can be understood as representing the proposed object in the form of a tesserae, but not enough to complete the well-being depicted.

This line of thinking also applies to the principle of planning marketing communications "from all threads" when synergies are available. At the same time, as you know, the advertising media involved are mutually reinforcing.

For example, the Gestalt approach suggests that the location, building, staff training, or appearance in which the office is located must be of the highest standard in order to position oneself as an elite service provider. Advertising media should therefore come first in the evaluation of elite publications.

In the case of outdoor advertising, it is necessary to consider the installation location in consideration of the terrain. Objects such as architecture, history, culture, and technology are perceived at the same time as the sign and influence the

persuasive facts with eternal truths that are used in describing the harmonious system of the universe. Ultimately, people crave something unshakable that will prompt criteria in all endless situations of choice, including consumer choice.

In relation to advertising, the gestalt effect can be understood as the presentation of the proposed object in the form of a piece of the mosaic, which is not enough to complete the depicted happiness. The main conclusion of the Gestalt principles is the need to pay serious attention to the background, environment, accompanying impressions, everything that will be connected in the mind of the consumer with the company and its products.

The key principle of Gestalt is precisely integrity, which implies our tendency to develop a complete picture of perception, even if some of its elements are missing. Because of this tendency to "fill in" the gaps, the presentation of incomplete stimuli serves as a mechanism for increasing the interest (involvement) of consumers in the information processing process [6: 219].

In modern advertising discourse, the language game is often based on the modification and modification of precedent phenomena perceived as a whole (phraseologisms, winged expressions, quotes from books, films, musical works, etc.) [7: 101]. In this case, the integral meaning of the precedent statement is divided into separate meanings of its constituent words, from the totality of meanings in which a new statement appears, conveying a different (different from the precedent) meaning, a new gestalt is formed.

evaluation of the advertisement. When advertising in the press, the context is determined by the material placed right next to it (articles, drawings, photographs, advertisements by others). The most important conclusions from Gestalt principles are:

You should pay close attention to the background, the setting, and the impression that accompanies it—everything related to the consumer's perception of your company and its products.

The approach to the theme outlined in the title largely determined the popularity of the series;

- the place of the advertising word is significant, for example, the beginning and end of any message are more effectively perceived and better remembered, because the gestalt "border effect" "works": Let nature go to your head (advertising for Timotei Shampoo shampoo with a hint of environmental friendliness and the power of nature); Heart of the image (advertising of the Nikon photo brand with an appeal to the senses).

Although the structural precedent statement does not change, it is already a completely different unit of language, since the expression has acquired a new meaning, associated in the mind with the object of advertising. Recognition of a precedent statement draws attention to the advertising message, increases the degree of its memorability. In addition, a change in the original meaning, the acquisition of contextual meanings

leads to an increase in the figurativeness of the entire statement. Thus, the expressiveness of the advertising message increases, and, consequently, the strength of its impact.

Conclusion. Gestalt principles in advertising texts actualize various background ideas that have intellectual and emotional significance for representatives of the linguistic community and are associated with its accumulated cultural experience. It is worth noting the importance of the Gestalt adjacency principle, i.e. observance of proximity in time and space, adequacy to the "spirit of the times". It is worth noting the importance of the gestalt principle of contiguity, respect for proximity in time and space, and adequacy to the "spirit of the times". This phenomenon was discussed by the psychologist Muzafer Sherif, who, approaching the study of slogans from the point of view of Gestalt psychology, proved that they "work" with the subjective perception of the recipient. The scientist

argued that the slogan would be successful only if it caught attention and caught the "zeitgeist", thus arousing the interest of the target audience [1:2017].

Gestalt principle when creating an advertising text, the principle of background and figure can become, which allows you to greatly enhance the impact of the message by highlighting a meaningful gestalt against the background of the context. The use of this principle can be especially effective if it is possible to implement several options for the ratio of the figure and background, which will enrich the meaning of the statement and expand the field of influence on recipients with different subjective attitudes.

Consideration of all other principles is also of interest for exploring the possibilities of creating interesting and attention-grabbing texts.

REFERENCES

1. Ayfer Dost-Gozkan. Norms, Groups, Conflict, and Social Change: Rediscovering Muzafer Sherif's Psychology. Routledge, 2017.
2. Definition of bite the hand that feeds one in English. URL: https://en.oxforddictionaries.com/definition/bite_the_hand_that_feeds_one.
3. Meaning of "there's now so queer as folk" in the English Dictionary. URL: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/there-s-nowt-so-queer-asfolk>.
4. Pare M. Body idioms and More for Learners of English. Mayuree Pare, 2005.
5. Porozova D.YU. Geshtal't kak osnova vizual'nogo vospriyatiya // Chelovek v mire kul'tury. 2012. № 3. S. 23-28.
6. Romanov A.A., Vasil'yev G.A. Massovyye kommunikatsii. M.: Vuzovskiy uchebnik, 2009.
7. Samigulina F.G. YAzykovaya igra na baze pretседentnykh fenomenov v manipulyativnom diskurse reklamy // YAzyk i sotsial'naya dinamika. 2013. № 13-1. S. 101-107.
8. Samoylov A.N. Formirovaniye kontseptsii gorizonta kak granitsy topiki zhiznennogo mira v fenomenologii E. Gusserlya // Srednerusskiy vestnik obshchestvennykh nauk. 2014. № 6 (36). P. 25-31.
9. Tokareva M.V. YAzykovaya kontseptualizatsiya kognitivno vydelennykh komponentov v situatsii slukhovogo vospriyatiya // Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta. 2011. № 3. S. 97-103.
10. Kholboboeva A, International Journal of Aquatic Science ISSN: 2008-8019 Vol 12, Issue 03, 2021.
11. Karasik V.I. YAzykovoy krug: lichnost', kontsepty, diskurs / V.I. Karasik. – M.: «Gnozis», 2004.
12. Kholboboeva, A.Sh. (2020) "The theoretical point to advertising discourse in linguistics", Academic Discourse: Vol.2020:9, Iss 1 ,99-104.
13. Krasnykh V.V. Virtual'naya real'nost' ili real'naya virtual'nost'? (Chelovek. Soznaniye. Kommunikatsiya): monografiya / V.V. Krasnykh. – M.: «Dialog-MGU», 1998.
14. Krasnykh V.V. Etnopsikholingvistika i lingvokul'turologiya: Kurs lektsiy / V.V. Krasnykh. – M.: «ITDGK Gnozis», 2002



UDK:811.1

Yusuf HAMDAMOV,

O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Filologiya fanlari doktori, dotsent H.Saidov taqrizi asosida

PATRIOTIC PRINCIPLES OF JOURNALISM

Annotation

The article is written about one of the important principles of journalism - the principle of patriotism, its place and role among the principles. The article gives an assessment (tarif) to the word "patriotism", that is, "Motherland", where you were born, where you grew up and brought up, which is called sacred. This sacred place is usually passed down from generation to generation. In addition, the article describes in detail how the principle of patriotism is considered important, its place and role in the media of Uzbekistan, how work is being done, in what ways the idea of patriotism is promoted in the spirit of youth, as well as in kindergartens, schools, lyceums and higher educational institutions. institutions of the republic. Here are examples, published articles in national newspapers on the topic of patriotism.

Key words: Journalism, mass media, principle, newspaper, topic, idea, topicality, article, Motherland, patriotism.

ПАТРИОТИЧЕСКИЙ ПРИНЦИП ЖУРНАЛИСТИКИ

Аннотация

В статье написана об одном из важных принципов журналистики – о принципе патриотизме, его место и роли среди принципов. В статье дана оценка слову "патриотизм", то есть "Родина", где ты родился, где ты вырос и воспитывался, которая называется священным. Это священное место обычно передается из поколения в поколение.

Кроме этого, в статье подробно написан, как принцип патриотизма считается важным, его место и роль в СМИ Узбекистана, о том как ведутся работы, какими способами пропагандируются идея патриотизма в духе молодёжи, а также в детских садах, в школах, лицеях и высших учебных заведениях республики. Здесь же приведены примеры, опубликованные статьи в центральных газетах на тему патриотизм.

Ключевые слово: Журналистика, средство массовой информации, принцип, газета, тема, идея, актуальность, статья, Родина, патриотизм.

JURNALISTIKANING VATANPARVARLIK PRINTSIPI

Аннотация

Maqolada jurnalistikaning muhim printsiplaridan hisoblangan vatanparvarlik printsipti, uning boshqa printsiplar o'rtasidagi o'rni, ahamiyati haqida yozilgan. Bunda dastlab "Vatanparvar" tushunchasiga ta'rif berilgan, ya'ni "Vatan" insonning kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq, uni kamolot sari yetaklovchi, hayotga ma'no-mazmun baxsh etuvchi tabarruk maskan. Shuningdek, u ajdodlardan avlodlarga qoladigan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir.

Shuningdek, maqolada O'zbekiston OAVda vatanparvarlik muhim, dolzarb mavzu hisoblanib, vatanparvarlik g'oyalarini ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga singdirishda bolalar bog'chalaridan tortib, maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlarigacha uzluksiz tarbiyaviy ishlar olib borilayotgani, bu doimiy, dolzarb mavzu respublika ommaviy axborot vositalarida atroflicha yoritilib, keng targ'ib qilinayotgani haqida batafsil yozilgan va bularga misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jurnalistika, ommaviy axborot vositalari, prinsip, gazeta, mavzu, g'oya, dolzarblik, maqola, Vatan, vatanparvarlik.

Kirish. Vatanparvarlik jurnalistikada muhim printsiplardan hisoblanadi.

O'zbek jurnalistikasida vatanparvarlik doimo dolzarb mavzu sifatida yoritib kelingan. Chunki "Vatan" tushunchasi barcha xalqlardagi kabi biz o'zbeklarda ham baland turadi. Vatanparvarlikning o'zagi — "Vatan" so'zi bo'ladi. Vatanparvarlik esa, bu — Vatanni sevish, uni ko'z qorachig'idek avaylab-asrash, kezi kelganda esa, uni ko'krak tutib himoya qilishdir.

— "Vatan insonning kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq, uni kamolot sari yetaklovchi, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etuvchi tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, bebaho meros, eng aziz xotira. Vatan — ota-bobolarimizning hoki-poklari jo bo'lgan, vaqti-soati yetib, har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamin"[1].

Vatan — bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi. Xalqimizning "Vatan ostonadan boshlanadi", — deyishi ham bekorga emas. Qisqa qilib aytganda, Vatan — tug'ilib o'sgan

uy, mahalla, qishloq, shahar, tuman, viloyat va u yashaydigan mamlakat.

Vatanparvarlik esa tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan va o'zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir. Ona-Vatan har bir xalqning hududi hisoblanadi. Yaratganning o'zi ato etgan bu muqaddas makonni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Xalqimizda shunday dono naql bor: "Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari, vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shuncha cheksiz bo'ladi".

Vatanning ravnaqi uning farzandlari sa'y-harakati, uning rivoji va yanada yuksalishi har bir fuqaroning mas'uliyati, vijdoniga bog'liq. Bu xislatlar vatanparvarlik tuyg'usida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik har bir kishining kindik qoni to'kilgan, o'sib-ulg'aygan joy, o'lkaga bo'lgan

muhabbatini, munosabatini ifoda etadigan, ijtimoiy va ma'naviy axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Vatanparvarlik prinsipiga "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kitobida shunday ta'rif berilgan:

- o'z xalqining tarixini yaxshi bilish va undan g'ururlanish;

- buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'idek asrab, kelgusi avlodlarga yetkazish;

- ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarini, merosini o'rganib, uning qadriyatga aylangan qismini davom ettirish;

- davlatimiz kelajagi, istiqlolning barqarorligi, kelajakning buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishda astoydil ko'maklashish yuzlab fazilatlar kabi xususiyatlarni anglatadi[2].

Rossiyalik taniqli adib Valentin Rasputin vatanparvarlikni shunday ta'riflaydi: "Vatanparvarlik nafaqat ona tuprog'ing bilan uzviy rishtalar bilan chambarchaslik hissi, qolaversa, vatan oldidagi burch, uning ma'nan, axloqan va jismonan yuksalishi uchun quvonishdir. Lomakon kishi ma'nan qashshoq bo'ladi, uni yengilgina shabada ham istalgan tarafga yetaklay oladi. Yuragida Vatani bo'lgan odam hech qachon o'z yo'lidan og'ishmaydi, tubanlashmaydi, vahshiylashmaydi, negaki Vatani unga kuch beradi, e'tiqod beradi.

Vatan, avvalo, xalqning o'tmishi va kelajagi birlashadigan muqaddas tuproqdir, ana undan so'ng esa unga "hudud" maqomini bersak bo'ladi. Kishida Vatan bormi, demak, u tuprog'ining azizi-yu o'zini himoya qiladi, kafangadomi, demak, butun dunyodan nafratlanadi va vayronkorlikka moyil u. Vatan – hayotimiz mazmuni, tug'ilganimizdan to qazomizgacha o'zining tafti bilan isitadigan ma'vo"[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Aytish joizki, vatanparvarlik — har bir yigit-qizga yoshligidan singdiriladi. Bunga, ayniqsa, tarix muhim saboq beradi. O'tmishda Ona-Vatan himoyasi, yurt osoyishtaligi uchun jonini fido qilgan Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Shayx Shamsiddin Kubro kabi fidoyi insonlar yoshlarga ibrat bo'la oladi.

Tarixdan ham ma'lum, hududimizga bostirib kirgan bosqinchi, dushmanga qarshi xalqimizning har bir vakili so'nggi nafasi qolguncha kurashgan. Arab bosqini, Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar istilosini eslab ko'raylik. Arablar bosqini davrida ularga qarshi kurash uzoq yillar davom etdi. Muqanna boshchiligidagi vatanparvarlar bosqinchilarga qarshi ayovsiz kurashdi.

Mo'g'ullar istilosi davrida millatimizning qanchalab vakillari kurash maydoniga chiqdi, dushmanlarni o'z hududidan haydat chiqarishda jonbozlik ko'rsatdi. Xalqimizning buyuk qahramoni, fidoyi vatanparvari Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurash olib bordi. Uning xizmatlarini xalqimiz aslo unutmaydi.

Yoki misol uchun o'tgan asrda bo'lib o'tgan, millionlab odamlarning boshiga kulfat solgan Ikkinchi jahon urushini olib ko'raylik. Boshqa xalqlar vakillari qatori kabi o'zbeklar ham fashist bosqinchilariga qarshi ayovsiz kurashdi, dushmani tormor etishda katta hissa qo'shdi. Chunki vatan ozodligi uchun kurash har bir xalq, millat vakilining muqaddas burchi hisoblanadi.

Vatanparvarlik ana shu timsollar zamirida yuzaga keladi. U ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadi. Bu o'lmas prinsip, tamoyil har bir kishining vijdon burchi bo'lib qolaveradi.

Shu o'rinda yangi bir misol keltiramiz. Yaqinda Rossiyaning markaziy telekanallaridan birida chiqish qilgan Rossiya Kommunistik partiyasi (RFPK) rahbari G.Zyuganov

bir g'alati gap aytdi. Nima emish, go'yoki ikkinchi jahon urushidagi erishilgan g'alaba taqdiri faqat Rossiya va Stalin faoliyati bilan bog'liq emish. Agar bular bo'lmaganda sobiq postsovet hududidagi mamlakatlarning ishtiroki hech narsaga arzimasa emish va hokazo, hokazo... Qisqasi, gapirishga ham arzimaydigan asossiz, mayda gaplar... Mayda bo'lsa ham o'zgina haqiqati bo'lganda, jindek bo'lsa ham xolislikka amal qilinganda, bu o'rinda eslab o'tirmagan bo'lardik.

Avvalo urush yillarida o'zbek xalqi hozirgidek o'ttiz bir millionlik katta xalq emas, balki bu nufusning uchdan bir qismini tashkil etar edi. Bir hovuchgina aholiga ega bo'lgan mamlakat bor quvvati zaxirasini urushga tikdi. Yov qochganda botir ko'payadi. Bu maqolni eshitmagan Zyuganov janoablari bir narsani bilib qo'ysalar yomon bo'lmasdiki, o'sha bir hovuch aholining ishga yaraydigan asosiy qismi urushga ketdi. Keta olmaganlari, yoshi yetmaganlari ko'ngilli bo'lib, o'zi tashabbus ko'rsatib jangga jo'nadi. Fashizmga qarshi bo'lgan urushda bir yarim milliondan ortiq vatandoshimiz ishtirok etgan bo'lsa, qolgan aholi – yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan har bir fuqaro qishin-yozin ochlik, mashaqqat, g'urbatlarga chidab ona zamin saodati uchun mehnat qildi. Kurashdi, duo qildi. Mamlakatdan bu yillarda olib chiqib ketilgan millionlab tonna oziq-ovqat, issiq kiyim-kechak va boshqa mahsulotlarning aniq hisobini bilish tiliga zo'r beradigan bu siyosatchi uchun muammo bo'lmasa kerak. Va, bu ne'matlar millionlab mehnatkashning, qo'llari qadoqqa aylangan o'zbek ayolining zahmati evaziga binoga kelganini bilish uchun unchalik ko'p aql talab qilinmaydi. Aslida do'ppini boshdan olib, xayolni bir joyga qo'yib, hovliqmay, xolisona, adolat, vijdon bilan fikr yuritilsa, qurbonlikning katta-kichigi, qahramonlikning chegarasi bo'lmaydi. Bir yarim milliondan ortiq guldek farzandini borsa-kelmas safarga jo'natib, ularning olti yuz mingdan ziyodini boy berishi o'zbek xalqining ulkan fojiasi emasmi?!

Tahlil va natijalar. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 1941–1945 yillarda bir millionga yaqin aholi, xususan, ikki yuz ming nafar bola urush bo'layotgan maydondan O'zbekistonga evakuatsiya qilingan. Ayrim o'zbek xonadoni ikki va undan ortiq yetim bolalarni o'z himoyasiga oldi. O'zbek xalqi esa ularni bag'ri kenglik, kengfe'llik bilan qarshi oldi, uyi, dasturxon, qalbining to'ridan joy berdi. O'zbekiston urush yillarida front uchun 2100 ta samolyot, 17342 aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 22 mln. dona mina, 1 mln. dona granata, 3 mln. dona radiolampa yetkazib berdi. Bu xamir uchidan patir bo'lgan faktlar. Bu haqda sobiq ittifoqning o'zida, qolaversa, dunyo miqyosida qanchalab maqola-ocherklar, publitsistik asarlar, hatto romanu qissalar yozilgan. Bu voqea millionlab qalblarda aks-sado bergan. Bu haqiqatlarni tarix sahifalaridan o'chirib bo'larmikan?! Mamlakat mustaqillikka erishgach, urush qatnashchilari xotirasini tiklash maqsadida poytaxt markazidagi Mustaqillik maydonida "Xotira xiyoboni" tashkil etildi. 35 jildlik "Xotira kitobi" tayyorlanib, nashr qilindi. Bu kitoblar "ulug' rus og'asi" sha'niga yozilgan madhiyalar yoki sevgi-muhabbat haqidagi monologlar emas, balki ming-minglab zavol topgan begunoh insonlarning ayanchli taqdirlari yig'masi edi. Bu kitoblarni oxirigacha o'qishga janob siyosatchining yuraklari dosh bera olarmikan? Bilmadik, har qalay poytaxtimiz markazida qad rostlagan maxsus majmuaga kelib, bu kitoblarni bir varaqlab chiqqan bo'lganlarida, eng kamida kaltafahmlik bilan bunday gaplarni aytmagan bo'lardilar. Shovinizm, xudbinlik va ichki alamzadalik achchig'ida aytilgan gaplarini eshitib, "Holvani hokim, kaltakni yetim yeydi", degan maqol yodga tushadi. "Yaxshilik qil, suvga ot, bilsa baliq, bilmasa Xoliq biladi", deydi ko'pni ko'rgan xalqimiz. O'zbek xalqi urush davrida birovdan qo'rqqanidan emas, ko'ngli yaxshilik, ezgulik, mardlik, vatanparvarlik, saxovat, oliyanoblik tuyg'ulariga to'la bo'lgani uchun shunday

javonmardlik ko'rsatdi. O'zbek xalqi o'sha yillarda ham, urushdan keyin ham, istiqloq yillarida ham bu oliy matladan, yuksak rutbadan, ezgu a'moldan bir qadam ortga chekingani yo'q. Buni o'zbek xalqining tarixi va ayniqsa, bugungi kunlarimiz yaqqol ko'rsatib turibdi[4].

Mamlakatimizda ana shu yuksak qadriyatlarga qat'iy amal qilib kelinyapti. Har bir xalq, millat vakili o'z xalqining tarixini yaxshi bilishi kerak ekan, bu borada O'zbekistonda mustaqillik yillarida juda katta ishlar olib borildi. Muhimi, xalqimiz xohish-irodasi bilan ona vatanimiz tarixi qayta tiklandi.

Ochig'ini aytish kerak, moddiy va madaniy merosni tiklash borasidagi olib borilgan va hozirda ham to'xtovsiz davom etayotgan ishlarning salmog'i juda yuqori darajada desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

Ming yillar davomida xalqimizning o'lmas qadriyatiga aylanib qolgan ibratli urf-odat, udumlarimiz, merosimizni ko'z qorachig'idek asrab kelayapmiz. Bu ham vatanparvarlikning muhim timsolidir.

Mustaqil davlatimiz kelajagi, istiqloqning barqarorligi, kelajagimiz porloqligini respublikamizda istiqomat qilayotgan har bir millat, elat vakili chin dildan his qiladi, unga ishonadi. Bu ham vatanni sevish va vatanparvarlikdir.

Taniqli adabiyotshunos olim Q.Yo'ldoshev vatanparvarlik haqida o'ziga xos fikr yuritadi. U o'zbekning aslida yurtsoy millat ekani, o'zbek yashash qulay bo'lgan joyni vatan hisoblashdan uyalishi, hamisha o'z ota yurtini qo'msab, unga intilib yashashi, o'zbek erkagi esa tabiatdan don bergan yerning tovug'i bo'lishni istamasligi, "O'zga yurtida sulton bo'lgandan o'z yurtida ulton bo'lish"ni xohlashi uning tabiati, fe'lga xos ekanligi haqida aytib o'tgan. Shuningdek, olim bugungi odam faqat ideal orzular og'ushida yashayveradigan romantik individ emasligi, u g'irt pragmatik va amaliyotchi shaxs o'laroq, ertangi ulkan va'dalardan ko'ra bugungi kichik naqdinani afzal bilishi, bugungi o'zbekdagi vataniy tuyg'ularning ham bir qadar evrilishga yo'liqqani ajablanarli emasligini ham eslatib o'tadi. Bugungi o'zbek vatanda yetarli sharoit, ko'pgina qulayliklar, imtiyozlar bo'lishini istashi va u bunga haqli ekanligini ham ta'kidlab o'tadi, olim. Aytish kerak, uning vatan haqidagi fikrlarini o'ziga xos, ta'sirchan tarzda ifoda etadi: "Vatan faqat jo'g'rofiy-siyosiy emas, balki ma'naviy-ruhoniy tushuncha hamdir. Vatansoyar odam uchun ota yurt o'zidan tashqarida yotgan tuproq emas, balki uning yuragidan joy olgan ruhiy

hodisa hisoblanadi. Shunday odamdagina vatanga chin muhabbat bo'ladi. Vatan – shior, chaqiriq emas, balki g'oyat nozik, muqaddas ma'naviy tushuncha. U to'g'rida kamroq gap sotib, ko'proq ish qilib, vatandoshlarning holatini yaxshilash, turmushini farovon qilish yo'llarini o'ylash kerak"[5].

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalaridan bir paytning o'zida ezgulik va yovuzlik yo'lida, millatni birlashtiruvchi yoki ayirmachilikni targ'ib etuvchi kuch sifatida foydalanish mumkin. Masalan, O'zbekiston ommaviy axborot vositalari 1999 yil 16 fevral hodisalarida ommani birlashtiruvchi kuchga aylandi, desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Terrorchilik bosh ko'targan, insoniyatning tinch turmush tarziga tajovuz qilgan bir paytda, 25 millionli O'zbekiston aholisi turli mulohazalar, qarashlarni chetga surib qo'yib, yagona g'oya — vatanparvarlik g'oyasi atrofida birlashdi va o'z xalqining qudratini dunyoviy xavfga qarshi qo'ya oldi. Natijada moddiy manfaatni muhim deb bilgan ba'zi kishilar ham vatanparvarlikni ustun qo'yidilar.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda vatanparvarlik g'oyalarini aholi orasida targ'ib-tashviq qilish uchun esa respublika ommaviy axborot vositalari salmoqli ishlar olib boradi. Gazetalarda vatanparvarlikka oid maqolalar muntazam tarzda berib boriladi. Radioeshittirish dasturlari, televideniye ko'rsatuvlarining asosiy mavzularidan biri, vatanparvarlikka bag'ishlangan eshittirish va ko'rsatuvlardir. Shu bois ham faxr bilan aytish kerak, xalqimizda vatanparvarlik hissi yuqori darajada va bu bilan qancha faxrlansak ham arziydi.

Yosh avlodni milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, iste'dodli yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Yagonasan, muqaddas Vatan!", "Kelajak ovozi", "Yangi avlod", "Nihol" kabi ko'rik-tanlovlar o'tkazilib turibdi.

1-taklif. Vatanparvarlik g'oyasini aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga singdirishda bolalar bog'chalaridan tortib, maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtlarigacha katta tarbiyaviy ishlar olib borish zarur.

2-taklif. Respublika OAV da mazkur yo'nalishdagi ko'rsatuv, radioeshittirish, maqola va ijtimoiy rolidlarni muntazam ravishda berib borishni yo'lga qo'yish kerak.

3-taklif. Vatanparvarlik yo'nalishida tayyorlangan eng yaxshi jurnalistik materiallar uchun tanlovlar o'tkazilib, ijodkorlarni taqdirlash kerak.

4-taklif. Loyiha va dasturlarning salmog'ini oshirish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: Yangi asr avlodi, 2001. 151-bet.
2. O'sha manba.153-bet.
3. Rasputin V. Pole bitvi – serdsa lyudey //Sibir. 2012, № 5.
4. Ikromov H. Uni Farhod der edilar //Ziyouz.uz.
5. Yo'ldoshev Q. Biror jamiyat va millat o'z pedagogikasidan yuksak bo'lolmaydi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2021, 13 avgust.



УДК:811.1

A'zamjon HAMRAQULOV
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: hamroqulovazamjon@gmail.com

O'zMU dotsenti v.b Z.Pardayev taqrizi asosida

O‘ZBEK ADABIYOTIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO‘QIMA (MAHMUD TORABIY QO‘ZG‘OLONI MISOLIDA)

Annotsatsiya

Ushbu maqolada 1238 yilda mo‘g‘ullarga qarshi ko‘tarilgan Mahmud Torabiy qo‘zg‘oloniga oid tarixiy faktlarning Oybek, Mirkarim Osim va Asad Dilmurod asarlaridagi badiiy talqini tahlil qilinadi. Tarixiy manbalarda qo‘zg‘olon to‘g‘risida bildirilgan fikrlarning ziddiyatligi, tarixnavislarning qo‘zg‘olon voqealariga tendensioz munosabatda bo‘lgani yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: prototip, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, badiiy to‘qima, ijtimoiy muhit, zamonaviylik.

HISTORICAL TRUTH AND ARTISTIC TEXTURE IN UZBEK LITERATURE (IN THE CASE OF MAHMUD TORABI'S UPRISING)

Annotation

This article analyzes the artistic interpretation of the historical facts about Mahmud Torabi's revolt against the Mongols in 1238 in the works of Aibek, Mirkarim Asim and Asad Dilmurod. The contradictions of the opinions expressed about the uprising in historical sources, the tendentious attitude of historians to the events of the uprising are highlighted.

Key words: prototype, historical truth, artistic interpretation, artistic fabric, social environment, modernity.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФАКТУРА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (В СЛУЧАЕ ВОССТАНИЯ МАХМУДА ТОРАБИ)

Аннотация

В статье анализируется художественная интерпретация исторических фактов о восстании Махмуда Тораби против монголов в 1238 году в произведениях Айбека, Миркарима Асима и Асада Дильмурада. Выявляются противоречия мнений, высказанных о восстании в исторических источниках, тенденциозное отношение историков к событиям восстания.

Ключевые слова: прототип, историческая правда, художественная интерпретация, художественная ткань, социальная среда, современность.

Kirish. Kuzatishlar qariyb 800-yil muqaddam sodir bo‘lgan Torabiy qo‘zg‘oloni voqealariga turli davrlarda turlicha munosabatda bo‘linganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qo‘zg‘olon yetakchisi Mahmud Torabiy shaxsi bilan bog‘liq fikrlar tarixchilar tomonidan o‘z zamonalari muhiti, o‘z dunyoqarashlari va manfaatlariga mos ravishda bayon qilib kelindi. Qo‘zg‘olon xususida tarixnavis Juvayniy, Mirzo Uyg‘beklarning asarlarida, keyinroq esa sharqshunos olimlar V.Bartold, Yakubovskirlarning leksiyalarida shuningdek, manbaashunos N.Toshev, Q.Rajabovlarning izlanishlarida turlicha fikrlar bildirildi. Umuman olganda tarixiy faktlarga tarixchilar tomonidan g‘oyaviy maqsadlarga xos munosabatda bo‘lindi. O‘z navbatida Oybek, Mirkarim Osim va Asad Dilmurodlarning asarlarida tarixiy voqealarning ijodkorlar zamonasiga xos badiiy talqin etildi.

Tarixiy manbalarda Torabiy sehrigar, folbin, firibgar, nodonlik va johillikda tengsiz deb kamsitilgan. Hatto ayrim manbalarda yo‘lto‘sarlik, qaroqchilik bilan shug‘ulangani ham yozilgan. Bularga biz, albatta, tanqidiy yondashmog‘imiz zarur. Biroq turli taxminlarga borgan taqdirimizda ham, faktlar doirasida fikr yuritishga majburmiz. Ularni keskin inkor qilish yaramaydi, zero, bunga haqqimiz ham yo‘q. Torabiyning badiiy obrazini yaratgan ijodkorlar ham, albatta, tarixiy faktlarga tayangan holda ish ko‘rdilar. Ammo mavjud faktlarni zamonasi ta‘sirida yoki zamonaga xizmat qildirish maqsadida shunday talqin qildilarki, natijada adabiyotimizda Torabiyning

jamiyatimiz taraqqiyotining turli bosqichlariga xos turfa qiyofalari vujudga keldi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tarixchilar Juvayniyning “Tarixi jahonkusho” asarini eng ishonchli manba sifatida qayd etadilar. Juvayniy Torabiy qo‘zg‘olonini zamonasida yuz bergan mudhish fojea deb biladi, qo‘zg‘olonchilarning asl maqsadi yurtini mo‘g‘ullardan ozod qilish ekaniga ko‘z yumadi. Chunki Juvayniy mo‘g‘ullar xizmatida bo‘lgan, Bag‘dod shahrida yigirma yil hokimlik qilgan. Tabiyki, muallifi qo‘zg‘olonni yoritishda tarixchi bo‘lish bilan birga amaldorligini ham unutmagan. Qolaversa, mamlakatda hali mo‘g‘ullar hukmronligini, kitobning “Tarixi jahonkusho” deb atalishi, ya‘ni Chingiz va chingiziylar imperiyasining zafarlarini abadiyatga muhrlash maqsadi bilan yozilganini hisobga olsak, muallif qo‘zg‘olonga salbiy munosabatda bo‘lishi sabablari oydinlashadi.

Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”da ham Torabiy qo‘zg‘oloni voqealariga munosabat ijobiy bo‘lmadi. Unda Chig‘atoyxon davrida “ro‘y bergan g‘aroyib voqealar va ajoyib ishlardan Mahmud Torabiy xuruji” bo‘lgani e‘tirof etilib, Torabiy firibgarlik va aldov yo‘li bilan xalqni qo‘zg‘atganiga urg‘u beriladi.

Sharqshunos olimlar V.Bartold, A.Yakubovskiyalar qo‘zg‘olonni keng ko‘lamda tadqiq etib, uning asl mohiyatini ochishga intildilar. Lekin qo‘zg‘olonchilarning hattiharakatlarini sovet voqeligi nuqtai nazaridan baholagan A.Yaqubovskiy isyonchilarning pirovard maqsadi yurtini

bosqinchilardan ozod qilish bo'lgani, uning chinakam milliy ozodlik harakati ekanligini yoritib bera olmadi. Istiqloлга erishganimizdan so'ng yozilgan R.Vohidov, Q.Rajabov, N.Toshev kabi olimlarning ishlarida qo'zg'olonchilarning asl maqsadi erk, ozodlik uchun kurash bo'lgani ta'kidlandi, asosiy e'tibor shu nuqtaga qaratildi.

Aksariyat tarixchilar qo'zg'olonning asosiy omili deb bosqinchilarning yerli aholiga solgan og'ir soliqlari, mahalliy amaldorlar va ulamolarning mo'g'ulparastlikka berilib ketishlarini ko'rsatadilar. Qo'zg'olonni keng ko'lamda tadqiq etgan V.Bartold, A.Yakubovskiy, L.Boymatov, N.Toshev ishlarida bu omillarning qanchalik muhim bo'lgani ilmiy asoslab berilgan. Torobiyning badiiy siymosini yoritishga bel bog'lagan adiblar Oybek, Mirkarim Osim va Asad dilmurodlarning asarlarida yuqorida ko'rib o'tgan tarixiy faktlar zamonaga xos badiiy talqiga tortildi.

Natiya va muhokama. Oybek tarixiy mavzudagi asar masalasiga to'xtalib, "yozuvchi qaysi bir tarixiy davrga murojaat qilmasin, mabodo u davrning g'ayri, hattoki g'alati ko'ringan barcha xususiyatlari orasidan o'ziga tanish bo'lgan his-tuyg'ular va fikrlar izlasa, pirovardida mutlaqo xato qilmaydi" degan fikrni ilgari suradi. Adib bu gapni 1966-yilda, qator tarixiy mavzudagi asarlarini elga manzur qilgach aytganini e'tiborga olsak, bular u to'plagan boy ijodiy tajribaning "qaymog'i", tarixiy asarlarini yozishda tayangan asosiy ijodiy-estetik prinsipi deyish mumkin. Shubhasiz, Oybek "Mahmud Torobiy"da ham yuqorida ko'rib o'tilgan aqidasiga amal qildi. U bosqinchilar va mustamlaka xalqlarning munosabatlarini tahlil qilishda zamonasi voqeligi ta'sirida shakllangan kechinmalariga quloq soldi.

"Bolalik" qissasi "Oybekning tarixiy temalaridagi ba'zi bir asarlarining ilk ilhom manbaini aniqlash, ulardagi ayrim obrazlarning asl ajdodlarini, prototiplarini topish ularning mohiyatiga kirish uchun bir «kalit» (H.Yoqubov) ekanini ko'zda tutib, ishda qissa va Torobiy mavzusidagi asarlari qiyoslandi. Qiyoslash natijasida Oybek qo'zg'olonning omillarini o'zining bolaligida ko'rganlaridan kelib chiqib ko'rsatgani ochib berildi. "Bolalik"da jahon urushining boshlanishi bilan narx-navo ko'tarilib, turmushning behad og'irlashgani, natijada xalq noroziligi kuchaygani, shu vaziyatda "oq poshsho"ning mardikor olish haqida farmon berishi isyon uchun turtki, yetishmayotgan so'nggi tomchi bo'lgani ko'rsatiladi. Oybek Torobiy qo'zg'olonining yuzaga kelishini ham shunga monand talqin qiladi. Xususan, "Mahmud Torobiy"da zulmdan ortiq ezilgan, iqtisodiy jihatdan qiynalgan xalqqa bosqinchilarning turli xil og'ir soliqlar solishi qo'zg'olonning sababi, Chig'atoyxon uchun "besh-o'n hunarmand" va "bir necha qiz" berishni talab qilishlari esa turtki sifatida talqin qilinadi.

Mirkarim Osimning "Mahmud Torobiy" qissasida ham qo'zg'olonni keltirib chiqargan sabablar shu tariqa talqin qilinadi. Qissada qo'zg'olon qishloqqa "boj-hiroj to'plagani" kelgan bosqoqlarining usta Mahmud boshchiligida quvib chiqarilishi, «bosqoqlarga ikki pul ham bermaslikka da'vat etish"i bilan boshlanadi. M.Osim tarixiy haqiqatga sodiq qoladi, o'tmishni badiiy jonlantirishda o'z zamonasi ijtimoiy muhiti ta'siriga beriladi, shu muhitda shakllangan dunyoqarashi doirasida fikr yuritadi: «O'n sakkiz yildan beri mo'g'ul istilochilari zulmi ostida ingragan xalq mamlakat osmonini qoplagan asorat bulutlari orasidan ozodlik quyoshining chiqishini sabrsizlik bilan kutardi.» Parchadagi "ozodlik quyoshi" birikmasining o'ziyoq M.Osim dunyoqarashiga sho'rocha mafkuraviy safsatalar ta'sir o'tkazmay qolmaganini ko'rsatadi. Yozuvchi qo'zg'olon voqealarini badiiy talqin qilgan ekan, ularning zamirida inqilobiy g'oyalarni ko'radi. Shunga qaramay, u tarixni o'z holicha aks ettirishga intiladi, zamon va

mafкура ta'siri uni tarixiy haqiqatga sodiqlikdan chekintira olmaydi.

80-yillar oxirida Torobiy mavzusiga murojaat qilgan A.Dilmurod qo'zg'olonni keltirib chiqargan omillarni salafilaridan o'zgararoq, o'z zamonasiga muvofiq tarzda talqin qiladi. "Mahmud Torobiy" romanida mahalliy amaldorlarning o'ta mo'g'ulparast bo'lib ketganlari, yurtdagi boshboshdoqliklar, amaldorlarning ko'ngliga kelgan noma'qulchiliklarni qilishi, diniy va milliy qadriyatlarining toptalishi kabilar qo'zg'olonning asosiy omillari sifatida beriladi. O'z vaqtida Oybek ham "G'alvirchi"da bunga e'tibor qilgan edi. Biroq romanda mazkur omillar ta'kidlab ko'rsatilgan bo'lib, bu hol asar yaratilgan davr sharoiti bilan izohlanadi. Bir qarashda muallif o'z davri muammolari ta'sirida tarixiy haqiqatdan chekingandek ko'rinishi mumkin. Lekin romandagi to'qimalar real tarixiy asosga egaligini ham e'tirof etishga to'g'ri keladi. Chunki, Juvayniy yozganidek, isyonchilarning nafrat-advovati birinchi galda boylar va bosqoqlarga qaratilgan ekan, ular shuncha advovatga yarasha qilg'iliqlar qilgani ham qayd etilmagan tarixiy fakt sanalishi mumkin. Romanda xalq mo'g'ullardan ko'ra ularning yurtdagi noiblari zulmidan ko'proq eziladi. Noiblar fuqoroni, Mahmud yalavoch aytganidek, "chibin"cha mensimaydilar. Oddiy qishloq noibi Jomg'urjindan tortib butun Buxoroni so'rab turgan Burxoniddingacha avomga turli yo'llar bilan zulm o'tkazish, shu bilan o'zlarining mavqelarini mustahkamlash payida bo'ladilar. Bu xil talqinda ham roman yozilgan davr ta'siri bor. Lekin tarixiy haqiqatdan chekinilgan emas.

Oybek Torobiy obrazida xalqqa xizmat qila oladigan xaloskor qahramonni ko'rishni orzu qildi. Shu sababli ham manbalarda keltirilgan Torobiyning salbiy tomonlari, jumladan, uning qaroqchilik bilan mashg'ul bo'lganini yurtni ozod qilish yo'lidagi jonbozlik deb tushundi (Umuman, ijodkor xalqining hammasiga ham shu xususiyat xos, ularning ko'ngli xalq erki uchun maydonga chiqqan kishilarning yomon bo'lishi mumkinligiga ishona olmaydi). Dostonning boshlanishida Yodgor tunda qishloqdan mo'g'ullar o'tgani, ularni tuni bilan poylashib, tongga yaqin uchtasini rixlatga jo'natganligi haqida Torobiyga hisobot beradi. Torobiy shogirdining bu ishlarini jasorat bilib, unga rag'bat bildiradi. Asar uchun tuzilgan plan variantlaridan birida Torobiy boshchiligida ukalari Muhammad, Ali hamda shogirdi Yodgorlar sahrada qurol-yarog' olib ketayotgan savdo karvonini qo'lga tushirishlari rejalashtirilgan edi. Demak, Torobiyning qaroqchiligi bilan bog'liq faktdan ko'z yummagani holda, Oybek uni yumshatishga, dushman bilan urushda qo'llanishi tabiiy bo'lgan harbiy taktika sifatida talqin qiladi.

A.Dilmurod ham ushbu faktni istifoda etishda shunga o'xshash yo'l tutadi. Faqat romanda qaroqchilik bilan Torobiyning o'zi emas, uning ukalari Hur Qiyg'ir bilan Kichkina Qiyg'irlar shug'ullangani ko'rsatiladi. Ularning qaroqchiligi — "robin gud"cha qaroqchilik. Chunki Torobiyning ukalari mo'g'ullarning malaylari, ya'ni mahalliy amaldorlarning sahradagi qo'y-qo'ralarini, karvonlarini, hovlilarini talab, o'ljani kambag'allarga ulashib berish bilan mashg'ul bo'lishadi. Shu tariqa ikki yozuvchining faktini yoritishida mushtaraklik paydo bo'ladi, ikkisi ham buni kurash usullaridan biri sifatida tushunishadi. Ikkinchi tomondan, tarixda "robin gud"cha qaroqchilik bilan shug'ullangan tanti xalq qahramonlari (masalan, Namoz botir) o'tganligi barchaga ma'lum. Fakt talqinida shu yo'ldan borish bilan ijodkorlar uni hayot haqiqatiga muvofiq bo'lgan badiiy haqiqatga aylantirishga erishadilar.

Mirkarim Osim qissasida esa Torobiyning qaroqchiligi bilan bog'liq tarixiy fakt umuman yoritilgan emas. Adib isyonchilar rahnamosi ukalari bilan g'alvir to'qib tirikchilik o'tkazishi haqidagina to'xtaladi

Shunisi qiziqiki, yozuvchiga Torobiyning yo'lto'sarlik bilan shug'ullangani haqidagi fakt yaxshi ma'lum edi. Biroq u bu haqda to'xtalishni, hech bo'lmasa Oybek yoki A.Dilmurod singari faktni biroz o'zgartirib berishni o'ziga ma'qul ko'rmaydi. Bizningcha, bu yozuvchi tarixiy asarlar yaratishda tayangan ijodiy-estetik prinsiplar bilan bog'liq. Adabiyotshunos A.Kattabekov bilan suhbatda M.Osim tarixiy haqiqatning qisman buzilishini ham ijodkorning "qusuri", "tarixiy haqiqatni mensimaslik" deb baholaydi. M.Osim tarixni manbalarga, ularda qayd etilgan faktlarga to'la mos holda aks ettirish tarafdori, o'z ijodida shu prinsipga amal qiladi. Jumladan, "Mahmud Torobiy" qissasida ham shu yo'ldan borgan, shuning uchun Torobiyning yo'lto'sarligi bilan bog'liq faktni o'zgartirgan holda asarga kiritishni ma'qul topmaydi. Faktning aslida kiritilishi, ya'ni Torobiy qaroqchi tarzida tasvirlanishi esa asarning g'oyaviy maqsadiga putur yetkazishi aniq. Shuning uchun qissada ushbu tarixiy fakt to'g'ridan-to'g'ri tushirib qoldiriladi. Albatta, tarixiylik nuqtai nazaridan yozuvchi haq, lekin badiiyat nuqtai nazaridan unga qo'shilish qiyin. Chunki tarixiy mavzudagi asar yozish tarixiy faktlarni ma'lum syujetga solgan holda izchil va o'qishli bayon qilib berish degani emas. "Mahmud Torobiy" qissasiga tarixiy faktlar shu mavzudagi boshqa asarlardan ko'proq kiritilgan, lekin shuning o'zi uni badiiyat jihatidan boshqalardan yuksakroq ko'tara olmaydi.

Oybek va M.Osim asarlarida Mahmud Torobiy sinfiy g'oyalar bilan bo'y ko'rsatadi. Bu asarlardagi Torobiy uchun taxtga intilish begona. A.Dilmurod romanida esa, aksincha, Torobiy aslzodalardan bilan ittifoq bo'lishga, ular bilan bahamjihat ish ko'rishga intiladi. Asarda Torobiy Sanjar Malik saroyidan turib yurtini boshqaradi, o'zini sulton deb e'lon qiladi, atrofidagilar ham uni sulton deb bilishadi. Bu esa talqinning tarixiy haqiqatga muvofiqligini ta'minlaydi. Chunki, birinchidan, qo'zg'olon yuz bergan davr kishilari davlatchilikning podsholikdan (sultonlik, xonlik, amirlik va hok.) boshqa shaklini bilmas, ularning orzulari "adolatli podshoh" bilan cheklanar edi. Demak, bu jihatdan romandagi talqin hayot haqiqatiga mos keladi. Ikkinchidan, tarixchi L.Boymatovning yozishicha, Torobiy Malik Sanjar saroyini o'ziga qarorgoh qilib oladi, "bu bilan o'zini Malik Sanjar ishining davomchisi qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi".

Oybek asarlarida, M.Osim qissasida Torobiyning o'zini sulton deb e'lon qilgani yoki sultonlik rutbasida turib xalqni

boshqargani to'g'risidagi tarixiy fakt yoritilgan emas. To'g'ri, dramatik doston qoralamalarida Torobiyning sulton Sanjar saroyini egallashi, xalqni boshqarishda shu saroy idora vazifasini o'tagani ko'rsatilgan. Biroq bu o'rinlar dostonning so'nggi variantidan joy olmagan. Ushbu tarixiy faktning kiritilishi asarda ustivorlik qilishi kerak bo'lgan o'tmishga sinfiy yondashuvga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Chunki Torobiyning o'zini sulton deb e'lon qilishi yoki sobiq sulton saroyiga joylashishi uning yuqori tabaqa vakili bo'lishga intilishi bilan izohlanishi mumkin. Holbuki, dostonda u sinfiy zulmdan ezilgan barcha kambag'al dehqonlar va hunarmandlarning yo'l boshchisi sifatida maydonga chiqadi. Asarning planlari va qoralamalaridan adib ushbu faktni asarga kiritishga uringani seziladi. Ammo o'tmishga sinfiy yondashish majburiyati ijodkorni ushbu tarixiy faktni chetlab o'tishga, asarga kiritmaslikka majbur qiladi. Qolaversa, uning o'zida ham o'tmishga sinfiy yondashish, Torobiyni eziluvchi sinf manfaatlarini himoyasiga qaratilgan xatti-harakatlarini yoritishga moyilligi bor. Aslida ko'hna o'tmishimizdagi minglab tarixiy shaxslar orasidan Torobiy shundayligi bilan uning diqqatini o'ziga tortgan.

M.Osim qissasida ham Torobiyning Sanjar saroyini egallagani, uni o'ziga qarorgoh qilgani yoritiladi. Lekin qissada Torobiyning yaqinlari ba'zan uni xalifa deb ataydilar. Tarixchi N.Toshevning ta'kidlashicha, A.Yakubovskiy Torobiy qo'zg'oloni bo'yicha tadqiqotlarida bir necha xatolarga yo'l qo'ygan. Shulardan biri uning Torobiy Buxoroni qo'lga kiritgach, o'zini xalifa deb e'lon qildi, mazmunidagi fikrlari bo'lgan. O'z o'rnida N.Toshev bu xato qimmatga tushgani, ayrim darsliklarga, jumladan, badiiy asarlarga shundayligicha ko'chib o'tganligini ta'kidlaydi. M.Osim ham shu olimning asarlariga tayangan va shu sababli uning xatosini takrorlagan.

Xulosa. Umumiy qilib aytganda ijodkorlarning Mahmud Torobiy qo'zg'oloni voqealarini badiiy to'qimaga aylantirishda tarixiy faktlarga xos zamonaviylik tamoyili yuzaga chiqadi. Badiiy to'qimalarning qiyosiy tahlillari uchala adib ham tarixiy haqiqatga sodiq qolishga intilgani, faqat ularning tarixiy manbalardagi faktlarni o'z davri nuqtai nazaridan talqin etganlarini ko'rsatadi. Manbalardagi fikrlarning ziddiyatligi, tarixnavislarning qo'zg'olon voqealariga tendensioz munosabatda bo'lgani ijodkorlarga faktlarni turlicha talqin qilishga ma'naviy huquq beradi.

ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия.-М.,1963.- С.545-548;
2. Якубовский А. Восстание Тараби в 1238 г. (К истории крестьянских и ремесленных движений в Средней Азии) // Доклады группы востоковедов на сессии АН СССР 20 марта 1935 г.– М.–Л., 1936.– С. 121-125.
3. Oybek. Mukammal asarlar majmuasi. XX tomlik. IV-tom.-T.: FAN,-1976.-B. 113;
4. Oybek. Mukammal asarlar majmuasi. XX tomlik. XIV-tom.-T.: FAN,-1976.-B. 292;
5. D.Quronov, B.Rahmonov. G'arb adabiy tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari.- T.,2007.- B. 173
6. Vohidov R. Qasoskorning nomi barhayot.– Buxoro, 1988;
7. Osim M. Tanlangan asarlar.- T.: Yosh gvardiya, 1965.- B.176;
8. Ahmedov N. Tarixiy shaxs talqini.-T.: Adabiyot va san'at, 1989;
9. Boymatov L. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni // Yoshlik.-1989.- №1.- B. 60
10. Sultonova M. Tarixiy shaxs va uning talqinlari to'g'risida // Adabiy meros. 1990.-№2.-B.36.
11. Samandarov I. O'zbek tarixiy romanlarida tarixiylik: Filol.fan.nom... dis.–T.,1992; Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari tarixiy asoslari: Filol.fan.dok... dis.–T.,1995;
12. Toshev N. Alouddin Juvayniyning "Tarixi jahongusho" asari Markaziy Osiyoning XII-XIII asrlar tarixiga oid muhim manba: Tarix fan. nom... dis.–Toshkent: 2004- B.110-116;



Umida HASANOVA,
NamDU o'qituvchisi

Namangan davlat chet tillar instituti dotsenti PhD. A.H.Tursunov taqrizi asosida

JORJ GORDON BAYRON SHE'RIY ASARLARIDA METAFORA VA QIYOSLASH STILISTIK VOSITALARNING LINGVISTIK VA BADIY VAZIFALARI

Аннотация

Maqolada Jorj Gordon Bayron qalamiga mansub ayrim poetik asarlardagi metafora va qiyoslash stilistik vositalari va ularning stilistik va badiiy funksiyalari hamda lingvopetik xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Metafora, qiyoslash, ma'noni ko'chirish, badiiy ifoda vositalari, poetik uslub.

LINGUISTIC AND LITERARY FUNCTIONS OF THE STYLISTIC MEANS OF METAPHOR AND COMPARISON IN BYRON'S POETIC WORKS

Annotation

The article analyzes the stylistic means of metaphor and comparison in some of the poetic works of George Gordon Byron, their stylistic and artistic functions and linguistic and poetic features.

Key words: Metaphor, comparison, amplification of meaning, means of artistic expression, poetic style.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ФУНКЦИИ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ МЕТАФОР И СРАВНЕНИЙ В ПОЭТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ БАЙРОНА

Аннотация

В статье анализируются стилистические средства метафоры и сравнения в некоторых поэтических произведениях Джорджа Гордона Байрона, их стилистико-художественные функции и лингвопоэтические особенности.

Ключевые слова: Метафора, сравнение, усиление смысла, средства художественной выразительности, поэтический стиль.

Tilning obrazlilikigi romantizm davri poeziyasining ajratib turuvchi bir xususiyati edi. Masalan, Sheller haqida gapirishar ekan, adabiy tanqidchilar ko'pincha uni metaforadan keng foydalanuvchi adib, deb atashadi va uning she'rlarida jonlantirishning keng qo'llanilishini aytishadi. Bu esa "Bulut" (The Cloud), "Bo'zto'rg'ayga" (To a Skylark), yoki "G'arbiy shamol odasi" (Ode to the West Wind) kabi she'rlarning tahlili natijasida xattoki mifologik ijod haqida gapirishga ham imkon beradi. Bu she'rlarda tabiatning jonlantirilgan voqea-hodisalari o'zining yorqin va ko'p qirrali obrazlilikigi antik miflarga o'xshash yuksak poetik allegoriyalarga aylangan. Bayron bu borada Shellerga nisbatan torroq doirada ijod qilgan. Shunday bo'lsada, metafora va qiyoslash uning uslubuda juda katta o'rin egallagan. Tabiat Bayron va uning zamondoshlari uchun metafora va qiyoslashning tuganmas-bitmas manbasi bo'lib xizmat qilgan. "Chayld Harold ziyorati" va boshqa she'rlarda bu obrazlarning ko'pchiligi eskidan qo'llab kelingan vazifalarini bajaradilar: dengiz - o'zgaruvchanlik simvoli, burgut yoki qirg'iy mag'rur va tutqunlikka ko'nikmaydi, tog'lar esa ulug'vorlik simbolini anglatadi. Muvaffaqiyat mustahkamligiga bo'lgan ishonchsizlikni Bayron to'lqinlanayotgan dengiz uzra suzib borayotgan eski qayiqqa o'xshatadi:

The Earth to them was as a rolling bark
Which bore them to Eternity... (Ch. H. IV, 64)

Erksevar Chayld Haroldni u tutqunlikdagi yovvoyi qushga mengazaydi:

But in Man's dwellings he became a thing
Restless and worn, and stern and wearisome,
Drooped as a wild-born falcon with clipt wing

To whom the boundless air alone were home... (Ch.H., III, 15)

Shoirmi o'zi sevgan mavzusi ilhomlantiradi va uni shamol kabi olib ketadi:

... I seize the theme...

And bear it with me, as the rushing wind

Bears the cloud onwards... (Ch.H., III, 3)

Ozodlik tug'i xattoki shamolga qarshi bora oladigan dahshatli dovul misoli kabi xilpiraydi:

Yet, Freedom! Yet thy banner, torn, but flying,

Streams like the thunder-storm against the wind (Ch. H. IV .98)

Bu metafora va qiyoslashlarda o'z aksini topayotgan tabiat voqea va hodisalariga tez-tez jon baxsh etiladi. "Chayld Harold ziyorati"ning uchunchi qo'shig'i 89 bandida osmon va zamin huddi biz insonlardek sukut saqlaydi, so'z bilan ta'riflash qiyin bo'lgan chuqur o'ygaga toladi:

All Heaven and Earth are still – though not in sleep,

But breathless, as we grow when feeling most;

And silent, as we stand in thoughts too deep: -

All Heaven and Earth are still:

O'z o'rinda inson aql-zakovati "tasavvurlar va alanga girdobi" qaynagan tubsiz chuqurlikka o'xshatiladi:

...I have thought

Too long and darkly, till my brain became,

In its own eddy boiling and o'erwrought,

A whirling gulf of phantasy and flame: (Ch. H. III. 7)

Yosh avlod his-tuyg'ulari cho'lu biyobonlar qumliklarida halok bo'ladi va qorong'u va chirib borayotgan begona o't-o'lanlar orasida zavolga yuz tutadi:

... our young affections run to waste,

Or water but the desert! Whence arise
 But weeds of dark luxuriance, tares of haste,
 Rank at the core, though tempting to the eyes,
 Flowers whose wild odours breathe but agonies,
 And trees whose gums are poison; (Ch. H. IV. 120)
 Yoshlik yillarining halokatli va aqlsiz extirosarlari o'zida
 minglab shamol kuchlarini mujassam etgan quyun misoli
 o'ziga tortib boraveradi :

.....youth's frenzy.....

.....still it draws us on,

Reaping the whirlwind from the oft-sown winds (Ch.
 H. IV. 123)

G'am-alam esa tushkunlikka tushgan yuraklarga chqur
 ildiz otadi. Zamin qanchalik ulug'vor, mustahkam bo'lsa, ana
 shu g'am-alamning yuraklarni kemiruvchi kuchiga qarshi tura
 oladi, biroq bu ham uzoq vaqt dosh bera olmaydi:

Existence may be borne, and the deep root

Of life and sufferance make its firm abode

In bare and desolated bosoms: (Ch. H. IV. 21)

Majoziy kartinalarga jamlanar ekan bu metaforalar va
 qiyoslashlar mazmun va mohiyatning ichki belgilaridan
 e'tiborni chetga chalg'itmaydi. Bu esa mavhumlikni muayyan
 predmetlar bilan birga qo'shgan obrazlar hisobiga amalga
 oshiriladi: masalan, tares of haste (ya'ni, shoshma-
 shosharlikning xatolari (so'zma-so'z aytganda shoshma-
 shosharlikning begona o'tlari (ya'ni yomon tomonlari), breathe
 but agonies, deep root of life va hokazolar. Bu so'z
 birikmalaridagi mavhumlikni anglatuvchi haste, agonies, life
 so'zlari va muayyan predmetni anglatuvchi tares, breathe, root
 so'zlari bir-biri bilan juda kuchli bog'langan, masalan, predlog
 yordamida yoki to'ldiruvchili fe'l sifatida.

Ko'pincha, muayyanlik ma'lum bir geografik joy bilan
 qo'shib keladi. Masalan, "Chayld Harold sayohati"
 poemasining uchinchi qo'shig'ining boshlanishida
 Shveysariya jonlantiriladi. Rona ikki tepalikni bir-biridan
 ajratib, yovuz dushman ikki sevishganlarni bir-biridan ayirgani
 kabi yana uchrashishlariga umid qoldirmay, ularning
 o'rtalaridan o'ziga yo'l ochadi:

Now where the swift Rhone cleaves his way between

Heights which appear as lovers who have parted

In hate, whose mining depths so intervene,

That they can meet no more, though broken-hearted:

(Ch. H., III,

94)

Yana o'sha uchinchi qo'shiqda Reyn daryosi
 qirg'oqlaridagi qadimiy qasrlar buyuk g'oya va maqsadlari
 endilikda tushunarsiz bo'lib qolgan, va umuman unutilgan
 o'tmishning buyuk mutafakkirlari misoli turishi tasvirlanadi:

And chiefless castles breathing stern farewells

From gray but leafy walls, where Ruin greenly dwells.

.....

And there they stand, as stands a lofty mind,

Worn, but unstooping to the baser crowd,

All tenantless, save to the cranning wind,

Or holding dark communion with the cloud

There was a day when they were young and proud:

(Ch. H., III,

46-47).

Zindonda halok bo'lgan o'spirinning go'zal chehrasi
 "Shilon tutquni" asarida yigitchaning ona vatani Shveysariya
 va erkin hayotini eslatuvchi obrazlar yordamida tasvirlanadi.
 Bu yerlarda u umrini tog'lar orasida o'tkazgan, yuzidan qochib
 borayotgan qizillik so'nayotgan kamalakka o'xshaydi, uning
 chaqnoq ko'zlari zindoni-da yorita oladi:

..... a cheek whose bloom

Was as a mockery of the tomb,

Whose tints as gently sunk away

As a departing rainbow's ray; -
 An eye of most transparent light,
 That almost made the dungeon bright; (190 – 195)
 Uning tiniq ko'z yoshlari esa xuddi tog'u toshlardan
 oqib tushayotgan irmoqlar misoli:

And thus he was as pure and bright,

And in his natural spirit gay,

With tears for nought but others' ills,

And then they flowed like mountain rills. (86 – 89)

U kun kabi: ozod va yosh burgutga chiroyli bo'lgan kun
 kabi go'zal edi:

For he was beautiful as day –

(When day was beautiful to me

As to young eagles being free) – (79 – 81)

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, inson xis-
 tuyg'ularini anglatuvchi so'z, so'z birikmalari va ifodalar tabiat
 voqea-hodisalariga qiyoslanadi. Biroq bu xis-tuyg'ularning
 tabiatning jonsiz predmetlariga ko'chirilishi esa o'sha davr
 uchun yangilik emas edi. To'g'ri, 18 asr klassik yozuvchilari bu
 stilistik vositalardan ehtiyotkorlik bilan, ko'proq takror va
 takror ishlatilaverib siyqasi chiqqan jonlantirishlar ko'rinishida
 foydalanishgan. Biroq romantizm davri adabiyotida bu stilistik
 vositalardan yozuvchilar orasida sevimli uslub sifatida keng
 foydalanila boshlaydiki, ular yozuvchilarga maxsus, ko'pincha
 g'amgin va yoki fojiali holat va kayfiyatni yaratish uchun juda
 qo'l kelgan. Shuning uchun bu uslub Anna Radklif, Metyu
 Gregori Lyuis, keyinchalik Charlz Metyurin (mashhur romani
 "Darbadar Melmot" (Melmoth the Wanderer) kabi gotik
 romanlar mualliflari ijodida doim uchrab turadi. Bu kabi
 qiyoslashlarning rivojlanishida Jems Makfersonning "Ossian"
 asari ham juda katta rol o'ynagan deb aytish mumkin.

Adabiyotshunoslarning fikricha, Bayronning "Ossian"
 asarini yoshligidan sevib o'qigani ma'lum. Buning isboti
 sifatida ular Bayron ijodidagi "Kalmar va Orlaning o'limi"
 (The Death of Calmar and Orla) asarini, yoki "Bekorchilik
 soati" (Hours of Idleness) prozaik asarida "Ossian"dagi ritmik
 prozalarga qilingan taqlidlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu
 ilk ijod namunalarida Bayron "Ossian"da mavjud
 frazeologiyalardan, xususan, qiyoslash va metaforalardan keng
 foydalangan. Zero bu qiyoslash va metaforalarda ham inson
 xis-tuyg'ularini va tabiatini tasvirlash uchun tabiat voqea va
 hodisalaridan foydalanilgan. Masalan, "Rough was thy soul,
 Orla! Yet soft to me as the dew of the morn", "Then raise thy
 fair locks, son of Mora. Spread them on the arch of the rainbow;
 and smile through the tears of the storm", "As roll the waves of
 the Ocean on two mighty barks of the North, so pour the men
 of Lochlin on the chiefs." Yana shu narsa e'tiborni tortadiki,
 Makfersonga taqlid qilar ekan, yosh Bayronni bu asardagi
 obrazlilik maftun etibgina qolmaydi. Ba'zan, Makferson tilidagi
 ko'plab troplar, xattoki unga yoqmaydi: o'z izohlarida uning
 badiiy obraz vositalarini "og'ir" deb hisoblaydi. Makfersonning
 Bayron ijodiga ta'siri uning so'nggi asarlarida ham kuzatilishi
 mumkin. Masalan, adabiyotshunos Xartli Kolrij Bayronning
 "Gyaur" asaridagi eski qasr xarobalari tasvirini "Ossian" bilan
 solishtirgan. O'sha davr shoirlari lirikasida inson xis-tuyg'ulari
 va tabiat voqea-hodisalarini o'zaro bir-biriga bog'lab,
 uyg'unlashtirib tasvirlashga harakat qilishgan. Tabiatni
 jonlantirib va "insoniylashtirib", Vordsvort va Kolrij unga
 o'quvchilariga singdirmoqchi bo'lgan xis-tuyg'ularni ato
 etishgan.

"Ozod Prometey" (Prometheus Unbound) asarining
 muqaddimasida P.B.Shelli "inson qalbi va yoki uning tashqi
 ko'rinishlari, hatti-harakatlaridan olingan obrazlar"dan o'sha
 davr she'riyatida kam foydalanilgani haqida gapiradi. Shunday
 bo'lsa-da, bu badiiy tasvir vositalarini Dante va Shekspirda
 doim uchratish mumkin edi.

Bayronning "Gyaur" poemasi Gretsiyani hayot nishonasi so'ngan yuzga qiyoslash bilan boshlanadi. Endigina hayotdan ko'z yumgan insonning qotib qolgan yuz ifodasi butun mamlakat haqidagi taassurotni beradi va xalqning boy berilgan mustaqillik, ozodlikni qo'msayotganini ifodalaydi:

So fair, so calm softly sealed,
The first, last look by Death revealed!
Such is the aspect of this shore;
'Tis Greece, but living Greece no more!
So coldly sweet, so deadly fair,
We start, for soul is wanting there (G. 88-93)

Bayron she'riyatidagi ruhiy kechinmalar aksariyat xollarda ikki asr davomida Yevropa xalqlarining achchiq hayotiy tajribalaridan olingan. Ezilgan va yakson bo'lgan Gretsiya, inqilob umidlari puchga chiqqan Fransiya, xarobaga aylangan Italiya – bular Bayron ijodida o'z aksini topgan edi. Aynan mana shu xalqlar kechinmalari shoiring kechinmalariga aylanadi.

Bayron ijodida Italiya davri o'zgacha uslubi va o'zgarishlar alohida ahamiyatga ega. Endi uning ijodida satira va mubolag'ali hajviy tasvirlar birinchi o'ringa o'tadi. Aleksandr Poup va 18 asr ingliz klassiklariga bevosita taqlid qilishlar ortda qoladi. Endi u obrazlarning "dunyoviy" moddiyligi sari intila boshlaydi. "Sud sharpasi" poemasi 28 bandida u shunday deydi:

My poor comparisons must needs be teeming
With earthly likenesses.
54 bandida esa shunday ta'kidlaydi:
I borrow my comparisons from clay,
Being clay myself,

Bayronning o'tkir satiralari eng avvalo Angliyaga qarshi qaratiladi. Angliya uning asarlarining markaziy mazmun va g'oyasi hisoblanadi va u "Don Juan" poemasidagi muallif lirik chekinishlarida doim bu mavzuga qaytadi, ingliz xalqi urf-odatlarining o'ziga xos xususiyatlariga ishora qiluvchi alohida qiyoslash va obrazlar bilan u haqda eslatadi. Bayronning "dunyoviy obrazlari" asosida millat, xalq taqdiri yotadi. Garchand bu dunyoviy obrazlar Bayronning qiziqishlari doirasiga tushib qolgan har qanday mamlakatning milliy bo'yoqdorligi elementlarini o'zida mujassam etsa-da, aksar hollarda milliy bo'yoqdorliklari ingliz xalqiga tegishli ekani sir emas.

Don Xose oilasidagi Sevilyani tasvirlar ekan, Bayron don'ya Inesni Ejuort romanlari qahramonlari bilan, inglizlarning boshqa ibratli kitoblaridagi yaxshi fazilatli timsollar bilan qiyoslaydi, uning mayda-chuyda narsalarga ham e'tibor qaratuvchi sinchkovligini londonlik eng zo'r soatsozlar tomonidan tayyorlangan soat mexanizmiga o'xshatadi, o'zga ayollardan ustunligini esa o'sha davrlarda Londonning hamma yerida reklama qilinayotgan soch o'stiruvchi pomadaga qiyoslaydi:

In short, she was a walking calculation,
Miss Edgeworth's novels stepping from their cover,
Or Mrs. Trimmer's books on education,....
Morality's prim personification....

.....
Even her minutest motions went as well
As those of the best time-piece made by Harrison
In virtues nothing earthly could surpass her,
Save thine "incomparable oil" Macassar! (D. J. I. 16-

17)

Angliya va uning urf-odatlari haqidagi doimiy eslatishlar Ines obrazi xarakteristikasining londonlik "oliynasab" o'qimishli ayollarini satira satirasiga aylanganini ko'rsatadi.

"Sud sharpasi"da muallif ko'kdagi sharpalarni jo'rttaga kundalik xalq tilidan olingan so'z va frazeologik birikmalar

yordamida tasvirlaydi: farishtalar "qochib ketayotgan yulduzni" tutishadi ("a runaway star"), "kishanlardan yulqinib qochgan toychoq misol kometani" ("a wild colt of a comet", "out of bounds" (V.J., 2). Boqiy dunyo eshigi ostida insoniyat gunohlarini ro'yatga oluvchi xizmatkorday farishta "qora stol" ortida o'tirib olib patqalamda yozmoqda:

Terrestrial business filled nought in the sky
Save the Recording Angel's black bureau;
Who found, indeed, the facts to multiply
With such rapidity of vice and woe,
That he had stripped off both his wings in quills...

(V. J. 3)

"Beppo" poemasida esa Lauraning go'zalligini Angliya qovoqxonalarini eshigi tepasiga osib qo'yiladigan viveskalarga, shuningdek, ingliz rasmi jurnallarining muqovasiga o'xshatiladi:

Laura.....
Fresh as the Angel o'er a new inn door,
Or frontispiece of a new Magazine. (B. 57)

Bayronning "dunyoviy" obrazlari, ko'pincha, kundalik turmush va hayot sohasidan olingan obrazlardir. Ular tasvirlanayotgan ob'ektni "pastga tushirishga" mo'ljallanadi, ular doim bir-birining ortidan keladi va satirik va kinoya ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, "Sud sharpasi"da Bayron o'z adabiy raqobatdoshi Roberts Sauti haqida gapirar ekan ana shu yo'lni tutadi:

He first sank to the bottom – like his works,
But soon rose to the surface – like himself;
For all corrupted things are buoyed like corks,
By their own rottenness, light as an elf,
Or wisp that flits o'er a morass: he lurks,
It may be, still, like dull books on a shelf,
In his own den,...

Bu misralarda Bayron yomon shoirmi (ya'ni Sautini) avvalo har qanday tubanlik bilan shon-sharafga erishganligini tasvirlaydi, keyin esa bu muvaffaqiyatning mustahkamligini zerikarli, hech kim o'qimaydigan kitobga o'xshatadi. Afsuski, bu kitobni olib chiqib otib yuborishmagan va u hali xanuz kitob polkasida berkinib yotibdi. Bu qiyoslashlarning ikkisi ham bir bandeda keltirilgan va aynan mana shu yaqinlik Sauti she'rlarining mazmun jihatdan bema'no, zerikarli va hech kimga kerakli emasligi haqida berilgan bahoni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bayron o'z satirik poemalarida keng ishlatadigan "pastga uruvchi" obrazlar uning lirik she'rlariga xos xususiyat bo'lgan obrazlar tizimini to'liq siqib chiqaradi, deyish noto'g'ri. Bu tabiiy, albatta, Italiya davrida Bayron ijodida satira lirik ijodga nisbatan kengroq o'rin oladi. Shunday bo'lsa-da, u lirik shoir bo'lib qoladi. bunga "Chayld Haroldning ziyorati" poemasining to'rtinchi qo'shig'i, "Dante bashorati" poemasi, "Tasso shikoyati" poemalari "Kain" dramasiidagi ko'plab monologlar va boshqa she'rlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, Bayron ijodining ilk davrlarida, masalan lirik poemalarida, janrlarning aralashib ketishi, xattoki so'nggi asarlarida ham kuzatiladi. Masalan, "Don Juan"da lirik misralar va bandlar mavjud. Butunlay o'tkir satirik ruh bilan sug'orilgan "Sud sharpasi"da esa Bayronning lirik asarlarga bo'lgan qobiliyatini namoyon qiluvchi qiyoslashlarni kuzatishimiz mumkin. Bunda ruhiy xolatlar tabiat voqeahodisalariga qiyoslanadi: masalan, Shaytonning manglayini quturgan dengizga o'xshatadi:

His brow was like the deer when tempest-tossed;
Fierce and unfathomable thoughts engraved
Eternal wrath on his immortal face,
And where he gazed a gloom pervaded space (24)

Lirik va satirik qiyoslashlarning va metaforalarning o'zaro aloqadorligi turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda,

so'nggi misoldagi singari, poemadagi butunlay satirik usulda yozilgan qiyoslash mustaqil ma'no kasb etadi va ironik obrazlar bilan bevosita aloqaga kirishmaydi. Boshqa hollarda, masalan, Sauti ijodiga baho berish haqidagi bandlarda turlicha xususiyatlarga ega bo'lgan qiyoslash va metaforalar bir maqsadga xizmat qiladi – uning (Sautining) poemalari nafaqat zerikarli va ma'no jihatdan sayoz, balki, ustiga ustak, ular shunchalar tushunarsiz yozilganki, xuddi “botqoqlikdagi olov” singari ma'no va mazmunini ilib olish qiyin. Uchinchi holatda esa, va nihoyat, turli xarakterga ega bo'lgan metafora va qiyoslashlar bir-biri bilan to'qnashib, qarama-qarshilikning keskin ta'sirini paydo qiladi. Yana o'sha “Sud sharpasi” poemasidagi tasvirlarga qaytamiz. Georg III ga qarshi guvohlik berish uchun kelgan bir to'da guvohlarni ko'rib rangi oqarib ketgan Arxangelning (farishtalar va malaklarning eng kattasi) xolatini Bayron shunday tasvirlaydiki, bu tasvirga qiyoslashlarning butun bir boshli tizimi kiradi – biri ko'klarga ko'taruvchi, biri turmush tarzidan olingan, yana biri esa pastga fosh etuvchi qiyoslashlar:

When Michael saw this host, he first grew pale,
As angels can; next, like Italian twilight,
He turned all colours – as a peacock's tail,
Or sunset streaming through a Gothic skylight

In some old abbey, or a trout not stale,
Or distant lightning on the horizon by night,
Or a fresh rainbow, or a grand review
Of thirty regiments in red, green, and blue (V. J. 61)

Chaqmoq va kamalak qiyoslanishi ortidan paradning qiyoslanishi ishlatiladi; “sunset streaming”, “Gothic”, “distant sunder” kabi so'z va so'z birikmalari poetik uslub bilan fikran bog'lanib keladi, “as angels can”, “he turned all colours; in red, green and blue” (qizil, yashil va ko'k mundirda kiyingan ma'nosida) kabi til qurilmalari band uslubiga og'zaki nutq xarakterini bag'ishlaydi.

Qiyoslashlar o'rtasidagi qarama-qarshilik yanada ko'proq komik xarakterga ega bo'ladi, chunki ularning hammasi bir bo'lib, boshi qotib qolgan Arxangelning yuzida bir paydo bo'lib, bir yo'qolayotgan kraska – ranglarni ifodalaydi.

Xulosa. O'rnida aytish mumkinki, Bayron ijodi xilma-xil o'xshatish va metaforalarga boy bo'lib, bu uning asarlarining kuchli ta'sirchan va bo'yoqdor bo'lishiga xizmat qiladi. O'zidan oldingi klassik yozuvchi va shoirlar ijodidan bahramand bo'lgan va ularning so'z boyliklaridan foydalangani xolda Bayron ingliz she'riyatini turli yangi istioralar bilan boyitdi.

ADABIYOTLAR

1. Lord Byron. Child Harold's Pilgrimage. W.B.Conkey company publishers. Chicago, 1900.
2. Lord Byron. The Vision of Judgement. Printed for Longman, Hurst, Rees, Orme, and Brown. London, 1821
3. Lord Byron. Don Juan. Printed for John and H.L.Hunt. London, 1821
4. Lord Byron. Beppo, A Venetian story. Sixth edition. John Murray, Albemarle-street. London, 1821.
5. Lord Byron. The Giaour, a fragment of a Turkish tale. John Murray, Albemarle-street. London, 1813.



Nosir *SHERBOEV*,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: sherboevlinguist@gmail.com

O'zDJTU katta o'qituvchisi, Filologiya fanlari doktori, professor X.B.Samigova taqrizi ostida

THE CLASSIFICATION OF ADVERTISEMENTS RELATED TO TRADE SPHERE

Аннотация

The article investigates the researches related to the trade advertisement and its main peculiarities in philology. Commercial speech is very important for the purpose of advertising, as it helps sellers to raise awareness about their products. In addition, it ensures that advertisers do not misinform about products by promoting self-regulation. In the commercial rhetoric we are researching, each grammatical, phonetic or stylistic tool is considered very important. The more rhetoric commercial speech is rich, the more meaningful and influential it is. Finally, it protects consumers from misinformation about products.

Key words: Rhetoric, advertisement, the history of advertisement, advertisement language, purpose of advertisement, advertising by a language, types of advertisement.

КЛАССИФИКАЦИЯ РЕКЛАМНЫХ ОБЪЯВЛЕНИЙ, ОТНОСЯЩИХСЯ К СФЕРЕ ТОРГОВЛИ

Аннотация

В статье исследуются исследования, связанные с торговой рекламой, и ее основные особенности в филологии. Коммерческая речь очень важна для целей рекламы, поскольку она помогает продавцам повысить осведомленность о своей продукции. Кроме того, это гарантирует, что рекламодатели не будут вводить в заблуждение о продуктах, поощряя саморегулирование. В коммерческой риторике, которую мы исследуем, каждый грамматический, фонетический или стилистический инструмент считается очень важным. Чем более риторична коммерческая речь, тем она значимее и влиятельнее. Наконец, это защищает потребителей от дезинформации о продуктах.

Ключевые слова: Риторика, реклама, история рекламы, язык рекламы, цель рекламы, реклама с помощью языка, виды рекламы.

SAVDO SOHASIGA OID REKLAMALARNING TASNIFI

Аннотация

Maqolada savdo reklamasi va uning filologiyadagi asosiy xususiyatlari bilan bog'liq tadqiqotlar o'rganiladi. Tijorat nutqi reklama maqsadida juda muhimdir, chunki u sotuvchilarga o'z mahsulotlari to'g'risida xabardorlikni oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu reklama beruvchilar o'z-o'zini tartibga solishni targ'ib qilish orqali mahsulotlar haqida noto'g'ri ma'lumot bermasliklarini ta'minlaydi. Biz tadqiq qilayotgan tijorat ritorikasida har bir grammatik, fonetik yoki stilistik vosita juda muhim hisoblanadi. Ritorik tijorat nutqi qanchalik boy bo'lsa, shunchalik mazmunli va ta'sirchan bo'ladi. Va nihoyat, u iste'molchilarni mahsulotlar haqidagi noto'g'ri ma'lumotlardan himoya qiladi.

Kalit so'zlar: Ritorika, reklama, reklama tarixi, reklama tili, reklama maqsadi, til bo'yicha reklama, reklama turlari.

Kirish. Tijorat nutqi reklama qilish maqsadida juda muhimdir, chunki u sotuvchilarga o'z mahsulotlari to'g'risida xabardorlikni oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, u reklama beruvchilar o'z-o'zini xususiy tartibga solishni targ'ib qilish orqali mahsulotlar haqida noto'g'ri ma'lumot bermasligini ta'minlaydi. Va nihoyat, u iste'molchilarni mahsulotlar haqidagi noto'g'ri ma'lumotlardan himoya qiladi. Xususan, A. V. Arlansev va Ye. V. Popovning fikrlariga ko'ra, iste'mol bozorlarini ritorik kommunikatsiyani tasniflash va anglab yetish eng katta amaliy ahamiyatga ega, ularning fikrlariga ko'ra: Reklama kompleksi to'rtta asosiy elementdan iborat: reklama; jamoatchilik fikrini shakllantirish; shaxsiy savdo; sotishni rag'batlantirish. Reklamaning iqtisodiy funksiyasining mohiyati ma'lum bir vaqt birligi uchun ma'lum mahsulotlarni sotishdan, xaridni rag'batlantirish va ishlab chiqarishni ko'paytirishdan iborat.

Asosiy qism. Tadbirkorlik subyektlari o'zlarining xizmatlarini va mahsulotlarini reklama qilish uchun turli xil tashqi yozuvlardan foydalanishlari mumkin. Bu tashqi yozuvlar reklama xabarlarini ommaga yetkazishni hedeflaydilar va reklama xabarlarining yetkazilishi uchun turli xil vositalar,

masalan, televizor, radio, internet, chipta yoki boshqa ko'rsatkichlardan – turli xil o'ziga tortuvchi yozuvlardan foydalanishlari mumkin.

Reklama xabarlarining tashqi yozuvlari shaxsiy reklama, korporativ reklama, mahsulot reklamalari, xizmat reklamalari va boshqa turdagi reklama xabarlarini o'z ichiga oladi. Tashqi yozuvlar reklama xabarlarini qisqa va qulay shaklda ifodalashga imkon beradi. Reklama xabarlarini tashqi yozuvlar orqali yetkazish reklama xarajatlari vaqt va mablag'lar jihatidan qulaydir. Shuningdek, tashqi yozuvlar reklama xabarlarini qulay va sodda shaklda ommaga yetkazishga imkon beradi. Reklama xabarlarining yetkazilishi uchun tashqi yozuvlardan foydalanish, reklama xabarlarining ko'plab odamlarga yetkazilishini ta'minlashda yordam beradi.

Bu tashqi yozuvlar, savdo shaxobchalari tomonidan taqdim etilayotgan tovarlar va xizmatlar haqida ma'lumot berish, reklama qilish, mijozlarga chegirmalar va turli xil yozuvlar orqali o'ziga jalb qilish, xaridorga qo'llanishga imkoniyat berish uchun ishlatiladi. Bu yozuvlar, reklama xizmatlarining bir qismi sifatida, savdo sub'ektlari tomonidan tashkil etilgan reklama strategiyalarining muhim qismlari

hisoblanadi. Bu yozuvlar, savdo sub'ektlari tomonidan belgilangan xarajatlarga muvofiq ravishda tayyorlanadi va savdo sub'ektlari tomonidan belgilangan reklama maqsadlari va hujjatlarga mos keladi. Ushbu reklamalar xaridorlarni o'ziga jalb qila oladi, chunki bu yozuvlar xaridorlar uchun kulgu uyg'otuvchi, o'ziga magnitday tortuvchi hisoblanadi.

Bu tashqi yozuvlar savdo sub'ektlari tomonidan belgilangan reklama strategiyalariga mos keladi va mijozlarni xaridorga qo'llanishga rag'batlantirish uchun ishlatiladi. Bu yozuvlar, savdo sub'ektlari tomonidan belgilangan xarajatlarga muvofiq ravishda tayyorlanadi va mijozlarga tovar yoki xizmat haqida qo'shimcha ma'lumotlar berish maqsadida ishlatiladi. Shuningdek, bu tashqi yozuvlar savdo shaxobchalari tomonidan taqdim etilgan xizmatlar va tovarlarning sifatini ko'rsatish, mijozlarni xaridorga qo'llanishga rag'batlantirish uchun foydali va zararli xususiyatlarini ta'riflashda ham foydalaniladi. Masalan, Agar sen bu kir yuvish kukunini olsang, hamma kirlaring toza bo'ladi. Agar fikringni o'zgartirmasang, hamma tomoning iflos bo'lib qolaveradi. Bundan ko'rinib turibdiki, savdo xodimi antonimlardan foydalangan holda xaridorga yaxshigina ta'sir qila oladi. Chunki xaridor ongida tozalik va ifloslik konseptlari o'rtasida firklar almashina boshlaydi.

Reklama xabarlarini tarqatish uchun tashqi yozuvlardan foydalanish katta auditoriyani jalb qilishning qulay va tejamkor usuli bo'lishi mumkin. Bu korxonalar reklama xarajatlarga vaqt va pulni tejashga yordam beradi.

Bundan tashqari, tashqi yozuvlar korxonalar reklama xabarlarini ommaga qulay va sodda tarzda tarqatishda yordam beradi. Reklama xabarlarini tarqatish uchun tashqi yozuvlardan foydalanish reklama xabarlarini ko'plab odamlarga etib borishini ta'minlashga yordam beradi.

Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tashkil etilgan savdo ofislaridan tashqarida reklama xizmatlari va tovarlarini tashqi yozuvlarning vazifalari biznes mahsulotlari va xizmatlarini kengroq auditoriyaga targ'ib qilish va sotishdir. Ushbu tashqi yozuvlar reklama xabarlarini ommaga tarqatish vositasi bo'lib xizmat qiladi va televizion reklama, radio reklama, reklama taxtalari, varaqalar, broshyuralar va boshqa reklama materiallari kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tashkil etilgan savdo ofislaridan tashqarida reklama xizmatlari va tovarlardagi tashqi yozuvlarning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Mijozlarni jalb qilish: tashqi yozuvlarning asosiy vazifasi mijozlarni tadbirkorlik sub'ekti tomonidan taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmatlarni sotib olishga jalb qilishdir. Ushbu yozuvlar mijozlarga ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradigan mahsulotlar yoki xizmatlarning xususiyatlari, afzalliklari va afzalliklari haqida ma'lumot beradi.

2. Ma'lumot berish: tashqi yozuvlar mijozlarga mahsulot yoki xizmat haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Ushbu ma'lumot mijozlarga mahsulot yoki xizmatni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan texnik xususiyatlar, foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar va boshqa tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Sifatni namoyish qilish: savdo vakillari xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar va tovarlar sifatini namoyish qilish uchun tashqi yozuvlardan foydalanadilar. Mahsulot yoki xizmatning xususiyatlari va afzalliklarini namoyish etish orqali savdo vakillari potensial mijozlarni xarid qilishga ishonitirishlari mumkin.

4. Foyda va zararli xususiyatlarni ta'kidlash: tashqi yozuvlar mahsulot yoki xizmatning foydali va zararli xususiyatlarini tavsiflash uchun ham ishlatiladi. Bu mijozlarga mahsulot yoki xizmat bilan bog'liq potensial xavf va foydalarni

tushunishga yordam beradi, bu ularning xarid qilish qaroriga ta'sir qilishi mumkin.

5. Brend imidjini yaratish: tashqi yozuvlar ham tadbirkorlik sub'ektlarining brend imidjini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mahsulot yoki xizmatning ijobiy imidjini taqdim etish orqali tashqi yozuvlar tadbirkorlik sub'ektini bozorda ishonchli va ishonchli brend sifatida o'rnatishga yordam beradi.

A. Goddard o'zining "The Language of Advertising" asarida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tashkil etilgan savdo ofislaridan tashqarida reklama xizmatlari va tovarlarni tashqi yozuvlarning qo'shimcha funksiyalarini keltirib o'tgan:

1. Tovarlarga xabar berishni oshirish: tashqi yozuvlar reklama xizmatlarining asosiy vazifalaridan biri tovar xabardorligini oshirishdir. Turli xil ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, korxonalar o'z brendini targ'ib qilishlari va uni kengroq auditoriya uchun yanada taniqli qilishlari mumkin.

2. Xaridni jonlantirish: tashqi yozuvlar reklama xizmatlari o'z mahsulotlarini va xizmatlarini potensial mijozlarga targ'ib qilish orqali korxonalar savdo-sotiqni yaratishda yordam berishi mumkin. Samarali reklama mijozlarni mahsulot yoki xizmatni sotib olishga ishonitirishi mumkin, bu esa sotishning ko'payishiga olib keladi.

3. Mijozlarning sodiqligini yaratish: reklama mahsulot yoki xizmatning afzalliklarini targ'ib qilish va mijoz bilan munosabatlarni o'rnatish orqali mijozlarning sodiqligini yaratishga yordam beradi. Sifatli mahsulot va xizmatlarni doimiy ravishda targ'ib qilish orqali korxonalar o'z mijozlarining ishonchi va sadoqatini qozonishi mumkin.

4. Ijobiy brend imidjini yaratish: tashqi yozuvlar reklama xizmatlari mijozlar ongida brend haqida ijobiy tasavvur hosil qilish orqali korxonalar ijobiy brend imidjini yaratishga yordam beradi. Ijobiy brend imidji korxonalar raqobatchilardan ajralib turishga va ko'proq mijozlarni jalb qilishga yordam beradi.

5. Mijozlarni xabardor qilish: reklama mijozlarni yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki maxsus aksiyalar to'g'risida xabardor qilish uchun ishlatilishi mumkin. Mahsulot yoki xizmat haqida ma'lumot berish orqali korxonalar mijozlarga sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishda yordam berishi mumkin.

6. Xabardorlikni yaratish: tashqi yozuvlar, shuningdek, tadbirkorlik sub'ekti tomonidan taqdim etilayotgan mahsulotlar yoki xizmatlar to'g'risida xabardorlikni yaratish uchun ishlatiladi. Bu, ayniqsa, bozorda taniqli bo'lmagan yangi yoki o'ziga xos mahsulotlar yoki xizmatlar uchun juda muhimdir. Masalan, ekologik toza tozalash vositalarini taklif qiluvchi kompaniya mijozlarga bunday mahsulotlardan foydalanishning afzalliklari haqida ma'lumot berish uchun tashqi yozuvlardan foydalanishi mumkin.

7. Raqobatchilardan farqlash: tashqi yozuvlar korxonalar o'z mahsulotlari yoki xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari yoki afzalliklarini ta'kidlab, raqobatchilardan ajralib turishga yordam beradi. Masalan, restoran uni targ'ib qilish uchun tashqi yozuvlardan foydalanishi mumkin fermadan stolga yondashuv, bu uni mintaqadagi boshqa restoranlardan ajratib turadi.

8. Yetakchilarni yaratish: tashqi yozuvlar tadbirkorlik sub'ekti uchun yetakchilarni yaratish uchun ham ishlatilishi mumkin. Masalan, avtosalon maxsus reklama yoki chegirmani reklama qilish uchun tashqi yozuvlardan foydalanishi mumkin, bu esa potensial mijozlarni dilerga tashrif buyurishga va mavjud avtomobillar haqida ko'proq bilishga undashi mumkin.

9. Takroriy biznesni rag'batlantirish: tashqi yozuvlardan mavjud mijozlarning takroriy biznesini rag'batlantirish uchun ham foydalanish mumkin. Masalan, go'zallik saloni sodiqlik dasturini targ'ib qilish uchun tashqi

yozuvlardan foydalanishi mumkin, bu esa bir necha bor tashrif buyurgan mijozlarga chegirmalar va boshqa imtiyozlarni taqdim etadi.

10. Savdo harakatlarini qo'llab-quvvatlash: va nihoyat, tashqi yozuvlar savdo vakillariga bitimlarni yopish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan qimmatli ma'lumotlar va manbalarni taqdim etish orqali tadbirkorlik sub'ektining savdo harakatlarini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Masalan, dasturiy ta'minot kompaniyasi savdo vakillariga potensial mijozlarga o'z mahsulotining qiymatini ko'rsatadigan amaliy tadqiqotlar va mijozlarning guvohnomalarini taqdim etishi mumkin.

Umuman olganda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan tashkil etilgan savdo ofislarida tashqarida reklama xizmatlari va tovarlari tashqi yozuvlar biznesning mahsulotlari va xizmatlarini kengroq auditoriyaga targ'ib qilish va sotishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turli xil ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalangan holda, korxonalar tovar xabardorligini oshirishi, savdo-sotiqni yaratishi, mijozlarning sodiqligini yaratishi, ijobiy brend imidjini yaratishi va mijozlarni yangi mahsulotlar va xizmatlar haqida xabardor qilishi mumkin.

Biz kundalik hayotimizda ko'cha-ko'ya, bozorda turli xil do'konlar tepasidagi xaridorlarni o'ziga tortuvchi yozuvlarga duch kelishimiz tabiiy holdir. Bu yozuvlarning barchasi odamlarning kognitsiyasiga nimanidir eslatib yuborishi mumkin. Shuning uchun ham sotuvchilar ham xaridorlar ongiga ta'sir qilish uchun ritorik vositalar, stilistik vositalardan, jonlantiruvchi usullardan o'rinli foydalanadilar. Masalan, "yumshoq va do'mboq matraslar" mebel do'koni peshtaxtasidagi yozuvga e'tibor beradigan bo'lsak, matrasni uning xaridorlarga eng qulay jihatini topib yoza olgan, shuning uchun ham ushbu reklamani o'qigan xaridor ushbu do'konga eng bo'lmaganda bir mo'ralab qo'yishi tabiiydir.

Bunaqa turdagi misollarni juda ko'plab uchratishimiz mumkin: o'zbek tilidaagi bu kabi savdo shaxobchalarini peshtoxlaridagi yozuvlar xaridorlarni o'ziga jalb qilish uchun tovarlarni "jonlantirish" usulidan foydalanishlariga yoki xalq ongiga eng yaqin bo'lgan konseptlardan foydalanishlariga duch keldik.

Lag'monni dodasi

Sizda ham pul ko'payib ketdi

Akangdan rom tanlashni o'rgan

Somsamisan somsa

Qurtni qurtday sanab oling

Issiqda qaynadingmi? Ayronan bahra ol!

Uzumdan yeng-u anoriga bir qarab qo'ying.

Kelinni kelganda ko'r, sepin yoyganda ko'r (mebel do'koni ustida) va boshqalar.

Hozirgi vaqtda o'zbek, rus va ingliz tilshunosligida odamlar gavjum joylardagi ommaviy kommunikasiya tiliga katta qiziqish mavjud, ammo uning aniq lingvistik mazmuni va ommaviy kommunikasiyani o'rganish muammolari hali yetarli darajada to'liq aniqlanmagan. Yapon tilshunosligida "ommaviy kommunikasiya" atamasi "ommaviy hayotning eng xilma-xil sohalariga ega bo'lgan juda keng tarqalish sohasini va bir vaqtning o'zida rivojlanayotgan lingvistik aloqani anglatadi. Bunday aloqa vositasi matbuot, radioeshittirish, ovozi kino, televizor yoki jonli muloqot ko'rinishida bo'lishi mumkin".

Akademik V. V. Vinogradovning so'zlariga ko'ra, ommaviy kommunikasiya tili "nutq stilistikasining asosiy asoslaridan biri", "zamonaviy jamiyatda o'z rivojlanishiga bir qator texnik yutuqlar bilan bog'liq bo'lgan ommaviy kommunikasiya nutq aloqasi va o'zaro ta'sirining murakkab

shakllarini va u amalga oshiriladigan jamiyat nutq tilining tarkibiy xususiyatlarini keng aks ettiradi".

Reklama ta'sirini baholashning boshlang'ich nuqtasi 1898 yilda mashhur AIDA modelini (attention – diqqat, interest – qiziqish, desire – istak, action – harakat) ishlab chiqqan Sent-Elmo Lyuisga tegishli. Ammo o'shandan beri ilmiy adabiyot bu borada boshqa ko'plab fikrlarni ko'rsatdi. Reklama xarakteridagi ma'lumotlarga iste'molchilarning reaksiyasi bo'yicha eng mashhur nazariyalar orasida Vakrasas va Ambler nazariyasi keng ommaga mashhurdir:

- bozorga javob berish nazariyasi
- kognitiv javob nazariyasi;
- effektiv javob nazariyasi;
- ishontiruvchi ierarxiya nazariyasi
- minimal ishtirok etish nazariyasi;
- integral nazariya.

Savdo reklamasining asosiy maqsadi boshqa korxonalar yoki tashkilotlarni ma'lum bir kompaniyadan mahsulot yoki xizmatlarni sotib olishga ishontirishdir. Savdo reklamasining asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u odatda iste'molchilar reklamasiga qaraganda ko'proq maqsadli va ixtisoslashgan. Savdo reklamalari muayyan korxonalar yoki sohalarga murojaat qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular ko'pincha o'z xabarlarini yetkazish uchun texnik til va sohaga xos terminologiyadan foydalanadilar.

Savdo reklamasining yana bir muhim xususiyati shundaki, u ko'pincha mahsulot yoki xizmatning xususiyatlarini yemas, balki uning afzalliklarini ta'kidlaydi. Buning sababi shundaki, korxonalar odatda mahsulot yoki xizmatning o'ziga xos xususiyatlari yoki texnik xususiyatlaridan ko'ra samaradorlikni oshirish yoki xarajatlarni tejash kabi amaliy afzalliklari bilan ko'proq shug'ullanishadi.

Savdo reklamasini turli xil shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan bosma reklamalar, onlayn reklamalar, to'g'ridan-to'g'ri pochta kampaniyalari, savdo ko'rgazmalari va homiylik. Biznes foydalanadigan reklamani o'ziga xos turi uning maqsadli auditoriyasiga, marketing maqsadlariga va mavjud byudjetga bog'liq bo'ladi.

Xulosa. Savdo xodimlari o'z faoliyatlarini davomida reklamani turli ko'rinishlaridan foydalanadilar. Ulardan eng keng tarqalgani bu – chakana reklama (retail advertising) dir. Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham savdo peshtoxlari tepasiga xaridorlarni jalb etish uchun turli xildagi yozuvlar va belgilar qo'yilgan bo'lib, ularning barchasi xaridorlarga kayfiyat ulashish uchun, sotilayotgan mahsulotlarga jalb qilish uchun yozilgan. Umuman olganda, savdo reklamasini ko'plab biznesdan biznesga marketing strategiyalarining muhim tarkibiy qismidir va u iste'molchilar reklamasiga qaraganda boshqacha yondashuv va ko'nikmalar to'plamini talab qiladi. Samarali savdo reklamasini maqsadli auditoriyani chuqur tushunishga va mahsulot yoki xizmatning afzalliklarini boshqa korxonalar yoki tashkilotlar bilan rezonanslashadigan tarzda samarali muloqotga tayanadi.

Xullas, savdo nutqi ritorikaning o'rganish ob'ekti sifatida qaraladi va tahlil qilinadi. Savdogarlar, umuman olganda savdo xodimlari oddiy savdogar, broker, agent, sayohat qiluvchi sotuvchi (kommivoyajer), komissiya agenti (komissioner), jo'natuvchi (konsignator), distribyutor (tarqatuvchi), jobber va diler kabi turlarga bo'linadi. Savdo reklamasini o'rgandik va chakana savdo reklamasini tahlil qildik.

ADABIYOTLAR

1. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. — М.: Изд-во АН СССР, 1963. [Vinogradov V.V. Stilistika. Teorija poeticheskoi rechi. Poetica. — M.: Izd-vo AN SSSR, 1963.]

2. Конрад Н.М. О языковом существовании // Японский лингвистический сборник. — М.: Наука, 1959. [Conrad N.M. O jazikovom suchestvovanii // Japonskij lingvisticheskij sbornik. — М.: Nauka, 1959.]
3. Goddard A. The Language of Advertising – L., N.Y., 1998. – 144 p.
4. Лазарева Э. А. Дискурс рекламы: инвариант и варианты // Психолингвистические аспекты изучения речевой деятельности. Екатеринбург, 2003а. Вып. 1. С. 144-158.
5. Vestergaard T, Schröder K. The Language of Advertising / Blackwell Publishers Ltd., 1985.
6. Хиршберг С. «Риторика рекламы». Паутина. Апрель 2013 г. стр.54
7. Леви Ю. Э. Вербальные и невербальные средства воздейственности рекламных текстов. / Ю. Э. Леви // Автореферат диссертации кандидата филологических наук. М.: МГЛУ, 2003. — 21 с



UDK:811.522

Avazbek SHOMURODOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tadqiqotchisi

O'zDSMI professori, fil.f.d. Yuldashev M.M. taqrizi asosida

STRUCTURAL ANALYSIS OF PRODUCER'S TERMS IN UZBEK LANGUAGE

Annotation

In this article, the issue of language and terminology, the structural analysis of terminology related to the field of production is carried out. The article also summarizes conclusions on the organization of terminological systems.

Key words: Terminology, lexicography, production, structural analysis.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ПРОДЮСЕРСКИЙ ТЕРМИНОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье проводится проблема языка и терминологии, проводится структурный анализ терминологии, относящейся к сфере производства. Также в статье обобщаются выводы по организации терминологических систем.

Ключевые слова: Терминология, лексикография, продюсер, структурный анализ.

O'ZBEK TILI PRODYUSERLIK TERMINLARINING STRUKTUR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada til va terminologiya masalasi, prodyuserlik sohasiga oid terminologiyaning struktur tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, maqolada terminologik sistemalarni tashkil qilish bo'yicha xulosalar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Terminologiya, leksikografiya, prodyuserlik, struktur tahlil.

Kirish. Har bir sohaning o'ziga xos nomenklaturasi – terminologik tizimi mavjud. Har qanday mutaxassislikni uning maxsus, o'sha soha uchun xoslangan atamaları majmuyisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qaysi soha tez rivojlanayotgan, dunyo miqyosiga chiqayotgan bo'lsa, shu sohaning o'ziga xos tili ham, uning terminologiyasi ham jadal sur'atlarda rivojlanayotgan bo'ladi. Shu ma'noda o'zbek tili prodyuserlik terminologiyasida o'sish jarayonini kuzatish mumkin. "Terminlar til lug'atining zamonaviy qatlamida qo'llaniladi va ilmiy-texnika uslubidagi til va nutqqa xos so'z va iboralar, birinchi navbatda, nominativ xususiyat bilan belgilanadi. Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi doimo o'zgarib turadi. Ijtimoiy tuzilma, ilmiy texnologiya va madaniyat vaqt o'tishi bilan o'sib borar ekan, sohalari va ularning terminologiyasining o'zgarib turishida ham o'z ifodasini topadi: terminlar ham eskirishi va yangilanishi, o'zaro sinonim va variantli bo'lishi, terminlararo omonimiya va giponimiya munosabatlari mavjud bo'lishi ham mumkin"[11].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Prodyuserlik sohasida ilmiy izlanish olib borgan prodyuser va olimlardan G.Iozefavovich, A.Kirilov, I.Kokerev, S.Chernomis, L.Lazuras, A.Ribin, B.Krishtul, S.Silyanov, I.Alekseyev, L.Arkus, V.Koshkin, N.Pol, S.Korneyev, P.Ogurchikov, D.Sleznik, I.Smelyanskiy, Yu.Kravsov, A.Rodyanskiylarning ishlari o'rganib chikildi. Shuningdek, jahon tilshunosligida termin lingvistik jihatdan N.Gavrilova, O.Pokrovskaya, T.Shetle, B.Raximberdiyev, O.Dovbish, O.Baran, M.Yumatova, A.Xudoyberganova, N.Moryaxina, I.Skvorsova, Y.Lotka singari tilshunoslar tomonidan tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tili prodyuserlik terminologiyasining o'ziga xos tomoni shundaki, bu tizim hali o'rganilmagani o'laroq, nisbatan so'ngi davrda mamlakatimizda keng quloq yozgan, rivojlangan soha – prodyuserlik (ishlab chiqarish) sohasining Respublikada shakllanish va taraqqiyotini o'zida aks ettiradi. Bu esa prodyuserlik sohasiga oid yangi kiritilgan terminlarni ilmiy

jihatdan tadqiq etishni dolzarb masalalar qatoriga kiritadi. "Ma'lumki, terminlar oddiy so'zlar singari umumadabiy va maxsus leksikada bor bo'lgan so'z va o'zaklardan yasaladi. O'zbek tili terminlari sistemasi o'zga qarindosh turkiy tillardagi singari mavjud struktur turlar, ya'ni sodda, yasama, qo'shma, qisqartma va so'z birikmalarini qamrab oladi"[6]. Til foydalanuvchilari tomonidan keng qo'llanilishida terminning semantik xususiyatlari kabi strukturaviy xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega. O'rganish jarayonida prodyuserlik terminlari tahlil qilinganda ular orasida turli tuzilishga ega birliklar borligi aniqlandi.

Tahlil va natijalar. O'zbek tili prodyuserlik terminlari struktur jihatdan quyidagicha tur va guruhlarda o'rganildi:

Bir komponentli prodyuserlik terminlari. Bir komponentli prodyuserlik terminlarini bir komponentli tub va bir komponentli yasama terminlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi..

Bir komponentli tub prodyuserlik terminlari. Ushbu tur terminlari o'z ichida turkum jihatdan quyidagi guruhlarga ajaraladi:

Ot so'z turkumiga oid terminlar: aktyor, aksiyador, animatsiya, baho, bobin, budjet, grim, detektiv, distribyutor, drama, joylar, ijara, kaskadyor, kassa, kasting, kvadrikel, kino, komiks, koproduksiya, qadrik, mayor (yirik kinostudiya), muharrir, noir (film), operator, oskar, pavilon, parodiya, peplum, pitching, prequyel, premera, prodyuser, reyting, rekvizit, sezar, seriya (qism), sessiya, slasher, slogan / shior, studiya, suhbat, ssenariy, tizer, timepunk, treyler, triquyel, trilogiya, yambara, fantaziya, film, fojia, xronika, chaqmoq kabi.

Fe'l so'z turkumiga oid terminlar: bezatish, o'rnatish, chiqarish (release).

Sifat so'z turkumiga oid terminlar: musiqiy.

Tahlilga kiritilgan yuqoridagi bir komponentli tub terminlarning ma'lum qismi o'zlashma terminlar bo'lib, chet tili uchun sodda yasama yoki qo'shma so'z sifatida yaratilgan

terminlar ham o'zbek tiliga shu tarzda o'zlashtirilgan va o'zbek tilida ushbu terminlarning shakllantiruvchi affiksi yoki komponenti mavjud bo'lmagani uchun ular o'zbek tili nuqtai nazaridan bir komponentli tub terminlar sifatida olindi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: blokbaster, kinematografiya, kinetograf, kinetoskop, kinetofon, kinorevyu, kinoprokat, melodrama, multipleks, multfilm, retrospektiv, tonateliyer, tragikomediya, fantasmagoriya, fotogeniya, xoreograf, ekstravaganza. Aytish lozimki, bunday terminlarning barchasi ot so'z turkumiga mansub.

Shuningdek, kinostudiya, kinofestival, kinofilm, pornofilm, kinokamera, kinokompozitor, kinokontratip, kinolenta, kinooperator, kinoprokat, kinorejissyor, kinoroman, kinoformat kabi terminlar garchi o'zbek tilida tarkiban alohida (kino, film tarzida) qo'llansa-da, chet tilidan to'g'ridan to'g'ri olingani uchun sodda tub sifatida tanlandi. Ushbu terminlar bir qancha yasama prodyuserlik terminlari uchun yasaliish asosi va birikma tipidagi prodyuserlik terminlarining tobe yoki hokim komponenti sifatida ancha faol qo'llaniladi. Bunday terminlarning ham barchasi ot so'z turkumiga mansub.

Bir komponentli yasama prodyuserlik terminlari. Bunday terminlardan joylashuv, kinoshunoslik, pardozchi kabilar ot, mahalliyashtirish esa fe'l so'z turkumiga mansub.

Qo'shma prodyuserlik terminlari: Tahlilga tortilgan o'zbek tili prodyuserlik terminlari orasida kalkalash yo'li bilan olingan quyidagi qo'shma terminlar aniqlandi: kinokutubxonona, kinomukofot, kinomusiqa, kinonusxa, kinoreja, kinosan'at, kinoto'plam, kinohikoya, kinoyulduz, kinoertak, suratga olish (kino) kabi. Ta'kidlash lozimki, bunday terminlarning deyarli barchasi ot+ot=ot, shuningdek, ot+fe'l=fe'l qolipididir.

"Prodyuserlik terminlarining eng murakkab jihatlaridan biri sifatida aksariyat terminlarning ko'p komponentligini qayd qilish lozim. Chunonchi, murakkab strukturaga ega bo'lgan termini tushunishda asosiy e'tibor shaklii murakkablikka qaratiladi va terminning mazmun plani ikkilamchi xususiyatga ega bo'lib qoladi"[12].

Ikki komponentli prodyuserlik terminlarining aksariyat qismi aniqlovchi aniqlanmish munosabatidagi so'z birikmalaridir. Aksariyat misollarning tobe qismi qaratqichli aniqlovchilar, bir qanchasi esa sifatlovchi aniqlovchilardir.

Qaratqichli birikmalar. Ko'p hollarda qaratqichli aniqlovchi tarkibidagi -ning qo'shimchasi belgisiz qo'llangan: direktor yordamchisi, operator yordamchisi, prodyuser yordamchisi. Shuningdek, tarkibida 3-shaxs egalik shakli bo'lishiga qaramay, xoslik, umumdan ajratilganlik ma'nosini bildiruvchi quyidagi ikki komponentli terminlar mavjud: AQSH kinosi, Britaniya kinosi, Venetsiya kinofestivali, Gangster filmi, Germaniya kinosi, Dolby maslahatchisi, Italiya kinosi, Rossiya kinosi, Skandinaviya kinosi, SSSR kinosi, Fransiya kinosi, Hindiston kinosi kabi. Ushbu tur terminlarning deyarli barchasi ot turkumiga oid so'zlar bilan ifodalangan.

Soha terminlari ichida ikki komponentli juft so'z shaklida, lekin aniqlovchi aniqlanmish munosabatida bo'lgan terminlar uchraydi. so-prodyuser, B-film (kino toifasi "B"), neo-gotik, texno-fantaziya, kino-shou, kino-balet kabi.

Sifatlovchili birikmalar. Ushbu turga kiruvchi terminlarni morfologik jihatdan quyidagicha ichki guruhlarga ajaratish mumkin:

- ot (sifatlashgan)+ot qolipidagi: avangard kinosi, aktyorlik san'ati, biografiya filmi, bosh operator, vaziyatlar komediyasi, yordamchi prodyuser, ijrochi prodyuser, kinoteatr ijarasi, layn prodyuser, matbuot namoyishi, matbuot skriningi, mualliflik kinosi, musiqa kutubxonasi, musiqa muharriri, musiqa prodyuseri, ovoz muhandisi, prodyuserlik filmi, san'at uyi, tarmoq texnologiyasi, ssenariy muallifi, tadqiqot filmi, teatr kassasi, teatr prodyuseri, teatr prodyuserligi, televideniye prodyuseri, test shousi, falokat filmi, film prodyuseri, film

prodyuserligi, film lentasi, film mukofoti, film festivali, turlar haqidagi film, urush haqidagi film kabi.

- sifat+ot qolipidagi: animatsion film, asosiy oqim (mainstream), assotsiativ prodyuser, badiiy film, baxtli yakun, g'ayritabiiy fantaziya, g'alati komediya, dahshatli komediya, detektiv film, jinoiy komediya, ijodiy film, ijodiy prodyuser, ilmiy kino, ilmiy fantastika, qo'rqinchli film, qo'shimcha o'rganuvchi, maxsus effekt, ma'muriy prodyuser, musiqiy komediya, musiqiy prodyuserlik, musiqiy film, mustaqil kino, mustaqil film, ovozi aktyorlik, ovozsiz film, oilaviy film, rangli kino, romantik komediya, salbiy film, sarguzashtli film, siyosiy film, stereo kinematograf, stereoskopik kino, tarixiy film, televizion prodyuserlik, televizion film, o'quv filmlari, hujjatli film, erotik film, panoramali kinoteatr kabi.

- fe'l+ot qolipidagi: keshlangan film, tahrirlash rejasi, yoritish ustasi kabi.

- son+ot qolipidagi: ikkinchi direktor.

Ikki komponentli terminlar orasida tobe yoki hokim qismi qo'shma fe'l bilan ifodalangan (asli uch so'zdan iborat) birikmalarni ham uchratish mumkin. Bunday terminlar

sifat+ot - bosh ishlab chiqaruvchi, umumiy ishlab chiqaruvchi (prodyuser/asosiy prodyuser/bosh prodyuser), chiziq ishlab chiqaruvchisi;

ravish+fel - birgalikda ishlab chiqarish, oldindan ishlab chiqarish (preproduction);

ravish+ot - hamkorlikda ishlab chiqaruvchi (ham prodyuser), birgalikda ishlab chiqaruvchi;

sifat+fe'l - teskari suratga olish, sekin suratga olish, stereoskopik suratga olish;

fe'l+ot - suratga olish guruhi (film guruhi);

ot+fel - pavilonda suratga olish qolipididir.

Uch komponentli prodyuserlik terminlarining tobe komponentlari ikkitadan bo'lib, aksariyat terminlarda tobelanish janjirli tarzda namoyon bo'lishini kuzatish mumkin, ayrim terminlar tarkibida va bog'lovchisi ishtirok etadi: AQSH mustaqil filmi, badiiy film janrlari, doiraviy kino panoramasi, keng ekranli kinoteatr, kino sohasida muallif, kompyuter o'yinlari prodyuseri (veb-ishlab chiqarish prodyuseri), kompyuter o'yinlari prodyuserligi (veb-ishlab chiqarish prodyuserligi), qisqa metrajli film, muntazam kino formati, oltin globus mukofoti, soxta hujjatli film, sirk dasturlari prodyuseri, sirk dasturlari prodyuserligi, estrada dasturlari prodyuseri, estrada dasturlari prodyuserligi, qora va oq kino kabi.

Ayrim uch komponentli terminlarning tobe komponentlari juft so'z shaklidadir: ilmiy-ommabop film, ilmiy-fantastik film, post-ishlab chiqarish, taym-lapse suratga olish kabi.

O'zbek tili prodyuserligi terminlari o'rtasida to'rt va undan ortiq komponentli terminlar kuzatilmadi. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tili prodyuserlik terminlarining eng katta qismini bir komponentli prodyuserlik terminlari va ikki komponentli prodyuserlik terminlari tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. O'zbek tili prodyuserlik terminologiyasining o'ziga xos tomoni shundaki, bu tizim hali o'rganilmagani o'laroq, nisbatan so'ngi davrda mamlakatimizda keng quloch yozgan, rivojlangan soha - prodyuserlik (ishlab chiqarish) sohasining Respublikada shakllanish va taraqqiyotini o'zida aks ettiradi. Bu esa prodyuserlik sohasiga oid yangi kiritilgan terminlarni ilmiy jihatdan tadqiq etishni dolzarb masalalar qatoriga kiritadi. "Ma'lumki, terminlar oddiy so'zlar singari umumadabiy va maxsus leksikada bor bo'lgan so'z va o'zaklardan yasaladi. O'zbek tili terminlari sistemasi o'ziga qarindosh turkiy tillardagi singari mavjud struktur turlar, ya'ni sodda, yasama, qo'shma, qisqartma va so'z birikmalarini qamrab oladi"[6]. Til foydalanuvchilari tomonidan keng qo'llanilishida terminning

semantik xususiyatlari kabi strukturaviy xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega. O'rganish jarayonida prodyuserlik terminlari tahlil qilinganda ular orasida turli tuzilishga ega birliklar borligi aniqlandi.

“Hozirgi kunga kelib sohaga bo'lgan e'tiborning kuchliligi, o'zbek tilining davlat tili sifatida faoliyati kengayganligi, kundalik turmushimizda zamonaviy aloqa vositalari faollashayotgani, tabiiyki, yangi-yangi terminlarni talab qiladi. Ularning o'zbek tiliga o'z ichki imkoniyatlari asosida ko'payayotgani ma'lum. Lekin bu yo'l bilan terminlarga bo'lgan ehtiyoj hech qaysi tilda, jumladan, o'zbek

tilida ham to'la qoplanishi qiyin”. Shunday ekan, hozirgi kunda dunyodagi eng serdaromad, sermahsul sohalardan bo'lgan prodyuserlik va uning moddiy manbai bo'lgan kinosanoat sohasi, shubhasiz, O'zbekistonda ham jadal rivojlanmoqda. Bu soha kasb egalari, qolversa, butun kinosanoat tarmog'ining iqtisodiy qudratini anglatib qolmay, balki mamlakatning madaniyat va san'at borasidagi obro'-e'tiborini ham belgilaydi. Ushbu sohadagi qo'llanishda bo'lgan maxsus birliklar – terminlarni lingvistik jihatdan tadqiqini amalga oshirish hozirgi o'zbek tilshunosligining kun tartibidagi muhim vazifalardandir.

ADABIYOTLAR

1. Абдиев С. Ўзбек тилининг соҳавий лексикасини тадқиқ этиш: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2003.
2. Акобиров С. Тил ва терминология. –Т., Ўзбекистон КП МКнинг бирлашган нашриёти, 1968. – 39 б.
3. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избранные труды. – Москва: Наука, 1977. – 157 с.
4. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. – Москва: Наука, 1939. – 236 с.
5. Гацук-Шерпилова В. Ю. Исторические аспекты развития продюсирования в России // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – № S14. – 0,3 п. л.
6. Dadaboyev N. O'zbek terminologiyasi. – Т., 2019 – 118 б.
7. Зиямухамедова Ш. Ўзбек тилшунослигида замонавий ахбороткоммуникация терминларининг ўрганилиши. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III, 2020 – 500-510 б.
8. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии // Материалы всесоюзного терминологического совещания. – Москва: АН СССР, 1961. – С.87.
9. Sayfullayev B., Rustamov V. Prodyuserlik mahorati asoslari. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2015 – 256 б.
10. Толикина Е.Н. Некоторые лингвистические проблемы изучения термина // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – Москва: Наука, 1970. – 107 с.
11. Ўзбек тили лексикологияси – Т.: Фан, 1981; Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику – М.: 1978; Новиков Л.А.. Семантика русского языка – М.: 1982.
12. Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Фил. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. – Т., 2019. – Б. 81.



UDK:UO*K: 811.512.133'42: 811.111'42

O'tkir SHUKUROV,
Andijon davlat chet tillar instituti erkin izlanuvchisi
E-mail:utkirsh@gmail.com

ADU prof., f.f.d D.A.Nabieva taqrizi asosida

AMIR TEMUR'S POLITICAL DISCURSIVE COMPETENCE

Annotation

In this article, political discourse is assessed as a form of practical speech activity, formed by the corresponding texts (notions, concepts). Using the example of Amir Temur's speech, it is shown that the service of political processes has its own vocabulary, substantive connections between various political concepts, basic abstractions and metaphors, regular contexts of word usage, opinion building.

Key words: Political discourse, text, vocabulary, thesis, antithesis, synthesis, context

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДИСКУРСИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ АМИРА ТЕМУРА

Аннотация

В данной статье политический дискурс оценивается как форма практической речевой деятельности, формируемая соответствующими текстами (понятиями, концептами). На примере выступления Амира Темура показано, что обслуживание политических процессов имеет свою лексику, содержательные связи между различными политическими понятиями, базовые абстракции и метафоры, регулярные контексты словоупотребления, построения мнений.

Ключевые слова: Политический дискурс, текст, лексика, тезис, антитезис, синтез, контекст

AMIR TEMURNING SIYOSIY DISKURSIV KOMPETENSIYASI

Аннотация

Ushbu maqolada siyosiy diskurs amaliy nutqiy faoliyatning muvofiq matnlar(tushunchalar, konseptlar) bilan shakllangan ko'rinishi sifatida baholangan. Siyosiy jarayonlarga xizmat qilish, o'ziga xos lug'atga, turli siyosiy konseptlararo mazmuniy bog'lanishlarga, asos abstraksiya va metaforalarga, so'z qo'llashning muntazam kontekstlariga, mulohazalar qurilishiga ega ekanligi Amir Temur nutqi misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy diskurs, matn, lug'at, tezis, antitezis, sintez, kontekst.

Kirish. Siyosiy diskurs diskurslar ichida aniq belgilangan intensiyasi bilan farqlanib turadi: bu diskursning asosiy maqsadi hokimiyat – hokimiyat uchun kurash, uni qo'lga kiritish va saqlab turishdir. Mana shu jarayon siyosat deb atalib, uning lisoniy tarafi o'ziga xos.

Siyosiy diskurs ijtimoiy jarayonlarning psixologik qabullanishiga ta'sir o'tkazadi. Bu juda qiziq va murakkab jarayon bo'lib siyosiy lingvistika deb atalgan fan yo'nalishi bir qancha fanlar – lingvistika, sotsiologiya, psixologiya, politologiya...ning kesishuvida yuzaga kelgan.

Siyosiy diskurs amaliy nutqiy faoliyatning muvofiq matnlar(tushunchalar, konseptlar) bilan shakllangan ko'rinishi bo'lib, siyosiy jarayonlarga xizmat qiladi. Bu diskurs o'ziga xos lug'atga, turli siyosiy konseptlararo mazmuniy bog'lanishlarga, asos abstraksiya va metaforalarga, so'z qo'llashning muntazam kontekstlariga, mulohazalar qurilishiga ega[2].

Siyosiy diskurs tarkibiga notiqning siyosiy chiqishlari, siyosiy rasmiy matnlar, qaror, farmon, qonun, ilmiy siyosiy maqolalar, gazeta ommabop maqolalar kiritiladi[2].

Albatta, bu ro'yxat uzil-kesil emas. Uni yanada kengaytirish lozim. Bizningcha, siyosiy diskurs tarkibiga davlat arboblari va siyosatchilarning asarlari, memuar, esse hamda tuzuklarini kiritish mumkin.

Xususan, Amir Temur tuzuklari shular jumlasidan. Bu asar buyuk sohibqiron nomi bilan bog'lansa-da, muallifi noma'lum hisoblanadi. Amir Temurning aynan o'zi yozganmi, yoki aytib turib yozdirganmi, yoki keyinroq kimdir uning nomidan yozganmi – ma'lum emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temurning «Tuzuklar» muallifi ekanligini e'tirof etadigan olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bular orasida «Temur tuzuklari»ning inglizcha tarjimonlari va noshirlari Devi va Uaytlar, mashhur turk qomusiy olimi Shamsuddin Somiy, qo'lyozmalarning yirik tadqiqotchisi N. D. Mikluxo Maklaylar ham bor[4]. Bizningcha ham, tuzuklar muallifi Amir Temurning o'zidir. Biz foydalanayotgan manba forsiydan tarjima bo'lsa-da, asarning avvalo turkiyda yaratilgani ma'lum. Asarning umumiy kayfiyati va uslubidan shohona ulug'vorlik seziladi. Asarning dunyoda mashhurligi turli davrlarda turli siyosatdonlar e'tiborini tortgani bejiz emas. Tarixchi B.Ahmedovga ko'ra «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Voqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomlari bilan atalmish bu asar e'tiborga molik tarixiy manbalar jumlasidan. «E'tiborga molik» deganimizning boisi shuki, uning nusxalari (qo'lyozmalari ham, toshbosmalari ham) ko'p tarqalgan. «Temur tuzuklari»ni bugun jahonning ko'pgina mamlakatlarida, masalan, Rossiya, Angliya, Fransiya, AQSh, Finlyandiya, Daniya, Eron, Hindiston, Turkiya, Misr, Yaman kutubxonalaridan topsa bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, qaysi bir asar qimmatli, amalda zarur bo'lsa, undan ko'proq nusxa ko'chirilgan. «Temur tuzuklari» ham shunday. U ko'proq sohibi tojlarga kerak bo'lgan. Shuning uchun ham hukmdorlarning ko'pchiligi bu va shunga o'xshash asarlardan nusxa ko'chirtirib, shaxsiy kutubxonalarida asraganlar va ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida ulardan muhim yo'l-yo'riq

sifatida foydalanganlar. Masalan, buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi Shoh Jahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821-1842) va Buxoro amiri Abdulahadxon (1885-1910) chapdast kotiblariga buyurib, «Temur tuzuklari»dan o'zlari uchun nusxa ko'chirtirganlari ma'lum. Ko'chirganda ham zo'r mas'uliyat va qunt bilan ko'chirganlar. Hindistonlik muarrix Abdulhamid Lohuriyning (1654 y. vafot etgan) «Podshonoma»sida (mavlaviy Kabiriddin Ahmad va Abdurahimlar amalga oshirgan nashr, Kalkutta, 1866-1872 y., I jild, 288-sahifa) bunday gap bor: Hijriy 1047 (milodiy 1637-38) yili Mir Abu Tolib al-Husayniy aTurbatiy degan shaxs Shoh Jahonga «Tuzuki Temuriy»ning forsiyicha tarjimasini taqdim etgan. Podsho tarjima bilan tanishib chiqib, uni Dekan favjdori (qozi kaloni), iste'dodli yozuvchi Muhammad Afzal Buxoriyning (1651 yoki 1652 y. vafot etgan) qo'liga tutqazgan va Sharafuddin Ali Yazdiyning (1454 y. vafot etgan) mashhur «Zafarnoma» asariga solishtirib va kamchiliklari bo'lsa, tuzatib, xattot va muarrixlari o'zidan qo'shgan ortiqcha joylari bo'lsa o'chirib tashlashni buyurgan. «Temur tuzuklari»ning shu kunlargacha yetib kelgan qo'lyozma va toshbosma nusxalari o'sha Mir Abu Tolib al-Husayniy aT-Turbatiy tarjimasida asosida yaratilgan. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, mazkur asar XVIII asrdan beri (balki, ancha burunrokdir, lekin bu haqda qo'limizda ma'lumot yo'q) dunyo olimlarining diqqat-e'tiborini qozonib keladi. Masalan, asarning matni, tadqiqot va zarur ilmiy izohlar bilan 1783 yilda Angliyada, 1785 va. 1891 yilda Hindistonda, 1868 yili Eronda chop etildi. Asar jahon tillaridan bir nechtaga: fransuz (1787), ingliz (1830), urdu (1845), rus (1894,1934) va eski o'zbek (1835,1857, lekin to'liq emas) tillariga tarjima qilinib, nashr etildi. Uning toshbosma nusxalari (Tehron - 1868, Toshkent 1890 va h.k.) ham keng tarqalgan[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'pgina tadqiqotchilar til va siyosat o'rtasidagi aloqaga e'tibor qaratib, siyosiy diskursga katta qiziqish bildirmoqdalar. Muloqot har qanday siyosiy rejimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Siyosatni inson faoliyatining boshqa sohalaridan ajratib turadigan narsa uning o'ziga xos nutqqa ega ekanligidir. Siyosiy harakatlar ko'pincha o'zini namoyon qilish va aloqa vositasi sifatida nutqqa tayanadi.

Tahlil va natijalar. «Temur tuzuklari»ning mashhurligi va asrlarosh siyosatchilar uchun dasturulamali bo'lib kelishida unda aniq belgilangan nutqiy strategiyalar hamda o'rinli qo'llangan taktikalarning o'rni beqiyos. Ancha ilgari yozilgan matn bo'lishiga qaramay aktual ijtimoiy muhit uni doim diskursiv belgilarga ega qiladi.

Biz Temur tuzuklarida bir qator strategiyalarni ajratib oldik va ularni realizatsiya qiluvchi taktikalarni kuzatdik.

Birinchi strategiya hamma narsa uchun mas'ulligi, shu tufayli hokimiyat egasi ekanligini ko'rsatish – shaxsiy reprezentatsiya.

Bu strategiyani amalga oshiruvchi taktikalardan eng keng tarqalgani birinchi shaxs bildiruvchi olmoshni ishlatish. Temur tuzuklari matnida ham bu taktika juda faol. Men so'zi matnda 400dan ortiq marta ishlatilgan:

Men tangrining madadi va inoyatiga ishonib, tadbirkorlik va ehtiyotkorlik ishlatgan holda qal'adan chiqdim va [dushman bilan] bir necha marotaba jang qildim[3].

Men yana tajribamdako'rdimki, g'ananim lashkarini yengish qo'shinning ko'pligi bilan emas, mag'lub bo'lish esa sipohining kamligidan bo'lmaydi[3,15].

Agar konstruksiyani biroq o'zgartirsak, shaxs omili susayishini ko'ramiz: Tajribadanko'rildiki, g'ananim lashkarini yengish qo'shinning ko'pligi bilan emas, mag'lub bo'lish esa sipohining kamligidan bo'lmaydi.

O'z so'zi ham bu xil holatlarda qo'llanadi:

Yana o'z tajribamdan bildimki, sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z dushmani deb biladi[3].

Ammo tuzuklar matnida o'z so'zining bu vazifada kelishi men so'ziga nisbatan ancha kam uchraydi. Biz uch o'rinda kuzatdik.

Keyingi strategiya sifatida mamlakat hayotini, taqdirini o'z shaxsiy hayotidan ustun qo'yishini isbotlashni ko'rsatish mumkin:

“Saltanat to'nini kiygach, tinchligu sog'ligim ketdi, o'z to'shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim. O'n ikki yoshimdan turli diyorlarni kezdim, ranju mehnat tortdim. Har xil tadbirlar qo'llab [g'ananim] favjlarini sindirdim. Amirlar va sipohiylarning isyonlarini ko'rdim, ulardan achchiq so'zlar eshitdim. Lekin sabru bardosh bilan o'zimni eshitmagan-ko'rماغanga solib, ularni tinchitdim. Qilich ko'tarib jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim”[3].

Ushbu matn shartli ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qismda zidlash orqali yuqori emotsional nutqiy vaziyat yaratilgan:

o'z to'shagimda rohatda uxlash=>huzur-halovatidan voz kechdim; O'n ikki yoshimdan turli diyorlarni kezdim, ranju mehnat tortdim

Matnning keyingi qismida o'zining kurashuvchanligi, sabrliqligi, omilkorligini ko'rsatish orqali o'z maqsadiga erishganligi ko'rsatgan.

O'z prinsiplari tavsifida qarama qarshi qo'yish – zidlash usulidan ko'p foydalangan:

Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, butunlay unut bo'lardi[3].

Bu matn parchasi ikki qismdan iborat. Bu qismlarni shartli ravishda tezis hamda antitezis sifatida ko'rish mumkin:

Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlar [bo'ldi]<=>[Ammo men ularni] hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim.Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, butunlay unut bo'lardi.

Bu parchada e'tiborga molik kichik qism borki, aynan shu qism matnning siyosiy tusini yaqqollashtiradi, tezis va antitezisini sintezlaydi:

iltijo bilan tavba-tazarruqilib kelgach[shu ishlarni qildim]

Amir Temurga xos keskirlik, qat'iylik bu o'rinda ana shu kichik sintagma orqali ifodalangan: ya'ni o'ziga qarshi borganlarni ham davlat manfaati uchun kechirgan, biroq iltijo bilan tavba-tazarruqilib kelgachgina.Aks holda yo'q.

Bu o'rinda Amir Temurning o'ziga xos siyosati qat'iy nutqiy formulovka topgan: ya'ni u raiyat uchun o'z shaxsiy halovatidan voz kechadi, biroq o'z prinsiplaridan emas.

Bu murakkab strategik g'oya bo'lgani uchun keng diskursiv kuzatuvlarni talab etadi. Aytish lozimki, mohir siyosatchining nutqida uning barcha perlokutiv strategiyalari sintezlashgan holda namoyon bo'ladi. Biz muayyan diskursni tadqiq etarkanmiz, shartli, tadqiqot maqsadlari yo'lida turli strategiyalarni bir biridan ayrib tahlilga tortamiz, biroq diskursning voqelanishida ularni hamrox tarzda kuzatamiz.

Amir Temurga xos bo'lgan yana bir strategiya umumiy do'st va umumiy dushman qiyofasini yaratish orqali o'z g'oyalarini singdirishdir.Xususan, o'zbeklar deb atalgan toifa borasida tuzuklarda 30 ga yaqin qismda to'xtalib salbiy fikrlar bildirgan. B.Ahmedovning sharhlashicha bu o'rinda, Botuxon

zamonidan qolgan Dashti qipchoqlik amirlarning avlodi nazarda tutiladi[3]. Risola matnida «o'zbekiya toifasi», «o'zbek» shaklida yozilgan. Bizga ma'lumki, o'zbek atamasi hozirgi biz qo'llab kelayotgan millat nomi sifatidagi mazmunga tuzuklar qamrab olgan davrda ega emasdi. Tuzuklarda bu qavmning faqat salbiy tavsifini ko'ramiz. Aftidan Amir Temur jonli muloqotlarida ham bu mavzu yetakchi bo'lgan va u xalqda ushbu toifaga dushmanlik kayfiyatini uyg'ota olgan:

Movarounnahrda o'zbeklarning jabru zulmi ortib ketdi. Chunonchi, sayyid va sayyidzodalardan yetmish kishini asir olib band etdilar. Ilyosxoja bo'lsa davlat va siyosat ishlarida layoqatsiz bo'lgani tufayli ularning zulmu sitamiga barham berishga ojiz edi. Men bo'lsam o'z salobatim va haybatim bilan o'zbeklar ustidan g'alaba qildim va mazlumlarni zolimlar jabridan xalos qildim. Bu Ilyosxoja amirlari va o'zbeklarning menga nisbatan dushmanlik qilishlariga sabab bo'ldi...Movarounnahr aholisi mening bu ishimdan xabar topishibilanoq, tezda o'zbeklarga hujum qilishim kerakligi haqida istak bildirdilar. Chunki ularning qalbi zolim o'zbeklar toifasidan butunlay bezigan edi. Movarounnahr aholisining kattayu kichigi menga birlashdi. Mamlakatning ulamo va mashoyixlari esa o'zbekiya toifasini yo'q qilish haqida fatvo yozib berdilar. Ulus amirlari va qo'shun boshliqlarining ba'zilar ham bu ishga qo'shilib, bizga birlashdilar[3].

Ushbu matnda Amir Temur siyosiy diskursi naqadar kuchli bo'lganini ko'ramiz:

Birinchi o'rinda fikrini asoslaydi – tezis: Movarounnahrda o'zbeklarning jabru zulmi ortib

ketdi.Chunonchi, sayyid va sayyidzodalardan yetmish kishini asir olib bandetdilar. Ilyosxoja bo'lsa davlat va siyosat ishlarida layoqatsizbo'lgani tufayli ularning zulmu sitamiga barham berishga ojizedi. Keyin esa amaliy harakat tavsifiga o'tadi: antitezis – Men bo'lsam o'z salobatim va haybatim bilan o'zbeklar ustidan g'alaba qildim va mazlumlarni zolimlar jabridan xalos qildim. So'ng natija bayon qilinadi: sintez – Bullyosxoja amirlari va o'zbeklarning menga nisbatan dushmanlikqilishlariga sabab bo'ldi. Diskurs davomida zich ichki bog'lanish kuzatiladi va ushbu ko'rilgan qismlar birlashib, keyingi qism uchun tezis mavqeini oladi hamda keyingi antitezis bilan bog'lanadi: Movarounnahr aholisi mening bu ishimdan xabar topishibilanoq, tezda o'zbeklarga hujum qilishim kerakligi haqida istak bildirdilar. Chunki ularning qalbi zolim o'zbeklar toifasidan butunlay bezigan edi. Movarounnahr aholisining kattayu kichigi menga birlashdi. Mamlakatning ulamo va mashoyixlari esa o'zbekiya toifasini yo'q qilish haqida fatvo yozib berdilar. Ulus amirlari va qo'shun boshliqlarining ba'zilar ham bu ishga qo'shilib, bizga birlashdilar. Bu qism bir paytning o'zida ham antitezis, ham sintezdir.

Xulosa va takliflar. Amir Temurning siyosiy diskursi uning shaxsi kabi ziddiyatli, asarni kuzatar ekanmiz, goh qattiqqo'l hukmdor, goh donishmand mo'ysafidni tinglagandek bo'lamiz. Aslida siyosatchi shunday bo'lishi shart: o'rni bilan murosasiz, o'rni bilan kelishuvchan. Bu esa uning nutqini o'ziga xos –siyosiy – diskursga aylantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Армия фақат қурол ва аслаҳа билан эмас, она Ватан учун жонини аямайдиған ҳарбийлар билан қудратлидир//<https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-armiya-faqat-qurrol-va-aslaha-bilan-emas-ona-vatan-uchun-jonini-ayamaydigan-harbiylar-bilan-qudratlidir>
2. Зданевич К.В.Лингвостилистические особенности политического дискурса//https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/90060/1/zdanevich_sbornik11_tom2.pdf
3. 3.Темур тузуклари //Форсчадан| А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж; Б. Аҳмедов тахрир. остида/.— Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.— 144 б.
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/temur-tuzuklari-uz/>
5. <https://bugun.uz/2022/04/21/amir-temur-va-toxtamishxon-ortasidagi-jang-tarixini-oqdim-shavkat-mirziyoev/>
6. Кондрашкина Е.Ю. Прагмалингвистические характеристики русскоязычного инструктивного дискурса: автореферат диссер. канд. филол. наук. – Саранск, 2018. – 197 с.
7. Лакофф, Дж., Джонсон, М. Метафоры, которыми мы живём / Дж. Лакофф, М. Джонсон // Язык и моделирование социального взаимодействия. – М.: Мысль, 1987. – 270 с.
8. Романов А.А. Политическая лингвистика. Функциональный подход / А.А. Романов. – М.; Тверь, 2002. – 191 с.
9. Сусов И.П. Введение в языкознание: учебник для студентов лингвистических и филологических специальностей / И.П.Сусов. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 379 с.
10. Чудинов А.П. Политическая лингвистика / А.П.Чудинов. – М., 2006. – 256 с.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том – Тошкент:"Ўзбекистон миллий энциклопедияси"Давлат илмий нашриёти, 2006. – 671 б.
12. Habermas J. Erläuterungen zum Begriff des kommunikativen Handelns // Habermas J. Vorstudien und Ergänzungen zur Theorie des kommunikativen Handelns. – Frankfurt am Main: Suhrkamp Verl., 1989. – S. 571–606.
13. Wills G. Lincoln at Gettysburg. — New York: Simon & Schuster, 1992. — С. 24-25.
14. SandburgC. Abraham Lincoln: The Prairie Years and the War Years. — Harcourt, Brace & World, 1956. — С. 445.



UO'K: 811.512.133'42: 811.111'42

O'tkir SHUKUROV,
Andijon davlat chet tillari instituti erkin izlanuvchisi
E-mail: utkirsh@gmail.com

ADU prof., filol.f.d. D.A.Nabieva taqrizi asosida

SOME VIEWS ON THE CONCEPT OF POLITICAL DISCOURSE

Annotation

This article highlights some views on the description of the concept of political discourse. Views on the essence of discourse are considered. The speeches of world famous political figures are analyzed. The tasks facing the Uzbek linguistics in connection with the problem of the article are considered.

Key words: Discourse, political discourse, communication, speech, intention, perlocution, politician

НЕКОТОРЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПОНЯТИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Аннотация

В данной статье освещаются некоторые взгляды на описание понятия политического дискурса. Рассматриваются взгляды на суть дискурса. Анализируются выступления всемирно известных политических деятелей. Рассмотрены задачи, стоящие перед узбекским языкознанием в связи с проблемой статьи.

Ключевые слова: Дискурс, политический дискурс, общение, речь, интенция, перлокуция, политик

SIYOSIY DISKURS TUSHUNCHASIGA DOIR AYRIM QARASHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada siyosiy diskurs tushunchasi tavsifiga doir ayrim qarashlar yoritilgan. Diskursning mohiyatiga doir qarashlarga munosabat bildirilgan. Jahonda mashhur bo'lgan siyosiy arboblarning nutqlari tahlil etilgan. O'zbek tilshunosligi oldidagi bu boradagi vazifalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Diskurs, siyosiy diskurs, muloqot, nutq, intensiya, perlokutsiya, siyosatchi

Kirish. Muloqot insonning o'ta zarur ehtiyojlaridan biridir. Insonning ontologik xususiyatlari aynan muloqotda kashf etiladi. Insonning nafaqat ma'naviy, balki jismoniy hayoti ham muloqotni talab qiladi. Inson ijtimoiy mahluqotdir. Aynan jamiyat uni shakllantiradi, tarbiyalaydi, rivojlantiradi. Muloqot uning jamiyatda yashashining zaruriy sharti va sharoitidir. Yangi davr tilshunosligida diskurs atamasi keng qo'llana boshladiki, muloqotning tavsifi bu bilan yanada yorqinlashdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Siyosiy tilshunoslikning asoschilari Jorj Lakoff, Norman Feyrklof, Rodjer Fauler, Teun A. van Deyk kabi olimlar sanaladi.

Siyosiy tilshunoslik sohasida eng taniqli olimlardan biri amerikalik tilshunos Jorj Lakoffdir. U siyosat tilini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Olim "Yazyk politiki" ("Siyosat tili") asarida siyosiy rahbarlarga tilni effektiv tarzda ishlatish va ma'lum tushunchalarni mustahkamlash uchun ko'plab masalalarni yoritgan[7].

A.N.Baranovning "Введение в прикладную лингвистику" [1] ("Amaliy tilshunoslikka kirish"), A.A.Romanovning "Политическая лингвистика. Функциональный подход" [8] ("Siyosiy tilshunoslik. Funktsional yondashuv"), I.V.Volfsonning "Язык политики. Политика языка" [4] ("Siyosat tili. Til siyosati"), A.P.Chudinovning "Политическая лингвистика" [10] ("Siyosiy tilshunoslik") nomli darslik va o'quv qo'llanmalarida siyosiy tilshunoslikning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va hozirgi holati masalasi ma'lum darajada tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Til birliklarining turli sharoitda turlicha voqelanish imkoniyati ularning mohiyatida mavjud. Turli sharoitda muayyan til birligi o'zining turlicha

qirralarini namoyish qiladi. Bu so'zlovchining intensiyasi, sharoit taqazosi, tinglovchining qabullov kabi omillarga bog'liq. Masalan, yer so'zi konsituatsiyadan kelib chiqib turli ma'nolarni ifodalaydi:

YER 1 (Ye — katta) Quyoshdan keyingi uchinchi planeta. Yer shari. Yer aylanasi. Yer Quyosh atrofida aylanadi. Yerning sun'iy yo'ldoshi. — ..agar Yer sharining yarmi milla, yarmi yer bo'lib, birov mendan qaysi tomonida yashaysiz, deb so'rasa, men ikkilanmay, yer tomonini taishgan bo'lardim. N. Fozilov, Qush — qanoti bilan.

2 Shu planetaning quruqlik qismi (suv bilan qoplangan qismiga qarama-qarshi qo'yilganda). Yer planetamizning oltidan bir qismini tashkil etadi.

3 Planetamiz qobig'ining sirtqi qatlami. Yer bag'ri. Yer osti boyliklari. Qora (qaro) yerga kirgur! (qarg'). Yer yutgur! (qarg'). Osmon uzoq, yer qattiq. Maqol. Bir vaqt yer osti dukillagandek bo'ldi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

4 Narsalar turgan, tirik organizmlar hayot kechirayotgan yuza, sath (shaxs yoki boshqa narsalarga nisbatan). Yerga palos solmoq. Tomdan yerga qulamoq. Kosa stoldan yerga tushib sindi. Yerga tushgan — yetimniki. Maqol. —Sidiqjon bo'sag'adan bir qadam ichkarida cho'nqaydi-da, bolani yerga qo'yib, onasiga yo'madi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.

5 Yer sathining muayyan bir qismi; joy, hudud. Toshloq yer. Obod yer. Haydalgan yer. Baland-naem yerlar. —Yigit ufqlarga tutash yerlarni ko'zdan kechiradi. Gazetadan. Yaradorlarni tezda xavf-xatarsiz yerga olib chiqish zarur bo'lib qoldi. T. Rustamov, Mangu jasorat...[11]

Ko'rinadiki, yer so'zining sanab o'tilgan ma'nolari nutqiy qurshov va sharoit bilan chambarchas bog'liq.

Tilshunoslikda so'zning bosh va ko'chma ma'nolari degan tushuncha mavjud. Bu akademik qarash bo'lib, amaliy tilshunos nuqtai nazaridan, bizningcha, so'zning ayni qo'llanishdagi ma'nosi uning shu konsituatsiya uchun yetakchi ma'nosi bo'ladi. Sharoitning til birligi realizatsiyaga ta'siri masalasiga tilshunoslar e'tiborining jalb etilishi diskurs atamasining faollashuviga olib keldi.

Tahlil va natijalar. Diskurs qadimgi lotin tilidagidiscursus – mulohaza, bahs(asli – aylanib yurish, shovshuv, manevr) ma'nosini bildiruvchi atama bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda nutqni lisoniy jarayonlar vaolamning lisoniy manzarasi bilan munosabatda ko'radi [15]. Diskurs borasida olib borilgan tadqiqotlarda xilma xil qarashlar bayon qilingan bo'lsa-da, bizningcha, ularning mag'zi til birliklarining – matnning turli sharoitlarda turlicha reprezentatsiyasini nazarda tutadi. Odatda diskurs va matn tushunchasi o'zaro assosiativlanadi, ba'zan tenglashtiriladi. Biroq matn muayyan sharoitda realizatsiya bo'lmasa, diskurs bo'la olmaydi. Aynan sharoit matnni xususiyashtiradi, tiriltiradi. Bu ko'p omillar bilan bog'liq. Diskursda ijtimoiy va shaxsiy madaniyat hamda mentalitet o'z aksini topadi[3].

Nemis olimi Yu.Xabermasdiskursni ijtimoiy hayot me'yorlarining ifodalovchisi deb baholaydi[12]

Uning bu fikri bizning o'rganish ob'ektimiz bo'lgan siyosiy diskurs tavsifida muhim o'rin tutadi. Diskurs ijtimoiy hayot me'yorlarining aks ettiruvchisi ekan jamiyatning ijtimoiy hayotining yirik qismi bo'lgan siyosat unda yaqqol ifodalanishi aniq. Albatta, bu qarashni rad etuvchi topilmasa kerak. Biroq o'zbek tilshunosligida siyosiy ifodalarga oid monografik tadqiqotlarni kuzatmadik. Siyosiy diskurs, tabiiyki, o'zining pragmatik tusining yuqoriligi bilan farqlanadi. Qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq nisbatan adekvat yondashuv pragmatlingvistik yondashuvdir[6].

Pragmatizm falsafiy yo'nalish sifatida uzoq tarixga ega. Qadimgi grek tilidagi *πράγμα* (roditelny kelishigida *πράγματος*) — «ish, harakat» mazmunidagi o'zakdan kelib chiqib, maqsad uchun harakatni qo'llab quvvatlaydi. Pragmatiklar voqea, predmet va hodisalarni muayyan maqsad uchun moslab talqin qiladilar. Bu yo'nalish asoschilaridan bo'lgan U.Djeyms “Biz uchun ishonish ma'qul bo'lgan narsa – haqiqiydir” deydi.

Ko'rinadiki, pragmatizm voqealarning o'zini emas, uning talqinini haqiqiy deb hisoblaydi. Inson o'zi yaratgan dunyoda yashaydi. Uning voqealar mohiyatini to'la to'kis anglab yetishi mushkul. O'z dunyoqarashi doirasida voqea-hodisalarni talqin qiladi va shuni haqiqat deb baholaydi. Pragmatizmining tilshunoslikdagi ko'rinishi – pragmatlingvistika ham shu qarashga asoslanadi. Muayyan til birligining qo'llanishi diskurs ishtirokchilari tomonidan turlicha talqinga uchrashi mumkin.

I.P.Susov fikricha pragmatlingvistikaning diskurs bilan aloqasi quyidagicha: “... til birliklari va kommunikativ vaziyat o'rtasidagi ma'lum kommunikativ-pragmatik maydonning munosabati aks ettiriladi. So'zlovchi/yozuvchi, tinglovchi/o'quvchi o'zaro aloqaga kirishadigan, konkret vaqt va nutq amal qiladigan joyga ishora qilish, muloqot akti va kutilayotgan maqsad bilan bog'liq”[9].

Siyosatchi uchun nutq asosiy quroldir. Keng ommaga ta'sir o'tkazish, uning qarashlari va intensiyalarini tahrirlash, o'zining moslashtirish, ergashtirish va ta'sir o'tkazish siyosatchidan alohida nutqiy mahoratni talab qiladi.

“SIYOSAT – davlatni boshqarish san'ati. Siyosat turli ijtimoiy siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq. Uning mohiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi. Siyosat keng ma'noda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va

tashqi faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi. Shunga ko'ra adolatli va adolatsiz, xolis va noxolis, insonparvar yoki inson manfaatlariga zid S, demokratik va avtoritar siyosat ko'rinishlarini boshqaruvda kuzatish mumkin[17].

Siyosat jamiyat hayotining katta bir qismi ekan, bu jarayondagi muloqot shakllari, til birliklarining qo'llanilishi: grammatikasi va pragmatikasi til egalarning barcha qatlami uchun aktualdir. Shu bilan birga o'ziga xos – xususiydir.

Siyosiy diskurs aniq perlokutiv bo'yoq bo'ladi. Unda boshqa diskurslardan farq qilib g'oyaviy tus yetakchilik qiladi. Siyosiy diskursning asosiy maqsadi hokimiyatni egallash, ushlab turish va rivojlantirishga qaratilgan strategiyani aks ettiradi. Bu o'rinda nutqiy ta'sirning o'rni beqiyos. Tarixga nazar tashlasak, ko'p siyosiy arboblarning voizlik potensiyalari yuqori bo'lganini ko'ramiz.

Faylasuflar va olimlar natqning – suxandonlikning, umuman tilning ham inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Xususan, Kaykovus o'zining mashhur “Qobusnoma” asarida, maxsus bo'limda “Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida” so'z yuritadi. Kishining suxandonligi va suxango'yiligi uning jamiyatdagi mavqei belgilab berishini qator misollar bilan isbotlab beradi[5].

Mashhur nemis olimi Leo Vaysgerber jonli – iste'moldagi nemis tili, to'g'rirog'i, nutqi – energiya haqida so'z yuritib XX asrning birinchi yarmida nemis siyosiy hayotidagi o'rnini baholab bergan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi, huquq, harbiy xizmat, ijtimoiy va madaniy hayot, ommaviy axborot vositalari, din, maktab ta'limi doirasidagi juda ko'p mubohasalarning sababchisi va ifodalovchisi tildir[2].

Tarixda mudhish iz qoldirgan uchinchi reyxning yirik nomoyandasi Yozef Gebbels inson qalbi egallanmasa, to'p va nayzalar ahamiyatsizdir, deb hisoblagan. U o'zining suxandonligi bilan nemis xalqini bir necha bor ortidan ergashtirgan. Holbuki, tashqi ko'rinishga juda e'tiborli bo'lgan nemis xalqining oriyona idealaridan uzoq – oriq, kasalmand va oxsoq edi. Lekin nihoyatda suxandon edi. Albatta, uning suxandonlik prinsiplari umumqabullangan prinsiplardan farq qiladi: yolg'on gapirish, faktlarni yashirish, takroran ko'p foydalanish unga xos bo'lgan. Biroq aynan u nemislarni nutqi orqali Staligraddagi sharmandali mag'lubiyatdan so'ng total urushga yo'llay oldi. Berlin sport saroyida 1943 yil 18 fevralda 109 minut davomida nutq so'zlaydi, uning nutqi noverbal ifodalarga – jestikulyatsiyalarga boy edi. Bu usul tinglovchilarni masala mohiyati – mazmuniga emas, emotsiyalari – his-tuyg'ulariga yo'naltiradi, nutqning ta'sir kuchini maksimal oshiradi. Bu nutqda takrorlar alohida o'rin tutadi: Men sizdan so'rayman...men sizdan sakkizinchi marta so'rayman...men sizdan to'qqizinchi marta so'rayman...men sizdan o'ninchi marta so'rayman...[18].

O'zini go'yo bir suhbatdosh – qadrondok ko'rsatish uchun Men so'zini juda ko'p ishlatadi.

Fikrlarini ma'qullatish uchun maxsus konstruksiyalardan foydalanadi: Bizning dushmanlarimiz aytadiki, nemis ayollari harbiy iqtisodda erkaklarni almashtira olmaydilar[13].

Ko'rinadiki, ustalik bilan gender omillarga ishora qilmoqda.

Umuman olganda, uning mahoratiga tan bermay iloji yo'q. U tomonidan realizatsiya qilingan perlokutiv akt aniq intensiya yechimiga olib keldi. Ayonki, biz ko'rib chiqalayotgan nutqlarga lingvistik material sifatida yondashmoqdamiz.

Yana bir shunday tarixda iz qoldirgan nutqni ko'rib chiqsak.

Avraam Linkolning Gettisbergdagi nutqi bor yo'g'i 2 daqiqacha davom etgan va nutq 272 so'zdan iborat. U davr uchun (19 noyabr, 1963 yil) bu juda qisqa. Ammo aynan shu jihati bu nutqning keng tarqalishiga imkon berdi (u paytda telegraf imkoniyatlari chetlangan edi). Shuningdek, nutq qurilishida va ritmida injilona tus kuzatiladi. Bu ham tinglovchilarni nutqiy ta'sir ostiga olish usulidir. U o'z nutqini "Four score and seven years ago our fathers brought forth on this continent, a new nation...(Sakkiz o'n va yetti yil avval bizning otalarimiz bu qit'ada yangi millatni yaratdilar...)" deb boshlaydi [20]. Sakson yetti emas, sakkiz o'n va yetti... birikmasining ishlatilishi qadimgi qo'lyozmalarining sokin ritmini yodga soladi. Shu bilan birga tinglovchilarni uzoq nutq eshitishga chog'lantiradi. Bu birinchidan ritm bilan, ikkinchidan o'sha davr an'anasi bilan bog'liq. Shuningdek, Linkolndan oldingi notiq – Massachuset gubernatori, Garvard universiteti prezidenti, mashhur voiz Edvard Everett – rosa 2 soatcha nutq so'zlagan edi [15].

Linkolning notiqlik iste'dodi shundan ko'rinadiki, u vaziyatni avvaldan ko'ra bilgan va charchagan omma uchun qisqa nutq tayyorlagan. Nutq ritmi injilona, gap qurilishlari ixcham. Yana uzoq nutq tinglashga hozirlanib turgan ommani bu qisqalik hayratga solgani aniq. Guvohlarning aytishlaricha, omma hatto qarsak ham chalmaydi. Ammo keyinchalik bu nutq nihoyatda ommalashib ketdi. Edvard Everett o'zining 2 soatlik

nutqida ushbu 2 daqiqalik nutqdan erishilgan natijaga yaqinlasha olsa xursand bo'lishini bildirgandi [15].

Ko'rib o'tilgan nutqlar juda ko'p bor tahlilga tortilgan. Ammo o'zbek tilshunosligida bunday tadqiqotlar kam. Holbuki, o'zbek siyosiy diskursi toboro rang-baranglashib bormoqda.

Yuqorida tahlilga tortilgan yer so'zining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishlarida faol qo'llanilganini ko'ramiz: Yerni haqiqiy egasi – xalqqa beramiz. Mening bozorim ham, mozorim ham mana shu yer — Jizzax. Bunaqa yer qayerda bor, Namanganda bormi? Vodiya yo'q. (Internetdan)

O'zbek xalqining yerga bo'lgan ayricha munosabati, yer va suvni e'zozlashi, shuningdek, bu ikki resursning tanqisligi, tug'ilgan joyga muhabbat kabi mentalital xususiyatlarni aks ettiruvchi bunday jumlar xalq bilan yaqinlashuv, muloqot jarayoni samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bizningcha, o'zbek siyosiy diskursi shakllanuvda til birliklariga xalqona yondashuvning o'ziga xos ko'rinishini qo'llab kelayotgan Prezident nutqi alohida o'rin tutadi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda siyosiy diskurs taraqqiyotida bir necha qatlam sintezlashgan: sharqona, ruscha va g'arbona. Bu qatlamlarni o'zaro qiyoslash, ilg'or tomonlarini ajratib ko'rsatish, tavsiyalar berish bugungi amaliy tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifadir.

ADABIYOTLAR

1. Баранов А. Н. Введение в прикладную лингвистику [Текст] / А.Н.Баранов; Московский гос. ун-т им. М. В. Ломоносова, Филологический фак. 3-е изд. – Москва: URSS: Изд-во ЛКИ, 2007. – 358 с.
2. Вайсгербер Й. Л. Родной язык и формирование духа / Пер. с нем., вступ. ст., коммент. Радченко О. А. – М. 1993. – 223 с.
3. Ван Дейк Т. А. К определению дискурса. – Л.: Сэйдж пабликэйшнс, 1998. – 384 с.
4. Вольфсон И. В. Язык политики. Политика языка / И. В. Вольфсон; Саратов. гос. ун-т. – Саратов, 2003. – 125 с.
5. Кайковус. Қобуснома. – Т.: Мерос, 1992 – 176 б.
6. Кондрашкина Е. Ю. Прагмалингвистические характеристики русскоязычного инструктивного дискурса: автореферат диссер. канд. филол. наук. – Саранск, 2018. – 197 с.
7. Лакофф, Дж., Джонсон, М. Метафоры, которыми мы живём / Дж. Лакофф, М. Джонсон // Язык и моделирование социального взаимодействия. – М.: Мысль, 1987. – 270 с.
8. Романов А. А. Политическая лингвистика. Функциональный подход / А. А. Романов. – М.; Тверь, 2002. – 191 с.
9. Сусов И. П. Введение в языкознание: учебник для студентов лингвистических и филологических специальностей / И. П. Сусов. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 379 с.
10. Чудинов А. П. Политическая лингвистика / А. П. Чудинов. – М., 2006. – 256 с.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 671 б.
12. Habermas J. Erläuterungen zum Begriff des kommunikativen Handelns // Habermas J. Vorstudien und Ergänzungen zur Theorie des kommunikativen Handelns. – Frankfurt am Main: Suhrkamp Verl., 1989. – S. 571–606.
13. Wills G. [Lincoln at Gettysburg](#). — New York: Simon & Schuster, 1992. — С. 24-25.
14. Sandburg C. Abraham Lincoln: The Prairie Years and the War Years. — Harcourt, Brace & World, 1956. — С. 445.
15. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D1%81%D0%BA%D1%83%D1%80%D1%81>
16. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D0%B5%D1%82%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%B>
17. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/siyosat-uz/>
18. <https://naked-science.ru/article/history/dayu-slovo-5-znamenityh-rechey-v>
19. http://www.zarubezhom.com/Total_War_gebbels.htm
20. <https://writingfor.online/post/gettisbergskaya-rech/>



UO'K: 811.512

Dilfuza YO'LDASHEVA,
Toshkent davlat transport universiteti
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi R. Mustafoulov taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDAGI DORIVOR O'SIMLIKLAR NOMLARINING TARIXIY LINGVISTIK-SEMANTIK JIHLARI

Аннотация

Maqola o'zbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlari va ulardagi leksik-semantik munosabatlar masalasi o'rganishga bag'ishlanadi. Dorivor o'simliklar nomlarini tarixiy fitonomik-lingvistik-semantik jihatlari va xususiyatlarini tadqiq qilish tilshunoslik faniga yanada yangi ma'lumotlar bera olishi masalasiga e'tibor berilgan. Dorivor o'simliklar nomlariga ilmiy qiziqish va uning tarixiy jarayon ekanligi borasida izlanishlar olib boriladi. Respublikamizda bu borada olib borilayotgan sa'y-harakatlar qisqacha bayon qilinadi. Shu bilan birga uzbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlari olingan manba xususida to'xtalinadi. O'zbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlaridagi bir va undan oshiq komponentlilik asosida tuzilganligi hamda bunday so'z birikmalarining leksik-semantik o'ziga xosliklari borasida talqiniy fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Dorivor o'simliklar, so'z birikmalari, til, luhat, semantikka, morfema.

HISTORICAL LINGUISTIC-SEMANTIC ASPECTS OF THE NAMES OF MEDICINAL PLANTS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

The article will be devoted to the study of the names of medicinal plants in the Uzbek language and the issue of lexical and semantic connections in them. Attention was paid to the question of whether the study of historical phytonomic-linguistic-semantic aspects and features of the names of medicinal plants can provide even more new information to the science of linguistics. There is a scientific interest in the names of medicinal plants and the research of the fact that this is a historical process. Efforts in this direction are being generalized in our republic. At the same time, the names of medicinal plants in the Uzbek language are fixed according to the source from which they were obtained. Interpretative opinions are expressed on the basis of one or more components in the names of medicinal plants of the Uzbek language, as well as on the basis of lexical and semantic features of such combinations of words.

Key words: Medicinal plants, vocabulary, language, vocabulary, semantics, morpheme.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЛИНГВО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАЗВАНИЙ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Статья посвящена изучению названий лекарственных растений в узбекском языке и их лексико-семантических отношений. Обращено внимание на то, что изучение исторических фитонимико-лингвистико-семантических аспектов и особенностей названий лекарственных растений может дать новую информацию науке языкознания. Исследуется научный интерес к названиям лекарственных растений и его исторический процесс. Кратко остановимся на усилиях, предпринимаемых в этом направлении в нашей республике. При этом будет обсуждаться источник названий лекарственных растений на узбекском языке. Высказываются интерпретационные мнения относительно состава названий лекарственных растений в узбекском языке на основе одного или нескольких компонентов и лексико-семантических особенностей таких словосочетаний.

Ключевые слова: Лекарственные растения, лексика, язык, лексика, семантика, морфема.

Kirish. O'zbek tilidagi dorivor o'simliklar nomlari yoki o'zbek tabobat atamallari va ulardagi leksik-semantik munosabatlar masalasi hozirgi tilshunoslik fani uchun alohida e'tiborli mavzulardan biri sanaladi. Dorivor o'simliklar nomlariga, qolaversa tabobat atamallariga qiziqish azaldan tadqiqotlar nazaridan chetda qolmagan. XXI asrga kelib insoniyat salomatligi masalasi ijtimoiylik jihatdan oldingi, joiz bo'lsa birinchi o'rindagi dolzarb masalaga aylandi.

Respublikamizda so'ngi yillarda dorivor o'simliklarni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish, dorivor o'simliklar etishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohatlar amalga oshirilmoqda. Hususan, 2020 yil 10 aprelda mamlakatimiz prezidenti tomonidan qabul qilingan "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta

ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur soxaga e'tiborni yanada kuchaytirdi[4].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'zbek tilidagi dorivor o'simlik nomlarining leksik jixatdan shakllanishini o'rganish, ularni taxlil qilish, to'plangan o'simliklar nomlarini ma'lum tizimga solish va dorivor o'simlik nomlarining leksik, struktur xususiyatlarini yoritishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlarni avvalam bor tilshunoslikning muxim qatlamridan biri xisoblangan so'z yasalishi umumiy tasnifi va dorivor o'simliklarning etimologiyasini urganishdan boshlaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'z yasalishi masalasi ko'p tilshunos olimlar tomonidan qiziqtirib kelingan va o'rganilgan. Hususan, A.G'ulomovning so'z yasalish haqida o'z ilmiy izlanishlari va tadqiqodlariga tayanib "So'z yasalishi"

tilshunoslikning aloxida xodisa va bo'lim sifatida ilk bor 20 asrning 40 yillarida shakllangandi. Olim o'zining ilmiy kitoblarida so'z yasalihi bo'yicha o'z fikr va muloxazalarini aytib o'tgan. "O'zbek tilida so'z yasalihi yo'llari xaqida" nomli maqolasi bu muammoga doir bir qator masalalar o'sha davrdagi tilshunoslik nazariyasi qo'lga kiritilgan yutuqlari asosida ilmiy echimini topdi[6].

O'zbek tilshunosligida so'z yasalihi masalalarini o'rgangan olimlardan yana biri A.Xojiev bo'lib u o'zining "So'z yasalihi tizimi, "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalihi nazariyasi masalalari" kitobida so'z yasalihi aloxida soxa sifatida morfologiyadan ajratilgan xolda o'rganilishi ma'qullamadi[3].

O'zbek tilshunosligida so'z yasalihi o'rgangan olimlardan yana bir olim Y. Tojiev. U o'z "O'zbek tili morfemikasi" kitobida xam so'z yasalihi va shakl yasalihi xaqida aytib o'tilgan va ko'p bo'g'inli xozirgi o'zaklarning ko'pi tarixiy jixatdan taxlil qilinganda, ikki yoki undan ortiq morfemalardan iborat ekanligini aytib quydagi misollarni keltiradi: yomg'ir (yog'-im-ir), yostiq (yot-siq), qishloq (qish -qis- la- q), teskari (tes- ga- ru) va boshqalar[5].

So'z yasalihi xozirgi va tarixiy jixatdan solishtirgan tilshunos olimlardan yana biri G'. Abduraxmonov "Qadimgi turkiy til" kitobida xozirgi o'zbek tili morfologiyasi xamda qadimgi turkiy til morfologiyasini quydagicha xulosalab bergan va ularni quydagicha izoxlaydi: 1. Xozirgi zamon morfemalari qadimgi turkiy til tildagiga nisbatan miqdori ko'p va mazmunan boy. 2. Xozirgi o'zbek tilida bor bo'lgan yoki aloxida element sifatida o'qilmagan morfemalar xam bor. 3. So'z va forma yasovchi chet el morfemalari yo'q. 4. Murakkab morfemalar juda kam[1].

Shu o'rinda Alisher Navoyining 1499 yilda yozib tugatilgan "Muxokamat ul lug'atayin" asarida xam yasama so'zlar xaqida aytib o'tganunga ko'ra chi affiksi mansab nomlarini yasashi xaqida: qurchi. Suvchi, xazinachi, yurtchi, jebachi, yorg'achi, xolvachi, qo'ychi, kiyikchi kabi so'zlar. Bizga ma'lumki, Navoyining ushbu asari ikki tilni solishtirgan xolda turk tilining leksik, morfologik va boshqa imkoniyatlari fors tilidan qolishmasligini bir qancha misollar yordamida isbotlagan[6].

Tahlil va natijalar. Til bu insoniyat tajribalarini va bilimlarini keyingi avlodga etkazib beruvchi asosiy vosita xisoblanadi. O'zbek tilshunosligida ko'p so'zlar tarmoqlar terminologiyasi orqali urganilgan va etarli tajribalar to'plangan, qator soxalar terminlari ilmiy taxlildan o'tkazilgan va ularning o'zbek adabiy tilidagi o'rni tasvirlab berilgan. Ammo bizni qiziqtirayotgan dorivor o'simliklar nomlanishi barcha tadqiqotlardan o'tilgan va urganilgan degan xulosaga kelmadik.

Shu sabab, o'zbek tilidagi o'simlik nomlarini tizimli tadqiq etish maqsadga muvofiq deb topildi va ularni quydagi leksik semantik guruxlarga ajratilgan xolda o'rgandik:

- daraxtsimon;
- butasimon;
- yarim butasimon;
- o'tsimon.

Ushbu guruxlar o'z ichiga yana kichik guruxlarga bo'linadi va ular o'simlik nomlarining turlarini bildiradi. O'simlik nomlari qadimgi davrlardan boshlab xozirgacha qo'llanilib bir nechta usullar orqali xosil qilinadi. O'zbek tilida o'simlik nomlari uch xil yo'l bilan yasaladi, ular morfologik, sintaktik va semantik usullaridir. O'zbekiston xududida uchraydigan dorivor o'simlik nomlari tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, takror shakllarida uchraydi[7].

O'zbek tili lug'at tarkibi ilmiy urganishlar va taxlillar natijasida murakkab rivojlanish bosqichlarni boshidan kechirganligi aniqlandi. Til lug'at tarkibini tarixiy etimologik nuqtai nazardan tekshirganda, avvalo, o'zbek tilining genetik

jixatdan turkiy tillaga mansubligi aniqlangan. Bunday so'zlar o'zbek tili leksikasining asosiy negizini tashkil etuvchi qadimgi qatlamdir[2]. Ba'zi bir o'simliklarning kelib chiqishi va shakllanishlarini ko'rib chiqdik:

Archa- «sarvlar oilasiga mansub, ignabargli, doim yashil daraxt». Yangi yil bayramiga o'rmondan archa kesib kelinadi. Bu ot qadimgi turkiy tilda sarv daraxtining bir turini anglatgan ard so'zidan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi cha qo'shimchasi bilan hosil qilingan; keyinchalik qator kelgan ch undoshdan (rdch) oradagisi aytilmaydigan bo'lgan; o'zbek tilida a unilari a unililariga almashgan: (ard-cha-ardcha→ archa→ archa).

Isiriq- "ko'p yillik dorivor o't". Qir yon bag'irlarida isiriq ko'p o'sadi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "hid tarat" ma'nosini anglagan is fe'lining (i)r orttirma qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan (i)q qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lgan kerak: (is -i-ir-isir-) + iq = isiriq.

Ismaloq- "bargi ovqatga solinadigan isli ko'kat". Ismaloq somsadan to'yib edim. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "hid tarat" ma'nosini anglatgan is- fe'lining eski o'zek tilida kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -la qo'shimchalari bilan hosil qilingan shaklidan -q qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, "is taratib truvchi ko'kat" ma'nosini bildirgan; -q qo'shimchasi qo'shilish ilan undan oldingi a unlisi a unlisiga almashgan: (is-+m a = ism a -) la =ismala +q =ismalaq

Itog'iz -guli itning og'ziga o'xshash bir yillik o'simlik. Hovlida itog'izlar gullab yotibdi. Bu ot it ag'zi birikmasi tarkibidagi i egalik qo'shimchasini tashlab, ag'zi so'zi tarkibidagi i unlisini tiklab, it so'zga birlashtirish bilan yuzaga kelgan: it ag'zi→ itag'iz

Yantoq -dukkaklilarga mansub tikanli o't. Qurtilgan yantoq qishda qo'yga ham juda yaxshi ozuqa o'ladi. Bu ot qadimgi turkiy tilda "alanga ol" ma'nosini anglatgan yan fe'lidan daq qo'shimchasi bilan yasalgan deb taxmin qilinadi. Bu ot asli yan fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -da (-la) qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinroq d undoshi t undoshiga, o'zbek tilida birinchi bo'g'inidagi a unlisi a unlisiga, q undoshi oldidagi a unlisiga a unlisiga almashgan: (yan -da(≤la)- yanda-) q = yandaq →yantaq).

Yaproq -"o'simlikning quyosh nuri yordamida oziqlanish a'zosi" barg. Daraxt yaprohi bilan ko'rkam, odam mehnati bilan (maqol). Bu ot qadimgi turkiy tilda "qopla" ma'nosini anglatuvchi -yap fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -(u)r qo'shimchasi bilan qo'shib hosil qilingan shakliga -g'a qo'shimchasi qo'shib yasalgan va unga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -q qo'shimchasi qo'shilgan: (yap+ ur= yapur)+ g'a= yapurg'a +q =yapuraq; →yapuraq); oxirgi o'zbek tilida birinchi bo'g'inidagi a unlisi a unlisiga, -q undoshi oldidagi a unlisi a unlisiga almashgan: yapraq→ yapraq.

Yasmiq "dukaklilar oilasiga mansub o'simlik va uning doni". Onam bugun yasmiq shavla pishiribdi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "sathi yoyil" ma'nosini anglatgan -yas fe'lidan -muq qo'shimchasi bilan yasalgan; o'zbek tilida -a unlisi -a unlisiga, ikkinchi bo'g'inidagi -u unlisi -i unlisiga almashgan; yas-+ muq= yasmuq >yasmiq.

Yo'ng'ichqa -bedaning bir turi. Yana sho'r err chopdik yo'ng'ichqaning ildizini sug'urdik (Oydin). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot yur'mchga (Devon, 3,439), yur'mchqa tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tiliga keyingi shakli quydagi tovush o'zgarishlari bilan etib kelgan: qator kelgan uch nchq undoshlarini aytishga qulaylik yaratish uchun nch undoshlari oraliqiga ы unlisi kiritilgan, keyin ы tovushlari talaffuz etilmay qo'ygan, n undoshi n undoshiga, n undoshi o'z navbatida ng' undoshiga, a unlisi a unlisiga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan:

yoqymchqa> yoqymychqa> yoqychqa> yong'ychqa> yong'ichqa.

Yo'sin- "zax er, tosh, daraxt ustida o'sadigan mayda o'simlik". Katta tosh ustini yo'sin qoplad. Bu so'z asli yosun tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tilida u unlisi i unlisiga almashgan: yosun >yosin. Bu so'z tarkibida ot yasovchi un qo'shimchasi mavjudligi ko'rinib turibdi, lekin yasash asosi bo'lib kelgan so'z (fe'l) aniq emas. Bu so'z "nam xolatda bo'l" ma'nosini anglatgan fe'l bo'lsa kerak, chunki bu o'simlik nam joylarda paydo bo'ladi.

Kakra g'alla ekinlari orasida o'sadigan taxir, talxa o'simlik. Ariqning narigi yonida kakra, supurgi...yana allaqanday yovvoyi o'tlar g'ovlab yotar edi (Asqad Muxtor). Bu ot qadimgi turkiy tilda kekra, kekra(Devon,1, 398) tarzida talaffuz qilingan: o'zbek tilida e unlisi a unlisiga almashgan: kekra > kakra.

Kepak- "donning un qilinganda ajraladigan ustki qobig'i". Ivtitilgan somonga kepak qo'shib tert qordi. Bu so'z qadimgi turkiy tildagi qolip ma'nosini anglatgan kip otining kep shaklida kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -ak qo'shimchasi bilan hosil qilingan; kep+ ak =kepak.

Ko'kat o'sib turgan o't o'lan. Xushbo'y mevalar, ayniqsa ko'katlar, turli nav sabzavotlar juda mo'l yog'ildi(Oybek). Bu ot o'zbek tilida "kashnich, ukrop, barra piyoz kabi o'simlik" ma'nosini anglatuvchi kok otidan a qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga t qo'shimchasini qo'shib yasalgan; (kok +a =koka+ t =kokat). Bu so'zni kok ot so'zlaridan tarkib topgan, bu so'zlar bir so'zga birlashganidan keyin ikkinchi bo'g'indagi o unlisiga almashgan deb talqin qilish ham mavjud.

Pichan "o'rib quritilgan o't, xashak". Jangchilarning ko'pi...qalin pichan ustiga yumalab uxlab qolishdi(Oybek). Bu ot qadimgi turkiy tilda -kes, -o'r ma'nosini anglatgan bich-fe'lidan -(a)n qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik b undoshi p undoshiga almashgan:(bich- + an= bichan> pichan).

Tariq "donini oqla, so'k olinadigan boshqoli o'simlik". Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas (maqol). Bu ot qadimgi

turkiy tilda "ekin maydon" ma'nosini anglatgan tar otidan -y qo'shimchasi bilan yasali, "ekin ek-" ma'nosini anglatgan fe'lga g' qo'shimchasini qo'shib yasalgan (Devon, 1,354). Keyinchalik o'zbek tilida so'z oxiridagi g' undoshi q undoshiga, a unlisi a unlisiga almashgan, y unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: (tar +y= tarı)+ g' =tarıg'> tariq. Bu ot dastlab donning barcha turlarini bildirgan, keyinchalik ma'noda torayish, xoslanish voqe bo'lib, don ekinining faqat shu bir turini anglatga boshlagan.

Tikanak- "tikanli o'simlik". Cho'qqining o'rta erida tikanak va archa cho'kirtaklaridan yoqilagan bolalarning quvonchi yana qanotlandi(Hakim Nazir). Bu so'z asli tikan otidan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -ak qo'shimchasi bilan hosil qilingan: tikan+ak= tikanak.

Tol ingichka uzun bargli mevasiz daraxt. Yomon arida bol bo'lmas, suvsiz erda tol bo'lmas (maqol). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli tal tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tilida a unlisi a unliga almashgan: tal >tal.

Shumtol Yog'och qattiq, bargi patga o'xshash daraxt. O'rmon zonalarida chinor, zarang, shimtol, oq qayin, do'lana uchraydi. Gazetadan.

Evkalipt (yun. Eu yaxshi, kalyptos qoplangan) Avstraliyada o'sadigan bo'yi baland, yog'ochi qattiq va mustaxkam, barglari efir moyiga boy, doim yashil daraxt.

Eman yog'ochi oqish va juda qatti, keng yaproqli, jigarrang uzunchoq mevali daraxt, dub. Eman daraxtining-egilgani singani, Er yigitning uyalgani- o'lgani. Maqol. Eman stol[8].

Xulosa. O'simlik nomlarining leksik xususiyatlarini o'rganish muximdir. Shuning uchun biz o'simlik nomlarining leksik xususiyatlarini xamda xar bir tur, turkum, oila va boshka oliy tabaqadagi birliklarning nomini, shuningdek, ularni bir biridan tafovut qiluvchi nomini aniq va tuliq tavsifini berishga xarakat qildik.

ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф. Кадимги туркий тил. Тошкент.1982. Ўқитувчи.26-бет.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Toshkent: Fan, 1985;
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: «Ўзбекистон»,194.б.
4. Мирзиёев Ш.М. ЎзР ПҚ-4670-сон 10.04.2020. Ёввойи ҳолда ўсuvчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида (lex.uz) (электрон ресурс). Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.04.2020 й., 07/20/4670/0414-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.10.2021 й., 06/21/6320/0940-сон; 21.12.2021 й., 06/21/36/1175-сон)
5. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси.Тошкент.1992.19 бет.
6. Тусунов У. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Т., "Ўқитувчи"нашриёти, 2010, 35-бет.
7. Ходжиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими, Т., "Ўқитувчи" нашриёти, 2007, 4-бет.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Т., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-, 2-, 3-, 4-, 5-jild. 2006.



UDK:811.2

Диёра ЮНУСОВА,

Самостоятельной соискатель Самаркандского государственного института иностранных языков

E-mail: diyray@bk.ru

На основании отзыва доцента УзМУ И.Усарова

SYNTAXEM ANALYSIS OF SUBORDINATE CLAUSES WITH RELATIVE PRONOUNS

This article highlights the issue of subordinate clauses in modern English. Despite the differences in approaches to the description of subordinate clauses and methods for their study, works devoted to complex sentences, one way or another, are based on the idea of a clause as an analogue of a member of a simple sentence: additional, attributive, adverbial, subject, predicate clauses are distinguished. Their further differentiation is carried out on a semantic basis.

Key words: Subordinate clauses, complex sentences, relative pronouns, secondary members of a sentence, semantic categories.

СИНТАКСЕМНЫЙ АНАЛИЗ ПРИДАТОЧНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ С ОТНОСИТЕЛЬНЫМИ МЕСТОИМЕНЯМИ

В данной статье освещается вопрос о придаточных предложениях в современном английском языке. Несмотря на различия в подходах к описанию придаточных и методах их изучения, работы, посвященные сложноподчиненным предложениям, так или иначе, базируются на представлении о придаточном как аналоге члена простого предложения: выделяются придаточные дополнительные, определительные, обстоятельственные, подлежащные, сказуемые. Дальнейшая их дифференциация осуществляется по семантическому признаку.

Ключевые слова: Придаточные предложения, сложноподчиненные предложения, относительные местоимения, второстепенные члены предложения, семантические категории.

NISBIY OLMOSHLI ERGASH GAPLARINING SINTAKSEM TAHLILI

Ushbu maqola zamonaviy ingliz tilidagi tobe bo'laklar masalasiga urg'u beradi. Tobe bo'laklarni tavsiflashda yondashuvlar va ularni o'rganish usullaridagi farqlarga qaramay, murakkab jumalarga bag'ishlangan asarlar u yoki bu tarzda, gapning oddiy gap a'zosining analogi sifatidagi g'oyasiga asoslanadi: qo'shimcha, atributiv, ergash gap, predmet, ergash gaplar ajratiladi. Ularni keyingi farqlash semantik asosda amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: Ergash gaplar, murakkab gaplar, nisbiy olmoshlar, gapning ikkinchi darajali bo'laklari, semantik kategoriyalar.

Введение. В современных лингвистических исследованиях, как отмечает А.А Уфимцева, «нет единого понимания и преемственности в определении основных семантических категорий: знак, значение, смысл, значимость, типы языковых значений, абсолютные и относительные семантические значимости и т.п. [Уфимцева,1976,32]

При синтаксемном анализе «..в понятиях главных и второстепенных членов предложения по существу объединяются разнородные синтаксические единицы, имеющие свои содержательные и формальные признаки: с одной стороны синтаксемы, из которых первое образуют поверхностную структуру предложения, вторые- его глубинную структуру» [Мухин.1964,22-23].

Действительно, последовательные различение этих двух родов элементарных синтаксических единиц имеет далеко идущие последствия. В нашей работе различение этих двух видов элементарных синтаксических единиц, даёт возможность изучить элементарные синтаксические единицы поверхностной и глубинной структуры придаточных предложений с относительными местоимениями в единстве их содержательных и формальных особенностей. При этом к содержательным особенностям синтаксем относятся синтаксико-семантические признаки элементарных синтаксических единиц в структуре придаточных предложений с относительными местоимениями.

Анализ литературы по теме. В отечественной лингвистике особое внимание стали уделять изучению содержательных синтаксических категорий в рамках семантического [Подучева,1981; Арутюнова, 1976; Селиверстова, 1990], функционального [Слюсарева,1981], коммуникативного синтаксиса [Золотова,2001; Всеволодова,1997] функциональной грамматики [Бондерко,2001]. В зарубежной лингвистике также существует разнообразие подходов к анализу семантики предложения-высказывания и его содержательных характеристик: падежная грамматика [Palmer, 1994; Филмо.Ч,1999] генеративная семантика [Лакофф Дж.1996], и многие другие. Очевидно, что в фокусе исследования лингвисты помещают предложение как особую номинативную единицу с ее различными структурными уровнями.

Методы исследования. В статье использованы следующие научно-исследовательские методы: описательный, дистрибутивный, трансформационный (разных видов), метод моделирования, компонентный и синтаксемный анализ сложноподчиненных предложений с относительными местоимениями.

Стремление к систематизации синтаксиса выразилось в описании типизированных элементов смысла в виде структурных схем предложения. В результате был представлен перечень моделей предложения, основная задача которого заключалась в сведении всего

многообразия предложений к ограниченному числу отвлечённых образов [Фурс, 2009]

Несмотря на это т.е имеется столько подходов к изучению структуры предложения но наш лингвистический подход к изучению придаточных предложений с относительными местоимениями отличается от выше указанных. Мы ограничиваемся с изучением компонентный состав и выявить дифференциальные синтаксико-семантические признаки синтаксических единиц в структуре придаточных предложений с относительными местоимениями.

Нами понимается, на синтагматическом уровне языка синтагматика в горизонтальном направлении определяется синтаксические связи между элементарными синтаксическими единицами устанавливается дифференциальные синтаксические признаки лексические единицы в структуре предложений и их морфологические способы выражения или иными словами компонентный анализ предложений. Что касается понятия парадигматика в вертикальном направлении выявляется дифференциальные синтаксико-семантические признаки синтаксических единиц исходя из одинаковой синтаксической позиции разных предложений и определяется их варианты. Так это называется синтаксемный анализ предложений.

Выводы и предложения. Необходимо отметить, что А.М Мухин в своем докладе «Морфологические и синтаксические категории» обратил внимание на разграничении синтаксические и морфологические категории и пишет «..с одной стороны элементарные морфологические единицы-морфемы, выделяемый в той или иной части речи (например, морфемы времени в структуре глагола), с другой-элементарными синтаксические единицы синтаксемы, которые выделяются в их противопоставленности друг другу в парадигматическом плане в позиции того или иного компонента» [Мухин, 2001,51] Одновременно было указано и на широкое взаимодействие многих категорий в области синтаксиса, которое проявляется в том, что синтаксемы одной категории совмещают в себе синтаксико- семантические, или, короче, сигментические, признаки, характерны для других категорий. Так, агентивная категория включает в себя наряду с собственной агентивной синтаксемой и агентивную акциональную, а также агентивные стативную и качественную, которые вместе с некоторыми другими синтаксемами при общности у них признака агентивности образуют единый оппозитивный ряд. Короче говоря, каждая синтаксема (некатегориальные дифференциальные синтаксико-семантические признаки) является синтаксические категории.

ЛИТЕРАТУРА

1. Мухин А.М. Структура предложений и их модели. -Ленинград. Наука, 1968.-230с.
2. Мухин А.М. Модели внутренних синтаксических связей предложений//Вопросы языкознания. -Москва, наука, 1970. №4.-С69-80.
3. Усманов Ё.У. Методические рекомендации по теории синтаксического анализа нулевых элементов в структуре неполных предложений в английской диалогической речи. Самарканд: Сам ГПИ, 1990.-90с.
4. Усманов Ё.У., Кувейсинова Д.Т. Позиционные возможности личных местоимений в структуре предложений английского языка//Тил ва нутқ систем сатҳ талқинида, халқаро илмий-назарий конференция материаллари. - Самарканд, Сам ДЧТИ, 2005.-С.55-59.
5. Aminovna Y. D. Minimum Unit of Speech (Sentence and Phrase) //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2021. – Т. 7. – С. 1-3.
6. Yunusova D. A. The need to introduce pedagogical technologies to the process of training //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 1-5.